

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR
MAHKAMASI HUZURIDAGI
ISLON SIVILIZATSIYASI MARKAZI**

G.T. Tulemetova, O‘. M. Hasanboyev

Dinshunoslik

daralik

(5120600 - Dinshunoslik)

TOSHKENT 2020

Dinshunoslik. Darslik; ikkinchi – to‘ldirilgan va qayta ko‘rilgan matn. – Toshkent -2020.-312 b.

Mualliflar: falsafa fanlari nomzodi, dozent G.T. Tulemetova, O‘.M. Hasanboyev

Mas’ul muharrir: Sh. Minovarov

Taqrizchilar: tarix fanlari doktori, prof. M.M. Ishoqov

tarix fanlari doktori, I.I. Bekmirzaev

tarix fanlari doktori, N.X. Oblomurodov

Mazkur darslik Oliy va o‘rta mahsus ta’lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdagi 744-sonli buyrug‘i bilan ma’qullangan “Dinshunoslik“ fani dasturi asosida tayo‘rlandi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 19 mart 2020 yil sanasidagi № 2091 xulosasi asosida to‘g‘rilandi.

Darslik 4 moduldan iborat. Birinchisi – dinshunoslikka kirish, qolgan uchta modul milliy va jahon dinlarni yanada chuqurroq o‘rganishga xizmat qiladi, jamiyat ma’naviy hayotida dinning tutgan o‘rni, uning turli shakllari, ta’limoti, yo‘nalishi va oqimlari, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik tamoyillari, diniy dunyoqarash, O‘zbekistonda din va diniy tashkilotlar faoliyati, din niqobidagi radikal diniy oqimlar, shaxs tarbiyasida milliy va diniy qadriyatlar uyg‘unligi masalalarini qamrab olgan.

Mazkur darslik 5120600 - Dinshunoslik mutaxassisligi barcha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun tavsiya etilgan, hamda dinning falsafiy, ijtimoiy va psixologik jihatlariga qiziquvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI	4
Ish turlari reyting-modul tizimi bo‘yicha baholash	6
I - MODUL. DINSHUNOSLIKKA KIRISH	
1.1. Dinshunoslik faniga kirish	8
1.2. Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari	54
II – MODUL.	
DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI VA ETNIK-LOKAL DINLARI	
2.1. Dinning ibtidoiy shakllari	78
2.1. Milliy dinlari	93
III - MODUL. JAHON DINLARI	
3.1. Buddizm	129
3.2. Xristianlik	143
3.3. Islom dini	161
3.4. Islom ta’limoti	177
IV- MODUL. JAMIYAT VA DIN	
4.1. Xalqimizning ma’naviy yuksalishida dinlarning o‘rni	206
4.2. O‘zbekistonda vijdon erkinligi	222
4.3. Diniy mutaassiblik va ekstremizmga qarshi mafkuraviy kurash: O‘zbekiston tajribasi	232
Adabiyotlar va elektron-ta’lim resurslari	267
Glossariy	279
Ilovalar	306
Shartli qisqartmalar	312

SO‘ZBOSHI

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish zaruriyati “Dinshunoslik” darsligining ikkinchi nashri yaratilishiga sabab bo‘lgan Dinshunoslik fanini o‘rganishning dolzarbligi dinlar xususiyatlarini bilish, u bilan bog‘liq ma’naviy madaniyat va ijtimoiy hayot to‘g‘risida yaxlit tasavvur olish imkonini berishi bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2017-yilning boshida “Dinshunoslik” fani bo‘yicha barcha ta’lim bosqichlari uchun yangi formatdagi o‘quv dasturlari va darsliklarni yaratishga hamda yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash ishlariga muhim e’tibor qaratildi. “Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga jaholat va murosasizlik tashkil etadi”, – deb ta’kidladi davlatimiz rahbari BMTning 72-sessiyasidagi nutqida va yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. 2018-yil 12-dekabrda BMT Bosh Assambleyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi. Yoshlarning tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa qilib belgilandi: “ko‘p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o‘rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhitni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi”¹. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalasi ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish vazifasi bilan hamda internetning tahdidlaridan himoyalash bilan bog‘liq. 1990-yillardan boshlab din kibermakoni o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etmoqda. Radikal diniy tashkilotlarning saytlari ko‘p incha dinlararo ziddiyatlarni kuchaytiruvchi virtual munozaralar platformasiga aylanib bormoqda. Dunyo dinlari haqidagi bilimlarga ega salohiyatli dinshunoslarni tayyorlash yoshlar ongini ekstremistik g‘oyalar bilan zaharlanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo dinlari masalalari borasida ta’lim berish jamiyatda bag‘rikenglik muhitini yaratishning muayyan vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu

vazifalar O'zbekistonning 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasida o'z aksini topgan².

O'rta asrlar Sharqi islom dinini o'rganish sohasida boy ilm to'plagan, shu bilan birga diniy manbalarni qiyosiy tadqiq etish tajribasini orttirgan. Bu yuqori salohiyatli dinshunoslar tayyorlash uchun muhim ahamiyatga ega. Islomofobiya ortib borayotgan bir vaqtda islomning haqiqiy insonparvarlik mohiyatini, uning insonparvarlik asoslarini dunyo hamjamiyatiga yetkazish zaruriyati ham ortmoqda. Ma'rifatli din to'g'risidagi bilimlarni tarqatish zo'ravon ekstremizm va diniy fanatizmga qarshi kurash vositasi bo'lishi mumkin. Prezidentimiz 2019-yil 15-iyunda Dushanbeda bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha Kengashning beshinchi sammitidagi nutqida dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash, ma'rifat va madaniyatlarni o'zaro boyitish masalalari tizimli muloqotni yo'lga qo'yishni taklif qildi. Xususan, Toshkentdagi O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buning uchun samarali platforma bo'lib xizmat qilishi mumkinligini ta'kidladi³. Dindorlar uchun din ma'naviy ehtiyojlari va vijdon erkinligi huquqlarining qondirilishi omilidir. Biror dinga nisbatan betaraf kishi uchun din ma'naviy qadriyatlar va diniy san'at bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Diniy qadriyatlar, axloq va huquq normalariga mos marosimlarda ishtirok etish xalqimizning birdamligi, xayrli an'analarini his qilishga imkon beradi.

Bir darslikda din sohasining hamma jihatlarini to'liq qamrab olishning iloji yo'qligi ma'lum, shunday bo'lsa-da, mualliflar tomonidan dinshunoslik fanini sodda usulda to'la yoritishga imkon qadar harakat qilindi.

Ushbu darslik mualliflari o'z materiallari va tavsiyalari bilan uni mukammallashtirishga yordam bergan barcha insonlarga minnatdorchilik izhor etadilar.

Ish turlari reyting-modul tizimi bo'yicha baholash

№	Nazorat shakllari	Majburiy/rag'batlantiruv. ishl.	bal
1	Ma'ruzaga oid nazorat	Majburiy	5
2	Auditoriya testlari	Majburiy	5
3	Auditoriyadan tashqari testlar (o'quv saytida o'z-o'zini nazorat qilish)	Majburiy	5
4	Mavzu bo'yicha nazorat ishi	Majburiy	5
5	Modul' bo'yicha nazorat ishi	Majburiy	40
6	Uy vazifalari: ijodiy topshiriqlar, savollarga javoblar	Istakka ko'ra, o'qituvchi nazorati ostida	5
7	Esse yozish (1-2 bet)	Istakka ko'ra, o'qituvchi nazorati	10
8	5 daqiqalik mustaqil tayyorlangan taqdimot bilan chiqish	Istakka ko'ra, o'qituvchi nazorati ostida	30
9	Talabalar to'garaklari, ilmiy jamiyatlari va sh.k. ilmiy ijod	Istakka ko'ra, o'qituvchi nazorati ostida	40

Reyting-modul tizimi bo'yicha bilimlarni baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Joriy nazorat	Oraliq nazorat	Yakuniy nazor.	Jami
	2- JN	1- ON	1-YaN	
Og'zaki, yozma, modul' dasturga topshiriqlarni komp'yuterdan bajarish	Ma'ruzalar, referatlar, taqdimotlardagi chiqishlar, case study muhokamalari, kichik guruhlardagi munozaralar, tez fikrlash musobaqalari, adabiyotlar sharhi, manbalarga annotasiyalar tuzish	Mustaqil ish, referat himoya, oralik nazorat testlari, tarqatma materiallar yuzasidan ish, oralik testlar, ijodiy topshiriqlar	Yakuniy nazorat ishi	
Ballar	40	30	30	100
86 - 100	71 – 85	55 – 70	55 dan kamroq	
A'lo	yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz	

Bilimlarni baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Sinaldi a'lo A (91-100)	Sinaldi yaxshi B(81-90) C (71-80)	Sinaldi qoniqarli D(61-70) E (51-60)	Sinovdan o'tmadi Qoniqarsiz FX (31-50)	Qayta topshiradi Qoniqarsiz F(0-30)
Tushunchalar, kategoriya-larni egallagan-ligi	Asosiy tushunchalar va toifalar o'zlashtirilgan	Tushunchalar o'zlashtirilgan, biroq ba'zan noaniq	Tushuncha va toifalar aniq o'zlashtirilmagan	Asosiy tushunchalar va toifalar o'zlashtirilmagan	Eng oddiy tushunchalar va toifalar o'zlashtirilmagan
Ilmiy faktik materialni bilishi	Zarur ilmiy materialdan erkin foydalanadi	Materialni bayon etishda noaniqliklar bor	Mavzuda noaniqlik, zarur faktlar tushirilgan	Asosiy faktik materialni bilmaydi	Eng oddiy faktik materialni bilmaydi
Tahlil, umumlashtirish qobiliyati	O'quv material mustaqil ilmiy tahlil qilinadi	Material mustaqil ilmiy tahlil qilinadi, ammo bor noaniqlik, noizchilik	O'quv materialini tahlil unsurlari bilan aytib bera oladi	O'quv materialni tahlilsiz aytib beradi	O'quv materialini tahlilsiz, xato aytib beradi
Kursning o'quv va qo'shimcha adabiyotini bilishi	Darslikni o'zlashtirgan, asosiy adabiyotlarni biladi	Darslik materialini va asosiy adabiyotlarni biladi	O'zlashtirgan, asosiy adabiyotlarni biladi	Darslikni va asosiy adabiyotlarni bilmaydi	Darslikni, asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni bilmaydi
Fan materiallarining to'liq yoritilishi	Fan materialini erkin o'zlashtirgan, barcha savollarga javoblar asoslangan	Fan materialini erkin o'zlashtirgan, javoblarni asoslashda kamchiliklar bor	Fan materialini o'zlashtirgan, javoblarni asoslashda kamchiliklar bor	Fan materialini sust o'zlashtirgan, asoslangan javoblar yo'q	Fan materialini o'zlashtirmagan, asoslangan javoblar yo'q
Test vazifalarining baholanishi	Javoblar-ning 80% dan ko'prog'i to'g'ri	Javoblar-ning 80% gachasi to'g'ri	Javoblar-ning 60% gachasi to'g'ri	Javoblar-ning 50% gachasi to'g'ri	Javoblar-ning 50% dan kamrog'i to'g'ri

I - MODUL. DINSHUNOSLIKKA KIRISH

1.1. Dinshunoslik faniga kirish

Mazmun. *Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi. Dinshunoslik fanini o'rganishning jamiyat barqarorligini mustahkamlash, diniy bag'rikenglikni tarbiyalash, vijdon erkinligini ta'minlashdagi ahamiyati. Dinshunoslikda shakllangan ilmiy maktablar va yondashuvlar: mifologik, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar.*

Dinshunoslik fanining predmeti	Har qanday fan kabi dinshunoslikning ham predmeti bor, u ham bo'lsa din va diniy e'tiqod,
---------------------------------------	---

insonning Xudo va uning boshqa ilohiy kuchiga ishonishidir. Inson hayotining noyob hodisasi bo'lmish din benihoya ko'p qirrali va murakkab hodisa bo'lib, turmushning hamma sohalariga, avvalo, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalariga singib ketadi. Shu sababli dinni insoniy munosabatlarning murakkab tizimidan ajratib bo'lmaydi, uni alohida, mustaqil hodisa, deb hisoblash to'g'ri emas. Mana shu jihatlarning hammasi uni tadqiq qilish jarayonini murakkablashtirishi tabiiy. Din insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayoniga katta ta'sir o'tkazib keldi va o'tkazmoqda. U ko'p qirrali va teran hodisadir.

Dinshunoslik haqidagi ma'lumotlarni moddiy va ma'naviy manbalardan olinadi: diniy-madaniy yodgorliklar (masalan, ibodatxonalar), muqaddas matnlar, diniy ta'limot va ko'rsatmalar, an'analar, individual-psixologik va ijtimoiy guruhlarga oid diniy tafakkur, axloq, tajriba, diniy tashkilotlar va muassasalar. Ta'limyo'nalishi bo'lmish dinshunoslik dinni o'qitish metodologiyasini o'rganadi.

Din va san'at. Dinshunoslik ilmi fanlararo xarakterga ega. Din san'atning barcha shakllari bilan uzviy bog'langan: adabiyot, me'morchilik, musiqa va h.k. San'at inson ma'naviy hayotini boyitadi, ezgu tuyg'u, niyatlarni uyg'otadi, bag'rikenglikni ta'minlaydi. Diniy mifologiya syujetlari buyuk shoirlar,

dramaturglar ijodiga va yana ko‘plab ijodkorlar asarlariga singib ketgan. Masalan, A.Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoniga (XV asr), Endryu Lloydning “Iso Masih – super yulduz” rok-operasiga (XX asr), Esxilning “Kishanlangan Prometey”, Sofoklning “Shoh Edip”, Evripidning “Medeya” (milod. avv.V-IV) tragediyalariga. Afsonaviy asarlarda aks ettirilgan baxt va adolat izlash, muhabbat va xiyonat, gunoh va qurbon kabi abadiy mavzularda ko‘p gina san’at asarlari yaratildi, filmlar suratga olindi, teatr tomoshalari qo‘yildi. Haykaltaroshlar va me’morlar, ayniqsa, jozibador san’at asarlari yaratishdi. Qadimiy yunon haykaltaroshi va me’mori, qadimgi klassik davrning ulug‘ san’atkorlaridan Fidiyning miloddan avvalgi V asrda yaratgan Olimpdagi Zevs haykali (Afina Parfenos. Oltin va fil suyagi), Markaziy Osiyo hududida Kushonlar podshohligi davrida yaratilgan buddizm me’morchiligi, Sharq Renessans davrida islom obidalari diqqatga sazovordir. Afsuski, jahon mo‘jizalari qatoriga kiruvchi ko‘p gina yodgorliklar hozirgi kungacha saqlanib qolmagan. Omon qolgan ibodatxonalar, maqbaralar ziyoratgohga aylanib, xalq ma’naviy-madaniyatining naqadar yuqori bo‘lganligidan dalolat beradi. Samarqand, Buxoro, Xivadagi mahobatli yodgorliklar UNESCO tomonidan jahon madaniyatining mulki, deb e’lon qilingan.

Yevropadagi ibodatxonalarga Uyg‘onish davrining atoqli rassomlari Leonardo da Vinchi (Madonna, 1483), Mikelanjelo (Odam Atoning yaratilishi, Sikstin kapellasi, Vatikan, Rim, 1508-1512) bezak berishgan. Hozirgi zamondagi atoqli haykaltaroshlar va rassomlar ijodida ham ilohiyotga oid mavzular uchraydi. Masalan, Salvador Dalining Iso Masihga bag‘ishlangan mashhur rasmi (Muqaddas Xuan de la Krus Xristosi, 1951). Buyuk ispan rassomi tomonidan chizilgan Iso Masixning suratida ilgari chizilgan suratlariga qaraganda go‘zallik va xursandchilik ko‘p roq. Iso Masihni aks ettirishning katolik an’anasida asosan, uning azob-uqubatlari o‘z aksini topadi, masalan, M.Gryunevald tomonidan ishlangan Izengeym mehrobi rasmi. Islom estetikasi xattotlik, Sharq miniatyurasi, kitobat san’atida, ayniqsa, Qur’onni bezashda va epigrafikada naqqoshlik san’atida, darveshlar raqsida (samo), me’morchilikda, namoyon bo‘ldi. 12 jildlik “O‘zbekiston

arxitektura epigrafikasi” (2011-2016) tuzuvchilari Shohi Zinda, Amir Temur jome’ masjidi, Registon ansambli kabi dunyoga mashhur yodgorliklardagi, Xiva, Buxoro, Qo’qon va boshqa shaharlarning arxitektura komplekslaridagi yozuvlarga katta e’tibor qaratdilar. Epigraflar tadqiq etilayotgan davrdagi kishilarning dunyoqarashi, ularning hayotiy qadriyatlari, hukmdorlarning maqsadi va xarakteri to’g’risidagi tasavvurlari haqida fikr yuritishga imkon beradi. Masalan, Oqsaroy devorlariga Amir Temurning “Adolat hukmdorlarning shioridir”, degan fikri tushirilgan. O’zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashabbusi bilan 2019-yil 18-may – “Xalqaro muzeylar kuni”ga bag’ishlab O’zbekiston tarixida birinchi marotaba “O’zbekiston islom madaniyati me’morchiligi – rassomlar ijodida” nomli ko’rgazma o’tkazildi. Respublikadagi taniqli rassomlar 100 dan ziyod asarlarida qadimiy va zamonaviy obidalardagi islom-madaniyati me’morchiligini tasviriy san’atning turli janrlari asosida yoritib bergan. Mamlakatimizda milliy madaniyatni yanada rivojlantirishda islom dini qadriyatlari mavqeyini tiklash va uni asrab-avaylash muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga o’zga an’ana va din vakillariga bag’rikenglik bilan munosabatda bo’lish insonning diniy sabr-toqati va madaniyati saviyasini, jamiyatning yuksak ma’naviyatini ko’rsatuvchi belgidir. Bag’rikenglik g’oyasi jamiyatda totuvlik va inoqlik vaziyatini yaratishga ko’maklashadi, ateistlar yoki bir zaminda yashab turgan har xil din namoyondalari bo’lmish turli-tuman kishilarning ezgu maqsadlar sari olg’a siljishini jadallashtiradi.

O’zbekiston dinshunosligining o’ziga xos xususiyati – respublikamizda ham diniy, ham dunyoviy ta’lim sohalarini uyg’unlikda rivojlantirishda amalga oshirilayotgan ishlar, ijtimoiy hayotimizda diniy bag’rikenglik, millatlararo totuvlik tamoyillarini qaror toptirishda qilinayotgan islohotlardan iborat. 2014-yilda “Dinshunoslik” bakalavriat ta’lim yo’nalishining Davlat ta’lim standartida milliy va diniy qadriyatlar uyg’unligiga erishish, dinshunoslik va dinlar tarixiga oid manbalarni mustaqil o’rganish va ularga diniylik va dunyoviylik uyg’unligida baho berish zarurati o’z aksini topgan⁴. 2009-yilda A.Boynazarova “Islom falsafasida diniy va dunyoviy ilmlar uyg’unligi masalasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida

yuqoridagi belgilangan maslaklarga asoslanib “ilm” tushunchasini aniqlagan va unga o‘z mualliflik ta’rifini bergan.

G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika dinshunoslarining fikriga ko‘ra din va fan tomonidan izohlanadigan u yoki bu hodisani baholashdagi tafovutlar avvalo, shundan iboratki, din va fan turlicha vazifalarni hal etishi tufayli dunyoga va insonga har xil nuqtayi nazardan qaraydi. Din bilan fanning asosiy farqi shundaki, din e’tiqodga, fan esa bilimga tayanadi. Din va fan qarama-qarshilikdan iborat bo‘lishiga qaramay, ayni vaqtda ular yaxlit birlikni tashkil qiladi. Fanning ham, dinning ham obyekti bo‘lgan inson ana shu yaxlitlikni birlashtiruvchi negizdir. Dinshunoslik o‘zining teologiya va ateizmdan farq qiluvchi kategorial apparati shakllangunga qadar, uning dinga dunyoviy baho beruvchi yondashuvi ishlab chiqilguncha uzoq va qiyin yo‘lni bosib o‘tdi. Uyg‘onish davrida bu yo‘nalishda birinchi qadam qo‘yildi. Ammo fanning dinni tadqiq qilishga oid huquqi Ma’rifatchilik davri yutuqlari bilan bog‘liq. Nemis dinshunosi G.Frik "Dinshunoslik – ma’rifatchilikning farzandi" deb ta’kidlagan⁵.

Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi

Dinshunoslikning kompleks ilmiy fan sifatida shakllanishi ildizlari qadimdan

boshlangan bo‘lib, u qator olimlar – tarixchilar, faylasuflar, psixologlar, jamiyatshunoslar, tilshunoslarning hamkorlikdagi sa’y-harakatlari mahsulidir. Zamonaviy dinshunoslikning qaror topishida ijtimoiy-gumanitar soha olimlarining fanlararo tadqiqotlari muhim rol o‘ynadi. Odatda diniy muomala jamiyatdagi xalqaro, etnik, konfessiyalararo aloqalar bilan bog‘liq. Din sotsiopsixologiyasi uchun afsonalar, san’at, tarixiy yilnomalar boy material beradi. Ularda davlat va din hamda konfessiyalararo munosabatlar, diniy e’tiqod, hissiyot va amaliyot o‘z aksini topgan.

Din vujudga kelgan vaqt to‘g‘risida ko‘p lab qarama-qarshi fikrlar mavjud. Evolyutsion nazariya vakillari fikriga ko‘ra din fikrlovchi inson bilan birgalikda ibtidoiy jamoada paydo bo‘lgan, so‘ng dinning arxaik shakllari: animizm, sehrgarlik, totemizm, fetishizm murakkablashib bosqichma-bosqich fanga

aylangan. Falsafada dastavval, mifologik ong negizida diniy va falsafiy fikrlash usuli paydo bo'lgan, so'ng xudolar haqidagi tasavvurlar hamda ibodat shakllari, ruhoniylar va diniy tashkilotlar vujudga kelgan, degan fikr ustunlik qiladi. Xuddi shunday fikrlar ko'p incha dinshunoslikning paydo bo'lishi vaqtiga nisbatan ham qo'llaniladi. ko'p chilik olimlar uni XIX asrning ikkinchi yarmi bilan bog'laydilar. Boshqalar esa insoniyat jamiyatida diniy tasavvurlar, ibodatga munosabat, har xil dinlarni qiyoslash, eski va yangi xudolarni bir-biriga solishtirish jarayoni hamma vaqt bo'lgan, deb ta'kidlaydi.

O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Imom al-Buxoriy, Shahrisoniy kabi olimlar dinshunoslik tarixiga juda katta hissa qo'shdilar. Ularning asarlari qiyosiy dinshunoslikning rivojlanishiga sharoit yaratdi, din tarixi va dinshunoslik metodologiyasini boyitdi. Xususan, Beruniy X asrdayoq Veda matnlarini fanlararo yondashuv uslubida tadqiq etdi. Bunda u hozirgi kunda dolzarb bo'lib turgan bag'rikenglik tamoyilini qiyosiy tahlilda ishlatdi. U o'zining "Hindiston" asarida hindlarning diniy aqidalari to'g'ri yoki xatoligini qayd etishni emas, o'sha davrdagi Hindiston dinlari va ibodatlarini tasvirlashni maqsad qilib qo'ydi. Hindlarning e'tiqodlari to'g'risidagi xronologik tanlab olingan va tasniflangan faktlarga sinchkovlik bilan aniqliklar kiritildi, qayta-qayta tekshirildi, bu esa dinlarning qiyosiy-tarixiy tahlil etilishiga imkon berdi. Movarounnahr olimlari tomonidan to'plangan boy tarixiy, arxeologik, filologik materiallar va ularning metodologik bazasi dinshunoslikning alohida mustaqil fan sohasi sifatida vujudga kelishiga asos bo'ldi. Dunyo olimlarining dinlarni o'rganish sohasidagi tadqiqotlari tufayli XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib turli xalqlar va sivilizatsiyalarning e'tiqodlari bilan bog'liq ko'p gina masalalarga oydinlik kiritildi. Ularning asarlari ilm-fan oldiga jahondagi dinlarni kompleks darajada o'rganish, insoniyatning tarixiy rivojlanishida, ma'naviy-axloqiy va ijtimoiy-psixologik sohalarda ularning ahamiyati va o'rnini har tomonlama chuqur baholash muammosini kndalang qilib qo'ydi. Dinlar sohasidagi ana shu barcha ilmiy bilimlar dinshunoslik bilimlarini ixtisoslashtirishga va bir

qator bilimlarning shakllanishiga olib keldi. Shularning natijasida dinshunoslikning quyidagi yangi tarmoqlari vujudga keldi:

- ✓ diniy tajriba, his-tuyg‘u, kechinmalar, dindorlarning diniy ongi, ularning hissiyot va irodalari yo‘nalishini o‘rganuvchi *din psixologiyasi*;
- ✓ inson va madaniyatning rivojlanishi kontekstida dinni o‘rganuvchi *din antropologiyasi*. Shuningdek, diniy ramzlarni o‘rganuvchi *ramziy antropologiya*;
- ✓ diniy institutsiyalar, jamoalar, guruhlar va shaxslararo o‘zaro munosabatlarni tahlil qiluvchi *din sotsiologiyasi* va ijtimoiy antropologiya;
- ✓ diniy ong, diniy tajriba hodisalarini bayon etish, tartibga solish va tahlil etish maqsadiga xizmat qiluvchi *din fenomenologiyasi*;
- ✓ dinlarning mohiyati va ahamiyatini izohlashga, din rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini aniqlashga intiluvchi *din falsafasi* shakllandi.

Bundan tashqari ba’zi gumanitar fanlar ham dinning ayrim jihatlarini o‘rganmoqda. Masalan, strukturaviy lingvistika fani diniy matnlarning ichki bog‘lanishini o‘rganadi. Narratologiya esa diniy tilning janr xususiyatlarini tadqiq qiladi. Kognitivistikani diniy tafakkur va bilish masalalari qiziqtiradi. Germenevtika sohasi qadimiyligi va to‘liq saqlanmaganligi bois ilk ma’nosi mavhum bo‘lgan diniy matnlarni talqin etish, shuningdek, talqin etishning tamoyillarini o‘rganish bilan, paleografiya qadimiy matnlarning yozilgan vaqtini aniqlash, ularning ma’nosini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Epigrafika arxitektura va boshqa yodgorliklardagi yozuvlarning asosiy g‘oyalarini tushunishga imkon beradi. Epigraflar tadqiq etilayotgan davrdagi kishilarning dunyoqarashi, ularning hayotiy qadriyatlarini, hokimiyatning maqsadi va xarakteri to‘g‘risidagi tasavvurlari haqida fikr yuritishga imkon beradi. Doksografiya – qadimgi mutafakkirlarning fikrlari va tasavvurlarini keyingi mualliflar tomonidan bayon etilishi. O‘tmishdagi olimlarning ko‘p lab asarlari yo‘qolib ketgani sababli ularning doksografiyasi bu olimlar uchun dunyoqarash haqidagi bilim manbayi sanaladi.

Yuqorida qayd etilganidek, Abu Rayhon Beruniy X asrdayoq hinduiylik diniy matnlarini qiyoslash amaliyotini bajargan edi. Qiyosiy dinshunoslikning nazariy asoslari esa ma'rifatchilik davrida shakllandi. O'sha paytda Yevropa ilm-fani Sharq dinlarini tadqiq qilishda dastlabki qadamlarni qo'ydi. ko'p lab Yevropa olimlari dunyodagi turli xalqlarning, jumladan, taraqqiyotning ilk pog'onasidagi sivilizatsiyalarning diniy e'tiqodlariga bag'ishlangan ishlarida sayohatchi va missionerlar ma'lumotlaridan foydalanganlar.

Ana shu davrda dinlarning paydo bo'lishi, faoliyati va rivojlanishini tadqiq etishda tarixiy yondashuv vujudga kela boshladi. Bu yondashuvning qaror topishida Kantdan Gegelgacha bo'lgan nemis klassik falsafasi juda katta rol o'ynadi. Ayni mazkur falsafa namoyandalari tomonidan dinni jamiyatning tarixiy rivojlanishidan ajratgan holda tahlil etib bo'lmasligi to'g'risidagi fikr zo'r berib ilgari surildi. Chunki din tarixi insoniyat tarixining jonli hayoti bilan chambarchas bog'liq va undan ajralmasdir.

XIX asr antropologlari va etnograflarining din sohasidagi tadqiqotlari Yevropa dinshunoslik tafakkurini rivojlantirish uchun alohida ahamiyatga ega bo'ldi. Ingliz etnografi, ibtidoiy jamiyat madaniyatining tadqiqotchisi Eduard B.Teylorning (1832-1917) ishlari bu sohada muhim rol o'ynadi. Uning ishlari va din haqidagi fan tamoyillariga asosiy tamal toshi qo'yganlardan biri, golland ilohiyotshunosi, din tarixi va falsafasi doktori Kornelius Tilening (1830-1902) dinshunoslik tamoyillariga bag'ishlangan ishi bu sohada muhim rol o'ynadi⁶.

XVIII asrda va XIX asrning birinchi yarmida ijtimoiy fanlarning yutuq va muvaffaqiyatlari gumanitar bilimning yangi tarmog'i bo'lmish dinshunoslikning qaror topishi uchun mustahkam negiz yaratdi. XIX asrning ikkinchi yarmi Yevropa xristian teologiyasining keskin qarshiligiga qaramay dinshunoslikning rasmiy tan olinishi davri bo'ldi. Bu e'tirofda mashhur ingliz tilshunosi Maks Myuller katta rol o'ynadi. Yevropada uni "dinshunoslikning otasi", deb atashadi. "U, – deb yozgan edi fransuz dinshunosi L.Shantepi de la Sosse – ushbu fanning ahamiyatligiga aksariyat mutaxassislarni birinchi bo'lib ishontirdi". M.Myullerning dinshunoslik

to'g'risidagi ishlari fan ahlining dinni tadqiq qilish imkoniyatiga ega bo'lish, uni cherkovdan farqliroq talqin etish huquqi uchun ko'p asrlik kurashini yakunlab bergandek bo'ldi⁷.

G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerika olimlari dinshunoslikni rivojlantirishga, dinshunoslikning ilmiy bilim tizimidagi o'rnini asoslashga, uning tamoyillari va usullarini, tuzilishi va mazmunini, maqsad va vazifalarini qaror toptirishga muayyan hissa qo'shdilar. Ular orasida tarixchi va faylasuflardan E.Renan, K.Tile, L.Feyerbax, E.Fromm; sotsiologlardan M.Weber, E.Dyurkgeym, psixologlardan U.Djems, K.Yung; etnograf va antropologlardan E.Teylor kabi ilm-fan sohasining namoyondalari bor edi⁸.

Dinshunoslik bilan din falsafasi o'rtasida mustahkam aloqadorlik borligi o'z-o'zidan ravshan va muqarrar, chunki fanda, shu jumladan, dinshunoslikda umumlashmalar qilish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash fanni falsafiy, nazariy darajaga ko'taradi. Keyingi vaqtlarda din futurologiyasi alohida ajralib chiqib boshladi. Bu fan dinning rivojlanish istiqbollarini, din geografiyasini o'rganib, turli dinlarning hududiy tashkil etilishi va ularning tarixiy rivojlanishi to'g'risidagi bilimlarni to'plab, bir tizimga solish bilan shug'ullanadi. Uning fan sifatida ajralib chiqishi nechog'lik dolzarb hodisa, degan savol tug'iladi. Chunki dinlarning rivojlanish istiqbollarini din falsafasi va sotsiologiyasi fanlari juda samarali aniqlab bermoqda, din tarixi esa odatda, turli dinlarning hududiy tashkil etilishi va uning tarixiy rivojlanishi to'g'risidagi bilimlarni jamlab, bir tizimga solish ishlarini bema'lol davom ettirishi mumkin.

Dinshunoslik fanining maqsadi va vazifalari	Dinshunoslik fanining maqsadi – dunyo dinlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berish.
--	--

O'qitishdan maqsad – talabalarda din, uning ma'naviy hayotimizdagi o'rni haqida xolis, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish hamda yuksak ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat. Dinshunos mutaxassislarni pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish dinshunoslikning kasbiy faoliyatiga oid birlamchi vazifasidir. Turli dinlarning

kelib chiqishi, tarixi, taraqqiyoti, ta'limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma'lum xalq hayotida tutgan o'rni haqida umumiy nazariy tushunchalar berish, talabalarda buzg'unchi g'oyalarga qarshi immunitetni shakllantirish, shuningdek, ajdodlar merosini o'rganish asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Dunyo xalqlari madaniyati va urf-odatlariga diniy ta'limotlarning ta'siri, turli dinlar, konfessiyalar doirasida shakllangan falsafiy qarashlar, Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqod qilib kelgan dinlar va ularning xususiyatlarini aniqlash; dinshunoslik sohasiga oid adabiyotlarning bibliografik hamda tarixiy tahlilini amalga oshirishni o'rgatish; jahonda yuz berayotgan zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda diniy omilning o'rnini aniqlash va to'g'ri xulosa chiqara olish qobiliyatini rivojlantirish; internet tarmog'idagi axborotlarni maqsad- mohiyat jihatidan ajrata olish, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalarini o'rganish; dinning jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, uning mazmun-mohiyatini tushuntirish, yoshlarning mafkuraviy immunitetini yuksaltirish hamda dinning asosiy yo'nalishlari, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayotidagi o'rni bilan bog'liq masalalarni o'zlashtirish⁹.

**Dinshunoslik fanini
o'rganishning ahamiyati**

Dinshunoslikni o'rganish diniy tasavvurlar, diniy ibodat va marosimlar, jahon dinlari va asosiy milliy

dinlarning mazmuni va shakllarini tushunib olishga yordam beradi; ijtimoiy fanlar va boshqa yo'nalishdagi talabalarning kasbiy tayyorgarligiga ko'maklashadi. Dinshunoslik talabalarning dini tahlil etish sohasidagi gumanitar bilimlarini oydinlashtiradi; ularning jahon dinlari to'g'risidagi axborotni tushunish, bayon etish va xolisona tahlil etishlariga, dinshunoslik bilimlaridan va fanlararo tadqiqot usullaridan amalda foydalanishlariga yordam beradi. Dinshunoslikni o'rganish jarayoni dunyoqarash va diniy e'tiqodga oid muloqot, munozara va bahslashuv o'tkazish, ommaviy nutq so'zlash ko'nikmalarini rivojlantiradi, mantiq va dalillash mahoratini o'rgatadi; din xususida boshqacha fikrlovchi kishilarning fikrlarini anglashga ko'maklashadi. Bularning hammasi diniy bag'rikenglikni shakllantirish, mustahkamlash, jamiyatda hamjihatlik vaziyatini ta'minlash, turli diniy va

dunyoviy guruh vakillarining o‘zaro munosabatlarini uyg‘unlashtirish omillaridir. Dinshunoslik mutaassiblik, ekstremizm ko‘rinishlarining salbiy oqibatlarini anglab olishga yordam beradi; hozirgi zamon dinlaridagi o‘zgarish mayllarini payqab olishga; davlat va dinning o‘zaro aloqalarini, shaxs shakllanishidagi diniy- axloqiy konsepsiyalarni tushunishga imkon beradi.

Hozirgi paytda dinshunoslikni ham jamiyatdagi dunyoviylik va din masalalari, ular o‘rta sidagi uyg‘unlik, konfessiyalararo muloqot, diniy bag‘rikenglik, ta’lim va tarbiya, gender masalalari qiziqtiradi. Din tarixchilari dinga oid munozaralar, muammolar tahlili asosida muayyan bir zamonda diniy madaniyat va ijtimoiy muhitni ta’riflaydilar.

Dinshunoslikda shakllangan ilmiy maktablar, yondashuvlar va rivojlanish bosqichlari	Dinshunoslik fani mustaqil soha sifatida ajralib chiqishi bilanoq tarix, antropologiya, sotsiologiya, psixologiya, etnografiya, mifologiya, usullarini o‘zlashtirdi, o‘zi ham gumanitar fenomenologiya, filologiya, falsafa va boshqa fanlar bilan birlashib, ularni yangi bilimlar bilan boyitdi. Natijada tarixiy, falsafiy, mifologik, sotsiologik, antropologik va boshqa maktablar, yo‘nalishlar va o‘ziga xos metodologiya paydo bo‘ldi ¹⁰ .
--	---

Hozirgi zamon dinshunoslik metodologiyasida fanlararo yondashuvdan hamda nazariy, amaliy, tavsifiy, formal ilmiy usullardan keng foydalaniladi. Dinni o‘rganishning asosiy nazariy yo‘nalishi uni falsafiy tadqiq qilish hisoblanadi. Falsafa tabiat, insoniyat jamiyati va tafakkur taraqqiyotining eng umumiy qonunlari haqidagi fan bo‘lganligi tufayli, bu ta’kid umuman shubhasizdir. Dinni falsafiy jihatdan o‘rganish an’anasi antik davrdan boshlanadi. U keyinchalik, o‘rta asrlarda islom falsafasida davom ettirildi. Empirik tadqiqotlarning nazariy tadqiqotlar bilan o‘xshash va farqli jihatlari mavjud. Empirik usul ideallashtirilgan obyekt ustida kuzatish, o‘z-o‘zini kuzatish, tajriba o‘tkazish, eng avvalo, qiyoslash, o‘xshatish, tavsiflash, o‘lchash kabi aqliy amaliyotlarni qamrab oladi.

Filologik yondashuv dinni o'rganish uchun tarkibiy lingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, adabiyotshunoslik, tarjima nazariyasi, mantiq kabi fanlarning boy xazinasidan foydalanadilar. Formal metodologiya esa din rivojlanishining tarixiy-mantiqiy jarayonlarini, tillarni mantiqiy tahlil qilishga yo'naltirilgan (O.Kont, L.Vitgenshteyn). Manbashunoslik, paleografiya, narratologiya kabi filologiya fanlarida ham din o'rganiladi: ya'ni, diniy atamalar, matnlar, janrlar, ularning vujudga kelishi, ularning o'zgarishi va hokazolar. Paleografiya (grekcha palaiós – qadimiy va gráphō – yozaman) qadimiy qo'lyozmalarni o'qish, ular yozilgan vaqt va joyni aniqlash maqsadida o'rganuvchi filologiyaga oid fan. Narratologiya (lotincha narrare – hikoya qilmoq) hikoya nazariyasini, hikoya va tarix orasidagi munosabatni, matn (diskurs)ni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganuvchi filologiyaga oid fan.

Shunday qilib, dinga oid maxsus fanlar muayyan dinning tarixiy manbalarini o'rganish, muqaddas manbalar tarjimasini, yo'qolib ketgan tillardagi matnlarni o'qish, muayyan mintaqaga oid dinlarni tavsiflash, konfessional atlas tuzish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshiradilar.

Qiyosiy-tarixiy va tavsifiy usullar din tarixining asosiy usullari sanaladi. Dinlarni tarixiy tahlil qilishni retrospektiv asosda, ya'ni diniy e'tiqodlar vujudga kelishi va taraqqiyotining tarixiy xususiyatlarini muayyan tarixiy davr bilan bog'liq ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari tarixiy tahlilni diniy qadriyatlar, diniy ong, diniy xatti-harakat, diniy tashkilotlarning tuzilishi, funksiyalari va tizimini nazariy tadqiq etish bilan to'ldirish, ya'ni masalaga tizimli yondashish zarur. Diniy muhitni o'rganish konkret-tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hodisalar bilan yaqin aloqada amalga oshiriladi. Masalan, tarixchi professor A.Xasanovning ishlarida Arabiston yarim orolida islom vujudga kelishidan oldingi diniy muhitni o'rganish ushbu mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni, bu yerdagi aholinin e'tiqodlarini bayon qilishni o'z ichiga oladi; Muhammad payg'ambarning targ'ibotchilik faoliyatidan

keyin bu yerda yuz bergan o'zgarishlarni, islom vujudga kelishini tadqiq etilayotgan tarixiy davr ijtimoiy va madaniy hayotiga ta'sirini ko'rsatadi.

Falsafiy yondashuv dinning vujudga kelishini insonning tabiiy va ijtimoiy hodisalarni bilishga ehtiyoji bilan tushuntiradi. Nemis faylasufi Gegel (1770-1831) dinga insonning Absolyut ruhga munosabati sifatida qaragan. Uning fikriga ko'ra din ham, falsafa ham Absolyutga erishishga intiladi, ammo turlicha tarzda, din – obrazlar yordamida, falsafa esa – mantiqiy tushunchalar yordamida. Gegel dinni anglashda aql-idrokning hal qiluvchi ahamiyatini ta'kidlab: "Tafakkur dinga ziyon yetkazadi, din tafakkur bilan qancha kamroq bog'lansa, shunchalik mustahkam bo'ladi, degan fikr o'taketgan yanglishishidir. Bu anglashilmovchilik oliy ma'naviy munosabatlarni mutlaqo tushunmaslikdan kelib chiqadi", deb yozgan. Gegel ratsionalist bo'lib, dinda uni avvalo ratsional soha qiziqtirar edi, shu sababli u dinning asosi aql, deb hisoblardi. Faqat aql din mohiyatining tub ildizlarini idrok etadi. Gegel nazaridagi Xudo – bu tafakkur va tushuncha orqali anglangan Mutlaq G'oya, Absolyutdir¹¹. Fikr va tushuncha bilan idrok etilishi sababli dinning hissiy jihatini keyingi o'ringa, ya'ni diniy tajribaning kechinmalari qatoriga o'tib qoladi. Shunday qilib, dinning ratsional jihatini mutlaqlashtirish tufayli din faqat falsafa o'rganadigan predmetga aylanib qoladi. Bu yondashuv boshqa gumanitar va ijtimoiy fanlarning dinni o'rganish borasidagi imkoniyatlarini ko'p jihatdan cheklab qo'yadi.

Nemis klassik falsafasining vakili I.Kant dinda eng avvalo, aql tayanchini ko'rdi, uning aqliy ibtidoaga egaligini ta'kidlaydi. Kantdan farqli ravishda, nemis teologi va faylasufi F.D.E.Shleyermaxer diniy e'tiqodning emotsional tomoni bilan, uning psixologik aspekti bilan qiziqdi.

Din falsafasini o'rganishda uch asosiy yo'nalish bir-biridan ajratiladi: 1) dunyoning umumiy falsafiy xaritasi kontekstida dinning mohiyatini ajratish va o'rganish; 2) dinning u yoki bu pozitsiyasini falsafiy jihatdan tanqid qilish yoki, aksincha, asoslash; 3) diniy tilni mantiqiy tahlil qilish.

Din falsafasi taqqoslash, sintez va analiz, abstraktlashtirish, umumlashtirish singari aqliy amaliyotlarning boy xazinasidan unumli foydalanadi. Bilishning bunday operatsiyalaridan o‘xshatish usulida, kauzallik usulida, ya’ni sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashga yo‘naltirilgan usulda, shuningdek, dinni o‘rganishning struktur-funksional usulida foydalaniladi. Dinni bilish falsafiy usulining kuchli tomoni uning beg‘arazligi va mantiqiyligidadir. Bu uni ilmiy usulga yaqinlashtiradi. Ammo turli falsafiy maktablar dinga turlicha, hatto, butunlay qarama-qarshi munosabatda bo‘ladilar. Gegel uchun “Falsafa – haqiqiy teologiyadir”.

Materialistik falsafaga ko‘ra, “din – xalqning afyunidir”. 1950-yillarda AQShda saentologiya diniy-falsafiy ta’limotiga asos solgan R.Xabbard nazarida din falsafasi biologiya, psixologiya va din elementlarini birlashtiruvchi “ruhiy salomatlik” fanidir. Shunday qilib, faqatgina falsafiy usul yordamida din haqida obyektiv bilimga ega bo‘lish mumkin emas.

Sotsiologik yondashuv guruhlarida dindorlikning aks etishi, siyosat va dinning, hokimiyat va dinning o‘zaro ta’sirini o‘rganadi. Nemis sotsiologi Maks Weber ning izlanishlarida diniy yo‘l- yo‘riq, hayot tarzi va xo‘jalik faoliyatining o‘zaro aloqasi o‘rganilgan¹². M.Weber (1864-1920) Yevropadagi yangi tipdagi shaxsning ratsionalizmi va professional axloqini protestantlikdagi tejamkorlik va dunyoviy boylukning ko‘p aytilishi “muqaddaslashtirilganligi” bilan bog‘ladi.

Dinni o‘rganishdagi *funksional yondashuv* an‘analari O.Kont (1798-1875) va G.Spenser (1820-1903) ishlariga borib taqaladi. Ular jamiyatdagi turli institutlarni o‘zining muhim ishini bajarayotgan jonli organizmga qiyoslashadi. Kont fikricha, antik davrdan o‘rta asrlar oxirigacha inson o‘z taraqqiyotining ilk bosqichida teologik tafakkurdan foydalandi. Bu davrni u uch davrga ajratadi: 1) fetishizm, inson bu davrda oliy kuchlar ham xuddi insondagiga o‘xshash hayotga ega deb ishonadi; 2) politeizm, bu davrda ko‘zga ko‘rinmas, nomoddiy jonzotlarga sig‘inadi; 3) monoteizm, teologik tafakkur tanazzulga uchrashining boshlanishi. Bunda inson aqli keyingi, metafizik rivojlanish bosqichiga o‘tadi, ya’ni u narsa va

hodisalarning sababini g'ayritabiiylik bilan emas, mohiyat va sabablar bilan tushuntiradi. Bu davrdagi tanqidiy tahlil jamiyat haqidagi fanlar, ya'ni sotsiologiyani vujudga keltiradi.

A.Radkloff-Braun (1881-1955) fikricha, jamiyat sotsial tarkibining barcha qismlari tirik organizmning yashash uchun o'zini saqlagani kabi o'zaro uyg'unlikda amal qilishi kerak. Bunday sharoitda din ijtimoiy birdamlikni ta'minlaydi. Din sotsiologiyasida tarkibiy-funksional usuldan foydalanish dinning tuzilishini va unga tegishli tashkilotlarning faoliyatini va shu kabilarni tushunib olishga yordam beradi.

Ijtimoiy-siyosiy yondashuv dinni o'ziga xos "ijtimoiy buyurtma" sifatida tushunadi. Dinga ijtimoiy-siyosiy yondashuv XIX asr nemis sotsiologlari va ular izdoshlarining tadqiqotlarida namoyon bo'lgan. Din ularni, eng avvalo, siyosiy kurash bilan bog'liq ravishda qiziqtirgan. Ular dinga tanqidiy jihatdan, ijtimoiy buyurtma sifatida, shuningdek, jamiyatni boshqaruvchi elitaning mafkurasi sifatida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kontekstida qiziqishgan: "inson dinni yaratadi, din esa insonni yaratmaydi". Markschilar xristianlik evolyutsiyasi misolida dinga ijtimoiy befarqlikni tug'diruvchi, ijtimoiy taraqqiyotni to'xtatuvchi omil sifatida qarashgan. Dastlabki xristianlik rim jamiyatidagi past tabaqalarni himoya qilganligi, ko'p asrlardan keyin esa uning eng avvalo jamiyatdagi yuqori tabaqalar manfaati haqida qayg'urganini ko'rsatib, markschilar dinda, eng avvalo XIX asr – XX asr o'rta laridagi xristianlikda ijtimoiy norozilik omilini ko'rishdi. Ular dinga o'z imkoniyatlarini namoyon etuvchi inson g'oyasini qarshi qo'yishdi. Jahonda ijtimoiylashgan iqtisodiyot tamoyillari, huquqiy davlat, tenglikka oid konstitutsiyaviy tamoyillar, diniy bag'rikenglik g'oyalari qaror topishi jarayonida markscha g'oyalar o'z ommaviyligini yo'qota boshladi. Bunday yondashuvda dinning rivojlanishi davlat tarixi kontekstida ko'rib chiqiladi, uning evolyutsiyasi moddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy munosabatlar tizimiga bog'liq bo'ladi. Ba'zan diniy va davlat hokimiyati jamiyatda barqarorlikni saqlab turish uchun bir- birini qo'llab-quvvatlab turishi faktini inkor qilib bo'lmaydi. Biroq, ijtimoiy-siyosiy

yondashuvni mutlaqlashtirish dinning ma'naviy mohiyatini buzadi, uning axloqiy sofligini, beg'arazligini va boshqa qadriyatlarini shubha ostiga qo'yadi. Shuning uchun, dinning roli haqidagi markscha qarash tanqidga uchradi. M.Weber dinning jamiyatda ijobiy rol o'ynashini himoya qilib chiqdi. Dinning konservativligini, uning ijtimoiy taraqqiyotga to'sqinlik qilishini tan olgan holda u dinning ijtimoiy taraqqiyotga ko'maklashishga qodirligini ham ko'rsatdi. Weber o'z fikrini barcha ijtimoiy institutlar, hokimiyat haqidagi tasavvurlar, xatti-harakat modellari, ularga odamlar bag'ishlayotgan ma'no-mazmun bilan boshqarilishini ko'rsatish orqali tasdiqlab berdi. Dinning eng asosiy vazifasi – inson faoliyatini mazmun bilan to'dirishdir. Shuning uchun din har qanday insoniy faoliyatga, shu jumladan, uning dunyoviy faoliyatiga qudratli ta'sir qilish salohiyatiga ega.

Din sotsiologiyasini dinning jamiyatda amal qilishi, turli diniy guruhlarning konfessiyalararo munosabatlari, jamiyat va din bilan bog'liq keng ko'lamli masalalar qiziqtiradi. ko'p lab amaliy masalalar ham din bilan bog'liq. Masalan, dunyodagi diniy an'analarda turli jinslarning huquqlari turlichaligi, shuningdek, diniy kiyim-kechaklar, abort qilish huquqi, oilaviy ajrimlar va boshqa ko'p lab masalalar gender masalalari bilan bog'liq. Fransuz sotsiologi va faylasufi E.Dyurkgeym dinga jamiyatni individlarga bog'liq bo'lmagan holda hosil qilib, uni o'ziga bo'ysundiruvchi ijtimoiy kuchlarni o'ziga xos aks ettirish shakli sifatida qaraydi. E.Dyurkgeym dinni ijtimoiy kuchlarni aks ettirishning alohida shakli sifatida ko'radi, u jamiyatni individga bog'liq bo'lmagan holda shakllantiradi va o'ziga bo'ysundiradi, shuningdek, uni o'z qonunlariga ko'ra tashkil etadiva kishilarni jiplashtiradi L.Feyerbax din "berahm qoidalar" hukmronlik qiluvchi jamiyatda ma'naviyatning yetishmasligini to'ldirishini aytib, din kompensatorlik vazifasini bajarishini ta'kidlagan edi. Afsona ijtimoiy borliqni tushuntiruvchi diniy tasavvurlar zaminida paydo bo'lgan janr hisoblanadi. E.Dyurkgeym fikricha, falsafa va boshqa fanlar dindan kelib chiqqan.

Sotsiografik yondashuvda hozirgi zamon jamiyatidagi dinni ta'riflash uchun empirik usullardan foydalaniladi. Gabriel Le Bra (Le Bras), Bulyar (Boulard),

Xarvi Koksning “Dunyoviy shahar” (“The Secular City”) asarining shuhrat qozonishi tufayli bu yo‘nalish keng tarqaldi. Hozirgi paytda diniy sotsiografik tadqiqotlarda kuzatish, hujjatlarni o‘rganish, intervyu, suhbatlashish, anketalashtirish va shu kabi usullardan keng foydalaniladi.

Dinni manbashunoslikka oid o‘rganish ko‘p jihatdan diniy manbalarni tadqiq qilish bilan bog‘liq. Masalan, M. Myuller va R. Devids tomonidan bu borada Vedalarga, buddizmga va xristianlikka oid matnlar qiyosiy o‘rganildi, qadimgi misrliklarning “O‘liklar kitobi”, akkadliklarning “Gilgamish haqida doston”, “Avesto” (E. Rtveladze) matnlari o‘qish va tarjima qilish, shuningdek, qadimgi german, kelt matnlari va qadimgi skandinavlarning xudolar va qahramonlar haqidagi sagalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borildi. Muqaddas kitoblar ko‘p lab dinlar uchun shart bo‘lgan tarkibiy qism sanaladi, ular dindorlar uchun ishonchni saqlab qolish, individual va ijtimoiy hayotni yaxshilash maqsadida ilohiy donishmandlikka murojaat qilishning asosi hisoblanadi.

Qiyosiy dinshunoslikning paydo bo‘lishini 1823-1900-yillar yashagan ingliz sharqshunos-filologi, umumiy sharqshunoslik, hindshunoslik, mifologiya bo‘yicha mutaxassis M. Myullerning ishlari bilan bog‘lashadi. U Germaniyada tug‘ilgan va Angliyada, London Qirollik institutida ishlagan. Myuller dunyo dinlarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha o‘z ma‘ruzalarida din tarixini analogiya bo‘yicha til va tafakkur tarixiga monand ko‘rib chiqqan. Keng ko‘lamli tarixiy materiallarga tayanib, u ularning genetik aloqadorligini aniqlagan. Bunda qiyoslash bir xil tuzilmaviy darajalar doirasida olib borilishi lozim¹³.

Ingliz-amerika dinshunosi Ninian Smart (1927-2001) har bir dinda quyidagi 6 ta darajani ajratgan: aqidaga oid, afsonaga oid, axloqqa oid, marosimga oid, ijtimoiy va nihoyat, diniy tajriba darajasiga oid. Uning fikricha islom, xristianlik va hinduiylikda qurbonlik keltirish marosimlarini diniy tajriba darajalarida qiyoslash maqsadga muvofiq. Bu dinlardagi xudolarni tushunish esa aqidaviy darajada amalga oshirilishi lozim. Smart borliqning muhim jabhasi kishilar nimagadir, uning haqiqat yoki yo‘qligidan qat’iy nazar ishonishida ekanligini ta’kidlaydi.

Shuning uchun ilmiy izlanishda dalillarni, ularning haqiqat yoki yo'qligini ta'kidlamasdan, taqqoslash muhim. Chunki ularni baholash dindorlarning his-tuyg'ularini tahqirlashi va dinlararo ziddiyatlarga olib kelishi mumkin.

Nemis dinshunos Genrix Frik "Qiyosiy dinshunoslik" asarida taqqoslashda analogiyaga, ya'ni dindagi o'xshash vazifalar fenomenlariga va gomologiyaga, ya'ni shaklan o'xshash, ammo mazmunan turlicha fenomenlarga ajratishni maslahat beradi¹⁴. U o'z asarida Qur'on matnlarini buddizm, yahudiy va xristianlik matnlari bilan qiyoslash XXI asrda yangi usullar bilan boyitilganini aytadi. Dunyo adabiyoti va tarixidagi ushbu boy xazinaga qiziqish hech qachon kamaygan emas, shuning uchun hozirgi paytga kelib qayta ishlangan, raqamlashtirilgan, butlashtirilgan katta miqdordagi materiallar to'plangan va ular keng kitobxonlar doirasi uchun ochiq. Bu gumanitar fan vakillariga diniy manbalarni o'rganishda fanlararo yondashuvni qo'llashga imkon berdi.

Nemis dinshunosi Oliver Frayberger "Dinshunoslikda madaniyatshunoslik uslublarini qo'llash" nomli darsligida jamiyat diniy va dunyoviy turmushining barcha sohalarida ajabtovur o'xshashliklar borligini ko'rsatib berdi¹⁵. U quyidagi misollar yordamida diniy marosimlar xalq udumlariga naqadar singib ketganini isbotlamoqchi bo'ladi. Masalan, "o'zingga ravo ko'rmagan narsani bировga ham ravo ko'rma" degan "oltin qoida" I.Kant etikasida ham, din aqidasi ham bayon etilgan. Bundan tashqari gullar qo'yish, guldastalar tortiq qilish, baxt-saodat tilash diniy ibodatda ham, dunyoviy bayramlar – tug'ilgan kun yoki nikoh to'ylarida ham rasm bo'lgan. Jahondagi ko'p gina dinlarning afsonalarida uchraydigan dunyoni suv bosishi mavzusi xalqlarning og'zaki ijodida, tasviriy san'atda ham ifodalanib kelinmoqda. Katolik cherkovining rasmiy bayrami – barcha avliyolar kuni katoliklar qabristonlarga borib qabrlar ustiga gulchambarlar, guldastalar qo'yish, shamlar yoqish, non-tuz bilan oilaviy ziyofatlar uyushtirish bilan o'tkazadilar. G'arbda yoshlar bu bayramni ba'zi holatlarda amerikacha Xelluin an'anasiga o'xshatib nishonlay boshladilar. Amerikalik va evropalik yoshlar orasida 31-

oktabrdan 1-noyabrga o'tar kechasi betlariga bo'r surtib, kafanlarga burkanib, qovoqdan yasalgan yoritqichlarni terib qo'yish odat tusiga kirib bormoqda.

J. Frezerning ishlari qiyosiy-tarixiy usuldan samarali foydalanishga yorqin misol bo'ladi. U Bibliyaning parchalari, afsonalar, etnografik tadqiqotlardan o'zining dinshunoslikka oid farazlarini tasdiqlashda foydalandi. To'g'ri, uning tadqiqotlari, shuningdek, dinshunoslikka oid ko'p lab ilk asarlari xristianotsentrizm kasali bilan "og'rikan" edi. Turli dinlarni – protestantlik, konfutsiylik, buddizm va boshqalarni taqqoslash asosida Maks Weber kapitalizm ilk bor faqat G'arbda, bu yerda protestantlik tarqalgani uchun, uning "kapitalizm ruhiga" mos keluvchi "xo'jalik etikasi" tufayli vujudga kelgan, deydi¹⁶.

Psixologik yondashuv. Din psixologiyasi insonning diniy hissiyoti, ishonchi, ongi, tajribasi kabi tomonlarini, shuningdek, diniy jamoalar hayotining psixologik jabhalarini, diniy sig'inish va marosimlar ijro etilishini o'rganadi. XX asr boshida dindorlikni fiziologik darajada o'rganishga, insonda "diniy instinkt" ning tug'maligini ko'rsatishga urinishlar bo'ldi. Ammo ular o'z isbotini topmagani tufayli, o'tmishda qoldi. Din psixologiyasi ko'p lab ijtimoiy fanlar bilan bog'langan va ayni paytda uni psixologiya va dinshunoslikdan ajratib turuvchi o'ziga xosliklarga ega. Umumiy psixologiya tafakkur, iroda, emotsiya bilan bog'liq inson psixikasida yuz beruvchi jarayonlarni o'rganadi. Bunda psixologiya uchun ularning mazmuni muhim emas, u ulardan mavhumlashadi. Undan farqli ravishda din psixologiyasi inson fikrlarining mazmunini, sezgilarining yo'nalishini, irodasining kuchi kabilarni o'rganadi. Boshqa yana bir farq shundaki, umumiy psixologiya kishilar psixologiyasining umumiy qonuniyatlarini ularning mentalitetidan, yashagan davridan, yashash joyidan, ijtimoiy aloqalar xarakteridan mustaqil ravishda o'rganadi.

Amerikalik psixolog va faylasuf U.Djems (1842-1910) Gegelning falsafiy ratsionalizmini tanqid qildi. Ammo bunda uning o'zi subyektning diniy tuyg'ulari, kechinmalari bilan qo'shib ketgan diniy tajriba va amaliyotni mutlaqlashtirib yubordi. Djems dinning o'zini "ayrim shaxs his-tuyg'ulari, xatti-harakatlari va

tajribasining yig'indisi" sifatida tushundi. Dindagi individual tajribaning rolini benihoya kengaytirish va mutlaqlashtirish orqali u aslida, dinni diniy tajribadan iborat qilib qo'ydi. Darhaqiqat, jamiyatda diniy mutaassiblik, radikalizm va terrorizmning oldini olishda, konfessiyalararo bag'rikenglik sharoitini yaratishda diniy tajribani va psixologik jihatini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ammo diniy tuyg'ular va subyektiv tamoyil unsurlarining turlicha qimmatga egaligi haqida gapirish bilan bir qatorda, ulardan birontasini asossiz, haddan tashqari oshirib ko'rsatish yoki yerga urish dinning mohiyati va mazmuni manzarasini buzib talqin etishga olib boradi, shubhali yoki soxta xulosa va baholashlarni tug'diradi, ilmiy tadqiqotning holisligiga xalal yetkazadi. Alalxusus, din predmetiga yondashuvdagi muntazamlilik va xolislik insoniyat hayotidagi murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lmish dinni dinshunoslik qoidalariga monand tadqiq etishning asosiy talablaridan biridir.

Z.Freyd o'z psixotahlillarida inson ruhining kuchli emotsiyalar yordamida gunohdan poklanish jarayoni – katarsis texnikasidan keng foydalangan va undan hozirgi zamonda psixoterapiya, dramaturgiya va shu kabi san'atturlarida foydalanilmoqda. Katarsis g'oyalar, istaklar va fikrlarni bostirish yo'li bilan tanglik va xavotirdan qutilishga yordam beradi. Bu texnika diniy mutaassiblik, radikalizm, ekstremizm va terrorchilikning oldini olishga ko'maklashadi.

Din sotsiopsixologiyasi turli dinlar tomonidan yaratilgan insonparvar, samarali psixoterapevtik texnikani tadqiq qiladi. Masalan, amalda barcha dinlar nimaningdir, masalan, islom va xristianlikda yashashning mazmunini, hinduiylik, buddizmda azoblanishning mazmunini tushunishda bu amaliyotdan foydalaniladi. Bunday texnikadan foydalanish tibbiyotda, amaliy psixologiyada, masalan, insonga tanlagan kasbidan, do'stlari va boshqalardan hafsalasi pir bo'lganda, unga ana shu vaziyatlarning ijobiy tomonlarini tushunishga yordam beradi. Yuz bergan holatning mazmunini tushunish ana shunday holatga tushgan kishilarga ruhiy tanglikdan tezroq chiqishga va yangi rejalar tuzishga, bemor odamga esa tezroq tuzalishga ko'maklashadi. Din psixologiyasi xuddi fenomenologiya singari o'z

nazariyasini ishlab chiqadi, diniy tajribani, afsona va belgilarni o'rganadi hamda ularni tasniflaydi. Masalan, diniy tajriba turli yo'llar bilan amalga oshiriluvchi nafas olish mashqlari tizimi, mantralar vedizm va hinduiylikdagi g'ayritabiiy kuchga ega hisoblanuvchi muqaddas duolar, muqaddas obrazlarga meditatsiya, diniy ustozning gipnoz ta'siridagi harakatlari kabi mistik ekstazni o'z ichiga oladi.

Ilohlarga sig'inish turli-tuman marosimlar, ibodatlar, raqslar, jazava darajasidagi nutq, turli shaxslar va obyektlarga hurmat ko'rsatish, so'zsiz meditatsiya yoki ibodat, muqaddas marosimlar, diniy musiqa va qo'shiqlarni ijro etish kabi sig'inish aktlari ko'rinishida amalga oshiriladi. Shuningdek, u yoki bu ko'rinishdagi ibodat vaziyatlariga o'tish, ritual xatti-harakatlar, ekstatik ibodatlar kabi individual ibodatlar amalga oshiriladi. Ekstatik ibodat paytida dindor o'zini xudo bilan to'liq birlashib ketgandek his qiladi. Masalan, sufiy Al-Junayda "Biz birgamiz. Biz doimo birlikdamiz... Men Sening ulug' va mo'jizakorligingni bilaman, Sen mening eng nozik tomirlarimda oqmoqdasan", deb ibodat qilardi.

Dj. Segond va boshqa bir qator psixologlar ibodatni "ong ostining yorib o'tishi", "emotsional oqim" ifatida tushunishadi. Dindorlarning fikriga ko'ra ekstatik ibodat paytida ular "qalbning, ko'ngilning ich-ichidan hayqirig'ini" eshitishadi, "ruhiy iztirob, hayajon"ni his etishadi, "nurli ko'z yoshlari" to'kishadi, "terisida go'yoki chumoli yurgandek bo'lganini", "yurakning go'yoki to'xtab qolganini" va hokazolarni his eishadi¹⁷.

Dinning inson ongiga va ijtimoiy ongga ta'sirining psixologik jihatlarini birinchilardan bo'lib faylasuf va psixolog, Garvard universiteti o'qituvchisi U.Djems (1842-1910) o'rgana boshlagan. U o'z ishlarida diniy amaliyot shakllarining turli-tumanligini tadqiq etdi, diniy vahiy va ko'rinishlarni g'ayritabiiy muhitning inson ongiga ta'sirining mahsuli sifatida tushuntirishga harakat qildi. Uning "Diniy amaliyotning xilma-xilligi (The Varieties of Religious Experience)" asari (1902), unda keltirilgan misollar asosan xristianlikning protestantlik yo'nalishida bo'lib, din psixologiyasiga oid asar bo'lib qoldi. U.Djemsni individual

psixologiya hamda turli diniy madaniyat va an'analar timsollarining o'zaro munosabati masalasi qiziqtirgan.

Din psixologiyasida katta muvaffaqiyatga psixoanalitik yo'nalish vakillari Z.Freyd, K.Yung va E.Fromm erishdilar. Avstriyalik psixiatr va psixolog Z.Freydinning vujudga kelishi masalasiga javob topishga harakat qilgan. U psixotahlil tamoyillarini din sohasiga ham tatbiq qilgan. U "Totem va tabu" (1913) asarida o'z nazariyasining markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan "Edip kompleksi"dan foydalangan. Bu yosh o'g'il bolaning onasi bilan birga bo'lish maqsadida otasini yo'qotishga intilgani uchun otasining oldida aybdor ekanligini ongsiz his etishidir. O'g'ilning onasiga intilishi onalik hissiyotlari uchun otasidan rashk va raqobat qilishga qo'shib ketadi. Freydning fikricha, Edip kompleksi insoniyat tarixi taraqqiyotining ilk bosqichlarida, kishilar unchalik katta bo'lmagan va ota boshchiligida urug'doshlik guruhlari bo'lib yashagan davrlarda vujudga kelgan. Muayyan bir paytda o'g'il otani yo'qotgan, ona beva bo'lib qolgan va ana shu paytlarda inestning taqiqlanishi, ya'ni yaqin qarindoshlar o'rtasida jinsiy munosabatlarning taqiqlanishi vujudga kelgan. Freyd tabu vujudga kelishini ana shunday izohlaydi. Ibtidoiy xalqlarda taqiq u yoki bu xatti-harakatga, so'zga, predmetga nisbatan o'rnatilgan. Tabuni buzish, xurofiy tasavvurlarga ko'ra, g'ayritabiiy kuchlar tomonidan jazolanadi. Freyd diniy e'tiqodni dindorlarning oliy kuchlardan himoya izlashdek sodda intilishi orqali tushuntiradi. Qadimgi insonning jon yoki boshqa shakllarda abadiylikka erishishga intilishi uning o'limdan, ko'p incha, tashqi olamning dushman kuchlaridan qo'rqishi uni yengilmas kuchlardan, xudolarning otalarcha himoyasini izlashga majbur qilgan. Dindorlarning ishonchiga ko'ra ular yechib bo'lmaz muammolarning uddasidan chiqishga hamda real va soxta xavf-xatarlardan himoya qilishga qodir¹⁸.

Freydning g'oyalari haqiqatligini amalda isbotlashga intilish befoyda, chunki tajriba natijasini qat'iy bir ma'noda baholash mumkin emas. Nima bo'lganda ham freydizm diniy amaliyot va diniy xatti-harakatga butunlay yangi nuqtayi nazardan qarashga imkon beradi.

Nemis-amerika faylasufi, sotsiologi va psixologi Erix Fromm Z.Freyd va K.G.Yungning din psixotahlil nazariyasini yanada rivojlantirdi. Din, deganda u “individga mo‘ljal olish tizimi va sig‘inish obyektini beruvchi u yoki bu guruh kishilarining har qanday qarash va harakatlar tizimi”ni tushungan. Uning fikricha har qanday idealga: xudolarga, dohiylarga, millatga, boylikka, nafosatga va shu kabilarga nisbatan ana shunday nihoyatda keng yondashuv diniylikka aylanadi. E.From avtoritar va insonparvar dinni bir-biridan farqlaydi. Dinning avtoritarligi tashqi qudratli hokimiyatga bo‘ysunish g‘oyasidan kelib chiqadi, dinning insonparvarligi esa dinning insonga qaratilganligidan paydo bo‘ladi.

Dinni tushunishga falsafiy yondashuv ilmiy usulga eng yaqin sanaladi. U teologik yondashuvni inkor qilmaydi. Shu bilan bir qatorda, falsafa prinsipial jihatdan ateistik pozitsiyada turmaydi. Shuning uchun falsafa kamdan-kam hollarda dinga nisbatan obyektiv betaraf pozitsiyani egallaydi. ko‘p incha u qarama-qarshiliklardan o‘zini chetga ololmaydi. Ba‘zan u din bilan birlashib ketishini ta’kidlaydi (idealistik falsafa), ba‘zan esa dinni noto‘g‘ri bilim, deb inkor qiladi (materialistik falsafa). Shuning uchun faqat falsafiy tadqiq qilish usuli bilangina din haqidagi obyektiv bilimga erishib bo‘lmaydi.

Shveytsariyalik madaniyatshunos, tahliliy psixologiya asoschisi, “Ongsizlik psixologiyasi” kitobining muallifi K.G.Yung din va mifologiyaning ahamiyatini yuqori baholaydi. Yung ruhiy dunyo real mavjud, ammo uni aql bilan tushunib, aql-idrok asosida tushuntirib ham bo‘lmaydi, deb hisoblaydi. Yung fikriga ko‘ra individual ongsizlik bilan bir qatorda “arxetiplar”ni o‘z ichiga oluvchi jamoaviy ongsizlik ham mavjud. Yung arxetiplarda umuminsoniy ramziylikning, shu jumladan, afsona va tushlarning manbaini ko‘radi. Yung fikricha diniy tajriba – ushbu arxetipik obrazlarning ongsizlik sohasidan ong tomonga yorib o‘tishidir. Badiiy ijodning eng yaxshi namunalari jamoaviy ongsizlikning rassom, shoir va h.k.larning individual ongiga ta’siri tufayli vujudga keladi. Din sirlilik va ramziylikka ehtiyoj sezuvchi kishilarga yordam berishi mumkin.

Shunday qilib, “jamoaviy ongsizlik” Yungning obrazli ifodasiga ko‘ra, o‘ziga xos “zamburug”, ya’ni individlar ma’naviy hayotining umuminsoniy asosi hisoblanadi. Arxetiplar, ya’ni azaliy psixik obrazlar, ilk obrazlar bo‘lib, ular avloddan avlodga uzatiladi hamda tushlarning umuminsoniy ramziyligida, afsonalar va shu kabilarda “kodlashtirilgan”. Masalan, amalda deyarli barcha madaniyatlar uchun, shu jumladan, din uchun ham onaning sof obrazi, uning beg‘araz muhabbati ana shunday universal kod hisoblanadi. Ingliz psixologi M.Arjayl o‘zining “Diniy xatti-harakat” kitobida turli psixoanalitik nazariyalarning izchil tahlilini bergan.

Zamonaviy din psixologiyasida diniy mutaassiblik va dindorlarning radikal xatti-harakatlarining oldini olish, ekstremizm, terrorchilik, prozelitizm, missionerlik kabi muammolar dolzarb sanaladi.

O‘zbekistonda diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlariga, uning hozirgi shakllariga va unga qarshi kurashish asoslariga alohida e’tibor qaratadi.

Dinni o‘rganishga *axloqiy yondashuv* “yaxshilik”, “yomonlik” va boshqa axloqiy kategoriyalarning mezonlari va normalarini aniqlaydi. Din axloqiy sanksiyalarni amalga oshiradi: gunoh yoki ayblari uchun jazolaydi va qoralaydi yoki aksincha, yaxshi fazilatlarini, himmati uchun taqdirlaydi, jannatdan joy berishga, nirvanaga erishishga va’da qiladi va hokazo. Nemis faylasufi I.Kant fikriga muvofiq din ilohiy buyruqlarini inson majburiyatlari sifatida anglanishi hisoblanadi. U axloqiy va rasmiy ibodatni bir-biridan farqlaydi. Birinchisiga ibodatning samimiy, ichki, hissiy tamoniga e’tibor qaratiladi. Ikkinchisiga esa – tashqi, rasmiy tomonga urg‘u beriladi.

Islom falsafasiga oid manbaalar, hadislar, sufiylik adabiyoti o‘zining oliy darajadagi axloqiy va ma’naviy yo‘nalishga egaligi bilan ajralib turadi. Musulmonlar uchun Muhammad payg‘ambar, uning safdoshlari, obro‘li diniy mutaxassislar (teolog, ilohiyotshunoslar) va ba’zi sufiy shayxlarning hayoti ibrat olishga misol bo‘ladi.

S. Reynak din eng yuqori axloqiy kategoriya bo'lmish vijdonga borib taqaluvchi axloqiy hissiyotlar yig'indisi sifatida paydo bo'lgan; aynan uning o'zi inson xatti-harakatini axloqiy jihatdan boshqaradi, deb hisoblaydi.

Amerika antropologi Klifford Girts din ma'naviy madaniyat ramzlarini o'zida jo qilgan, deb hisoblaydi. M.Weber kabi Girts ham insonni o'zi yigirib to'qiydigan ma'nolar to'riga yo'g'rib ketgan jonivorga qiyos qiladi. Shuningdek, u diniy marosim, afsona va boshqa madaniyat hodisalariga ramzlar tizimi sifatida qaraydi. Tadqiqotchining vazifasi har bir madaniyatda mavjud bo'lgan asosiy ramz-so'zlarni topish, tushunish va izohlashdan iborat. Klifford Girts dinga madaniyatning bir qismi sifatida qaraydi va faqat aniq dinni o'rganish mumkin, deb hisoblaydi. U mavhum dinni kashf etish urinishini xuddi mavhum tillarda gapirishga behuda urinishga o'xshatadi¹⁹.

L.Feyerbaxning falsafasi dinning vujudga kelishi haqidagi *antropologik* va *naturalistik* yondashuvlarning yorqin namunasi. Unga ko'ra insonni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi belgisi jon emas, balki aql, iroda va yurak (hissiyot)dir. Feyerbax fikricha, Xudoni bilish bu insonning o'z-o'zini bilishidir. G'oyaviy jihatdan uning konsepsiyasi aynan inson yuragini ilohiylikning manbayi deb hisoblovchi sufiylik falsafasiga yaqin. Maxsus diniy amaliyot yo'li bilan o'zini anglash orqali sufiy haqiqatni (haqni) anglaydi.

Din fenomenologiyasi maktabining asoschilaridan biri nemis faylasufi Edmund Gusserl (1859-1938) ta'limotiga ko'ra fenomen so'zi (grekchadan phainómenon - namoyon bo'lish) bizga tajriba orqali, hissiy tajriba orqali o'rganiladigan hodisani anglatadi. Fenomenga zid ravishda Kant falsafasidagi "narsa o'zida," tushunchasiga muvofiq mutlaq fikr – noumenni bilib bo'lmaydi, Shunday qilib, falsafiy jihatdan fenomen biz tasavvurlarimiz va bilimimiz orqali anglab oladigan hodisa yoki predmetlar belgilarining yig'indisidir. Fenomenologiya fenomenlarni o'rganuvchi fan bo'lib, u XX asrning asosiy falsafiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Din fenomenologiyasi diniy tajribaning mohiyatiga oid tiplarni aniqlash maqsadida uning empirik mazmunidan

mavhumlashishni, chetlashishni maslahat beradi. Bunda psixologiya va fenomenologiya o'rtasidagi farq shundaki, din psixologiyasi faktlarni fazo va vaqtda ko'rib chiqsa, fenomenologiya ularni vaqtga oid bo'lmagan tarzda ko'radi.

Nemis teologi, fenomenolog Rudolf Otto (1869-1937) E.Gusserl va D.Shleyermaxer g'oyalarining davomchisi edi. U o'zining "Ilohiylik" (1917) kitobida XX asrda Germaniyadagi gumanitar fanlarda mustahkamlanib olgan materializmdan farq qiluvchi dinning o'z shaxsiy dunyoqarashiga ega bo'lish huquqini himoya qiladi. Protestant bo'lgan Otto konfessional xristianlikni tanqid qiladi, ammo u o'zining ko'p sonli sayohatlari paytida tanishgan ko'p lab dinlarni, xususan, dzen-buddizm va hinduizmlarni yuqori baholaydi.

XX asrning boshqa bir obro'li din fenomenologi Gerard van der Leu (1890-1950) edi. Leu o'zining "Din fenomenologiyasi" (1933) asarida dini tasniflashtirish tamoyillarini, sirli hodisalarning turlarini, avliyolik tiplarini, diniy tajriba kategoriyalari va shu kabilarni tavsiflab beradi. Diniy fenomenlarning ichki tuzilishini o'rganishni maqsad qilgan Van der Leu tarixiy jihatni nazardan chetda qoldiradi, shuning uchun uning ishlari ko'p incha tanqid qilingan edi. Din fenomenologiyasi faktlarga baho bermay, ularni obyektiv bayon qilishga intiladi.

Jamiyatning diniy madaniyati sohasidagi tadqiqotlar din antropologiyasi paydo bo'lishiga olib keldi. U insonning diniy ishonchini, ijtimoiy-diniy munosabatlarni, ma'naviy madaniyat sohasi bo'lgan dinning paydo bo'lishi va taraqqiyoti kontekstida insonning diniy amaliyoti masalalarini o'rganadi. Din antropologiyasi sohasida ko'zga ko'ringan tadqiqotchilardan biri ingliz etnologi E.Teylor sanaladi.

Dinshunoslikni o'qitish va tadqiq etish metodikasi ushbu fanga tegishli ilmiy va pedagogik vazifalarni bajarishga qaratilgan. Dinshunoslik o'qitish metodikasi o'quvchilarda pedagogik, tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqotga oid ilk ko'nikmalarni tarkib toptirishdek amaliy vazifalarni bajaradi. Shu bilan bir qatorda u dinlardagi axloqiy pand- nasihatlarini anglashga, diniy mutaassiblikka qarshi kurashda asqatuvchi tarbiyaviy vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Din sotsiopsixologiyasida kuzatuv usuli muhim ahamiyatga ega. Dinning sotsiologik, psixologik, antropologik, fenomenologik jabhalarini tadqiq etish uning ichki tomonlarini: diniy-madaniy an'analar, hissiyotlar, kechinmalar, diniy tajriba, ma'naviy qadriyatlar, fenomenlar va h.k.larni chuqur o'rganishini talab qiladi. Bunday tadqiqotlar din sotsiopsixologiyasi, din antropologiyasi va din fenomenologiyasida olib borilishi shart. Biroq dinga bunday chuqur "kirish", uni bunday chuqur o'rganish tadqiqotchini subyektivlikga olib kelishi mumkin. Xolis metodologik yondashuv tamoyiliga amal qilish uchun tadqiqotchi qanday muammolarga duch kelishi mumkin? Din sotsiologiyasidagi kuzatish amalda sotsiologiyaning barcha usullarini: so'rovnoma, anketa o'tkazish, ijtimoiy esperementni o'z ichiga oladi. Sotsiologik kuzatishning muhim xususiyati shundaki, unda odamlar kuzatish obyekti bo'ladi, ularning ijtimoiy faolligi turlicha, ularning individual ongi, psixikasi, maqsadlari, qadriyat mo'ljallari, xarakteri, emotsiyalari, shu jumladan, ularning xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tomonlari: kuzatilib turishni xohlamasligi, yaxshi ko'rinishga intilish va h.k.larning barchasi olinadigan informatsiyaning obyektivligini bir qadar pasaytiradi.

Bu ayniqsa, sotsiolog va kuzatiluvchi shaxslarning maqsadlari turlicha bo'lganda yaqqol ko'zga tashlanadi, bunda kuzatish yoki kurashga aylanadi, yoki tadqiqotchining o'z harakatlarini yashiruvchi hiylasi (manipulyatsiyasi)ga aylanib qoladi. Sotsiologik kuzatish usulining boshqa xususiyati shundan iboratki, tadqiqotchi ham insoniy sifatlarga ega: u kuzatiluvchi shaxs qayg'ulariga hamdard bo'ladi, kuzatiluvchilarga yordamlashish uchun turli hissiyot va kechinmalarni boshdan kechiradi, ba'zan esa, kuzatish natijalariga tuzatishlar kiritadi. Sotsiologik tadqiqotning obyektivligi undan shaxsga oid munosabatlarni olib tashlashda emas, balki ilmiy tadqiqot mezonlarini ular bilan almashtirib qo'ymaslikda.

Sotsiologik kuzatish usulining afzalliklari: bevosita qabul qilinish, konkret vaziyatlarni, faktlarni, ahvolni qayd qilish mumkinligi. Shuningdek, bunda real odamlar guruhining konkret xatti-harakatini hisobga olish mumkin. Kuzatish

usulining kamchiliklari eng avvalo ijtimoiy obyekt va subyektning faolligi mavjudligida, bu esa natijaning obyektiv emasligiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari kuzatish ko'p vaqtni, shuningdek, insoniy (sotsiologning yuqori kvalifikatsiyasi) va moliyaviy resurslarni talab qiladi: kuzatishga tayyorgarlikka oid, instruktaj berishga oid va boshqalar. Masalan, 100 soatlik kuzatish uchun yozishga 200 soat va kuzatish yakunlari hisobotini tayyorlash uchun 300 soat vaqt ketadi.

Kuzatish uslubi aksariyat hollarda din antropologiyasi sohasida yuqori natija beradi. Antropologlar dindorlarning hayot tarzi, urf- odatlari, xulqi va an'analarini, davlat, jamiyat, huquqiy masalalar, boshqa konfessiyalar vakillari bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadilar. Ilmiy sotsiologik kuzatuv o'zining rejali asosda, tizimli ravishda o'tkazilishi, kuzatish natijalarining majburiy tekshirilishi, turli shakllarga egaligi bilan ajralib turadi.

Sotsiologik tadqiqotlar muayyan turlari turli maqsadlarga xizmat qiladi. Masalan, nazorat qilinmaydigan kuzatuvlar aksariyat hollarda real hayotiy vaziyatlarni tasvirlashga qaratilgan bo'ladi. Kuzatuvning bu shakli qat'iy rejasiz amalga oshirilib, tadqiqotchilik xususiyatiga ega. U faqat muammoni aniqlash va keyinchalik nazorat ostida olib borilayotgan kuzatuvlarni amalga oshirish imkonini beradi. Bunday hollarda kuzatuvchilarning soni ortadi, jarayon mufassal rejalashtiriladi va h.k.

"Ichidan kuzatish", ya'ni jamoaga qo'shilish orqali kuzatish uslubi. Bunda kuzatuvchi kerakli jamoaga qo'shilib oladi. Bu uslub tadqiqotchidan yuqori malaka va hatto qurbonlik talab etadi. Zero, u o'rganilayotgan guruhning turmush tarzi va qadriyatlarini asosida hayot kechirishiga to'g'ri keladi. Ba'zi vaziyatlarda tadqiqotchi obyektivlikni yo'qotib, o'zi va jamoa o'rta sidagi chegarani yoddan chiqarishi mumkin.

Amerikalik sotsiolog J.Andersen daydilarning hayot tarzini o'rganish maqsadida olib borgan davomli kuzatishlari natijasida noyob ma'lumotlarni qayd

etishga muvaffaq bo'lgan, ularga nisbatan xayrixohlik hissi sabab hatto ularning hayotidagi standart holatlarni yoqlashga uringan.

E.Franke va V.Maske rasmiy ro'yxatdan o'tgan "Germaniya musulmon yoshlari" jamiyati orasida "ichidan kuzatish" uslubini qo'llash orqali kerakli ma'lumotlarni olishga erishganlar²⁰. Zero, mazkur uslub jamiyat a'zolari orasida bo'lib, ularning fikr-mulohazalari, noverbal reaksiyalari, ijtimoiy rollari, xususan, kiyinish odati, ramzlari va an'analarini anglash imkonini bergan. "Sodda", maishiy kuzatishdan farqli o'laroq ilmiy kuzatishda asosiy e'tibor tizimlilik, ish harakatlarning aniq qayd etilishi, kuzatilayotgan shaxslarning shaxsiy va ijtimoiy xulqiga qaratiladi. Ma'lumotlarni bu tarzda to'plash "Germaniya musulmon yoshlari"ning kundalik turmush tarzini anglab yetish, ularning jamiyatdagi tutgan o'rni, qadriyatlarini va qiziqishlarining mazmun mohiyatini tushunish imkonini beradi.

Jamoalarga qo'shilish orqali olib boriladigan "ichidan kuzatish" uslubi o'tkazilayotgan tadqiqotlarning turi yoki standart vaziyatlarning darajasiga ko'ra o'zaro farqlanuvchi strukturali va strukturasiz shaklda bo'lishi mumkin. Tizimli kuzatuv muayyan farazlar asosida avvaldan belgilangan mezonlar monitoringi bo'yicha amalga oshiriladi. Tizimli bo'lmagan kuzatuvlar esa kuzatuvchining to'satdan yuzaga kelgan qiziqishi tufayli sodir bo'ladi. Bunday vaziyatlarning ustunligi shundaki, jarayonni boshqarish yengil kechadi, yangi g'oyalarni amalga oshirish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Kuzatish natijalarini qayd etishda rasman quyidagi savollarga javob berish talab etiladi: Kuzatuv natijalari qachon va qanday holatda saqlanishi lozim? Ulardagi asosiy masala nimada? Ba'zi hollarda diktofonning xotirasi yetmasligi mumkin. Shu bois, tadqiqot yakunlanib, uyga qaytish bilan natijalarni imkon qadar tezroq yozib qo'yish tavsiya etiladi. Yoki eslab qolingan ma'lumotlar asosida bayonnoma tuzish lozim. Biroq shuni ta'kidlash joizki, sizga yordam berishga xayrixoh bo'lgan diniy jamoa a'zolarini e'tiborga olmaganida, bunday vaziyatlarda

kuzatuv vaqtida yozuvlarni qayd etish tavsiya etilmaydi. Bu kuzatuvchilar orasida shubha uyg'otadi.

Din sotsiologiyasi va din psixologiyasida o'z-o'zini kuzatish uslubi keng qo'llaniladi. Introspeksiya deb atalgan ushbu metodda ongning turli holatlaridagi kechinmalar shu holatni boshidan kechirayotgan sub'ekt tomonidan kuzatiladi. Bunday o'z-o'zini kuzatish orqali o'zingizdagi psixik jarayonlar haqida ma'lum bilimlarni olish mumkin. Biroq olingan natija va xulosalar subyektiv xarakterga ega bo'lishi mumkinligi sababli bu uslub bilan birga obyektiv tashqi kuzatishdan foydalanishga ko'p roq e'tibor beriladi.

Dala tadqiqotlari real hayotiy vaziyatlarni kuzatishga qaratilgan bo'lsa, laboratoriyadagi kuzatuvlar maxsus yaratilgan vaziyatlar bo'yicha tegishli xulosalar olish imkonini beradi. Birinchi uslub sotsiologik razvedkalarda tabiiy sharoitlarda qo'llanilsa, ikkinchisi real hayotda natija olish imkonini bermaydigan, faqat eksperimental tadqiqotlarda muayyan xulosalarga erishish mumkin bo'lgan holatlarda qo'llaniladi.

Ochiq kuzatish uslubida o'rganilayotgan shaxs kuzatuvda ekanligini biladi. Bu esa natijalarning subyektiv xarakter kasb etishga olib kelishi mumkin. Shu bois, ishonchli natijalarga erishish uchun boshqa xolis nazoratchilarning takror kuzatuv va kuzatilayotganlarning nazoratchiga moslashishi uchun ketadigan vaqtni ham e'tiborga olish talab etiladi. Mazkur kuzatuv asosan tadqiqotlarning razvedka bosqichida qo'llaniladi.

Yashirin kuzatuv (inkognito) uslubining jamoalarga qo'shilish orqali olib boriladigan "ichidan kuzatish" uslubidan farqi shundaki, tadqiqotchi-sotsiolog kuzatuv olib borilayotgan guruhda bo'lishiga qaramay hodisalarga ta'sir ko'rsatmaydi, u o'z qiyofasini oshkor etmagan holda faqat chetdan kuzatish bilan kifoyalanadi. Xorijlik sotsiologlar kuzatuvchining ushbu uslubini "fonusli ustun tagida qiyofasini yashirish" deb ataydilar. Shu bois, agar bir kishi biron bir masalaga beparvolik bilan munosabat bildirsa, unday insonga nisbatan "(unga baribir,) fonusgacha; chiroqqacha" iborasini qo'llaydilar (o'zbekchasiga aytganda:

“Suv bossa, to‘pig‘iga chiqmaydi”). Aksariyat hollarda insonlar kuzatuvchilarni tasodifiy yo‘lovchi, amaliyotchi, safardagi kishi, qahvahona xizmatchisi va boshqa shu kabi ijtimoiy rollarida uchratganlari sababli kuzatish natijalari nisbatan tabiiy xarakter kasb etadi.

Din sotsiologiyasida eksperiment (lot. experimentum – tajriba, sinash) uslubida ham keng foydalaniladi. Ilmiy asosda qo‘yilgan bunday tajribada tadqiq etilayotgan hodisa ma‘lum shart-sharoitda takror va maxsus kuzatiladi. Eksperiment o‘tkazuvchi shaxs kuzatuvchidan farqli o‘laroq, o‘rganilayotgan guruh yoki oilaga faol ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu uslub yangi davr tabiatshunosligida vujudga kelgan bo‘lib, uni F.Bekon o‘z asarlarida ilk marta tasniflab, falsafiy jihatdan yoritib berdi. XX asrning 20-yillarida ijtimoiy eksperimentlarni o‘tkazish rivojlandi. Bu tajribalar ijtimoiy tashkilotlarning yangi shakllarini hayotga tatbiq etish va boshqaruvni optimallashtirishga turtki bo‘ldi. Shu bois, ijtimoiy eksperimentlar ma‘rifiy ahamiyat kasb etishi bilan bir qatorda jamiyat boshqaruvini muvofiqlashtirishga ham xizmat qiladi. Ijtimoiy eksperiment obyekti sifatida ko‘riladigan bir guruh kishilar tajriba jarayonlari ishtirokchisiga aylanadilar va sinov jarayonida ularning qiziqishlarini inobatga olish talab etiladi. Tadqiqotchi esa o‘zi o‘rganayotgan vaziyatni kuzatib, unga ta‘sir ko‘rsata oladi. Ijtimoiy eksperimentlarning mazmuni va bajariladigan ishlar tartibini belgilashda jamiyatda qabul qilingan huquqiy va axloqiy normalarga amal qilish talab etiladi.

Hozirgi zamon ijtimoiy-gumanitar fanlari sohalarida xayoliy eksperiment keng qo‘llaniladi. Bunda ideallashtirilgan obyektlarda kishining fikrlash qobiliyati, xayoliy tajribalar tizimi tekshirib ko‘riladi. Masalan, qiyoslash bu bir obyektning rivojlanish bosqichlari yoki turli obyektlarning o‘xshash va farqli jihatlarini bilishga qaratilgan amaliyot bo‘lishi bilan birga, tafakkur va hayot mazmunini anglashga, uni tasniflash, tartibga solish va baholashga xizmat qiluvchi fikrlash jarayonidir. Qiyosiy uslubda obyektlardagi o‘zaro munosabatlarni ochib berish uchun ularni juft holda taqqoslashga e‘tibor qaratiladi. Bu holda tajriba uchun muayyan shart-sharoit yoki qiyoslash uchun asos talab etiladi. Shu bilan birga

qiyosiy tajriba “bir turdagi” predmetlar sinfi ustidan o‘tkazilsa, muayyan mazmun kasb etadi. Qiyoslash orqali aniqlanadigan jihatlarning eng oddiy ko‘rinishi bu ustunlik, tenglik va farqli tomonlaridir.

Bayon usuli bilishning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, muayyan bir fan sohasida erishilgan kuzatuv natijalarini tegishli belgilar yordamida tasvirlashga e‘tibor qaratiladi. Nazariy bilish usullaridan formallashtirishda, ya‘ni fikrlash, isbotlash, tasniflash mazmunini formallashgan shaklda, ya‘ni belgi-ramzlar shaklida aks ettiriladi. Ushbu formallashgan til, belgi va ramzlar ta‘rif, tushunchaning aniq mazmun kasb etishiga ko‘maklashib, uning boshqa ma‘nolari ishlatilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Aksiomatik metod aksiomalarga, ya‘ni o‘z-o‘zidan ravshanligi, ayonligi sababli isbotsiz qabul qilinadigan fikrlarga asoslanib ilmiy nazariya qurish usulidir. Asos qilib olingan aksiomalar tizimi muayyan nazariy tizimda isbotsiz haqiqiy, deb qabul qilinadi. Boshqa nazariy bilimlar, xulosalar to‘la ravishda aksiomalar tizimidan deduktiv yo‘l bilan chiqariladi. Mazkur usul ilohiyotda keng qo‘llanilib, bunda ilohiy ta‘limotlar, aqidalar asos qilib olinadi. Lui de Broylning fikriga ko‘ra aksiomatik uslub fanlarni tasniflash va o‘qitishda yaxshi natija beradi. Ammo yangi bilimlarni kashf etishda qo‘llab bo‘lmaydi.

Deduksiya umumiy qoidalardan xususiyya borish usuli bo‘lib, umumiylikdan xususiyyikka borish bo‘yicha mantiqiy xulosa chiqarish ma‘nosini bildiradi. Deduksiya taxminlarning deduktiv aloqadorligiga asoslanadi. Uning asosida taxminiy xulosa chiqariladi. Bunda gipoteza (taxmin) eksperiment natijasida yoki tasdiqlanadi, yoki inkor etiladi.

Induksiya esa ayrim fikrlardan umumiy xulosalar chiqarishda va mantiqiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan muhokama usulidir. Xususiyyikni (masalan, hissiy diniy tajriba, konkret fakt) o‘rganilib, umumiylik (abstrakt umumlashgan xulosalar) bilib olinadi. Umumiylik predmet va hodisalar bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Umumiylikning eng muhim tomonlaridan biri induktiv xulosa chiqarishdir. Induksiya bilimlarning tashkil topishida, qonuniyatlarni ochishda,

tushunchalarni namoyish etish jarayonida, gipotezani olg'a surishda fan uchun muhim ahamiyatga ega (masalan, diniy hissiyotlar tajribasi, aniq dalillar va b.).

Umumilmiy metodologik tamoyillar ichida tizimli yondashuv alohida o'rin tutadi. Mazkur yondashuv asosida o'rganilayotgan obyektlar yaxlit bir tizim sifatida olinadi. Bunda quyidagi shartlar amalga oshiriladi:

- har bir tarkibiy qismning tizimdagi o'rni va funksiyasi qarab bog'liqlik darajasi aniqlanadi. Bunda yaxlit tizim xususiyati uning tarkibidagi elementlarning jamiga teng bo'lmaydi;
- tizim va uning tarkibiy qismlarining o'zaro aloqasi, tarkibiy xususiyatlari aniqlanadi;
- tizimning ierarxik xarakteri ochib beriladi;
- tizim tadrijiy rivojlanayotgan yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqiladi.

Har qanday ijtimoiy tizim kabi diniy jamoa uchun o'z-o'zini tashkil etish xususiyati xos. Bunda tizimdagi elementlarning o'zaro munosabati turli mexanizmlardagi kabi keskin xarakter kasb etmay, aksincha, tirik organizm, jamoalarga xos bo'lgan serharakat, jo'shqin, dinamik xarakterga ega. Tabiiy, ijtimoiy, ilmiy qonun qoidalarni izlashga qaratilgan o'z-o'zini tashkil etish umumilmiy nazariyasi sinergetika, deyiladi. Tarkibiy-funksional uslub tizimli yondashuvning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda yaxlit tizimning tarkibiy qismlari va ularning o'zaro munosabatlarini, vazifalarini aniqlashga e'tibor beriladi.

Ehtimoliy-statistik uslubda tasodifiy hodisaning muayyan, istalgancha ko'p marta takrorlana olishi e'tiborga olinadi. Ular ehtimollik nazariyasi bilan bog'liq bo'lib, din sotsiologiyasi va psixologiyasida diniy nizolarning rivojlanishi yoki kuchayishini prognoz qilish, terrorchilik aktlari sodir etilishi yoki ekstremistlar faoliyati kuchayishi, kamayishi ehtimoli kabilarni aniqlashda qo'l keladi. Muayyan sharoitlarda bu kabi hodisalar yuz berishi ehtimolliги darajasi o'rganiladi. Miqdoriy jihatdan ular noldan (yuz bermaydi) birgacha (yuz beradi) bo'ladi.

Statistik qonunlarga asoslanib prognozashtirish ehtimoliy xarakterga ega, ular ko'p lab omillarning ta'siri bilan belgilangan bo'ladi. Maxsus metod, vosita va

operatsiyalarga – alohida tarixiy fakt va hodisalarning individual xususiyatlarini ideografik tasvirlash usuli; hujjatlarni tahlil qilishda matnlar va boshqa informatsiya tashuvchilar mazmunini sifatiy va miqdoriy kontent-tahlil qilish; intervyuni sotsiometrik tahlil, shuningdek, kompyuterda qayta ishlanuvchi kontent-tahlil; alohida avlodlarning jamoaviy biografiyasi xususiyatlarini va shaxslar hayotiy yo‘lini ifodalashda ularning shaxsiy hujjatlaridan (yozishmalar, kundaliklar, avtobiografiya va h.k.) foydalanishga asoslangan biografik usul; og‘zaki intervyu, yozma anketa o‘tkazish, loyihalash usuli kabi so‘rovnomalar din psixologiyasida keng qo‘llaniladi. Bu insonning shaxsiy xususiyatlarini uning faoliyati natijalari orqali bevosita o‘rganish usuli; test o‘tkazish esa shaxsiy xususiyatlarni, tafakkuri darajasini (IQ), professional ko‘nikmalarini, diqqatini o‘rganadi. Test bilan ishlashda axloqiy normalar va tamoyillarga rioya etilishi kerak, chunki testga yaxshi bilmasdan ishlov berish yoki oshkor etilmaydigan natijani ochish salbiy oqibatlariga olib keladi; o‘yin testlarini o‘ynash usuli qaror qabul qilishda (axloqiy tanlov, boshqarishga oid qaror) samaralidir. Psixodramada o‘yin ishtirokchisi individual vaziyatni “amalgaga oshiradi”, sotsiodramada esa – muayyan guruhiy vaziyat o‘ynaladi; case study esa konkret vaziyatni ko‘rsatuvchi o‘quv mashqi. Konkret masalalarni tahlil qilish - kimlarningdir tajribasi asosida nimanidir o‘rganishning eng yaxshi yo‘li hisoblanadi. O‘quv vaziyat - Case study usulida o‘quvchi unga taklif etilgan konkret vaziyatni (diniy jamoada, dunyoqarashga oid bahsda, tanlash vaziyatida va h.k.) tahlil qilishga o‘rganadi va ushbu vaziyatlarni yechishga oid variantlarni taklif qiladi. Case study muammoni ko‘rsatuvchi bir yoki bir necha tipik hodisalarni chuqur o‘rganishga yordam beradi.

Bugungi zamonaviy dinshunoslik metodologiyasida quyidagi tendensiyalar aniqlandi: fanlararo yondashuvlarning kuchayishi; globallashtirish sharoitida kechayotgan integratsiyalashuv jarayonlarni e‘tiborga olgan holda dunyo dinlarini o‘rganish zaruratining anglab yetilishi; dinshunoslikda sinergetika uslublaridan foydalanilishi; dinshunoslikka oid atama va iboralarga aniqlik kiritish va ularni standartga keltirishga qaratilgan qiziqishlarning ortishi; dinlardagi vaqt o‘lchovi bilan bog‘liq qarashlarning nisbiyligi masalasiga oid fikrlarning rivojlanishi

(hinduiylik va buddizmdagi davriy vaqt o'lchovi; hayot davomiyligi (Qiyomat qoim, Oxirat va b.); tabiiy va ijtimoiy fanlarga xos uslublarning yaqinlashtirilishi (sotsiometrik metodlar, matematik vositalardan diniy dalillarni yoritishda foydalanish), din sotsiologiyasi va psixologiyasida kichik diniy jamoalarni o'rganishda, jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlarini tahlil qilishda turli uslublardan foydalanish holatlari; dinshunoslik sohasida, xususan, din fenomeologiyasida tadqiqot olib borishning noan'anaviy uslub va vositalarga tayanish holatlarining ortishi; diniy manbalar, muqaddas kitoblar, din peshvolari va payg'ambarlar hayot faoliyatining narratologik tadqiq etilishi.

Dinni o'rganish bo'yicha yuqorida keltirilgan umumilmiy yondashuvlardan tashqari qadimdan mavjud bo'gan teologik va ateistik yondashuvlar ham mavjud.

Teologik yondashuv bu asosan dinni notanqidiy tadqiq qilish yo'lidir. Uning asosida isbot qilishni talab qilmaydigan diniy ishonch yotadi. Majoziy qilib aytganda, teologiya ishonch aksiomalari bilan, dinshunoslik esa tafakkur teoremlari bilan shug'ullanadi. Diniy yondashuvning asosiy maqsadi dindagi asosiy aqidalarning haqiqatligini ko'rsatishga intilish sanaladi. Bu bilan teologiyaning maxsus bo'limi bo'lgan apologetika shug'ullanadi. Din falsafasi, diniy ta'limotlar, matnlar, timsollar va shu kabilar dinni teologik jihatdan o'rganishga ta'sir ko'rsatgan. Teologiya dinni subyektiv jihatdan o'rganadi, u dinni nafaqat tahlil qiladi, balki diniy e'tiqodni ateistlar va boshqa diniy konfessiyalardan hamda ichki sekta va oqimlardan himoya qiladi.

Ateistik yondashuv bu ko'p incha dinni tanqidiy tahlil qilish sanaladi, unda xudo tomonidan dunyoning yaratilganligi, yaratuvchining mavjudligi tanqid qilinadi, bilim ishonchga qarshi qo'yiladi, abadiy hayot kechirish va osmoniy jannat, qayta tug'ilish g'oyasi, nirvana va shu kabilar inkor qilinadi. Shunday qilib, dinshunoslik va teologiya dindек umumiy o'rganish obyektiga ega, ammo ular uni tushuntirishda va metodologiyada prinsipial qarama-qarshi yondashadilar. Shu munosabat bilan jamiyatdagi dunyoviylik va diniylik chegaralarini hurmat qilish masalasi hamon dolzarb masala hisoblanadi²¹. Bunday holda dinni o'rganish va

o'rgatishda uslubiy betaraflik, holislik tamoyilidan foydalanish samarali hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ma'naviy, diniy va madaniy qadriyatlarni tiklash siyosati dinlarni, eng avvalo islomning turli jihatlarini tadqiq etishga turtki berdi. Hozirgi O'zbekistonda milliy dinshunoslik maktabining shakllanishida uch asosiy bosqich va 2017- yilning boshidan shiddat bilan rivojlanayotgan to'rtinchi bosqich kuzatilmoqda. Ushbu bosqichlarning har biri muhim tarixiy voqealar bilan bog'liq²².

I. 1992-1998-yy. Mamlakatimizning davlat mustaqilligiga erishishi (1991-y.) va shu bilan bog'liq holda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida yuz bergan tashkiliy o'zgarishlardek tarixiy voqealar. Masalan, 1992-yili Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning tashkil etilishi, diniy mazmundagi materiallarning dinshunoslik ekspertizasi tashkil etilishi, O'zbekistondagi oliy o'quv yurtlarida "Dinshunoslik" fanidan dars berishning boshlanishi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi va uning 1998-yildagi yangi tahriri. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan "Dinshunoslik" mutaxassisligi bo'yicha ta'lim standarti ishlab chiqish faoliyatining muvofiqlashtirilishi.

Dinshunoslik vujudga kelishining birinchi bosqichida dinni tadqiq etish ishining katta qismi faylasuflar tomonidan amalga oshirildi, ya'ni o'sha davrda himoya qilingan tadqiqot ishlarining 48 foizini qamrab oldi. Holbuki, o'zbek tili va adabiyoti, rus tili va adabiyoti, Osiyo va Afrika xalqlari adabiyoti mutaxassislarining ishi 24 foizni, tarixchilarning ishlari – 20 foiz, huquqshunolar ishi esa 8 foizni tashkil etdi. Qarang, I-Ilova

Mamlakatimizdagi yirik oliy o'quv yurtlarida dinshunoslik kafedralari ochildi. Ammo yuqori malakali kadrlarning kamligi va akademik doiralardagi ushbu fanining predmeti, maqsad va vazifalari xususidagi kelishmovchiliklar dinshunoslikni o'rganish va dars berish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, shunday sharoitlarda ham din va hurfikrlik falsafasi, din sotsiologiyasi borasida qiziqarli tadqiqotlar paydo bo'ldi: A.Abdusamedov, B.Bobojonov,

H.Karomatov, A.Xasanov, A. Muminov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari shular qatoriga kiradi.

Birinchi bosqichda islom qadriyatlarini o'rganishning metodologik asoslari tamal toshini qo'yish, ayniqsa, muhim edi. O'zining falsafa bo'yicha nomzodlik ishida P.Abdullaxonov birinchi bo'lib O'rta Osiyo xalqlari madaniyati tizimida islomni o'rganishning metodologik aspektiga murojaat qildi (1992-y). Bu davrda amalga oshirilgan fanlararo tadqiqotlar ichida quyidagi ikki ish o'zining yorqinligi bilan ajralib turadi: o'zbek adabiyotida Qur'on motivlarining tarixiy-badiiy tahliliga bag'ishlangan H.Karomatovning filologiya bo'yicha doktorlik ishi ikki mutaxassislik chegarasida himoya qilingan: 10.01.03 – O'zbek adabiyoti va 10.01.06 – Osiyo va Afrika xalqlari adabiyoti (1993-y.). 90-yillarda islom qadriyatlarining tiklanishi, Ma'naviyat va ma'rifat markazining faoliyati islomning milliy o'zini anglash, ma'naviyat, tarbiya va mamlakatimiz fuqarolik huquqi va Oila kodeksi bilan o'zaro aloqalariga qiziqishni jonlantirdi. A.Yusupovning dissertatsiyasida ma'naviy qadriyatlar, diniy va dunyoviy ilmlar uyg'unligi masalasi yoritilgan. 90-yillarning o'rta laridan boshlab islom huquqi, islom iqtisodiyoti, shariat masalalariga qiziqish ko'zga tashlanadi, shuningdek, sharqshunoslarning huquqshunoslik masalalarini o'rganishi kuchaydi. Bu davrda din tarixi bo'yicha sharqshunos-olimlarning tadqiqotlari o'zining salmoqliligi, ilmiy asoslanganligi bilan ajralib turadi. A.Xasanovning doktorlik dissertatsiyasida Qadimgi Arabiston yoxud "Johiliya" tarixi va uni o'rganish muammolarini, ilk islom vujudga kelishi jarayonini, arab qabilalarining turli dinlarga, xususan, yahudiylikka e'tiqod qiluvchi xalqlar bilan munosabatlari masalasini, umuman, o'sha davrni o'rganish muammolarini tadqiq etdi. Din sotsiologiyasi, qiyosiy dinshunoslik, tarixnavislik, dinshunoslik metodologiyasi oldida turgan bir qator savollarga javoblar ushbu mavzuni yanada kengroq o'rganishga imkoniyat berdi. Masalan, Z.Shokirova tarix bo'yicha dissertatsiyasini ilk islomdagi sulhparvarlik tamoyillarining tarixiy-qiyosiy tahlili masalalari bilan bog'lagan. B.Bobojonov Naqshbandiya sufiy shayxlari siyosiy faoliyatiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyasida XVI asr birinchi yarmida Movarounnahrda hokimiyat va dinning

o‘zaro munosabatlarini yoritgan. Ushbu mavzu tadqiqotchining ko‘p lab shogirdlariga turtki berdi. Misol uchun, H.Yo‘ldoshxo‘jayevning ilmiy izlanishi Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddiya tariqati rivojida tutgan o‘rniga bag‘ishlangan (2008-y.) O‘zbekiston mustaqilligining ilk davrida dinshunoslar o‘z oldiga yangi vazifalarni qo‘yganlar va ularni yechish yo‘llarini belgilaganlar. Dinshunoslik yo‘nalishlari, ilmiy-tadqiqot tamoyillari, islom dini tarixi, falsafasi, ularning jamiyat hayoti va rivojidadagi o‘rni bilan bog‘liq masalalarni hamda zamonaviy fanlarni chuqur o‘zlashtirgan, davlat va jamoat tashkilotlari, diniy muassasalar oldidagi nazariy va amaliy vazifalarni hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassis – bakalavr va magistr kadrlar tayyorlash maqsadida 1999-yil 7-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Toshkent islom universiteti tashkil etildi²³.

II. 1999-2006. Toshkent islom Universiteti tashkil etilishi dinshunoslikning rivojiga kuchli turtki berdi. Uzluksiz ta‘lim tizimi va keng jamoatchilik uchun dinshunoslik, xususan, islom ta‘limoti va falsafasi bo‘yicha ilmiy-ommabop asarlar, darsliklar, o‘quv dasturi va qo‘llanmalar yaratilishi boshlandi, xorijiy mamlakatlarning yetakchi ta‘lim va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni amalga oshirish tadbirlari olib borildi. Yuqoridagi vazifalar qisman 2000-yilda tuzilgan “Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish bo‘yicha UNESCO” kafedrasi tomonidan hal etilgan. Ushbu kafedraning birinchi mudiri prof. A.Xasanov rahbarligi ostida dinshunoslikka oid fanlarning o‘quv dasturlari va ta‘lim standartlari tuzildi va yangilandi, dinshunoslikka oid fanlar doirasi kengaydi, xalqaro forumlar tashkil etildi. Kafedraning keyingi mudiri D.Rahimjonovning faoliyati davomida TIU Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi, islomshunoslik kafedrasi, Islom instituti bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi. Islom tarixi va manbashunosligi, islom falsafasi, islom huquqi, hadisshunoslik, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari kabi fanlarning o‘quv dasturlari va qo‘llanmalari tuzildi.

Bu bosqichda jahon dinlarini turli ijtimoiy-siyosiy va gumanitar fanlar sohalarida fanlararo o'rganish tendensiyasi kuchaydi. Din sotsiologiyasi va psixologiyasi, dinshunoslik asoslari; dinshunoslik o'qitish metodikasi, din antropologiyasi, arxitektura epigrafikasi, paleografiya bo'yicha tadqiqotlar olib borildi va o'quv adabiyotlari yaratildi. UNESCO kafedrasini har yili an'anaviy tarzda ikki marta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarini o'tkazadi: Ular 16 noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuniga hamda aprel oyida dinshunoslikning dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

O'zbekiston sharqshunoslarining ko'p chiligini bu davrda islom manbashunosligi va tarixi, hadisshunoslik, islom huquqi mutaxassisligi, hanafiylik mazhabi va tasavvuf ilmiga oid manbalar va tadqiqotlar qiziqtirgan. Islom manbalarini tadqiq qilishdagi umumiy yo'ndashuv, metodik usul va tamoyillarning o'xshashligi 2000-yillarda "Islom tarixi va manbashunosligi" hamda "Islom huquqi" ilmiy maktablarining shakllanganiga dalolat qiladi.

III. 2007-2016. Bu davr mamlakatimiz hayotining barcha sohalarini modernizatsiyalashga qaratilgan tadbirlar bilan bog'liq. Jamiyat hayotining barcha sohalarini zamonaviylashtirish va erkinlashtirish jarayoni dinshunoslik sohasining rivojlanishida ham qisman o'z aksini topdi. 2016-yilning oxirida bu sohada ixtisoslashgan kadrlar va dinshunoslik bo'yicha o'quv materiallarining etishmovchiligi bilan bog'liq muammoni yechishga qaratilgan tadbirlar boshlandi. Bu davrda dinshunoslik sohasidagi tadqiqotlar miqdori unchalik ko'p aymagan bo'lsa-da, dunyo dinlarini, shu jumladan, islomni o'rganish sifati sezilarli kuchaygani ko'rindi. Birinchidan, "Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o'rganish bo'yicha UNESCO" kafedrasining "ko'p konfessionallik sharoitida tolerantlikning nazariy masalalari va amaliy vazifalari"ga oid tadqiqotlar davom ettirildi. Bu mavzu UNESCO kafedrasining birinchi mudiri A.Xasanov tashabbusi bilan boshlangan edi va Z.Husniddinov ("O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash omillari va muammolari"), E.Ibragimov ("O'zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag'rikenglik an'analari shakllanishida tutgan o'rni"), M.Xoshimov ("UNESCO faoliyatida diniy bag'rikenglik

tamoyillari” (O‘zbekiston Respublikasi misolida); M.Vohidovanning (“Tolerantlik – yoshlarning ijtimoiy-axloqiy yuksaltirish omili”) dissertatsiyalarida davom ettirildi. Dinning falsafiy muammolari va sotsiopsixologik aspektlari bo‘yicha yirik tadqiqotlar amalga oshirildi. 2011-yili A.Komilov o‘z dissertatsiyasida O‘zbekistonda 20 yilda diniy soha rivojining natijalarini, uning o‘ziga xosliklarini ko‘rsatdi. 2012-yilda A.Karimov o‘z nomzodlik dissertatsiyasida diniy fanatizmning tarixiy ildizlariga, uning hozirgi shakllariga va unga qarshi kurashish asoslariga e‘tibor qaratdi. Bu tadqiqotlarning barchasini dinning o‘rni va rolini tushuntirishga yagona yondashuv, uni kompleks va obyektiv o‘rganish birlashtirib turadi. 2015-2016-yillarda “Dinshunoslik” fani bo‘yicha barcha ta‘lim bosqichlari uchun yangi formatdagi o‘quv adabiyotlari yaratilgan: “Dinshunoslik asoslari”²⁴, “Jahon dinlari manbalari”²⁵, “Dinshunoslik o‘qitish metodikasi”²⁶ chop etildi. Ushbu ilmiy yutuqlar O‘zbekistonda dinshunoslik maktabi yuzaga kelganidan dalolatberadi.

IV. 2017-yildan boshlangan bosqichda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Farmoyishiga ko‘ra dinshunoslik sohasini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamdagi chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ta‘limning barcha bosqichlari uchun “Dinshunoslik” fani bo‘yicha yangi formatdagi darsliklar va o‘quv dasturlari yaratish; ta‘lim muassasalarini “Dinshunoslik” o‘qituvchilari bilan ta‘minlash; dinshunoslik o‘qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish, shuningdek, ular uchun davriy seminarlar o‘tkazish; yoshlarda mafkuraviy immunitetni qaror toptirish tadbirlari boshlandi. O‘zbekistonda xalqaro standartlarni hisobga olgan holda, oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limga qo‘yiladigan takomillashtirilgan davlat talablari, falsafa doktori (PhD) va fan doktori ilmiy darajalarini olish uchun dissertatsiya ishlari mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablar ishlab chiqishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi boshlandi; xorijiy davlatlarda berilgan ilmiy darajalar haqidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilish (ekvivalentligini qayd etish)ning amaldagi tartibi takomillashtirildi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalar agentligi tashkil

etildi²⁷. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining davlat stipendiyalari sohiblari bo‘lgan talabalar Davlat oliy ta‘lim muassasasini bitirgach, ikki yil davomida magistraturaga grant asosida (bakalavr-stipendiatlar) va tayanch doktoranturaga (magistr-stipendiatlar) kirish imtihonlari natijalariga ko‘ra qabul qilinadi. Bakalavr-stipendiatlar o‘qishni tamomlagandan so‘ng ikki yil mobaynida magistraturada o‘qishni davom ettirish maqsadida xorijga yuborilish huquqini saqlab qoladilar²⁸.

2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining tashkil etilishi, Markaz tarkibida Markaziy Osiyodagi eng katta kutubxona va arxiv, qadimiy qo‘lyozma va toshbosma kitoblar, tarixiy dalil va hujjatlar, qo‘lyozmalar fondlarining shakllantirilishi islomshunoslik va qiyosiy matnshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ko‘p ayishida muhim omil bo‘ldi. Dinshunoslik sohasini takomillashtirishga qaratilgan ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi dinshunoslik sohasida ilmiy tadqiqotlarning ko‘p ayishiga sabab bo‘ldi. Xususan, 2017-2018-yillar mobaynida dinshunoslik va islomshunoslik ixtisosligi bo‘yicha 28 ta dissertatsiya yoqlandi. Bu bosqichda jahon dinlarini turli ijtimoiy- siyosiy va gumanitar fanlar sohalarida, ayniqsa, filologlar, pedagoglar, faylasuflar tomonidan fanlararo o‘zaro bog‘lagan holda o‘rganish tendensiyasi yanada kuchaydi. Ushbu tadqiqotlarning asosiy maqsadi – din bilan bog‘liq noyob merosni, uning insonparvarlik mohiyatini ilmiy asosda o‘rganish, xalqimiz va jahon jamoatchiligiga yetkazish, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, yosh avlodni diniy bag‘rikenglik g‘oyalari ruhida tarbiyalashdan iborat. Masalan, dinshunos U.R. Kushaev doktorlik dissertatsiyasida jahon dinlarida bag‘rikenglik g‘oyalarining uyg‘unligini tahlil qilgan (2017-y.). Pedagog G.V. Izbullayeva ilmiy ishidagi Jaloliddin Rumiyning ma‘naviy merosidan o‘rin olgan shaxs ma‘naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish va ta‘lim jarayonida yuksak ma‘naviy-axloqiy tafakkurini rivojlantirishga doir ilmiy tavsiyalarni bergan, “Imon-e‘tiqod”, “Bag‘rikenglik”, “Mustahkam iroda”, “Vijdon”, “Go‘zal axloq” tushunchalarini talqin etgan (2018-y.). Psixolog A.G.Ayrapetova “Yoshlarda noto‘g‘ri diniy

tushunchalarni shakllantiruvchi shaxs xususiyatlari” nomli dissertatsiyasida diniy mutaassiblik va ekstremistik g‘oyalarga berilgan shaxsning psixologik portretini keltirgan. Uning fikricha noto‘g‘ri tushunchalarga ega yoshlarga quyidagi xislatlar xos: diniy savodxonlikning pastligi, o‘ta royishlik, bezovtalik, namoyishkoronalik va boshqalar (2017-y.). Pedagog A.A.Ismanova o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi tizimi misolida ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish bo‘yicha o‘z tavsiyalarini berdi (2017-y.).

Milliy madaniyatimiz ma’naviy merosini targ‘ib qilish siyosati diniy manbalarni xorijiy tillarga tarjima qilish nazariyasi, amaliyoti va tarixi bo‘yicha tadqiqotlarning ko‘p ayishiga turtki berdi. Bu borada bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Masalan, O.V.Mahmudovning dissertatsiyasida XII–XIII asrlar Yevropada Markaziy Osiyo olimlari: al-Forobiy, al-Farg‘oniy, Ibn Sino va boshqa mutafakkirlarning asarlarini tarjima qilish va o‘rganish Toledo maktabida yo‘lga qo‘yilgan “arab→kastil→lotin”, “arab→ivrit→lotin”, “arab→lotin”, “kastil→lotin” tarjima uslubining metodik xususiyatlarini ochib bergan. Toledo maktabida tarjima qilingan asarlar ahamiyatini yoritish asnosida Yevropa mamlakatlarida Renessans jarayonining yuzaga kelishida Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosining tutgan o‘rni ochib berilgan.

Keyingi davrda diniy manbashunoslik yo‘nalishida ham fanlararo o‘zaro bog‘lagan holda tadqiqotlarni amalga oshirish doirasi ancha kengaydi. Sh.M.Sultonova “Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi” ixtisosligi bo‘yicha muqaddas matnlarda zamon kategoriyasining lingvomadaniy xususiyatlarni tadqiq etgan (2018 y.). G.U.To‘ychieva doktorlik dissertatsiyasida “Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi” ixtisosligi bo‘yicha islom davri she’riyatida aruz tizimi va uning evolyutsion taraqqiyotini tadqiq etgan (2018-y.). Tasavvuf ta’limotini o‘rganish borasida ham yangi muhim manbalar, bir qancha tasavvuf shayxlarining faoliyati o‘rganildi. Masalan, Sh.Yu.Shakirova “Bobojon Sanoiyning adabiy-irfoniy merosi” nomli dissertatsiyasida Xorazm tasavvuf maktabi namoyandasi bo‘lgan Bobojon Sanoiyning adabiy merosi va tasavvufiy qarashlarini tadqiq etgan, uning “Kanz ul-maorif” va “Hadiqai azhor”

asarlarining yangi manba sifatidagi o'ziga xosliklarini yoritib bergan. K.R.Rahimov o'z tadqiqotida Mustamliy Buxoriyning "Sharh at-Ta'arruf" asari hamda uning XI–XV asrlar Movarounnahr va Xuroson tasavvuf manbalariga ta'sirini o'rgangan. M.A.Mamatovning "Tasavvuf ta'limotining tarixiy- falsafiy mohiyati" nomli dissertatsiyasida turli tasavvufiy qarashlar kompleks tarzda o'rganilgan, tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy mohiyati, uning islom madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni, undagi yuksak ma'naviy va diniy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan g'oyalarning mohiyati ochib berilgan. Islomshunos va pedagoglarning fikricha tasavvuf ta'limotidagi ijobiy tajribalardan bugungi kunda ham samarali foydalanish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, xozirgi kunda O'zbekistonda shakllangan dinshunoslik, islom manbaashunosligi, fiqh ilmi maktablarining dinni o'rganishda o'rni beqiyos. Shunda bo'lsa-da, ular oldida hukumat qarorlarida belgilangan dinshunoslik sohasini takomillashtirish bo'yicha jiddiy vazifalar tug'ildi. Mamlakatda dinni o'rganishda yangi bosqich boshlandi. Ushbu bosqich maqsad va vazifalarni oldingi ijobiy tajribasini hisobga olib, kamchiliklari tuzatilgan holda tuzilgan. Dinshunoslar va ijtimoiy-gumanitar olimlarning fanlararo tadqiqotlari, nazariy bilimlar va amaliy tavsiyalari O'zbekistonning ilmiy salohiyatini yanada kuchaytirmoqda.

Mamlakatimiz rahbariyati va jamiyatimiz tomonidan dinni chuqur o'rganish va o'rgatishga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan Imom Termiziy xalqaro ilmiy- tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy- tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, "Mir Arab" oliy madrasasi tashkil etildi.

2018-yili apreldan diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita tuzilmasida Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o'rganish axborot-tahlil markazi tashkil etildi. Ushbu markaz Din ishlari bo'yicha qo'mitaning diniy mavzularga oid adabiyotlar, internet va

ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiquvchi axborot-tahliliy tuzilmasi hisoblanadi.

Diniy ishlari bo'yicha qo'mita tomonidan jamoat va diniy tashkilotlar xodimlarining Respublikada konfessiyalararo hamkorlik va bag'rikenglik targ'iboti bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommalashtirish uchun xorijiy safarlari tashkil etiladi. O'zbekistonning diplomatik vakolatxonalariga mamlakatimizda ekstremizm va terrorizmning oldini olish, dinlararo totuvlik va bag'rikenglikni mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi materiallarni, jumladan, audiovizual materiallarni xorijiy OAVlarida yoritish uchun taqdim etib boriladi. Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda "Halol" standarti va boshqa dinlarga taalluqli standartlar bo'yicha mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar xodimlarini o'qitish, tayyorlash bo'yicha o'quv kurslari va amaliy seminarlar tashkil etiladi. Davlat, jamoat va diniy tashkilotlar veb-saytlari, ijtimoiy tarmoqlarda vijdon erkinligini ta'minlash, bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasida qilinayotgan ijobiy ishlar keng targ'ib etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning din ishlari sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlashga mas'ul vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar: O'zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat tamoyilini amaliy ro'yobga chiqarish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish; diniy mutaassiblik va ekstremizm g'oyalarini tarqatish, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni yuzaga keltirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish va b.²⁹

O'zbekistondagi islom sivilisatsiyasi markazi faoliyatining asosiy vazifalari: jahon ilm-fani tarixida o'chmas iz qoldirgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi kabi olim va mutafakkirlar merosining

tarixiy va zamonaviy sivilizatsiya taraqqiyotidagi o'zni va ahamiyatini, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib singari mumtoz adabiyot va san'at namoyandalari ijodining insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish; Markazda, mahalliy va chet ellik mutaxassislarni keng jalb etgan holda, ilmiy tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yish va ularning natijalaridan yurtimiz hamda jahon jamoatchiligini xabardor qilib borish; bugungi kunda tobora katta ahamiyat kasb etayotgan dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni samarali yo'lga qo'yish maqsadida O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazining jahondagi nufuzi xalqaro ilmiy muassasa va tuzilmalar, jumladan, UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik aloqalarini o'rnatish³⁰.

O'zbekiston musulmonlari idorasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Din ishlari bo'yicha qo'mita muassisligidagi Qur'on ilmlari, hadis, islom huquqi, aqida, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar (arab, fors, ingliz, rus, urdu, turk va b.) va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar bo'yicha malakali kadrlarni tayyorlashga, o'rta maxsus, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, malaka oshirish bosqichlarida uzluksiz ta'limning yaxlit tizimini tashkil etishga va ilmiy merosni chuqur tadqiq qilish va asrab-avaylashga, diniy va dunyoviy bilim berishga ixtisoslashgan yetakchi ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi hisoblanadi; Respublikadagi barcha islom ta'lim muassasalari faoliyatini o'quv-me'yoriy va o'quv-uslubiy jihatdan ta'minlash hamda muvofiqlashtirishni amalga oshiradi³¹.

Asosiy xulosalar

Zamonaviy dinshunoslikning qaror topishida bir qator ijtimoiy- gumanitar olimlarning fanlararo tadqiqotlari va dinshunoslikning quyidagi yangi tarmoqlari muhim rol o'ynadi: din tarixi va matnshunosligi, din psixologiyasi, din sotsiologiyasi, din antropologiyasi, din fenomenologiyasi, din falsafasi. Dinning

ayrim tarkibiy jihatlarini amaliy lingvistika, narratologiya, kognitivistika, germenevtika, paleografiya, epigrafika kabi ba'zi gumanitar fanlar ham o'rganmoqda.

Dinshunoslik fanining predmeti – din va diniy e'tiqod, insonni Xudoga va boshqa ilohiy qudratlarga ishonishidir. Din – inson hayotining noyob hodisasi, u turmushning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalariga singib ketadi.

Dinshunoslik fanining maqsadi: dunyo dinlari bo'yicha chuqur nazariy va amaliy bilimlar berish, din, uning ma'naviy hayotimizdagi o'rni haqida xolis, to'g'ri dunyoqarashni shakllantirish hamda yuksak ma'naviyatli kadrlarni tarbiyalashdir.

Dinshunoslik fanining vazifalari: dinshunos mutaxassislarining pedagogik, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy, tashkiliy-boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish; yoshlarda buzg'unchi g'oyalarga qarshi madaniy immunitetni shakllantirish; ajdodlar merosini o'rganish, yosh avlodni vatanparvarlik, diniy bag'rikenglik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Dinshunoslikda tarixiy, falsafiy, mifologik, psixologik, sotsiologik, antropologik va boshqa bir qancha maktablar shakllangan. O'zbekiston milliy dinshunoslik maktabining shakllanishi uch asosiy bosqichni o'tdi va 2017-yilning boshidan shiddat bilan rivojlanayotgan to'rtinchi bosqich davom etmoqda. 2000-yillarda O'zbekistonda Dinshunoslik, Islom manbashunosligi, Islom huquqi ilmiy maktablari shakllangan.

Mamlakatimiz rahbariyati va jamiyatimiz tomonidan dinni chuqur o'rganish va o'rgatishga alohida e'tibor qaratilayotgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu vazifani O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan tashkil etilgan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy- tadqiqot markazi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, "Mir Arab" oliy madrasasi va boshqa dunyoviy va diniy muassasalar bajarmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning din ishlari sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlashga mas'ul vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilar: O'zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat tamoyilini amaliy ro'yobga chiqarish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish; diniy mutaassiblik va ekstremizm g'oyalarini tarqatish, turli konfessiyalar o'rtasida adovatni yuzaga keltirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish va b.

1.2. Dinning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari

Mazmun. *Dinning mohiyati. Dinga berilgan ta'riflar. Din – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat sifatida. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishidagi ahamiyati. Dinning tizimi. Dinning ijtimoiy funksiyalari: dunyoqarashni shakllantirish, yosh avlodni tarbiyalash, tartibga solish, birlashtirish, tasalli berish, aloqa o'rnatish va h.k. Dinlar tasnifi.*

Dinga berilgan ta'riflar

Dinning ta'riflari juda ko'p, ular uning mazmun- mohiyatini u yoki bu nuqtayi

nazardan ifodalaydilar. Din arab.-mulk, hukm, hisob, jazo, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish va b.ma'nolarni bildiradi. Qur'onda "din" turli ma'nolarda 100 dan ortiq o'rinda keltirilgan³². Din so'zi juda keng ma'noda ishlatiladi. Hozirgi zamon Yevropa dinshunoslari X.Rodriges va J.Xarding³³, K.Xok³⁴ "Dinshunoslikka kirish" asarida ana shu holatni qayd etadi. U XIX-XX asrlarda amerikalik psixolog Djems Genri Leubaning³⁵ o'tgan asr boshida dinga bergan ellikdan ortiq ta'rifini eslatib, o'zining muqobil ta'rifini bayon etadi. K.Xokning fikricha, dinga yangi ta'riflar berilishi kelajakda ham to'xtamas kerak. Bu hol dinning ko'p qirraliligi va uni anglashga yondashuvlarning ko'p ligi bilan izohlanadi. E.Elbakyan ham hozirgi paytda dinning 250dan ortiq ta'rifi borligini ta'kidlaydi³⁶.

Dinga uzil-kesil ta'rif berishga intilish bahsli bo'lib, ularning nisbiyligi, cheklanganligi muqarrardir. Hozirgi vaqtda dinshunoslar doirasida ko'p incha quyidagi ta'rifdan foydalaniladi: din – Xudoga, ilohiy va boshqa shakldagi kuchlarga ishonishga asoslangan e'tiqodlar, tasavvurlar, an'analar va ularga muvofiq bo'lgan xatti- harakatlar va ibodatlar yig'indisidir. Din – odamlarning ishonch-e'tiqodi bilan belgilanuvchi dunyoqarashi, dunyoni anglashi, ruhiyati va xatti- harakatidir.

Din – ijtimoiy shakli, muayyan turmush, tafakkur tarzi va | Din jahon ijtimoiy va ma'naviy hayotida g'oyat muhim ahamiyatga ega. Dinlarining

ma'naviy qadriyat sifatida

xususiyatlarini bilmay va

tushunmay turib, milliy, jahon va hatto kasbiy madaniyat sohasi to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilib bo'lmaydi. Ular din bilan ko'z ilg'amas nozik iplar orqali bog'langan. Masalan, musulmon diniy huquqi asoslarini bilmay turib, xayriya an'anelarini va tadbirkorlikni rag'batlantirish shakllarini, "islomiy" bank-kredit tizimining ijtimoiy tamoyillarini to'g'ri tushunish va baholash amri mahol³⁷. Xristianlikni o'rganish hozirgi zamon Yevropa tadbirkorlik axloqini tushunishga yordam beradi, chunki diniy axloqshunoslikka aynan protestantlik etikasi asos qilib olingan³⁸. Boshqacha qilib aytganda, protestantlik va islomning mohiyatini bilish yevropalik va osiyolik biznes hamkorlarning fe'l-atvorini yaxshiroq tushunish va prognozlash imkonini beradi. Diniy aqida ahkomlarini bilish diniy shiorlar niqobi ostidagi zo'ravonlik va adovat siyosatini targ'ib qilayotgan ekstremizm yo'liga to'siq qo'ya oladi. Davlatning ijtimoiy siyosatini shakllantirishda diniy omilni e'tiborga olish bag'rikenglik va totuvlik muhitini qo'llab-quvvatlashga imkon berishini tajriba ko'rsatib turibdi³⁹.

Madaniyatning muhim qismlaridan biri bo'lmish din qadimiy va zamonaviy ma'naviy madaniyatni tushunishga yordam beradi. Diniy badiiy tasvirlar, odob-axloq, huquq butun madaniyatni qamrab oladi, inson va jamiyat ma'naviy fazilatlarini oshiradi. Diniy mavzu va syujetlarda yashirilgan ma'lumotlarni tushunib anglashga yordam beradi va shu bois milliy va jahon madaniyatiga erishishiga imkon beradi.

Mamlakatimizda milliy madaniyatni qayta tiklash jarayoni islom qadriyatlarining tiklanishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, boshqa urf-odatlar va dinlarning vakillariga hurmat va adabli munosabat diniy bag'rikenglik va yuksak ma'naviy madaniyatning belgisidir. Bag'rikenglik g'oyasi jamiyatda tinchlik va hamjihatlik muhitini yaratishga yordam beradi, turli e'tiqotda bo'lgan odamlarning birgalikdagi maqsadlarga erishishni tezlashtiradi.

Qadim zamonlardan beri dinlar ko'plab ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'zida qamrab olgan. Turli xalqlarning turmush tarzining o'ziga xosligi muvofiq turli dinlarning xususiyatlari va vijdon erkinligi xolatida aks etadi. Shu bilan birga,

dunyoning asosiy dinlari bir xil insonparvar g'oyalarga tayanadi – odamlarni qadrd-qimmat, mehribonligi, tinchlik, mehr-muruvvat, odamlarni halollikka undalaydi. Shu ma'noda, dinning fundamental asoslari o'zgaras bo'lib, uing asrlar davomida turli xil mafkuraviy tizimlar bilan raqobatda saqlanib qolishiga yordam beradi, insonning axloqiy jihatdan takomillanishiga muhim hissa qo'shadi. Shu bilan birga, din vaqt davomida muqarrar ravishda o'zgaruvchidir. Bundan tashqari tarqalgan sari jahon dinga mahalliy diniy madaniyatlar va boshqa omillar ta'sir ko'rsatadi, uni o'zgartiradi. Din dunyodagi o'zgarishlardan chetda qolish, ularga moslashmaslik, modernizatsiyalashmaslik iloji yo'q, aks holda u o'z tarafdorlarini yo'qotib, yangilarni jalb qila olmaydi. Keskin, tarkibiy o'zgarishlar dinni isloh qilishga olib keladi. Masalan, O'rta asrlarda Evropaning islohotchi harakatlari natijasida protestantizm paydo bo'ldi. Diniy ishonch fundamintinini jiddiy o'zgarishlardan himoya qilish uchun dinlarda fundamentalizmga moyillik mavjud, ya'ni diniy aqida, an'analar, urf-odatlar va shu kabilarni saqlab qolish, yangilikka qarshi intilish. Shunday qilib, dinlarda modernizatsiya bilan bir qatorda fundamentalizm moyilligi mavjud.

Dinning tizimi | Har qanday dinning tuzilmasida bir qancha umumiy komponentlar, diniy his-tuyg'ular mavjud bo'lib, ulardan eng muhimlari diniy e'tiqod, muhabbat, qo'rquv; diniy ong, diniy tasavvur; diniy tajriba, diniy faoliyat, ibodat; diniy munosabatlar; diniy tashkilotlardir.

Ramziylik, estetiklik diniy ongga xos xususiyatlardir. Diniy ong diniy san'atda: musavvirlik, arxitektura, raqs, adabiyot kabilarning o'ziga xos ramziy ifodasi hamda bayonida rasmiylashadi va namoyon bo'ladi. Diniy aqidalarning fan mulohazalaridan farqi shuki, diniy e'tiqodni isbotlash va tekshirish talab qilinmaydi. Diniy e'tiqod intuitsiya, ma'naviy tajriba va madaniy an'analar kuchiga tayanadi.

Diniy his-tuyg'ular – dindorlarning muqaddas narsalarga, shaxslarga, maxluqlarga, xatti-harakatga emotsional munosabati, xullas, o'z diniy tasavvurlari va tajribalari bilan bog'liq hamma narsadan ta'sirlanishlaridir. Insonning qo'rquv,

muhabbat, zavqlanish, rohatlanish, suyunish, umid kabi turli-tuman his va hayajonlari uning diniy tasavvurlari bilan qo‘shilib ketishi va tegishli yo‘nalish kasb etishi mumkin. Masalan, “taqvodorlik”ni tashkil etuvchi tarkibiy qismlarga o‘ziga xos qo‘rqinchni kiritishadi. Yovuz ruhlar oldidagi qo‘rqinchdan farqli ravishda, golland ilohiyotshunosi, din tarixi va falsafasi doktori Kornelius Tile (1830-1902) xudodan qo‘rqish – “cheksiz va behad ulug‘vorlik”ka o‘ziga xos hurmat sifatida qaraydi, bu qo‘rquv insonda o‘zining notovonligi va gunohkorligi hissini uyg‘otishini va ayni paytda uning kechirilishiga ishonch, umid tuyg‘usi bilan bu qo‘rquv yumshatilishini ta’kidlaydi. Bunda muhabbat tuyg‘usi Xudo bilan ma’naviy birlashishga intilishni anglatadi⁴⁰.

Diniy ong – tushunchalar, g‘oyalar, tamoyillar, mulohazalar, dalil- isbotlar, konsepsiyalar, diniy aqidalar majmuasidir. Aqida – diniy ta’limot nizomlarining oliy diniy institut tomonidan mutlaq haqiqat sifatida tan olinishidir. Aqid diniy qonun-qoidalar yig‘indisidir. Diniy qonun-qoidalar: a) Xudo (xudolar), dunyo, tabiat, jamiyat, inson to‘g‘risidagi birmuncha tartibga solingan ta’limotni; b) diniy marosimlarni o‘z ichiga oladi. Diniy ta’limot dindorlikning konseptual darajasidir. U muqaddas kitoblarga asoslanadi va ayni vaqtda ularni tafsir etish qoidalarini ishlab chiqadi. Diniy tajriba meditatsiya, diniy jazava (ekstaz), bashorat, Xudoni mushohada etish va shu kabilarda ifodalanadi. Diniy madaniyat san‘at, axloq va diniy san‘at– me’morchilik, musavvirlik, haykaltaroshlik, musiqa kabilar, shuningdek, turli ibodat buyumlarini qamrab oladi.

Diniy ong diniy faoliyatda ifodalanadi. Alohida kishilar, guruhlar, tashkilotlarning diniy va nodiniy faoliyati bir-biridan farqlanadi. Nodiniy faoliyat iqtisodiyot, ishlab chiqarish sohalarida, siyosiy, badiiy, ilmiy va boshqa sohalarida amalga oshiriladi. Ba’zan diniy faoliyat obyektiv mazmuni va natijalariga ko‘ra dunyoviy jihatlariga ham ega bo‘ladi. Misol uchun, Qurbon va Ramazon hayitlarining O‘zbekistonda nishonlanishi jamiyatning ma’naviy ruhiyatini, qadriyatini ko‘taradi, barkamol avlod tarbiyasida yordam beradi.

Diniy ibodat – dinning bosh ruknlaridan bo‘lib, diniy rasm- rusumlarda, ruhoniylar va dindorlarning g‘ayritabiiy kuchlarga iltijo qilishlarida o‘z ifodasini

topadi. Uning mazmuni tegishli diniy tasavvurlar, g'oyalar, aqidalar, eng avvalo, muqaddas matnlar bilan belgilanadi. Ibadat paytida mazkur matnlarni o'qish dindorlar uchun "oliy" reallikka murojaat qilish, unga xizmat qilish hisoblanadi. San'atda, masalan, teatrdagi badiiy matnni ijro etish naqadar aniq va mahoratli bo'lmasin, harakatning shartlilik sezilib turadi. Teatr tomoshabini sahnada o'yin bo'layotganini bilib turadi. Diniy ibodatda esa uning haqiqiylikiga ishonch doimo his etiladi, o'tmishda shu voqealar haqiqatda sodir bo'lganiga, shu voqealar yana takrorlanishi mumkinligiga, afsona personajlari rostdan ham shunday ishlarni qilganligiga, Oliy Zotga iltijolar vojib bo'lishiga, u bilan diydor ko'rishish mumkinligi va hokazolarga astoydil ishonch bo'ladi.

Turli dinlarda real narsalarga yoki mavjudotlarga, Oliy Zotga ibodat qilinadi. Ayrim dinlar rivojlanishining ilk davrlarida ibodat xillari turlicha bo'lgan: jonivorlar, ov ashyolari tasviri atrofida raqs tushilgan, ruhlarga iltijo qilingan. Keyinchalik xudoga ibodat qilish, va'z aytish, sig'inish rivojlangan, diniy bayram va marosimlar paydo bo'lgan, ziyoratchilik boshlangan.

Diniy guruh yoki alohida shaxs ibodat subyekti bo'lishi mumkin. Bu faoliyatda qatnashishga diniy omillar – Oliy Zotga sig'inish va u bilan bog'liq bo'lish ishtiyoqi undaydi. Ayrim kishilarning go'zal ibodatxonani ziyorat qilishi, ma'naviy boy kishilar bilan muloqotga kirishishi va shu kabi diniy bo'lmagan sabablar bilan ibodatda qatnashish hollari ham uchraydi. Diniy guruh – imom, dyakon, rohib, brahman, shomon va shu kabi ibodatni bevosita amalga oshiruvchi ruhoniylardan hamda ibodat qatnashchilaridan iborat bo'lgan. Ibadatga alohida tayyorlangan va bilimdon dindorlar boshchilik qiladi.

Ibadat vositalari – ibodatxona, diniy san'at, shuningdek, turli ibodat buyumlari. Ibadatxona odatda, shahar markazida joylashgan baland imorat bo'lib, inson nazarini go'yo ko'kka qaratib turadi. Azon aytish, qo'ng'iroq chalish kabilar dindorlarni ibodatga chorlaydi. Ibadatxona devorlari va asbob-anjomlari, odatda, oliy malakali ustalar tomonidan bezatiladi, binoda yangragan musiqa sadolari yoki ijro etiladigan raqslar zavq- shavqli bo'lib, dindorlarning diniy his-tuyg'ularini oshiradi.

Ibodot natijasida dindor diniy ehtiyojlarni qondirish, diniy tuyg'uni jonlantirish, burchni bajarganlik uchun mamnuniyat; diniy obrazlar, ramzlar, rivoyatlar yordamida diniy-ma'naviy ehtiyojini qanoatlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi, shuningdek, dindorlar bir-biri bilan jonli muloqot qiladilar va diniy guruhga jipslashadilar; ibodatxona go'zalligi va undagi san'atnamunalaridan estetik zavq, ma'naviy boylik oladilar.

Diniy tashkilotlar turli diniy jamoalarning faoliyatini tartibga soladi, bir dindagi kishilarni birlashtiradi. Diniy tashkilotning tuzilmasi an'ana va urf-odatga, nizomga, muqaddas matnlar va shu kabilarga mos bo'ladi. Diniy tashkilotning birlamchi tarkibiy qismi – diniy jamoadir.

Dinning ijtimoiy funksiyalari	Din jamiyatda bir qancha funktsiyalarni bajaradi va muayyan rol o'ynaydi. "funksiya" va "rol" so'zlari o'zaro bog'langan, ammo turlicha ma'noni bildiradi. Funksiya – dinning jamiyatdagi harakat usuli, rol esa u bajargan vazifaning jami natijasi va oqibatidir. Dinning asosiy funktsiyalari: <i>dunyoqarashni</i> shakllantirish, <i>aloqa o'rnatish</i> (kommunikativ), regulyativ (diniy axloq me'yorlar, qoidalari orqali muomalani tartibga solish, tarbiyalash), tasalli berish kompensatorlik, ovutish), madaniyat tarqatish, biriktirish (integrativ), legitimistik (qonunlashtirish), apologetika (himoya qilish) kabilardir.
--------------------------------------	--

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi kishilar ongida inson, jamiyat, tabiatga muayyan tarzda qarashni shakllantirishdan iborat. Din mohiyati dunyoni anglash, dunyoni mushohada qilish, dunyoni sezish va idrok qilishni o'z ichiga oladi. Din his-hayajonga oid jihatlar, ya'ni imonni his etish yoki rad qilish kabilarni ham o'z ichiga oladi. Dunyoqarash eng yuqori mezonlarni, mutlaq haqiqatlarni ko'zlaydiki, ular yordamida olam, jamiyat, inson va uning yashash maqsadlari idrok etiladi. Hayotiga ma'no baxsh etilishi tufayli dindor kundalik turmush tashvishlaridan forig' bo'ladi, masalan, tashvishlaridan kechib, o'zini rohat-farog'atda his etadi (buddizmdagi nirvana); ruhini gunohlardan qutqarishga erishadi (xristianlik); Allohni anglab, uning marhamatiga sazovor bo'ladi (islom). Diniy qadriyatlar hamda dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa

qo'shgan diniy-ma'naviy meros asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash va jamiyatda barqaror ijtimoiy- ma'naviy muhitni ta'minlash – dinning tarbiyaviy funksiyasi hisoblanadi.

Din insonlararo muloqotni ta'minlab, kommunikativ funksiyani bajaradi. Shu tariqa o'zaro aloqani amalga oshiradi. Muloqot nodiniy sohalarda ham, diniy faoliyatda ham tarkib topadi. U axborot, tajribani baham ko'rish, o'zaro aloqa o'rnatish, insonning fikri-zikrini fahmlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. Dinning regulyatorlik funksiyasi shundan iboratki, u muayyan g'oyalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, andozalar, urf- odatlar, an'analar, tartib-qoidalar yordamida shaxslar, guruhlar, jamoalarning faoliyati va munosabatlari, ongi va fe'l-atvorini boshqarib boradi.

Diniy huquq va axloq me'yorlari majmuasi qoidalari orqali din dindorlararo muomalani tartibga soladi, tarbiyalaydi. Dinning bu regulativ (normativ) funksiyasi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, namunalar, oliy maqsadlar, taqlid qilinadigan misollar; nazorat, rag'batlantirish, jazolash qoidalarining ham ahamiyati katta. Diniy falsafa insonning o'z xatti-harakatlarida amal qiladigan oliy me'yorlar, tamoyillarni bayon etadi.

Madaniyatning tarkibiy qismi bo'lmish din madaniyat tarqatish funksiyasini ham o'taydi, ya'ni orttirilgan madaniy merosni avlodlardan avlodga o'tkazishda uning tarkibiy qismi bo'lmish yozuvni, san'atni, diniy madaniyat qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

Legitimistik funksiyasi biror dinning qonuniy ekanligini e'tirof etadi, tasdiqlaydi, ba'zi dinlar, diniy tashkilot va munosabatlarning ijtimoiy me'yorlarini qonunlashtirishni bildiradi. Masalan, ko'p lab dunyoviy davlatlarda Qurbon hayiti umummilliy bayram sifatida nishonlanadi. E.Dyurkgeym fikricha, muayyan din o'ziga e'tiqod qiluvchilarni shu ta'limot doirasida birlashtirishga intiladi, ya'ni integrativ va ijtimoiy barqarorlik funksiyasini bajaradi. Bundan tashqari din diniy e'tiqodni ateistlardan, o'zga dinlar, diniy oqimlardan himoya (apologetika) qiladi.

Dinlar tasnifi

Dinshunoslikda dinlarning ko'p gina tasniflari mavjud, chunki ularga turli mezonlar asos qilib olingan, ayniqsa

oxirgi 200 yil mobaynida. Tarixchilar dinni tavsiflashda evolyutsion yondashuvga tayanishadi. Bunda dinlar paydo bo'lishi va amal qilish vaqtiga ko'ra guruhlashtiriladi:

- dinning ilk shakllari: animizm, animatizm, sehrgarlik, fetishizm, totemizm va boshqalar;
- urug'chilik vujudga kelishi bilan bog'liq urug'-qabilaga oid diniy e'tiqod: ajdodlarga sig'inish, shomonizm, tangrichilik va boshqalar;
- Misr, Mesopotamiya, Gretsiya va Rim, Hindistondagi (vedizm, braxmanizm) qadimgi slavyanlar kabi qadimiy sivilizatsiyalarning ilk milliy dinlari;
- keyingi davrdagi milliy dinlar: zardushtiylik, manixeychilik, mazdakiylik, yahudiylik, hinduiylik, jaynizm, sintoizm va shu kabilar;
- jahon dinlari: buddizm, xristianlik, islom;
- noan'anaviy dinlar va diniy harakatlar: a) neoxristianlikka oid So'nggi kunlar Muqaddas Iso Masih cherkovi (mormonlar), Saentologiya cherkovi, "Birlashgan cherkovlar" assotsiatsiyasi va boshqalar; b) oriyentalistik (Sharqqa oid) diniy harakat va ibodatxonalar;
- Krishnani anglash Xalqaro jamiyati, Osho, Shri Chinmoya markazlari, Butun jahon sof dini va shu kabilar;
- sintetik dinlar: Oq ittifoq – Yusmalos, Butunjahon Bahoiylik e'tiqodi va sh.k.;
- bir necha dinlarning tarkibiy qismlarini o'zida birlashtiruvchi sinkretik dinlar: masalan, XX asrning 80-yillarida Nigeriyada (Lagos) vujudga kelgan xrislom. Unda Qur'on va Bibliyaning matnlari muqaddas deb tan olinadi, ibodatxonada namoz o'qiladi va ibodatxonani bir necha bor aylanib Iso Masihga qaratilgan duolar o'qiladi;
- ma'naviy kuchga ega bo'lish yoki uni kuchaytirishga yo'naltirilgan Sharq meditatsiyasi bilan bog'langan antroposofiya, teosofiya nomli hamda astrologiya, okkultizm, satanizm bilan bog'liq ezoterik birlashmalar;

- yangi majusiylik: koʻhna majusiylik ibodat va marosimlarini tiklash va yangilarini vujudga keltirish;

- saentologik harakatlar: dianetika, deb ataluvchi “aqliy salomatlik fani” yordamida insonning maʼnaviy va jismoniy sogʻayishiga asoslanuvchi nazariya. 1950-yilda AQShdagi saentologiyaga asos solgan Xabbard gʻoyasiga koʻra, inson xatti-harakatining jismoniy va psixologik jabhalari hamda Borliqning hayotiy energetikasi oʻzaro bogʻliq va ular uygʻunlik holatiga keltirilishi mumkin.

Dinlarning ideal tasnifini yaratish sohasidagi ishlar haligacha oxiriga yetmagan. Buning sababi shuki, din madaniyatning koʻp qirrali, murakkab, koʻp funktsiyali va gʻoyat xilma-xil sohasidir. Har bir din namoyandalari tarixiy, madaniy va ijtimoiy holatga qarab, ruhiy taʼsir vositalari asosida turli qarashlarni ilgari suradilar. Dinlarni tasniflash tamoyillaridan baʼzilariga toʻxtalib oʻtamiz⁴¹.

Soʻnggi bir yarim asr mobaynida dunyo dinlari toʻgʻrisidagi bilimlar oshgani, shuningdek, mohiyatini oʻrganishga qaratilgan tadqiqotlar ularni tasniflash uchun koʻp gina asoslar yaratib berdi. Muayyan davr va mintaqa dinlari shakllarining xilma-xilligi, buning ustiga, ular tarixiy jarayonda oʻzgarib turganligi dinlarni tasniflashda qiyinchilik tugʻdiradi. Din sotsiologiyasi, psixologiyasi, falsafasi, etika va estetikasi, mifologiyasi va shu kabi sohalararo masalalarni tasniflashga toʻgʻri keladi. Qisqa qilib aytganda, koʻp sonli diniy materiallarni tasniflashga yordam beradigan va ayni vaqtda yangilishishga yoʻl qoʻymaydigan tamoyillarni topishga qaratilgan murakkab vazifa dinshunoslar tomonidan hali toʻliq hal etilmagan Maks Myuller fikricha, tasniflash har qanday haqiqiy fanning asosidir, mabodo diniy eʼtiqodlar tasniflanolmasa, demak dinlarni ilmiy oʻrganishning imkoni yoʻq, degan xulosa chiqarishga toʻgʻri keladi.

Ilohiyotda dindorlar qabul qilgan *meʼyoriy tamoyillardan* foydalaniladi. Shu tasnifga koʻra dinlar haqiqiy va qalbaki dinlarga boʻlinadi. Ilmiy nuqtayi nazardan bu tasnif diqqatga sazovor boʻlmasa ham, har holda obroʻli dindorlar dinni himoya qilish uchun boshqa konfessiyalarga yoki bir din ichidagi ayrim sektalarga qarshi kurashish uchun shu tasnifdan foydalanadilar. Masalan, protestant islohotchisi

Martin Lyuter faqat protestantlikni haqiqiy din, katolik va boshqa dinlarni qalbaki deb aytgan.

Ayrim diniy tasniflarda, masalan, o'zgarib borayotgan jarayonda dinlarni tasvirlashda me'yoriy tasnif tamoyiliga sezilmas darajada dinshunoslikda ham amal qilinadi. Bunda din rivojlanishining birmuncha keyingi davri din antropologiyasida ibtidoiy shakllarga nisbatan sezilarli rivojlangan, deb ta'kidlanadi. Bunday tasnif dinlarni subyektiv baholashga olib kelishi mumkin yoki ayrim dinlarning manbalari ibtidoiy xurofotlar va irimlardan iborat, deb barcha dinlarni tanqid qilish imkonini beradi. Ana shu sabablarga ko'ra dinshunoslikda me'yoriy tasniflash odat tusiga kiritilmagan.

Tasniflashning *jug'rofiy tamoyili* diniy jamoalarning hududiy joylashuviga asoslanadi. Bunday tasnif insoniyatning diniy tarixini tasvirlash uchun qulaydir. Hozirgi globallashib borayotgan dunyoda jug'rofiy-siyosiy, iqtisodiy, migratsiya va boshqa omillar diniy jamoalarning joylashuv manzarasini o'zgartirib yubormoqda. Mana shu aytib o'tilgan tasniflashga ko'ra, dinlarni quyidagicha ko'rsatib o'tish mumkin:

- Hozirgi zamon O'rta Sharq dinlari: yahudiylik, xristianlik, islom, turli mahalliy kichik dinlar, shuningdek, Qadimiy Misr va Mesopotamiya dinlari;
- Uzoq Sharq va Xitoy dinlari: konfutsiylik, daosizm, buddizm, sintoizm;
- Hindiston dinlari: ilk buddizm, hinduiylik, jaynizm, sikkizm;
- Afrika dinlari;
- Shimoliy va Janubiy Amerika dinlari;
- Tinch okeani orollari, Avstraliya va Yangi Zelandiya xalqlarining okean dinlari;
- Qadimiy Yunoniston va Qadimiy Rim dinlari hamda ularning ellin variantlari.

Geografik tasniflashning zaif tomoni shuki, unda bir qancha omillar e'tiborga olinmaydi. Masalan, islom o'z tarixining ilk davrlaridanoq Arabiston yarim oroli doirasi bilan cheklangan emas, buddizm va xristianlik esa vaqt o'tishi bilan o'zi vujudga kelgan mintaqalarda emas, uning tashqarisida ko'p roq yoyildi.

Bundan tashqari bir mintaqaning o'zida mutlaqo har xil dinlar mavjud bo'lishi mumkin⁴².

Tasniflashning etnografik va lingvistik tamoyillari din tili bilan dindorlarning etnik mansubligi o'rta sidagi yaqin aloqani e'tiborga oladi.

Maks Myullerning fikricha bu aloqa insoniyat madaniyatining ilk bosqichlarida, Yevropa va Osiyoda uchta yirik irq: turon, somiy va oriy irqlari mavjud bo'lgan davrlarda kuzatilgan. Turon, somiy va oriy til oilalari ularga mos kelar edi. M.Myuller ularning til va din birligini qayta tiklashga urinib ko'rdi⁴³. Oriy tillari borasida olim muayyan natijalarga erishdi, xudolarning nomlaridagi o'xshashlikni, mifologiyaning umumiylikni aniqladi. Turon tillari sohasida unchalik natija bo'lmadi. Umuman, uning ishlari qiyosiy tadqiqotlarni, ayniqsa, somiy va oriy til guruhlaridagi qiyoslashlarni avj oldirishga olib keldi.

Hozirgi vaqtda fan yangi faktlar bilan boyidi, shu sababli M.Myullerning tasnifi endi to'liq bo'lmay qoldi. Myuller nazariyasida bir irq yoki til doirasida madaniyati turli saviyada bo'lgan xalqlar bor. Buning ustiga tarix davomida bu aloqa uzilib qolishi mumkin. Masalan, Yevropada oriy irqiga mansub xalqlar somiy irqi xalqlarining dini bo'lgan xristianlikni qabul qilgan. Myullerning dinni tasniflashining kamchiligi sifatida E.Elbakyan va V.Storchak quyidagilarni ta'kidlashadi: 1) dinni tasniflash bilan tillarni tasniflash o'rta sida qat'iy aloqadorlik mavjud; 2) M.Myullerning tillarni tasniflashining eskirganligi va uning hozirgi zamon lingvistlari tomonidan tanqid qilinganligi sababi – amaldagi til oilalari mavjudligini e'tiborga olmaganligi, haddan ortiq soddalashtirilganligi, umumiylikdadir⁴⁴. Nemis filologi Vard "Dinlarning tasnifi" asarida birmuncha batafsil tasnif berdi va dinlarni o'rganishni osonlashtirish uchun: okean, afrikalik; amerikalik; somiy, hind-oriy va yevropalik irqlariga asos bo'lgan somiy va oriy irqlarini o'z ichiga oluvchi mongoloid irqlarini alohida ajratdi.

Gegelning "Falsafaga oid ma'ruzalar"ida ishlab chiqilgan dinning falsafiy tasnifi keskin tanqid qilindi. Ayni vaqtda G'arbiy Yevropa dinshunosligi zamon ruhiga binoan diniy falsafa va ilohiyot bilan aloqadan hali ham xalos bo'lgani yo'q. Gegel tasnifida "mutlaq ma'naviyat" dini hisoblangan xristianlik oliy

pog'onada turibdi. Uning fikricha keyingi pastroq o'rinlarni ma'naviy-individual dinlar egallagan, ya'ni "balandparvoz dini" deb ta'riflangan yahudiylik; qadimiy yunonlarning "go'zallik dini"; qadimiy rimliklar – "maqbullik dini". Ulardan keyingi o'rinda Qadimiy misrliklar dini, qadimiy forslar va qadimiy suriyaliklar dinlari turgan. Gegel tasnifida Xitoy va Hindistonning "tabiat dinlari", shu jumladan, buddizm ham oxirgi pog'onada turadi. Biroq ko'p sonli va nufuzli islom dini tilga olinmagan. Shu sababli ham uning tasnifi keskin tanqid ostiga olindi.

Ingliz etnologi E.Teylor – morfologik tasnif asoschisi. Uning "Ibtidoiy madaniyat" asari dinshunoslik sohasidagi eng nufuzli kitoblardan biridir. Teylorning fikricha, diniy e'tiqodni inson tajribasi (o'lim, tush, bashorat, trans, ya'ni diniy jazava vaqtida dindor asabining juda qo'zg'alishi yoki hushdan ketishi) yuzaga keltiradi. So'ng ibtidoiy mantiq bu tajribani umumlashtiradi va tanadan farqlanuvchi abadiy ruh mavjudligiga ishonch hosil bo'ladi. Ana shunga asoslanib, Teylor dinlarga oid o'z tasnifini ilgari suradi. Ajdodlar kultini u marhumlarning ruhi mavjudligiga ishonch bilan izohlaydi. Fetishizm – afsonaviy yoki g'ayritabiiy kuchga ega bo'lgan predmetga topinishdir. Butlarga topinish ruh yoki ilohga topinish timsolidir. Totemizm – odamlarning ayrim guruhlari bilan muayyan ruhlar o'rta sida bog'lanish borligiga ishonchdir. Teylor politeizmni monoteizmga aylanishi mumkin bo'lgan yanada yuqoriroq bosqich, deb hisoblaydi.

K.Tile din taraqqiyotining bosqichlariga diniy ongning oydinlashuvi, tozalanishi va yuksalishi, nisbatan tuban shakllardan yuqori shakllarga ko'tarilishi sifatida qaraydi. U dinlarni tabiiy va axloqiy dinlarga bo'ladi. Tabiiy dinlarga qabila yoki xalqning tabiiy rivoji natijasida vujudga kelgan dinlarini kiritadi. Tile tabiiy dinlarni jo'n (animistik dinlar) va oliy (spiritizm, fetishizm, antropik va yarimaxloqiy dinlar) turlarga ajratadi. Dinning antropik, deb atalishiga sabab: ularda xudolar (xudo) ideal, aql bovar qilmaydigan sifatlarga ega odamlar, deb tasavvur qilinadi. Xudolarning xatti-harakati XIX asrdagi xristianlikning oliy standartlariga mos kelmaydigan dinlarni K.Tile yarim axloqiy dinlar, deb nomladi. Axloqiy dinlar o'z navbatida, noministik (axloqiy qonunlarga asoslanuvchi:

zardushtiylik, braxmanizm, daosizm va boshqa milliy dinlar) va universalistik (jahon) dinlariga bo‘linadi⁴⁵.

AQSh va Hindistonda yashagan ruminiyalik din tarixchisi M.Eliade dinlarni an’anaviy, jumladan, Osiyo, Yevropa va Amerika qadimiy tamaddunlarining ibtidoiy kultlari va arxaik dinlariga hamda tarixiy yahudiylik, xristianlik, islom diniga bo‘ladi. M.Eliade “Abadiy qaytish afsonasi” asarida an’anaviy dinlar tarixni ibtidoiga abadiy qaytish deb tushunadi, degan fikrni keltirgan. Bir tekis jarayon bo‘lmish tarixiy dinlarda esa ibtido va oxirat mavjud.

Fenomenologik tasniflashlar. Yuqorida aytib o‘tilgan barcha tasniflash tamoyillari o‘xshashlik belgisi bo‘yicha birlashadi. Oxirgi o‘n yilliklarda dinlarni guruhlab tasniflashga qiziqish kamaydi va din fenomenologiyasiga, diniy tajribani tasniflashga qiziqish ortdi. Edmund Gusserl (1859-1938) fenomenologiyaning asoschisi hisoblanadi. Uning izdoshi – daniyalik olim Gerard van der Leu “Din fenomenologiyasi” asarida diniy tajriba mazmunini tasniflab, quyidagilarni ajratadi: din obyekt – diniy his-tuyg‘ular va harakatlar yo‘naltirilgan narsa; din subyekt – ruh, ya’ni inson, ruhoniyl va diniy jamoada mavjud umumiylik; sub’ekt va obyektning o‘zaro ta’siri; tinchlik, tinchlikka erishish yo‘li va maqsadlari; din shakllari. Van der Leu diniy hislarning ifodalanishi turlarini o‘rgangan. U aniq tarixiy dinlarni quyidagicha tasniflagan: tanholik va hokimlik dinlari – Qadimgi Xitoy dinlari va XVIII asr deizmi; kurash dini – zardushtiylik; kuch va shakl dini – Qadimgi Yunoniston dinlari; cheksizlik va zohidlik dini – Hindistonning buddizmdan boshqa dinlari; rahm-shafqatlilik dini – buddizm; iroda va bo‘ysunuvchanlik dini – yahudiylik; muhabbat dini – xristianlik; ulug‘vorlik va itoatkorlik dini – islom. Bundan tashqari Van der Leu aniq tarixiy shaklga ega bo‘lmagan, lekin har qanday dinda biron shaklda namoyon bo‘ladigan dinlarni ajratgan. Masalan, osoyishtalik dini mistik tajribasi bor har qanday dinda mistik shaklda namoyon bo‘ladi. Van der Leuning dinlar tasnifidagi zaif jihat shuki, undan ibtidoiy dinlar o‘rin olmagan. Dinni ilmiy tadqiq etish uning umumiy tavsifini ham, alohida dinlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ham o‘rganishni taqazo etadi. Hozirgi paytda besh mingdan ortiq dinning amal qilishini e’tiborga olsak,

turli-tuman dinlarning o'ziga xosligini e'tiborga oluvchi yagona tasnifni ishlab chiqish juda qiyin.

Psixologlar ham fenomenologlar kabi diniy tajribani o'rganib, uni tasniflashga intilishgan. E.Anderxill (1875-1941) mistik tajribani tasniflashga uringan. Uning tasnifi yahudiylik, xristianlik va islomdan olingan misollarga tayanar edi. Shu kabi psixologik izlanishlar oxirgi paytda sharqiy mistiklikni ham qamrab olmoqda.

Amerikalik sotsiolog Robert Bell dinning ibtidoiy, tarixiy, ilk zamonaviy va zamonaviy bosqichlarining umumiy xususiyatlari asosda tasnif yaratdi. Bu – a) ramzlar tizimi; b) diniy harakatlar; v) diniy tashkilotlar; g) ijtimoiy oqibatlar. Bell tasnifi 2 ta qoidaga asoslanadi: 1) quyi bosqichdan yuqori bosqichga qarab rivojlanib borishda ramzlar murakkablashadi; 2) shu bilan bir qatorda shaxsning jamiyatdan erkinligi darajasi ortadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, dinlarning birorta bekami- ko'st tasnifi mavjud emas. Ularning hammasi umumiy ahvolni u yoki bu darajada yanglishish ko'rsatadi, ammo ularning har biri dinning u yoki bu tomonlarini yoritadi. Bir vaqtning o'zida bir necha tasnifdan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ularning har birida kamchiliklar bor bo'lsa-da, ular birgalikda din haqidagi bilimlarni to'plash va tizimlashtirishga yordam beradi.

Dinlarni tasniflashning asosiy talabi obyektivlik va tarixiylikdir. Tasnif diniy hayotning mohiyati va tipik qirralarini ham, noyob xususiyatlarini ham alohida aks ettirishi lozim. Dinlar vaqtda qotib qolgan emas, rivojlanib borayotgan tizimlar sifatida ko'riladi.

Asosiy xulosalar

- Hozirgi paytda dinshunoslikda dinning 250 dan ortiq ta'rifi mavjud, unga yangi ta'riflar berilishi kelajakda ham davom etadi. Dinshunoslar doirasida ko'p incha quyidagi ta'rifdan foydalaniladi: din – Xudoga (xudolarga), ilohiy va boshqa shakldagi kuchlarga ishonishga asoslangan e'tiqodlar, tasavvurlar, an'analar va ularga muvofiq bo'lgan xatti-harakatlar va ibodatlar yig'indisidir. Din –

odamlarning ishonch- e'tiqodi bilan belgilanuvchi dunyoqarashi, dunyoni anglashi, ruhiyati va xatti-harakatidir. Din – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyatdir.

- Din jamiyat va shaxs ma'naviyati yuksalishida va komil insonni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

- Dinning muhim tarkibiy qismlari quyidagilar: 1) diniy hissiyot: mo'aminlik, qo'rquv, bo'ysunuvchilik va h.k.; 2) diniy ong: "narigi" dunyo, sirli kuchlar, g'ayritabiiy jonzotlar va shu kabilar mavjudligiga ishonish va diniy madaniyat: san'at, axloq va b.; 3) diniy ibodat; 4) dindorlarning diniy amaliyotini tartibga soluvchi diniy tashkilotlar.

- Dinning asosiy funksiyalari – dunyoqarashni shakllantirish, regulyativ (normativ, diniy me'yorlari orqali tartibga solish), kommunikativ (aloqa o'rnatish), kompensatorlik (o'rmini to'ldirish, tasalli berish, ovutish), madaniyat tarqatish, integrativ (birlashtirish), legitimistik (qonunlashtirish), apologetika (himoya qilish) kabilardir.

- Dinshunoslikda dinlarning ko'pgina tasniflari mavjud, lekin ideal tasnif haligacha yaratilmagan, chunki zamonaviy sivilizatsiyaning muhim qismi bo'lmish din – g'oyat ko'p qirrali, murakkab sohasidir.

- Hozirgi zamon dinshunoslik metodologiyasida fanlararo yondashuvdan hamda nazariy, amaliy (empirik), tavsifiy (diskriptiv), formal ilmiy usullardan keng foydalaniladi. Ular dinni o'rganishning tarixiy, falsafiy, sotsiologik, psixologik, lingvistik, fenomenologik, antropologik kabi asosiy yondashuvlarini aniqlab beradi. Bu yondashuvlar din tarixi, din falsafasi, din sotsiologiyasi va psixologiyasi, din fenomenologiyasi, din antropologiyasi kabi dinga oid maxsus fanlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

- Dinshunoslik usuli metodologik betaraflik tamoyiliga tayanadi. Bu yondashuv tadqiqotchiga dinni o'rganishda maksimal darajada obyektiv bo'lishga imkon beradi.

– Dinlarda modernizatsiya va fundamentalizmga moyillik barqaror namoyon bo'lmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Dinshunoslik fanining predmeti va vazifalari nima?
2. Dinshunoslikda shakllangan maktablar (mifologik, sotsiologik, psixologik, falsafiy) nima bilan farqlanadi?
3. Mafkuraviy immunitet tushunchalarini qanday tushunasiz?
4. Din va jamiyat ma'naviy madaniyatining asosiy shakllari: mifologiya, san'at, ilm-fan, falsafaning o'zaro ta'siri qanday?
5. Din falsafasi va diniy falsafa nima bilan farqlanadi?
6. Mamlakatimiz rahbari tashabbusi bilan 2018-yilda diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan qanday chora- tadbirlar boshlandi?
7. Dinshunoslik fani tuzilmasi tarkibi nimalardan iborat?
8. Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini qanday tushunasiz?
9. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
10. Islom ta'limotida komil insonning asosiy axloqiy sifatleri nimadan iborat?
11. Dinni o'rganishda qanday asosiy yondashuvlar mavjud?
12. Dinning qanday fenomenologik ta'limotlarini bilasiz?
13. Diniy psixologiyaning umumiy psixologiyadan farqi nimada?
14. Qadimgi diniy matnlarni o'rganishda qanday lingvistik usullar samarali hisoblanadi?
15. Qiyosiy usulning mohiyati nimada? Dinshunoslikda uni samarali qo'llashning qanday shartlari mavjud?
16. K.P.Tile o'z ta'limotida tabiiy va axloqiy dinlarni qanday ta'riflagan?
17. Dinlarni tasniflashning asosiy talabi qanday?
18. Dinshunoslar doirasida ko'p incha dinning qaysi ta'rifi ishlatiladi?
19. Dinning qanday antropologik nazariyalarini bilasiz?

20. O‘zbekiston milliy dinshunoslik maktabi shakllanishining qanday asosiy bosqichlarini bilasiz?

Birinchi modul bo‘yicha adabiyotlar ro‘yxati

1. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yig‘inalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. - O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. -2017 y., 7 fevral.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 15-iyunda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning Bishkekda o‘tgan beshinchi sammitidagi nutqi. 2019-yil, 15-iyun.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16- apreldagi “Diniy ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. “Xalq so‘zi”, 2018-yil 17-aprel.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23 noyabrdagi 946-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori. -

<https://lex.uz/docs/4604155?otherlang=1>

5. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi.- T.: O‘zMU, 2004. 208-b.

6. Bozorov D., Isakjanov R., Tashanov A., Xujayev M. Sharq va G‘arb ilmiy-falsafiy tafakkurining o‘zaro ta’siri tarixiga nazar. –T.: “Adabiyot uchquni”, 2018.

7. Ibragimov E. va b. Jahon dinlari tarixi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2007 – 48-b.

8. Muhamedov N., Alimova M. Dinshunoslik fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: 2017, – 360-b.

9. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2013

10. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi. Darslik.-T.: TIU, 2008.

11. Hasanboyev O'. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo'nalishlari.– T.: TIU, 2014. – 552-b.
12. O'zbekiston ulamolari. Yo'ldoshxo'jayev H., Qayumova I.; mas'ul muh. U.Alimov, V.Bobojonov; O'zbekiston musulmonlari idorasi. - Toshkent: -Movarounnahr, 2015 496-b.
13. Ибрагимов Э., Каландарова Д. Источники мировых религий. Учебное пособие. – Т.: ИПО –Ташкент ислом университети. – 2015 – 136с.
14. Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. -672 с.
15. Сторчак В.М., Элбакян Е.С. Социология религии. Учебное пособие. – Москва: АТИСО. - 2012. 348 с.-ISBN 978-5-93441-349-2
16. Элбакян Е.С. История религий. ИДАТ и СО. –М., 2014. С. 342.
17. Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding. -Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.
18. A Handbook of the Sociology of Religion / Ed. By Michele Dillon. Cambridge, England: Cambridge University Press, 2003
19. Klaus Hock. Einfuehrung in die Religionswissenschaft. ISBN 978-3-534-24664-94. Auflage, Darmstadt, 2011. 205 S.
20. Stefan Kurth, Karsten Lehmann (Hrsg.). Religionen erforschen. Kulturwissenschaftliche Methoden in der Religionswissenschaft. Lehrbuch. ISBN 978-3-531-17019-0. - Heidelberg 2011. - 220 S.

I modul manbalariga havola

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrdagi BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. - <http://www.press-service.uz/uz/lists/view/1063>. Shuningdek: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.– 2018-y.,16-aprel.

--

² 2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Ribojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. – O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. –2017- y., 7-fevral.

³ O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standartlari. “Dinshunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standarti. – 2014-y. b. 48, 10, 47-b.

⁴ O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standartlari. -“Dinshunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standarti.– 2014-y. b. 48, 10, 47-b.
--

⁵ Ибрагимов Э. Некоторые аспекты подхода к предмету религиоведения западноевропейских и североамериканских ученых. // Меж. конф. ТИУ: "Межконфессиональный диалог и религиозная толерантность – гарантия социальной стабильности".- 12.11.2014. – 21- 22-b.
--

⁶ Tiele, Cornelis Petrus. Grundzuege der Religionswissenschaft.-Tuebingen und Leipzig, Mohr, 1904.-S.70
--

⁷ Классики мирового религиоведения.- М.: Канон, 1996. – 162 с. Shuningdek, М.Мюллер. Введение в науку о религии: Четыре лекции, прочитанные в Лондонском Королевском институте в феврале–, марте 1870 г. / Пер. с англ., предисловие и комментарии Е. С. Элбакян. Под общ. ред. А. Н. Красникова. — М.:Книжный дом “Университет”: Высшая школа, 2002. – С. 21.

⁸ Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.- Pp. 2, 19, 40, 55-56, 164, 171.

⁹ O‘zbekiston uzluksiz ta’limining davlat ta’lim standartlari.- “Dinshunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishining Davlat ta’lim standarti.-2014y. - 9-10.

¹⁰ Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008. – tarixiy yondashuv 134-136-bb.; qiyosiy 136-137-bb.; falsafiy 19-34-bb.; teologik 53-59-bb.; antropologik, ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy yondashuv 66-73; fenomenologik 77-82-bb.; psixologik yondashuv 83- 103-bb. Shuningdek: Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: “Феникс», 1996. С. 20-69.

¹¹ Гегель. Философия религии в двух томах. Том 1. – М.: Мысль,1976. – С.223. Shuningdek, Hegel, Georg Wilhelm Friedrich. Hegels Theologische Jugendschriften. - Nach den Handschriften der Kgl. Bibliothek in Berlin (Classic Reprint). – Verlag: Forgotten Books, 2017.- S.422.

¹² Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.- Pp.66-73

¹³ М.Мюллер. Введение в науку о религии: Четыре лекции, прочитанные в Лондонском Королевском институте в феврале, марте 1870 г. / Пер. с англ., предисловие и комментарии Е. С. Элбакян. Под общ. ред. А. Н. Красникова. – М.:—Университет. Высшая школа.- 2002. – С.21

¹⁴ Frick Heinrich. Vergleichende Religionswissenschaft. - Walter de Gruyter, 1928. – 135 S.

¹⁵ Freiburger Oliver. Der Vergleich als Methode und konstitutiver Ansatz der Religionswissenschaft// Stefan Kurth, Karsten Lehmann (Hrsg.). Religionen erforschen. Kulturwissenschaftliche Methoden in der Religionswissenschaft. Lehrbuch. -Heidelberg 2011. S.199-209.

-
- ¹⁶ Протестантская этика и дух капитализма. 1905 (Вебер Макс.). - Избранные произведения: Пер. с нем.. — М.: Прогресс, 1990. -С. 44-271.
- ¹⁷ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. -С.395.
- ¹⁸ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. -С. 43.
- ¹⁹ Гирц К. Интерпретация культур. Гл.4. Религия как культурная система. - М.: РОССПЭН.-2004. Шунингдек: Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. - С.29-30.
- ²⁰ Edith Franke & Verena Maske, Teilnehmende Beobachtung als Verfahren der Religionsforschung. Der Verein –Muslimische Jugend in Deutschland e. V. || S.101-131// Kurth St., Lehmann K. (Hrsg.). Religionen erforschen. Kulturwissenschaftliche Methoden in der Religionswissenschaft. Lehrbuch. Heidelberg.- 2011.
- ²¹ Тулеметова Г., Каландарова Д., Хукумова Л. Применение принципов толерантности к сфере светского и религиозного образования в Узбекистане// Междунар. конф. ТИУ "Межконфессиональный диалог и религиозная толерантность – гарантия социальной стабильности", 12.11. 2014. - С.168-172.
- ²² Э.Ибрагимов, Г.Тулеметова, Р.Исокжонов. – Динамика развития религиоведения в Узбекистане (на материале анализа диссертационных исследований по религиоведению с 1992 по 2017 гг. и правительственных решений).// – “Диншунослик фанининг методологияси, ёндашуви ва услубиятини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари” мавзуидаги IX Республика илмий-амалий конференцияси. - Тошкент, “Тошкент ислом университети” нашриёт матбаа бирлашмаси, 2017 й. Б. 10-14.
- ²³ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти Ислом Каримовнинг –Тошкент ислом университетини ташкил этиш тўғрисидаги фармони. -

Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 4-сон, 91-модда.

²⁴ Г.Тулеметова, Э.Ибрагимов. “Основы религиоведения”.- Т.: ИПО “Тошкент ислом университети”. - 2015. - 232 с.

²⁵ Э.Ибрагимов, Д.Каландарова “Источники мировых религий”. Учебное пособие. - Т.: ИПО “Тошкент ислом университети”. - 2015. – 136 с.

²⁶ Muhamedov N., Alimova M. Dinshunoslik o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2017. 360 b.

²⁷ O‘zbekiston Respublikasi hukumating ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy o‘quv yurtidan keying ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.

²⁸ O‘zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligi http://uzscience.uz/uz/committee_00.html

²⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 noyabrdagi 946-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori.

<https://lex.uz/docs/4604155?otherlang=1>

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 23 iyundagi PQ-3080-son qarori.- <https://lex.uz/docs/3600059?otherlang=1>

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son Farmoni. - <https://lex.uz/docs/-3686277>

³² Islomshunoslik qomusiy lug‘at / Mas‘ul muharrir Z.M.Islomov. - T. I.- T.: “Movarounnahr”, 2013. 13-b.

³³ Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.- Б.2-12.

-
- ³⁴ Klaus Hock. Einführung in die Religionswissenschaft. 4 Auflage, Darmstadt, 2011.S.10.
- ³⁵ Leuba.The Psychological Origin and the Nature of Religion.- London, 1921.- Pp.1-10
- ³⁶ Элбакян Е. История религий.- ИДАТиСО, М., 2014.-С.5
- ³⁷ Tulemetova G., Karabaeva D. Social principle of islamic banking and financial system. // International scientific-practical conference of Tashkent Financial Institute, on the theme: “The role of the banking and financial institutions in accelerating the modernization, technical and technological renovation of the economy” – Tashkent, 2014. - P.39-42
- ³⁸ Протестантская этика и дух капитализма. 1905 (Вебер Макс). – Танланган асарлар: немисчадан тарж. — М.: Прогресс, 1990. - 44- 271-б.
- ³⁹ Юсупов О. Узбекистан – страна толерантности // "Конфессиялараро мулоқот ва диний бағрикенглик жамият барқарорлиги гарови". ТИУ халқаро конф. мат. тўпл. Т., 12.11.2014. 6-9 б. Шунингдек: Айдарбек Тулепов. ИШИД фитнаси. Т.: “Movarounnahr,” 2015. Б.16 -17
- ⁴⁰ Tiele, Cornelis Petrus. Grundzuege der Religionswissenschaft.- Tuebingen und Leipzig, Mohr, 1904.- 70 S.
- ⁴¹ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: “Феникс», 1996. С.107-108.
- ⁴² Новейший словарь религиоведения/авт.-сост. О.К.Садовников, Г.В. Згурский; под ред. С.Н.Смоленского.-Ростов н/Д.: "Феникс", 2010.-С.11-13.
- ⁴³ Мюллер М.Ф. Введение в науку о религии / Пер. с англ. Элбакян Е.С. - М., 2002. С. 76.
- ⁴⁴ Сторчак В.М., Элбакян Е.С. Социология религии (учебное пособие). - Академия труда и социальных отношений. - Москва, 2012. – С.114
- ⁴⁵ Tiele, Cornelis Petrus. Grundzuege der Religionswissenschaft. - Tuebingen und Leipzig, Mohr, 1904.-70 S.

II MODUL. DINNING IBTIDOIY SHAKLLARI VA ETNIK- LOKAL DINLAR

2.1. Dinning ibtidoiy shakllari

Mazmun. *Insoniyatning dastlabki madaniyat o‘choqlari va diniy tasavvurlarining xilma-xilligi. Ilk tabu, totemizm, animizm, shomonizm, fetishizm, sehrgarlik.*

Dastlabki diniy tasavvurlar

Insonning dastlabki diniy tasavvur va amaliyoti qadimgi madaniyat o‘choqlari Qadimgi Misr, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoy, Markaziy Osiyo, Yunoniston, indeys xalqi, maya va atsteklar aholisi orasida avj nuqtasiga yetgan. Ba’zi zamonaviy Afrika, Avstraliya, Polineziya Shimoliy Amerika tubjoy xalqi diniy tasavvurlari dastlabki deb hisoblanadi.

Dinning ibtidoiy (arxaik) shakllariga an’anaviy ravishda tabiatga sig‘inish, ajdodlarga sig‘inish, animizm, shomonizm, tangrichilik, sehrgarlik, totemizm, fetishizm kiradi. Ular bir-biriga aralashib ketgan bo‘lib, sof holda deyarli uchramaydi. E.B.Teylor “Ibtidoiy madaniyat” nomli ilmiy asarining ko‘p qismini afsonalarni o‘rganish, tavsiflash va tizimlashtirishga hamda afsonaga oid ongga bag‘ishlagan edi. U mifologik ong, shuningdek, inson fikrining boshqa shakllari asosida real tajriba yotishini ta’kidlaydi. Ong ularni o‘zlashtirib, boshqalarga uzatadi. Shunday qilib, afsonalarni o‘rganish tasavvur qilish qonunlarini tadqiq etishga aylanadi. Afsonalar rivojida allegoriya (majoz, qochirim) doimo muhim rol o‘ynagan. Dinning arxaik shakllari *mifologik* (yunoncha *mithos* – naql, rivoyat), ya’ni afsonaviy tasavvur natijasi hisoblanadi.

Dinshunoslik iborasi sifatida bu so‘z “ertak, uydirma, cho‘pchak” so‘zlariga sinonim emas. Mifologik tafakkur voqelikni anglash usulining tavsifi sanaladi. Unga ibtidoiy ishonchni empirik bilim elementlari bilan qo‘shish, ularni arxaik san’atda aks ettirish xos. Masalan, ov boshlanishi oldidan o‘ziga xos marosimlar va

sehrli odatlar bajarilgan. Bu haqda ma'lumotlar qoyaga o'yib solingan qadimgi suratlarda saqlanib qolgan. Chunki qadimgi odamning afsonaga oid tafakkuri umumlashtirilgan obrazlar, tiplar bilan emas, konkret narsalarni hissiy qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan, shuning uchun u obraz va predmet orasidagi farqni ko'rmagan. Masalan, uning uchun totem g'ayritabiiy kuchlarning barcha xususiyatlari va imkoniyatlariga ega bo'lgan.

Predmetlar va ularning xususiyatlarini mavhumlashtirish qobiliyatining yo'qligi arxaik madaniyat kishilari tilida aks etgan. Ularda jinsga oid tushunchalarni bildiruvchi so'zlar kam bo'lgan. Masalan, "suyuqlik" so'zini olaylik, ayni paytda konkret suyuqlik bo'lgan suvning xususiyat va holatlarini aks ettiruvchi ko'p lab so'zlar mavjud (marosimda yuvinish uchun, iste'mol qilish uchun, qurbonlikda ichish uchun zarur bo'lgan suvni ifodalovchi ko'p lab so'zlar bo'lgan). Mifologik tafakkur hozirgi madaniyatda ham mavjud, u ayni bitta narsa, tushunchaning turli nomlanishida yoki turli predmet va hodisalarning bitta so'zda ifodalanishida ko'rinadi. "Farishta" so'zi bilan nafaqat g'ayritabiiy mavjudotlarni, balki sevimli insonni, chaqaloqni, ideal insonni, tansoqchini (saqlovchi-farishta) ham atashadi.

Hozirgi zamon dinshunosligi afsonaga xudolarni o'ziga xos ifodalash yoki real insoniy tajribada uchramaydigan noodatiy voqealarda ishtirok etuvchi qahramonlar, fantastik maxluqlarni ilohiylashtirish sifatida qaraydi. Teylor tabiatga oid, shuningdek, turli hodisalarning sababini tushuntiruvchi falsafiy afsonalarni, geologik afsonalarni, odamlarning kelib chiqishi haqidagi etnologik afsonalarni, pakana yoki devqomat va h.k. to'g'risidagi mubolag'a-afsonalarni, tarixiy shaxslarga oid, narsalarning nomi kelib chiqishiga oid etimologik afsonalarni, xalqlar va viloyatlar nomi haqidagi eponimik afsonalarni, oxir zamon, dunyo va odamlarning taqdiri to'g'risidagi esxatologik afsonalar va boshqalarni alohida ajratib ko'rsatadi. Teylor kundalik tajriba faktlari afsonaga aylanishining birinchi va asosiy sababi butun tabiatning jonliligida, deb hisoblagan. Shunday qilib, ibtidoiy mifologiyada diniy jamoaning barcha qadriyatlarini o'z aksini topgan. Shu nuqtayi nazardan u sotsiologik va psixologik tadqiqotlar uchun muhim obyekt

hisoblanadi. Chunki ibtidoiy odamning tasavvuri va e'tiqodlari majmuasi, ularning real hayotdagi qiyinchiliklari, muammolari va yutuqlari og'zaki ijodda aks etgan. Bu narsa odamlarning ongida qolib, turli afsonalarning yaratilishiga sabab bo'lgan va avloddan-avlodga o'tib borgan. Masalan, dunyoning yaratilishi haqidagi afsonalarda xaos va tartib, hokimiyat va anarxiya ijtimoiy rivojlanish nuqtayi nazaridan keltiriladi. Ayrimlarida oliy ilohlarning o'zaro tortishuvlari bayon etilsa, boshqalarida "oltin asr" jamiyatining ijtimoiy rivojlanishi keltirilgan. Umuman olganda, ibtidoiy mifologiyani tahlil qilish inson tarixining qadimgi bosqichini qayta tiklash uchun muhim manba hisoblanadi. Xususan, bu tahlil ibtidoiy jamoalar taraqqiyotida diniy tasavvurlar rolini aniqlashga imkon yaratadi.

Afsonalarda diniy jamoaning asosiy qadriyatlari aks ettirilgan. Bu fakt afsonani din sotsiologiyasi va psixologiyasining qiziqarli obyektiga aylantiradi. Dunyoning yaratilishi haqidagi afsonalar betartiblik va tartibot, hokimiyat va anarxiya haqida hikoya qiladi, ularni ijtimoiy taraqqiyot kelajagi nuqtayi nazaridan baholaydi. Masalan, xudolar va pahlavonlar kurashi haqidagi qadimiy afsonalarda hokimiyat uchun kurash va urushlar davrida tartibotning buzilishi, qo'zg'alon ko'targan pahlavonlarni mahv qilgan Zevsni o'z bag'rida ulg'aytirgan Geya – Yerning azob chekishi haqida hikoya qilinadi. Ijtimoiy totuvlik va barqarorlikning amal qilish davri esa barcha afsonalarda "oltin asr" bilan bog'lab aks ettiriladi.

Esxatologik afsonalar dunyo va odamning so'nggi taqdiridan hikoya qiladi. Buddizm afsonalari va yahudiylik, xristianlik va islomning esxatologiyasi o'rta sidagi asosiy farq shundaki, buddizm da dunyoning absolyut nihoyasi mavjud emas. Demak, shunga mos ravishda abadiy jannat yoki do'zax ham yo'q. Buddizm afsonalarida odamlar bir tana qobig'idan boshqasiga o'tish zanjiriga, tug'ilish va o'limning to'xtovsiz almashuvi – sansaraga tortilgan. Buddizmga ko'ra har qanday yangi tug'ilish – bu to'g'ri kechirilgan hayot uchun ijtimoiy mavqening ko'tarilishi, yoki aksincha, o'simlik yoki hayvonga aylanish mavqening pasaytirilishidir; ayni aylanishda bitta hodisa yoki holatlar cheksiz qaytarilishi mumkin.

Buddizm mifologiyasida dxarmaning nihoyasi (dxarma – individual ong oqimini hosil qiluvchi mayda, bo‘linmas ruhiy zarralar) haqidagi ta’limot mavjud. Xeravadining cherkov qoidalariga aylanmagan afsonalarida “dxarma intihosi”ning boshlanishi tasvirlanadi: odamlar cheksiz boshqa narsaga aylanish xususiyatini yo‘qotishadi, keyin kanonik, ya’ni cherkov qoidalariga aylangan kitoblar yo‘qoladi; shundan keyin dunyo buzilishning yangi bosqichiga kiradi. Ammo bu xristianlik va islom esxatologiyasidan farqli ravishda Oxir zamon emas, balki Borliq taraqqiyoti yangi doirasining boshlanishi bo‘ladi.

Garchi Teylor va Frezer bu borada boshqacha nuqtayi nazarga ega bo‘lsalar ham, tarixchi va dinshunos olimlar ham tabiatga sig‘inish diniy ongning dastlabki shakli, deb hisoblaganlar. Antropologlarning tafakkur mantig‘iga ko‘ra, qadimiy odamlar “tabiat” kabi abstrakt tushunchalarni idrok eta olmasalar-da, ular tabiatning aniq bir asoslangan kuchlariga – quyosh, osmon, olov, jonivorlar (va h.k.)ga sig‘inishgan. Ularning jonli yoki sehrli kuchga egaligi haqidagi qarashlar keyinroq paydo bo‘ldi. Shu bilan birga kosmogonik syujetlar ibtidoiy mifologiyada katta o‘rin egallagan, ya’ni yer va osmon, quyosh va oy, o‘simlik va hayvonot, nihoyat, odamning yaratilishi to‘g‘risidagi rivoyatlar, afsonalarda diniy tasavvurlarning ta’siri yaqqol ifodalangan. Turk hoqonligi davrida esa, VIII asr birinchi yarmining oxirlarigacha Osmon (Tangri)ga yoki Ko‘k osmon (Ko‘ktangri)ga e’tiqod qilingan.

Ingliz etnologi E.B.Teylorning “Ibtidoiy madaniyat” nomli asari ibtidoiy mifologiyaning vujudga kelishi, diniy ong rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, namoyon bo‘lishi, ibtidoiy mifologiyani tasniflash va tizimlashtirishga bag‘ishlagan bo‘lib, ibtidoiy diniy tasavvurlarni o‘rganishdagi muhim manbalardan biri hisoblanadi. Teylorning fikricha, mifologik ongning zamirida ham real diniy tajriba turadi. Shu nuqtayi nazardan, ibtidoiy mifologiyani tadqiq qilish orqali diniy tasavvurlar yuzaga chiqadi. Afsonalarni o‘rganish tasavvur qilish qonunlarining tadqiqoti bo‘lib qolmoqda. Ibtidoiy mifologiya rivojida muntazam majoziy ma’no muhim ahamiyat kasb etgan. Teylor ibtidoiy

mifologiyaning bolalik davri ongining o'ziga xos jihatlarini qiyosiy o'rganib, ibtidoiy odamni yosh bolaga o'xshatadi. Uning fikricha xuddi bolalar turli ertaklar orqali o'z atrofidagi dunyoni tushuntirib berishlari kabi ibtidoiy odam tafakkurida ham ibtidoiy mifologiya shakllangan. Ontogenezda inson ulg'ayib, fikrlari reallashib borgani kabi insoniyat rivojlanib borishi bilan ibtidoiy mifologiyadan yiroqlashib borgan. Zamonaviy dinshunoslik ibtidoiy mifologiyani xudolarni yoki insoniyat tajribasida real uchratib bo'lmaydigan holatlar va voqeliklarga qo'shib, kiritib ilohlarga qiyoslab qo'yilgan qahramonlar, fantastik mavjudotlarni o'ziga xos ravishda tasvirlab berish, deb qaragan.

Shunday qilib, afsona o'zining diniy mohiyatini yo'qotishi yoki aksincha, hozirgi zamon afsonasi diniy mazmun bilan boyishi mumkin. Bu borada Maks Weber ta'kidlagani kabi qadimiy ma'budlar va afsonaviy mavjudotlar zamonaviy afsonalarda qayta tug'iladilar. Ular ma'lum bir kuch yoki tushunchalarni namoyon etuvchi timsollar sifatida aks etishlari mumkin. Masalan, O'zbekiston gerbidagi afsonaviy Xumo qushi baxt timsoli, deb atalishi bunga yaqqol dalil bo'la oladi.

Animizm | Animizm (lotincha anima, animus – jon, ruh) atamasi ilk bor 1708-yilda nemis olimi G.Shtal tomonidan kiritilgan. U jon (ruh)ning shaxssiz hayot kechirishi, u “tananing haykaltaroshi” va barcha hayotiy jarayonlarning asosi ekanligi haqidagi ta'limotni shunday atagan. E.B.Teylor (1832-1917) din kelib chiqishining animistik nazariyasini ishlab chiqdi. U animizm vujudga kelishining sabablarini topishga urindi. Olimning fikricha, ibtidoiy odamlar tush ko'rish yoki o'lim hodisalari haqida tez-tez fikr yuritishgan. Bunday hodisalarni kuzatish ularni har bir odamda o'ziga xos substansiya mavjud va u tanani vaqtincha yoki abadiy tark etishi mumkinligi haqidagi xulosaga olib kelgan. Odatda uni “jon”, “ruh” deb atashgan. Bunday fikrlar keyinchalik o'simliklar, hayvonlar, alohida narsalar va hatto, tabiat hodisalarining joni borligi haqidagi tasavvurlarni rivojlantirgan. Oliy iloh, Tangriga ishonchni Teylor “oliy darajadagi” animizm, deb hisoblagan, ularni vazifalariga ko'ra urush xudosi, quyosh xudosi sifatida tavsiflagan. Garchi Teylordan avval ham etnologlar

tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa-da, animistika nazariyasi aynan uning asarlarida o'zining to'liq ilmiy ifodasini topgan.

Butun olamning jonli ekanligi haqidagi ibtidoiy tasavvurlarni Teylor animizm, deb atagan va uning ikki yo'nalishda rivojlanishini ko'rsatgan.

Birinchisi, jonning inson tanasi bilan tug'ilishi va o'limdan keyin uni abadiy tark etishi to'g'risidagi tasavvurlar. Jon uyqu, gipnoz, jazava yoki hushdan ketish kabi vaziyatlarida insonni vaqtincha tark etadi. Ikkinchi yo'nalish – atrofimizdagi dunyo hodisa va predmetlarining ruhi mavjudligi haqidagi tasavvurlar. Teylor fikricha ibtidoiy inson ushbu predmetlarga insonga xos emotsiyalar va iroda ato qiladi, ya'ni uning fikrlashi tush, kasallik, o'limning siri kabilardan ko'ra kengroq bo'lgan. Bu esa tabiiy kuchlar, hayvonlar, ajdodlarning mustaqil yashovchi joni borligiga ishonch tug'diradi. Animizm, Teylorning fikriga ko'ra keyinchalik politeizmga va undan so'ng monoteizmga aylangan dinning bazis shakli hisoblangan. Ammo etnograf va antropologlar tadqiqotlarida qadimgi madaniyatlarda azaldan animizm bo'lmasdan monoteizm bo'lganligiga oid misollar keltiriladi. Teylorning asarlarida animistik g'oya o'zining eng to'liq va yakuniy ifodasini topdi.

Animizmning asoslaridan biri, bu – vafot etgan kishilar ruhiga (qarindoshlar yoki afsonaviy shaxslarga), *ajdodlar ruhiga sig'inishdir*. Animizmning asl mazmun-mohiyati – o'limdan keyingi hayotga ishonish, jon, ruh haqidagi tasavvurlar hayot va o'lim, so'nish va jonlanish, eskilik va yangilik o'rta sidagi munosabatga ishonchdir. Ayniqsa, bunday e'tiqod Afrikada keng tarqalgan. Melaneziyada esa yaqinda vafot etgan ajdodlar ruhiga sig'inadilar. Marhumning bosh suyagi turargohlarning kirish joyi tepasiga joylashtirib qo'yilib, u har bir odamning amallarini shu yerdan "kuzatib turadi" va amallariga qarab mukofotlaydi yoki jazolaydi, deb e'tiqod qilingan¹.

Ajdodlarga ruhiga sig'inish Hozirgi Shimoliy va G'arbiy Afrikaning o'z yozuviga ega bo'lmagan xalqlari orasida keng tarqalgan. U Yangi davrgacha dunyoning ko'p lab mintaqalarida amal qilar edi, ammo yevropacha va

amerikacha madaniyatning keng tarqalishi va mustahkamlanishi, globallashuv hamda texnikalashuv jarayonlari uning o'z yozuviga ega bo'lmagan qabila va elatlaridagi amaliyotni sekinlashtirdi, sivilizatsiyalashgan mamlakatlarda esa ajdodlarga sig'inishning maqsadga muvofiqligiga bo'lgan ishonchga putur yetkazdi. Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Xitoy, Yaponiya, Koreya)da ajdodlarga sig'inish avlodlar izchilligi (merosga vorislik)ni ta'minlagan hamda "otalar" va "farzandlar" muammosi keskinligini yumshatgan. Katta yoshdagilarga o'g'illik hurmati an'analarining ildizlari konfutsiylikka borib taqaladi. Uyda marosimlar ajdodlar nomi yozilgan xotira taxtachalari oldida amalga oshirilgan. Qadimgi Yunonistonda ajdodlarga sig'inish qahramonlarga sig'inish, oila boshliqlari va siyosiy rahnamolarni hurmatlash bilan birga qo'shib olib borilgan. Qadimgi Bobilda hatto, ba'zan hukmron elitaning vafot etgan ajdodlari ilohiylashtirilgan. Shimoliy va Sharqiy Yevropa xalqlarida ham ajdodlarga sig'inish ularga qurbonlik keltirishlarda o'z ifodasini topgan edi. Vafot etganlarga hurmat bajo keltirish sabablari turli-tuman bo'lgan, masalan, vafot etganlar ruhi qarindoshlik huquqiga ko'ra o'z avlodining ba'zi vakillariga yoki umuman o'z urug'iga faol yordam ko'rsatishi mumkinligiga ishonishgan. Eramizning birinchi asrlarida Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston hududlarida ajdodlar ruhiga sig'inish e'tiqodi mavjud bo'lgan. Bu ibodatxona, saroy va uylar devorlarini aslzodalarning ajdodlari, ularning jasorati tasvirlari bilan bezatish orqali o'z ifodasini topgan.

Shomonizm

Dinning ilk shakllari orasida shomonizm alohida o'rin egallaydi, ibtidoiy urug'doshlik dinlaridan farqli o'laroq, qabila uyushmalari birlashayotgan davrda shakllanib, ijtimoiy ongning urug'-qabila shakllari bilan bog'lanadi va animizmning bir turi sifatida ko'riladi. Shomon asli tungus-manchjur so'zi bo'lib, u "bilmoq" ma'nosini anglatadi. Evenk tilida "shomon" so'zi – "hayajonlanish, jazavaga tushish" ma'nosini anglatadi. Shimoliy Osiyo, Amerika va Avstraliyaning mahalliy xalqlarida ruhlar bilan aloqa qilish va ularni boshqarish qobiliyatiga ega kishini shomon, deb atashgan. Ana shu qobiliyati tufayli u kasallarni tuzatishi, yomg'ir, shamol kabi tabiat hodisalarini

chaqira olishi, muvaffaqiyatni ta'minlashi mumkin, deb hisoblashgan. Shomonlik diniy jazava paytida ruhlar bilan muloqotga kirishish mumkinligiga ishonchga asoslangan. Shunday qilib, shomonizm sig'inishning ekstatik (ya'ni zavq-shavqdan qattiq hayajonga tushish) varianti sifatida boshqalardan ajralib turadi.

Shomonizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlarini bilan maxsus odamlar – shomonlar, afsungarlar shug'ullanganlar. Tarixda Markaziy osiyolik folchilar, Delfadagi Apollon ibodatxonasi karomatchi koinlarining diniy jazavaga tushishiga oid o'ziga xos texnika aks ettirilgan. Hozirgi zamon ekstrasenslari ham bunday psixotexnikani turli lo'ttibozliklar bilan qo'shib olib borishadi (tananing qaltirashi, ko'zning orqaga tortib ketishi, olov, suv, oyna, pichoq, tasbeh kabilar bilan manipulyatsiya qilish). Bu ularga o'z kuchini ko'rsatish va o'z psixoterapevtik seanslarida “qaytarma qilish”, “isitma qilish”, “ko'z tegishdan kinna qilish”, “nikohga yo'l ochish”, “muvaffaqiyat yoki pul chaqirish” kabilarning “kuch”iga mijozlar, tomoshabinlarni ishontirishga “yordam” beradi.

Muayyan psixologik tipga oid kishilar shomon bo'la oladilar. Ularning xatti-harakati balog'at yoshiga o'tishdayoq bilinadi, ular muloqotga kam kirishadilar, ko'zlariga turli narsalar ko'rinishini aytishadi, juda emotsional, begonalarning dardiga hamdard bo'lishadi. Jamoa ana shunday kishining shomon bo'lishidan manfaatdordir. Ammo odatda, shomonizm avloddan-avlodga uzatiladi, chunki bunday oilada o'sgan bola yoshligidanoq shomonizm amaliyotini o'zlashtirib olgan bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z hayotidagi muayyan inqiroz sharoitida jiddiy ruhiy ehtiyoj tufayli shomon bo'la oladilar.

“Shomon kasalligi” shomonizmning majburiy elementi bo'lmasa-da, turli xalqlar shomonligida noyob hodisa sanaladi. U bo'lajak shomonning o'z qobiliyatlarini inkor qilishi va bemorlarni eski usullarda davolash amaliyotini rad qilishida namoyon bo'ladi. Bu ruhiy kasallikka olib kelishi mumkin, deb hisoblaniladi, bunda patologik holatlarning ko'p lab kompleksi o'zini ko'rsatadi

va ular “nomzod”ning o‘z iste’dodi vazifasini tan olguncha juda qiyin kechadi. Tantanali tan olish marosimidan keyin bosh og‘rig‘i, depressiya va shu kabilar yo‘qoladi. Shimoliy Amerikaning arktik qirg‘oqlarida va Grenlandiyada shomonizmni tan olish marosimini tadqiq qilgan D.Merking shomonizmdagi gipnotik trans amaliyotini inson psixikasining depressiyaga qarshi himoya funksiyasi bilan bog‘laydi. Bu tajriba gipnoz psixiatriyada keng qo‘llaniladi. Organizmni depressiyadan himoya qilish uchun vasvasava, sarxushlikning ba‘zi shakllaridan foydalanilganlik holatlari fanga ma‘lum. Ulug‘lik vasvasasi ba‘zan norasolik kompleksi bilan og‘rigan odam kechinmalarining o‘rnini bosishi mumkin, sababsiz ko‘tarinki kayfiyat esa qattiq hayajonlar bilan ezilgan psixikani himoya qilishi mumkin. Bu faktlar din psixologiyasi sohasining ba‘zi tadqiqotchilari shomonning iste’dodiga yuqori baho berishiga, uning gipnotik trans amaliyoti va ba‘zi udumlarni ijro etishdagi ko‘tarinkiligini “ruhiy xislat”, odat hisoblashi hamda shomonizmni depressiyaga qarshi vosita, deb qarashiga olib keldi².

Real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta’sir etish maqsadida amalga oshiradigan rituallari, ya’ni ruhlar makoni bo‘lgan “yuqori samo” dunyosiga va yovuz ruhlar makoni bo‘lgan “yer qa’ri”ga sayohat qilishi shomon amaliyotining universalligi hisoblangan. Ushbu ritual alohida, o‘zgacha nafas olish usulini qo‘llash yoki ba’zida giyohvand moddalar ta’sirida o‘yinga tushish orqali yuzaga keladigan jazava vaqtida amalga oshiriladi. Shomonlarning jazavaga tushish holatini odamlar ularning ruhlar bilan muloqotda bo‘lishi deb tushunganlar va jamoaning orzu-niyatlarini ruhlarga yetkazishiga, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga qattiq ishonganlar. Shomonlar odatda, nog‘oralar va qo‘ng‘iroqlar ovozlari ostida ovoz chiqarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo‘li bilan jazavaga tushib, o‘zini yo‘qotish, jazavaning yuqori nuqtasiga etish bilan afsungarlik qilishgan. Masalan, jazava holatidagi shomonning qo‘shiqalar aytishi va nog‘oralarni urishi odamlarning nazdida shomonning arvohlar bilan muloqotda kirishishidir.

Shomon yo‘l ko‘rsatuvchi ruhlarning yo‘qotilgan narsani topishda yordam berishiga (bashoratchilik), jonni u dunyoga “kuzatishiga”, yovuz ruhlar tomonidan bemordan olib qo‘yilgan ruhni qaytarishiga, taqdirni oldindan aytishiga ishonadi. Shomon jazava holatiga kelish jarayoni (kamlanie) quyidagi vositalar va turli-tuman marosimlar bilan amalga oshiriladi: qo‘shiq aytish, childirma chalish, nafas olish mashqlari, meditatsiya va ba‘zan jazavaga tushiruvchi gallyutsinatsiya chaqirish. Go‘yoki shomonga yo‘l ko‘rsatuvchi deb atalmish ruhlar rituellarni bajarishda yordamberishadi. Ular turli madaniyatlarda “jinlar”, “odamlar” kabi nomlar bilan ataladi.

O‘z qobiliyatiga ishonchi sust bo‘lgan yoki xudo (xudolar)ning homiyligiga shubha qiluvchi kishilar shomonlarning psixologik himoyasidan umidvor bo‘ladilar. Shomonning boshqa funksiyasi jamoada psixologik mo‘tadillikni ta‘minlash bilan bog‘liq bo‘lib, u shomonning jamoa a‘zolariga qiyinchiliklarni yengishda yordam berishiga, xavf-xatarlarni oldindan aytishiga ishonch beradi.

Shomonizm O‘zbekiston hududida Turk hoqonligi davridan VIII asr birinchi yarmining oxirigacha taraqqiy etgan. Mamlakatimizda shomonchilik madaniyati yodgorliklari, jumladan, sahrolarda ko‘p asrlar mobaynida “tosh sanamlar” saqlanib qolgan. O‘tmish qoldiqlari sifatida shu kungacha saqlanib qolgan shomonchilikka oid odatlar ham bor.

R.Marret, J.Frezer, L.Shtenbergning tanaga bog‘liq bo‘lmagan ruh haqidagi tasavvurlaridan oldinroq insonning sehrli kuchi to‘g‘risidagi, uning moddiy, “jismoniy joni” haqidagi tasavvurlar mavjud bo‘lgan. Bunday tasavvurlar animatizmning asosidir. Algonkin hindulari butun tabiatga singib ketib uni jonlantiruvchi, tabiiy jarayonlarni boshqaruvchi kuchni “manitu” so‘zi bilan ifodalaganlar. Polineziya va Melaneziya aborigenlari esa ayni maqsadda “ma’na” so‘zini ishlatishgan. Bu mavhumlashtirishning animizmga nisbatan yuqori darajasidir. Ammo uni monizm yoki Absolyut ruhga ishonch, deb bo‘lmaydi. yevropalik antropologlar ba‘zi odamlar, jonivorlar, narsalar yoki ruhlarga xos bo‘lgan g‘ayritabiiy kuchni ifodalash uchun “ma’na” so‘zidan foydalanganlar.

Undan-da yuqoriroq mavhumlashtirish darajasidagi shunday tushunchalar boshqa madaniyatlarda ham amal qilgan. Masalan, qadimgi Hindistonning adabiy tili bo‘lmish sanskritda “ma’nas” so‘zi inson qalbidagi tafakkur manbasini ifodalagan.

Ruhlarni insonlashtira borib, odamlar ularga o‘zlarining insoniy fazilatlari, emotsional xususiyatlarini berishdi va ularning rag‘batiga erishishga harakat qilishgan. Shu maqsadda ular qurbonliklar va sovg‘alar keltirishgan, ular uchun raqsga tushishgan va madhiyalar kuylashgan. Odamlarning tili ularga tushunarli bo‘lishi uchun duo va afsunlarning, ibodat bilan bog‘liq xatti-harakatlarning so‘z bilan ifodalanuvchi o‘ziga xos formulalaridan foydalanishgan. O‘ziga xos marosimlarda ulardan foydalanish ibtidoiy dinning yana bir shakli – sehrgarlikni vujudga keltirdi.

Sehrgarlik | Sehrgarlik (lotincha magia, yunoncha mageia) tabiatga ta’sir qilishning g‘ayritabiiy vositalari mavjudligiga ishonch, ma’lum maqsadga erishishga yo‘naltirilgan texnik usullar yig‘indisi. Angliya sotsial antropologiyasining vakili B.Malinovskiy (1884-1942) o‘zining “Магия, наука и религия” kitobida sehrgarlikning ildizlarini tavsiflab beradi³. O‘z kuchiga ishonmasligi, hayotda uzoq davom etgan noaniqlik, ketma-ket ko‘ngilsizliklar va sehrgarlik insonni mazkur vaziyatni mo‘jizaviy ravishda tuzata olishiga asoslanuvchi ishonchi tufayli sehrgarlikka murojaat qilishiga sabab bo‘lgan.

J.Frezer o‘zining “The Golden Bough” asarida insoniyat sehrgarlikdan boshlagan, u dinning ibtidoiy shaklidir, degan fikrni asoslaydi. Uning fikricha sehrgarlikning halokati bilan din vujudga keladi. Frezer fikriga ko‘ra sehrgarlik bosqichida inson uchun har qanday hodisa, hatto u sehrgarlik a‘moli bilan chaqirilgan bo‘lsa ham, tabiiydir va tabiat qonunlariga mosdir. Din esa g‘ayritabiiylikka asoslanadi, qandaydir oliy kuchlarning aralashuvini ko‘zda tutadi⁴.

Frezer din haqidagi o‘z tushunchasidan kelib chiqqan holda totemizmni ham sehrgarlik kabi din shakli sifatida ko‘rmagan. Uning fikricha inson o‘z totemini qadrlaydi va unda Ilohni ko‘radi, lekin bu o‘z ota-onasi, aka-uka, opa-singillarini

qadrlashdan va ularda Xudoni ko‘rishdan ortiq narsa emas. Inson totemiga o‘z tengidek qaraydi. Sehrgarlik dinga o‘ziga begona kuchdek qarshi turmaydi, u ko‘p incha dinning tarkibiy qismi, ehtimol, o‘ziga xos texnikasi sanaladi.

Hozirgi paytda dinshunoslar sehrgarlikni foydalanish usullari va ta’sir ko‘rsatish maqsadlariga ko‘ra bir-biridan ajratadilar. Uni kontakt (kontagioz) va imitativ turlarga ajratish Frezerning ishlarida uchraydi. Imitativ sehrgarlikni qo‘llovchi inson o‘xshash obyektlarga, masalan, mumdan yasalgan figuraga, o‘yinchoqqa, suratga ta’sir ko‘rsatib, o‘z istagiga erishishi mumkinligiga ishonadi. Kontakt sehrgarlik esa “sehrli kuchga ega bo‘lgan” predmetning u yo‘naltirilgan obyekt bilan aloqada bo‘lishi va obyekt uning istaklarini bajarishga majbur qilishiga ishonishga asoslanadi. Initsial sehrgarlik yetishib bo‘lmaydigan obyektlarga yo‘naltirilgan, partial – bevosita sehrgarlikda esa masalan, kesilgan sochlar, ovqat qoldiqlari, ishlatilgan shaxsiy buyumlardan foydalanib, ularning sohibiga ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga ishoniladi. Ibtidoiy jamoa bosqichining ilk davrida sehrli marosimlarni maxsus o‘qitilgan sehrgarlar, shomonlar, afsungarlar amalga oshirganlar. Ular jamoada hurmat qilingan. Keyinchalik, dinning rivojlangan shakllari paydo bo‘lgach, koinlar va ruhoniylar sehrgarlikni noqonuniy, deb e’lon qilishgan va sehrgarlarni siqib chiqarganlar.

Afsungarlik o‘z maqsadiga ko‘ra quyidagilarga bo‘linadi: tibbiy afsungarlik, sevgi afsungarligi, himoyalovchi afsungarlik, harbiy afsungarlik, zarar yetkazuvchi, meteorologik afsungarlik va boshqalar. O‘zbekiston diniy madaniyatining arxeologik va etnografik yodgorliklari ajdodlarimizning qadimiy e’tiqod va udumlari 100-140 ming yillar ilgari paydo bo‘lganligi haqida guvohlik beradi. Afsungarlik rasm-rusumlari, udumlari tasviriy san’at, grafika va musiqa, raqs san’atida o‘z aksini topgan. Masalan, Surxondaryo viloyatining Zarautsoy madaniyati yodgorliklari olamshumul noyob boylik hisoblanadi (eramizdan 12-5 ming yillar ilgari). Bu 200ga yaqin ov tasviri tushirilgan rasmlar bo‘lib, tosh bitiklar orqali qo‘l-panjasini sehr-jodu ahamiyatiga ega, deb hisoblaganliklarini tushunish mumkin. Qo‘lning tashqi ko‘rinish chizgilari avval uning egasini

bildirgan bo'lsa, keyinchalik pirovard- natijada u himoya belgisi yoki egalik ramziga aylandi. Shialarda besh panja ma'nosi xalifa Ali qo'lining tasviri hisoblanib, besh kishining birligi timsolini, ya'ni Muhammad (s.a.v), Ali (r.a), Fotima, Hasan va Husaynlarni anglatadi.

Qadimda tasviriy san'at, haykaltaroshlik, musiqa, raqs, teatrlashtirilgan harakatlar sehrli kuchlarning badiiy ifodasi deb hisoblangan. O'zbekiston xalq amaliy san'atida anor gullari va mevasining ma'nosi juda mashhur bo'lgan. Anor mevasiga sehrli unumdorlik manbayi sifatida qaralgan, lolaga – qayta tug'ilgan tabiat timsoli tavsifi berilgan. O'zbekiston zamonaviy badiiy ijodida ham ushbu qadimiy timsollar mashhur. Paleolit davrining oxirlariga kelib O'zbekiston hududida dinning qadimiy shakllari to'liq to'planib, u bilan bog'liq urf-odatlar ham shakllanib bo'lgan edi.

Sehrli xatti-harakatlar orasida eng ko'p tarqalganlari quyidagilardir: folbinlarning rom ochishi – suvdan, olovdan, oynadan, kuldan, ismdan yoki unga kiruvchi harflardan, suyaklardan, mehrobdan olingan kuldan, eritilgan mumdan, elak yoki g'alvirdan, qurbonlik keltirilgan hayvonlarning ichki a'zolaridan, yulduzlardan, jonivorlar xatti-harakatidan, sonlardan, sehrli kristallardan, Bibliyadan foydalanib fol ochish keng tarqalgan.

Animizmni ibtidoiy dinlarning birlamchi asosi, deb hisoblagan Teylordan farqli o'laroq, E.Dyurkgeym totemizmni dinning ilk shakli, deb hisoblagan.

Totemizm | Totemizm atamasi birinchi marta XVIII asr oxirlarida Yevropa adabiyotida ishlatilgan. "Totem" so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida "uning urug'i" ma'nosini anglatadi va mohiyatan "odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor", deb e'tiqod qilishdir. Ya'ni bu avlod-ajdod guruhi bilan totem – jonivorlar, o'simliklar va hatto tabiiy voqeliklar o'rta sida qalin aloqa mavjudligiga ishonchdir. Totemga e'tiqod unga ta'zim qilish va marosimlar o'tkazish orqali amalga oshirilgan. Bu e'tiqod insonni psixologik jihatdan kuchli qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Masalan, o'lim qo'rquvini yengishda qadimgi odamlar kishi yashashdan

to'xtamasligiga, faqat zaif odam qobig'ini tashlab, totemdagi jonivor ichiga joylashib olishiga ishonganlar. Ularning fikricha totem ichidagi jonivorlar odamga aylangan holda urug'lariga yordamga kelishlari mumkin ekan. Bu voqelik keyinchalik folklorda o'z aksini topgan.

Totemizmda ilk taqiqlar tizimi shakllangan. Masalan, totem jonivorlarini o'ldirish va hatto ular sha'niga nojo'ya so'zlarni aytishni taqiqlangan. Ba'zan hayvonning nomini aytish ham taqiqlanardi: masalan, ayiqqa yovvoyi yirtqich hayvon sifatida emas, balki boshqacha, ya'ni asal bor joyni biladigan hayvon sifatida qaralar edi.

Totemizmning umumiy tavsiflariga quyidagilar kiradi:

1. Totem qarindosh, homiy, o'tgan ota-bobolar ko'makdosh sifatida ko'riladi. Uni nafaqat hurmatlash va izzat-ikromga, balki undan qo'rqishga ishontiruvchi g'ayriinsoniy kuch-qudrat va mahoratga ega, deb bilish.
2. Totemga tegishli bo'lgan alohida ismlar va timsollardan foydalanish.
3. Shaxsni yoki urug'ni totemga qisman tenglashtirish yoki ramziy ma'noda o'xshatishlar.
4. Totem jonivoriga yoki o'simliklariga tegish, ularning ba'zi qismlarini istisno qilganda ritual marosimlaridan tashqari hollarda ularni o'ldirish va oziq-ovqat sifatida iste'mol qilish taqiqlangan.
5. Totemistik marosimlardan keng foydalangan.

Totemizm ba'zi hollarda diniy elementlarni o'z ichiga olishi mumkin, u ba'zida sehr bilan bog'lanadi. ko'p incha totemizmga boshqa turli e'tiqodlar – ajdodlarga sig'inish, g'ayritabiiy kuchlarga va ruhlarga bo'lgan ishonch aralashib ketganini kuzatish mumkin. Shu sababli totemizmning aniq shakllari haqidagi tushunchalarni ifodalashda qiyinchilik tug'iladi. Etnik jamoaning barcha a'zolari tomonidan u yoki bu jonivor, yoki biror tabiat obyektini qadrlab, unga sig'inishlar bu hali totemizm ekanligini ko'rsatmaydi. Totem jonivorlari haqidagi tasavvurlar

keyinchalik zardushtiylik va buddizmda ham o'z aksini topgan hamda O'zbekiston hududidagi xalqlarning madaniyati va san'atini turli timsollar sifatida boyitgan.

Fetishizm | Fetishizm (frantsuzcha *fétiche* [fetiʃ] – sanam, tumor) – alohida narsalarga bo'lgan istakka erishtirishga qodir g'ayritabiiy kuch ato qilinishiga ishonishdir. Ibtidoiy jamiyatda jonning turli narsalarga yoki odamlarga kirib olishiga ishonch bo'lgan. Shunday qilib, alohida predmetlarga sig'inish, ya'ni fetishizm vujudga kelishiga asos yaratilgan. Teylorning fikricha tegishli sharoitda animizm butparastlikka aylanishi mumkin. Agar sehrgarlik sehrgarga g'ayritabiiy kuch ato qilsa, fetishizm bunday xususiyatni sehrlil narsa – fetishga beradi. Fetishlar tayyorlashni diniy san'atning jarayonining boshlanishi sifatida qabul qilish mumkin.

Hozirgi zamon dinlarida turli muqaddas narsalarni va diniy qadamjolar qadrlanishi (masalan, islomda qora toshni, xristianlarda xoch va ikonalarini, buddizmda hovoncha, o'g'ir va shunga o'xshashlar)ni fetishizmdan farqlash lozim. Fetishizmda narsada omad keltiruvchi, davolovchi, himoyalovchi, g'ayritabiiy xususiyatlar borligiga ishoniladi. Agar fetish ta'sir ko'rsatishdan to'xtasa, uni boshqasiga almashtirishadi. Afrikaning ayrim qabilalari o'zlarining iltijolari yaxshiroq yetib borishi uchun fetishni jazolaganlar, unga mixlar qoqishgan. Muqaddas sanalgan narsa qarshisida ta'zim qilish holatlari biroz boshqacha bo'lgan. Ta'zim ko'rsatilayotgan narsaga ilohiy kuchlarning bir qismi yoki din yo'lida qurbon bo'lgan shahidlar nufuzining bir qismi berilgan, deb hisoblangan.

Dinning rivojlanish jarayonida fetishizmning o'rni borasida bir qator nuqtayi nazarlar mavjud. Masalan, ulardan birida fetishizmni dastlabki diniy e'tiqodlar rivojlanishining yakunlovchi bosqichi, deb e'tirof etiladi, chunki fetishni tayyorlash alohida bilim va mahoratni talab etgan. Kohinlar ularni tayyorlashni sir saqlashgan, sababi bunday mahorat fetish orqali odamlarning hayot tarziga ta'sir ko'rsatish va bundan yaxshigina moddiy manfaat ko'rish imkoniyatini bergan. Bu esa jamiyatning tabaqalarga ajralib, qadimiy munosabatlarning buzilib ketishi tomon qo'yilgan birinchi qadam deyilsa, xatobo'lmaydi.

Boshqa nuqtayi nazarga ko‘ra fetishning paydo bo‘lishi – ko‘zga ko‘rinadigan va qo‘l bilan his etiladigan ramz kerak bo‘lganligida hamda insonning qaysidir darajada mavhum fikr yuritishi yetarli emasligi natijasidir. Bunday mulohaza mantiqan asosli, deb o‘ylaymiz chunki keyingi davrlarda ilohlarning shunga o‘xshash moddiy mujassamlanishini uchratamiz: greklar Gerani yog‘och sifatida, Apollonni esa ehrom ko‘rinishida qadrlashgan va h.k.

Inson mehnat faoliyati davomida yanada takomillashgan ish qurollarini yasab chiqara boshlagan va o‘zining “omadli” ish quroligagina umid bog‘lagan. Inson ularni jonlantirgan – animizm unsuri, bundan keyin ham undan yanada kengroq foydalana olish uchun harakat qilgan – sehrgarlik elementi, begonalardan asragan, agar ular ish bermay, uyaltirib qo‘ysa, sindirib tashlashgan.

Dastlabki qadimiy e‘tiqod shakllari hozirgi zamonaviy hayotda ham uchraydi. Ijtimoiy so‘rovlar natijasiga ko‘ra, ko‘p gina zamondoshlarimiz tilsimlar va tumorlar kuchiga, sehrli marosimlarga, folbinlikka ishonadilar; boz ustiga, og‘ir vaziyatlar, tang holatlarda bu ishonch ortib borishi kuzatiladi. Qachonki, inson o‘z kuchiga ishonchini yo‘qotsa, xudoga bo‘lgan ishonchi susayib ketsa, folbinu sehrganlardan najot izlay boshlaydi. Ba‘zi hollarda “ilmiy” asoslarni dastlabki qadimiy e‘tiqodlar soyasiga kiritishga harakat qilinadi. Bu e‘tiqod o‘zining real qiymatidan tashqari go‘yoki, shifobaxsh xususiyatlarga ega bo‘luvchi qimmatbaho toshlar, ko‘p roq mashhur tumorlarda o‘z aksini topadi. Masalan, O‘zbekistonda xonadonlarning kirish darvozalari tepasiga isiriq osib qo‘yilganligini (isiriq ayrim kishilar nazdida “ko‘z tegishi”dan asrash uchun tutatiladigan o‘simlik) ko‘ramiz, go‘yo boylik chaqiruvchi yoki mahsulotning tezroq sotilib ketishiga yordam beruvchi ko‘z, tasbeh, ari uyasi shaklidagi narsalar va boshqa tumorlarni uchratish mumkin. Bu holat fetishizmning zamonaviy ko‘rinishlariga va fen-shuy sanoati rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Shunday qilib, dastlabki qadimiy e‘tiqodlar insoniyat jamiyati va madaniyatining rivojlanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi, jamiyat rivojlanishi ta‘siri ostida insonlar o‘zlari ham o‘zgargan holda birlashmalarini rivojlantirish va

mustahkamlashga ko‘maklashdilar. Ular diniy tasavvurga asos soldilar. Dastlabki qadimiy e‘tiqodlar tarkibiy qismlaridan ayrimlari zamonaviy jamiyat hayotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan holda hozirgacha ham saqlanib kelmoqda.

2.2. Milliy dinlar

Mazmun. *Qadimgi Misr, Bobil va Ossuriya dinlari. Antik davrda ko‘p xudolik dinlari. Hinduiylik. Vedalar va Upanishadlar – hinduiylikning muqaddas kitoblari. Braxmanlik ta‘limotida kastalar. Konfutsiylik. Daotsizm – falsafiy ta‘limot. Yapon milliy dini – sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari. Yahudiylik.*

Qadimgi Misr, Bobil va Ossuriya dinlari | Qadimgi Misr, Bobil, Ossuriya, Hindiston, Xitoy, shuningdek zamonaviy hinduizm, sintoizm, yaxsudiyluk dinlari milliy dinlar deb hisoblanadi. Milliy dinlar – bu ma‘lum bir davlat bilan bog‘liq bo‘lgan yoki biron etnik jamoa vakillari e‘tiqodiga xos bo‘lib, boshqa xalqlar o‘rtasida tarqalmagan dinlardir. Bunday dinlarni ularga e‘tiqod qiluvchi xalqlar madaniyati, afsonalari va marosimlaridan ajratib bo‘lmaydi. Uning vujudga kelishi tegishli elat va etnos shaklanish jarayonlari bilan bog‘liq. Dinshunoslikda bu kabi dinlarni tushuntirish uchun “etnik- lokal dinlar” iborasi ham qo‘llaniladi Masalan, Yaponiyaning milliy dini sintoizm, Hindistonning milliy dini vediz..

Qadimgi dunyo dinlari iborasi qadimgi Misr, Bobil, Ossuriya va boshqa davlatlarning diniy e‘tiqodlari, ibodat va marosimlarini ifodalaydi. Hozirgi paytda qadimgi misrliklar va shu kabilarning dinlari saqlanib qolmagan.

Qadimgi Misr dini va mifologiyasi milod. avv. VI-IV ming yilliklarda Nil vodiysida yashagan qabilalar o‘rtasida shakllangan. Misr diniy e‘tiqodida fir‘avni ilohiylashtirish markaziy o‘rinni egallagan. U quyoshning yerdagi tirik timsoli, deb qaralishi uning hukmronligiga absolyut qonuniylik, muqaddaslik bag‘ishlagan va fuqarolar uni qo‘rqinch bilan izzat-hurmat qilishiga, so‘zsiz bo‘ysunishiga sabab

bo‘lgan. Misrliklar tushunchasida fir‘avn tomonidan o‘rnatilgan tartib yerdagi va jamiyatdagi tartibning kafolati bo‘lgan.

Fir‘avnni o‘lmasligi g‘oyasi hukmdor tanasini mo‘miyolash san‘atini keltirib chiqargan. Buzilmagan tanaga uning barcha mazmun-mohiyati birlashtirilsa, qayta tirilish yuz berishi mumkin, deb bilgan qadimgi misrliklar fir‘avn vafotidan so‘ng xudolar yoniga qaytishiga ishonishgan. Dunyo halokatga uchraganda esa ular tiriladilar va dunyoni qayta vujudga keltiradilar, deb o‘ylaganlar. Mifologiya qadimgi misrliklarning inson ruhi-mohiyati haqidagi tasavvurlaridan xabar beradi. Ular jismoniy tanada osmondagi xudolarga ko‘tarilib ketuvchi ruhiy tana (Saxu, Sax) rivojlanishiga ishonishgan. Buning uchun bir qator shartlar: ya‘ni koinlar vafot etgan tana ustida tegishli duolarni o‘qishi va barcha udumlarni to‘g‘ri bajarishlari kerak bo‘lgan. Qadimgi misrliklar saxuning o‘lmas ruhini uning tanasi shakliga o‘xshatishgan. Jismoniy tana (Kxat) parchalanib ketmasligi uchun o‘lganidan keyin mo‘miyolangan.

“Ehrom matnlarida” Ka ruhi faqat fir‘avnda mavjud deyilgan. Bu g‘oya Fir‘avnni kelib chiqishi va qudratini ilohiylashtirish bilan uzviy bog‘langan. Qadimgi podshohlik davrining nihoyasida Ka har qanday odamning o‘ziga o‘xshash ikkinchi “Men”i bo‘lishi mumkin, deb e‘tirof etilgan, u odamning taqdiri bo‘lib, o‘z xo‘jasining tashqi ko‘rinishi va sifatlariga o‘xshash mavhum inson ko‘rinishida, boshining tepasida tirsagi egilgan holda aks ettirilgan, uning mavjudligi ilohiy kelib chiqishga bog‘langan hamda u qudratli sanalgan. Misrliklar Ka oziqlanishga muhtoj, deb hisoblashgan va odamning ikkinchi o‘zligi ovqat izlab chiqib ketmasligi uchun qabrda hadyalar qoldirishgan. Qadimgi misrliklar tasavvuricha Ba – “yurak ruhi”, hayotiy kuch hisoblanadi, Ax esa fir‘avnni u dunyodagi huzur-halovatda qayta tug‘ilishidir. Bu ruh haqidagi eslatmalar birinchi marta “Ehrom matnlarida” tojdor ibis qushi – laylakka o‘xshash ko‘rinishda uchraydi. Shuit esa, inson mavjudligi shakllaridan biri, uning soyasidir. Yurak (Ab, Ib) ruh bilan mustahkam bog‘langan, u hayot, odamdagi ezgulik va yomonlik manbayi hisoblangan. Uning saqlanishiga alohida e‘tibor qilingan, chunki qadimgi

Misrdagi tasavvurlarga ko'ra Osiris sudida tananing maxsus tekshirishdan o'tadigan yagona qismi yurakdir. Fir'avn ismining saqlanib qolishiga misrliklar juda katta ahamiyat berishgan, chunki ular insonning ismi saqlanib qolmas ekan, u amal qilishdan to'xtashiga ishonishgan.

O'limdan keyingi hayot haqidagi tasavvurlar inson hayotlik davridayoq tayyorlanishi kerak bo'lgan Osirisning so'roq maydoni bilan bog'liq. Kohinlar vafot etgan insonni mo'miyolash jarayonida "O'liklar kitobi"dan parchalar o'qishgan. Papirus barglariga yozilgan va chiroyli bezatilgan "O'liklar kitobi" ham murdani himoya qilish va u dunyoda unga hamroh bo'lishi uchun mo'miyo bilan birga dafn etilgan. Bu kitobni yozish Yangi podshohlik davridan to qadimgi Misr tarixining oxiriga qadar davom etgan. Ko'p incha "O'liklar kitobi" deganda Qadimgi podshohlik fir'avnlari piramidalarining devorlariga o'yib yozilgan "Ehrom matnlari" ning ilk asarlari va O'rta podshohlik sarkofaglariga o'yib yozilgan "Sarkofaglar matnlari" ham tushuniladi.

Qadimgi misrliklar "O'liklar kitobi"ning matnlari mo'miyolangan tanani saqlashiga, o'lgan kishining ruhiga u dunyodagi sayohatida yordam berishiga, Osiris so'roq maydoniga olib borishiga ishonishgan. Ularning tushunchasi bo'yicha Osiris ayblagan o'liklar darhol yeyuvchiga berilgan, oqlanganlar esa Osiris podshohligida abadiy baxtli hayot kechirganlar. Psixologik nuqtayi nazardan boqiylik g'oyasi bir tomondan, o'limni kutishdagi tanglikni yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, hayotning mazmunini qadrsizlantirgan, chunki qadimgi Sharqning ko'p lab dinlarida (hinduiylik, buddizm va sh.k.) tasavvur etilganidek, dunyo hayoti yagona imkoniyat emas. Qadimgi Misr dinida insondagi ruhiy tomonning shu qadar diqqat bilan o'rganilishi psixologiyaga qiziqish ildizlari uzoq qadimgi zamonlar bilan bog'liqligidan dalolat beradi.

Qadimgi misrliklarda o'lganlarga sig'inish ancha rivojlangan edi. Ajdodlarga sig'inish amaliyoti bo'lgan Sharqiy Osiyo mamlakatlaridan farqli ravishda qadimgi misrliklar vafot etgan fir'avnlarga hamjihat bo'lib, birgalikda

ibodat qilishgan. Bunda fir'avn urug'ining avlodlari o'ziga xos diniy odatlarni amalga oshirishgan.

O'layotgan va tirilayotgan tabiatni bildiruvchi O'lim xudosi hisoblangan Osirisga eng ko'p ibodat qilingan. Osirisga sig'inish misrliklarga uning taqdiriga o'xshab o'lgandan so'ng qayta tirilishga umid bergan. Misr huquqi ham haqiqat va tartib ma'budi Maatni hurmat qilishga bog'lanib ketgan. Din singib ketgan Misr jamiyati dunyodagi barcha narsa, shuningdek, ijtimoiy tartibot va adolat ham xudolar hukmida va ular tomonidan yaratilgan, deb hisoblagan.

Ancha qadim davrdagi Misr ilohlari totemizm ta'siri ostida zoomorf bo'lganlar hamda lochin, buqa, sigir, mushuk, ilon boshli va boshqa ko'rinishda tasvirlanganlar. Masalan, muhabbat, quvonch va xursandchilik ilohi Bastni misrliklar mushuk boshli shaklda tasavvur qilishgan. Nil manbayining saqlovchisi – Xnum ilohi qo'y yoki qo'y kallali odam shaklida tasvirlangan. O'liklar homiysi, dafn marosimi va mo'miyolash bilimdoni – Anubis bo'ri, shoqol yoki shoqol kallali odam ko'rinishida ifodalangan. Oy ilohi Tot qadimiy Misr mifologiyasida fanlar, yozuv, hisob-kitob, muqaddas kitoblar va jodu-afsunlar homiysi, deb hisoblangan. Afsonalarga qaraganda oxirat so'rog'ida Tot marhumning qilgan ishlari haqidagi yozuvlarni Osirisga taqdim etayotgan iblis kallali (ibis – laylakka o'xshash ko'rinishdagi qush) odam ko'rinishida ifodalangan. Misrliklarning odam jon va tanadan tuzilgan, muayyan sharoitlarda o'lganlar tiriladi, degan ishonchi mo'miyolash amaliyotini rivojlantirdi. Milod. avv. qariyb 1500-yillarga kelib to'liq mo'miyolashga nafaqat fir'avnlarning, balki koinlar va saroydagi fir'avn a'yonlarining ham qurblari yetadigan bo'ldi. Natijada bunday san'atsirlarini saqlovchi koinlar tutgan o'rni yanada mustahkamlandi. Aynan koinlar miloddan avvalgi II minginchi yil o'rta larida fir'avn Amenxotep IV ga dinni isloh qilishga yo'l bermaganlar.

Qadimgi Misr ibodatxonalari nafaqat diniy marosimlarni o'tkazish joyi, balki ilmiy, madaniy va iqtisodiy hayot markazi hisoblangan.

Ibodatxonalarda astronomik kuzatuvlar o'tkazilgan, muqaddas bitiklar saqlangan va ular o'rganilgan, yangi kohinlar o'qitilgan, kundalik urf- odat marosimlari o'tkazilgan.

Misr politeizmi davlatni markazlashtirish va unda yuqori hukmronlikni o'rnatish g'oyasiga mos kelmas edi. Shuning uchun fir'avn Amenxotep IV yagona xudoga sig'inishni tasdiqlashga urinib, diniy islohotlar tashabbuskori bo'lib qoldi. Fir'avn davlat poytaxtini shu iloh nomi bilan Aton, deb atadi va o'zi ham Exnaton ismini qabul qildi, bu "ilohga ma'qul" ma'nosini anglatgan. Fir'avn kohinlar bilan ayovsiz kurashlar olib bordi, ularning sig'inish obyektlari va eski ilohlarini bekor qildi. Ibodatxonalarini yopdi, mulklarini musodara qildi. Ammo kohinlarning qarshiliklari Atonga topinishning kuchayishiga yo'l qo'ymadi, Amenxotep IV vorislari esa tez orada Misr ruhoniylari bilan murosaga kelishga majbur bo'ldilar. Natijada kohinlar obro'-etibori va eski ilohlarga sig'inish qayta tiklandi.

Qadimiy Misr dinlari tarixida sehr-jodu katta o'rinni egallagan. Bizgacha yetib kelgan yozma va tasviriy manbalar, ashyoviy dalillar xalq hayotining turli sohalarida Misr tarixining barcha bosqichlarida sehrgarlikdan keng foydalanilganligini isbotlaydi. Oqibatda Qadimiy Misr dinining timsoli va afsonaviy obrazi yahudiylikning (kabbala), shuningdek, xristianlikdagi tampliyerlar, rozenkreytserlar kabi ezoterik va mistik yo'nalishlariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Massonlar rasm- rusumlarida ham Qadimiy Misr dinining afsonaviy obrazlari va timsollarini uchratish mumkin.

Qadimgi misrliklar dini fan va san'atrivoji uchun turtki bo'ldi, eng avvalo, tibbiyot (mo'miyolash), matematika, geometriya (ehromlar qurilishi uchun hisob-kitoblar) fanlari taraqqiy etdi. Nil daryosining g'arbiy qirg'og'i Gizada Misr fir'avnlari sharafiga qurilgan Xeops, Xefren va Mikerin ehromlari dunyoning yetti mo'jizasi qatoriga kiritilgan. Ehromlarga ham o'ziga xos ravishda sig'inilgan. Xefrin ehromini qoyatoshdan yasalgan va fir'avn Xefrin qiyofasini o'zida aks ettirgan sfinks haykali qo'riqlab turadi. Ulkan ehromlarni fir'avnlarning xotinlari va yaqinlari sharafiga qurilgan unchalik katta bo'lmagan maqbaralar, Yuqori va

Quyi Nil ibodatxonalarini, marosimlar o'tkaziluvchi binolar, koinlar tomonidan vafot etgan fir'avnlarga sig'inish marosimlari o'tkaziluvchi saroylar qurshab turgan. Ehromlarning barchasi qat'iy ravishda dunyoning to'rt tomoniga qaratilgan, burchaklar qiyaligi juda aniq – bu qadimgi misrliklarning injenerlik, astronomik bilimlari yuqori darajada bo'lganligidan darak beradi.

Qadimgi Misr dini savodxonlik, fan, san'at rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Qadimgi Misr yozuvi – sivilizatsiyalar tarixidagi eng qadimiy yozuvlardan biridir. U miloddan oldingi IV ming yillik oxiridan boshlab amal qilgan. Uning eng qadimgi turi – iyerogliflardir. Yunoncha “iyeroglif” – “muqaddas belgilar” so'zi misrcha “medet necher” (“ilohiy nutq”) atamasiga borib taqaladi. Qadimgi Misr mifologiyasi jahon adabiyoti va kino san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan. “O'liklar kitobi”, “Mo'miyoning jonlanishi” motivlari asosida asarlar yozilgan, filmlar yaratilgan. Yunon mifologiyasida Yegipt (Yegipet, Yegipt), ya'ni Misr personaji mavjud.

Sharqshunoslikning Qadimgi Misr tili va yozuvi, tarixi, madaniyati va arxeologik yodgorliklarini o'rganuvchi sohasi misrshunoslik, deb ataladi. 1822-yilda F. Shampolyon Misr matnlarining ma'nosini aytib bergan. Yana bir fransuz misrshunosi, arxeolog O.F.Mariet Misr muzeyining asoschisi bo'lgan. Hukumatning 1835-yilda chiqargan Qadimgi Misr yodgorliklarini muhofaza qilish haqidagi qarori arxeologik qazishma joylarini talon-toroj qilish jarayoniga chek qo'ydi, ilk kolleksiyalarga oid eksponatlar katalogini tuzish boshlandi. Misr muzeyidagi eksponatlarning umumiy soni 155 mingdan oshadi, ularning ko'p qismi ko'rish uchun ochiq. Afsuski, 2010-yili harbiy harakatlar paytida eksponatlarning bir qismi yo'qolib ketdi.

Qadimgi Babil va Ossuriya dinlari

Qadimgi Babil va Ossuriya dinlari barcha shumerlar tomonidan bunyod etilgan. Shumerlar qadimgi Mesopotamiya hududida yashab sivilizatsiya darajasiga erishgan dastlabki xalqlardan hisoblanadi. Savdo-sotiq sharofati bilan ularning manzilgohlari gullab-yashnagan shahar-davlatlarga aylangan. Miloddan avvalgi 3500-yillarga kelib ular rivojlangan sanoat, iqtisodiyot, me'morchilik,

madaniyat, yozuv va diniy e'tiqodiga ega bo'lgan urbanistik turdagi yetuk sivilizatsiyani barpo etganlar.

Qadimgi Misrda bo'lgani kabi qadimgi Mesopotamiyada ham podshoh oliy xudoning o'g'li sifatida ulug'langan. Shunday qilib, podshoh xudoning noibi hisoblangan, hokimiyatga esa xudolarning sovg'asi hamda ular muqaddas qudratining davom etishi sifatida qaralgan. Podshoh siymosi dindorlar tomonidan qudrat, oqillik va adolat namunasi deb tasavvur qilingan. Ossuriya podshohlari o'zlari haqidagi ana shunday tasavvurlarni o'z unvonlarida qo'llab-quvvatlab: "Men, Sinaxxerib, buyuk podshoh, qudratli shoh, tirik jon mavjud bo'lgan dunyoning shohi, Assiriya podshohi, olamdagi to'rt mamlakat shohi". Qadimgi Mesopotamiyada Urning III sulolasi davrida (milod. avvalgi 2111-2003-yillar) "podshohlik"ning ilohiy kelib chiqishi haqidagi ta'limot yaratilgan edi. Unga ko'ra podshoh yerda xudolar olamini namoyon etishi tushunilmasa, uning davlat boshqaruvidagi roli yo'qoladi, deyilgan. Vazirlar, harbiy qo'mondonlar, maslahatchilar davlatni boshqarishda amaliy jihatdan katta ishlarni bajarishgan⁵. Ammo so'nggi qaror xudoning noibi, deb hisoblangan podshoh tomonidan qabul qilingan.

Kohinlar ilohlarga sig'inishda vositachilar sifatida hurmat qilingan. Dindorlar ularni muqaddas samoviy kuchlarning uchqunlari, deb qabul qilishgan. O'z navbatida kohinlar go'yoki dindorlar va xudolarning doimiy bog'lanib turishini ta'minlashgan. Buning uchun ular tomonidan xilma-xil bayramlar, marosimlar, odatlar ishlab chiqilgan. Diniy ibodat qadimgi mesopotamiyaliklarga reallikdagi olam shafqatsizliklaridan yuqori ko'tarilishga, shuningdek, o'zini yangilash va o'z atrofini bezashga imkon bergan.

Milod. av. II ming yilliklar oxirida shumerlarning diniy qarashlari bobilliklarniki bilan qorishib, bir-biriga singib ketdi. Babil miloddan avv. VI asrgacha mavjud bo'lgan. Uning nomi qadimgi somiy tilida "Tangri darvozasi" ma'nosini anglatgan. Afsonalarda Yerning barpo etilishi va loydan yasalgan birinchi odamlar haqida hikoya qilinadi. Unga ko'ra Qadimgi Mesopotamiya xudolari o'zlariga xizmat qilishi uchun odamga jon ato etganlar. Afsonalar

dunyoning yaratilishi, yer osti dunyosining, yoki erkak namoyandasi bo'lgan ibtidoiy betartib aralashmasi – Apsu haqida hikoya qiladi. Tiamat – dastlabki qadimiy okeanning ayol namoyandasi sifatida e'tirof etiladi. Shumer mifologiyasida ijtimoiy adolat, jinslar o'rta sidagi o'zaro munosabatlarning psixologik jihatlari, oilaviy munosabatlar va boshqalar haqidagi tushunchalar allaqachon mavjud bo'lgan edi. Masalan, insoniyatning oltin asri, jannat hayoti, dunyoni suv olishi haqidagi afsonalar muhim o'rin egallagan. Keyinchalik ular Old Osiyo xalqlarining diniy qarashlariga kirib keldi, so'ngra Bibliya mazmunlarida o'z aksini topdi.

Bobil diniy mifologiyasi kohinlarning o'z davri uchun murakkab bo'lgan astronomiya, matematika, metrologiya sohalaridagi bilimlariga tayangan. Kohinlar o'z bilimlarini irrigatsiya-ziroatchilik, me'morchilik va nodiniy boshqa sohalar ishlarini tashkillashtirishga safarbar qilganlar. Bobil astrologiyasi faoliyati ma'bud va ma'budalarni osmon jismlariga qiyoslash, tenglash va taqqoslash bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, Sinni (Ura ma'budi) Oy bilan, Nabuni (donolik ma'budi) Merkuriy bilan, muhabbat ma'budi Ishtarni – Venera bilan, urush ma'budi Nergalni – Mars bilan, Mardukni – Yupiter bilan, Ninurtani – Saturn bilan bog'lashgan. Nomlar bejiz berilmagan, chunki ma'budlarga insonlar fe'l-atvori, his-tuyg'ulari va ular planetalarni qanday idrok qila olishlari ato etilgan, deb e'tiqod qilingan. Maftunkor Venera muhabbatga qiyoslangan, qizil planeta – Mars – urushga, eng katta Yupiter – qudratli Mardukka. Ushbu ilohlar panteonini tadqiq qilish din sotsiologiyasi va psixologiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etib, o'sha davrning ijtimoiy- siyosiy jabhalarini, insonlar va jamoalararo o'zaro munosabatlarni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Sayyoralarga ma'budlar nomini berish greklarga, keyinchalik rimliklarga o'tdi. Ma'budlarning lotincha ismlari bizning davrimizgacha shu planetalarning nomlarida saqlanib kelgan.

Qadimgi Mesopotamiya dinida ko'p lab ko'p xudolik dinlarda bo'lgani kabi vaqt-zamonning davriyligi, abadiy va uzluksiz almashish to'g'risidagi tasavvurlar bo'lgan. Shumerlar va bobilliklar Nisan oyida bahorgi yomg'irlar davri

boshlanishini bayram qilganlar. Bir qator Mesopotamiya shaharlarida Tishri oyida kuzgi yomg'irlar davri boshlanishi bayram qilingan. Bu mavsumlar tabiatning tug'ilishi va o'limi payti sifatidagi sakral davr sanalgan. Bahorgi yomg'ir davrini kishilar hayotidagi yangilanish vaqti, deb bilib, hosildorlik ma'budlari Tammuz va Marduk sharafiga don va mevalar ehson qilishgan. Keyin umumiy ovqatlanish, raqsga tushish, an'anaviy marosim va odatlar boshlangan. Bayramda ishtirok etishga bunday o'ziga xos vaqtni yorib o'tish marosimi sifatida qaralgan. Qadimgi Sharq dinlarida vaqt oqimi va uni bo'lish mumkin emasligi haqidagi ("vaqt daryosi") tasavvurlar bo'lgan. Vaqt uzluksizdir, uni insonlar "o'tmish, hozir, kelajak" deganda, shartli ravishda gapirilgan paytga nisbatan "hozir, qandaydir paytgacha va biron paytdan keyin", deb ajratadilar.

Turli fol ochish tizimlari – afsun, sehr-jodu va mantika bu davrda ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan edi. Folbinlar (Barular) tushlarni ta'birlar, qurbonlik qilingan jonivorning ichki a'zolariga, ayniqsa, jigariga qarab, suv ustidagi moy dog'lariga qarab taqdir va kelajakni bashoratini qilar edilar. Bobil kohinlari vaqt oralig'idagi sonlarga bo'lgan munosabatlarni va ularning muqaddas ma'no anglatib fazoviy bo'linishi haqida yozib qoldirganlar. Shu bois, 1, 3, 7, 12, 60 va boshqa sonlarni dunyoning ko'p lab madaniyatlarida hozirgi davrlargacha muqaddas, deb hisoblash saqlanib qolgan.

Mesopotamiya diniy e'tiqodlarida demonologiyaga muhim o'rin ajratilgan. Quyi ruhlar asosan yovuz hisoblanganlar. Ular bilan kurashish uchun kohinlar afsun, sehr-jodular tuzishgan, ulardan himoyalaniish uchun esa tumorlardan foydalanilgan yoki tumorlarga o'sha yovuz ruh tasvirlari tushirilgan. U shunchalar jirkanch etib tasvirlanar ediki, ularning nazdida iblis tumorni ko'rgan zahoti qo'rqqanidan qochib ketishi shart edi. Ijobiy xususiyatga ega bo'lgan ruhlar ancha kam, deb hisoblaganlar va ular ibodatxonalar, uylar va odamlar tinchligini qo'riqlashiga ishonganlar. Odamlar uchun ko'p roq xavfli va shafqatsiz iblislar yettita, deb ularni "ajal ruhi", "skelet", "odamlar ta'qibchisi" deb nomlaganlar. Bobilliklar fikricha ularni faqat tajribali kohingina murakkab va sirli qaytariq yo'li bilan daf qilishi mumkin bo'lgan. Shu sababli, qadimgi Mesopotamiyada kohinlar

obro' - e'tibori juda yuqori bo'lgan. Hozirgi kunda ham turli xildagi ekstrasenslar xizmatiga hamda odamlar orasida muammolarni sehr-jodu, afsun va ruhlarni chaqirish va boshqalar yordamida hal etish mumkinligiga ishonch bor.

Bobil, Ossuriya va Mesopotamiya dinlar mifologiyasi ma'lum ma'noda keyinroq paydo bo'lgan dinlarning diniy mifologiyalariga ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, O'rta asr Yevropa madaniyatida o'z aksini topdi.

Antik dinlar | Rim imperiyasi o'rnatilayotgan paytda qadimgi yunon dini rimliklar diniy afsonalarining vujudga kelishida katta rol o'ynagan va jahon madaniyati hamda san'atiga katta ta'sir ko'rsatgan. Qadimiy Rim madaniyati nafaqat yunon ilohlar panteonini, balki boshqa diniy-madaniy urf-odatlarini ham o'z ichiga qamrab oldi. Gesiod (mil.avv. 700-yillar atrofi) "Teogoniya" poemasi dunyoning xaosdan yaratilganligi haqidagi afsonani keltiradi, unda ilohlar geneologiyasini va uch ilohiy shajaraning ketma-ketligini izohlab berdi.

Xudolar va odamlarning paydo bo'lishi misolida yunon-rim afsonalari ijtimoiy aloqalar haqida, yer, xudolar, odamlarning vujudga kelishi, ularning o'zaro munosabatlari, ziddiyatlari va ularni yengib o'tish yo'llari, bo'ysunish va itoat munosabatlari, xaosdan tartibot va qonuniylik tomon bosib o'tilgan oson bo'lmagan yo'l haqida hikoya qilinadi. Afsonalarda bayon etilishicha, birlamchi Xaosdan Yer – Geya, yer osti dunyosi – Tartar ajralib chiqqan; Geya osmon Urani va ularning umumiy bolalari bo'lgan titanlarni dunyoga keltirgan. Qadimgi afsonalarda yer barcha narsani, shu jumladan osmon, xudolar va odamlarni vujudga keltirgan hamda yer usti va yer osti dunyosini oziqlantirib turadi, degan tasavvur bayon qilinadi. Shuning uchun qadimiy mifologiya xtonik (yunoncha – dunyoviy), deb ataladi. Yer osti shohliklarining ilohlari yoki ular bilan bog'liq maxluqlar: Aid, Persefona, Tserberlarr ham xtonik, deyiladi. Eng tipik xtonik jonzot ilondir. Argosda ilonlarni qirish taqiqlangan edi, Palladadagi Afina ibodatxonasida esa muqaddas ilonga sig'inilgan.

Afsonalarda dunyoni xudo Kronos abadiy boshqargan, u keskin kurashdan keyin Zevsning kichik o'g'li tomonidan ag'darib tashlangan; keyinchalik u

Olimpda xotini Gera va ko'p sonli xudolar bilan birgalikda hukmronlik qilgan. Chamasi, qadimgi greklar tasavvurida erkak va ayol xudolar (yahudiylik va islomning absolyut shaxssiz xudolaridan farqli ravishda) shaxslar bo'lishgan hamda insonga xos xarakter, xatti-harakat, xursandchilik yoki g'am-g'ussaga oid reaksiyalarga ega bo'lishgan. Ular urushishgan, yarashishgan, turmush qurishgan, yerda ularning ko'p sonli yarim xudo va qahramonlar hisoblangan farzandlari yashashgan, bu farzandlarning bir qismi xudoga aylanishgan, deyishgan(masalan, Gerakl, Zevs va Letoning qizi, Apollonning opasi Artemida). Bokira ma'buda Artemida donishmandlik himoyachisi, nikoh va tug'ilish homiysi sifatida ulug'langan. Unga ovchilik xudosi, er-xotinlik va farzand ko'rishlik, bokira qizlar homiysi sifatida sig'inishgan. U yana oy ma'budasi, deb sanalgan va ko'p incha Selenaga qiyoslangan. Rim dinida Artemidaga ma'buda Diana mos keladi. Apollonni yunonlar Quyoshning o'g'li sifatida, mergan-jangchi, quyosh yorug'ligining namoyandasi va ilhom ilohlari hamrohlik qilib yuruvchi san'athomiysi sifatida ulug'laganlar. Gesiodning "Teogoniya"sida milod. av. VII asrlardagi yozuv yodgorliklarida, birinchi marta to'qqizta ilhom ilohlari nomlari haqida eslatib o'tilgan. Antik davr oxirlarida ularga san'atva fanning ma'lum sohalari biriktirib berilgan. Ilhom parisi Evterpa – lirika-nazm, Klio – tarix, Taliya – komediya, Melpomena – tragediya, Terpsixora – raqslar, Erato – muhabbat va nazm, Poligimniya – madhiyalar, Uraniya – astronomiya, Kalliopa – epos homiylari bo'lgan, deb hisoblangan. Ilhom parilari obrazlari S.Bottichelli, Ya.Tintoretto va boshqalar ijodida o'z aksini topgan, ular turli janrlarning qahramonlari sifatida yuritiladi, ayrimlarining nomlari, masalan, ilhom ilohi Terpsixoraning nomi ko'p incha baletga ko'chiriladi.

Greklar dinida Gera Kronos va Reyaning qizi, Zevsning singlisi va xotinidir. Geraga, shuningdek, olimpiya xudolari malikasi, shaharlar va qahramonlar, nikoh va oilaviy hayotning osmoniy homiysi sifatida sig'inishgan. Zevs va Mayyaning o'g'li Germes olimpiya xudolarining irodasini odamlarga yetkazadigan xabarchi, cho'ponlar, sayyohlar va savdogarlar homiysi, vafot etganlar ruhini Aidaning yer osti saltanatiga yetkazuvchi hisoblangan. Femida yunon mifologiyasida adolatli

sud ilohi sanalgan. U ko‘zi bog‘lab qo‘yilgan – sovuqqonlik, vazminlik timsoli va qo‘lida tarozi – aniqlik belgisi bilan aks ettirilgan. Zamonaviy leksikonda ham antik davr ilohlari nomlari keng qo‘llanilmoqda. Masalan, adliyani obrazli ravishda “Femida tarozisi”, huquq-targ‘ibot organlari vakilini “Femida rahnamosi” deyishadi. Zevs va Femidaning qizi Dika haqida onasidan adolat hissini meros qilib olgan va adolat xudosi, deb aytishgan. “Berahm” Dika qo‘lida qilich bilan jinoyatchi ortidan kuzatib yuradi va keyin uning ko‘ksini teshadi, deb hisoblangan. Afinada Dika ommaviy va xususiy da‘vo bilan murojaat qilish ifodasi sanalgan. Go‘yoki Dika Zevsga yerdagi barcha adolatsizliklardan xabar beradi. Uning ismiga ko‘p incha Astreya (yulduzli, osmoniy) laqabi qo‘shishgan. Ehtimol, qadimgi greklar haqiqiy adolatga osmoniy kuchlar yordamidagina erishiladi, deb tasavvur qilishgandir. Ellinizm davrida diniy mavzudagi dramatik madaniyatga Isida, Kibela, Mitra va Demetrlarga bag‘ishlangan misteviyalar, ya‘ni maxfiy diniy marosimlar ijro etilgan.

Ellinizm davrida Isida, Kibela, Mitra va Demetralarga bog‘ishlangan misteriyalar, ya‘ni mahfiy diniy marosimlar ijro etilgan. Ko‘rinib turibdiki, greklar o‘z ilohlariga sof insoniy sifatlarni ato etganlar, ularning geneologiyasini, shaxslararo aloqalarini kuzatganlar, xatti-harakatlarini prognoz qilganlar, ular xatti-harakatlarining psixologik va ijtimoiy sabablarini tushuntirganlar va shuningdek, ularning obrazlarini san‘atning turli shakllarida yaratganlar. Shunday qilib, Qadimgi Gretsiya diniy mifologiyasini o‘rganish antik davr madaniyati haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Veda dini, braxmanizm.
Hinduiylik

Veda dini va braxmanizm dinshunoslikda hinduiylikning ilk bosqichlari sifatida qaraladi. Veda dini – milod. avv. III

ming yillikda ko‘p gina majusiy e‘tiqodlarga asos bo‘lib qolgan hind-oriy qabilalarining juda qadimiy e‘tiqodlariga tegishlidir. Bu din mil. avv. II va I ming yillik o‘rta larida hozirgi Hindiston hududida gullab-yashnagan va braxmanizmning, keyinchalik hinduiylikning rivojiga asos solgan. Hind dinlarining muqaddas manbalari Vedalar, madhiyalar, Aranyaklar va Upanishadlardir. Vedaga

oid bu adabiyot shruti (sanskritchada – eshitilishi mumkin bo‘lgan narsa)da unga oid diniy ta‘limot asoslari bayon etilgan. Rivoyatlarga ko‘ra Vedalar o‘tmishdagi donishmandlar – rishilarga “yaqqol eshitilgan”, ular og‘zaki ravishda avlodlarga uzatib turilgan, ammo keyinchalik kishilarda ularga qiziqish yo‘qolgan. Shunda donishmand Vyasa tomonidan Vedalarni yozib olish tashkil qilingan, u materiallarni samxita (sanskritchada – birgalikda saqlanuvchi), deb ataluvchi 4 qismga ajratgan va ularni o‘z shogirdlariga bergan. Shunday qilib Rigveda, Samaveda, Yajurveda va Atxarvaveda paydo bo‘lgan. Vedalar asosida ularga izohlar vujudga kelgan: Braxmanlar (vedizm odatlarining sharhi), keyinchalik uni o‘rmonlarda qo‘nim topgan tarkidunyochilar va avliyolarga mo‘ljallangan Aranyaki va turli sirli g‘ayritabiiy bilimlarni va metafizik bahslarni qamrab olgan falsafiy traktatlar bo‘lmish Upanishadlar to‘ldirdi. Rigveda qadimiy madhiyalar, asosiy ilohlar haqidagi va ularga yordam so‘rab murojaat qilishga oid ma‘lumotlar to‘plami hisoblanadi. Samaveda – Rigveda madhiyalarini qo‘shiq shaklida qaytarishga qulay bo‘lgan to‘plam. Sig‘inish qo‘shiqlari bo‘lmish mantralar Vedalarning eng qadimiy qismidir. Yajurveda – sig‘inish sehr-jodulari va xudolarga qurbonlik keltirish odatlari ifodalangan to‘plam. Atxarvaveda diniy qo‘shiqlar va sehrgarlik jodularini o‘z ichiga oladi.

Hinduizm diniy amaliyotda meditatsiya va uning eng yuqori bosqichi – mistik jazava muhim ahamiyatga ega. Mistik jazavaga tushishga turli yo‘llar bilan erishiladi: nafas olishning turlicha usullari, mantralar, muqaddas obrazlar meditatsiyasi, diniy ustozning shaxsga gipnotik ta‘siri. Nafas olish usullari ikki tamoyilga asoslanadi: 1) organizmda kislorod va karbonat angidrid nisbati va uni o‘zgartirish. Kislorod konsentratsiyasi kuchaytirilsa tormozlanish jarayoni boshlanadi, bu o‘z navbatida nafas olishning intensivlanishiga va o‘pkaning haddan ortiq kislorod olishiga olib keladi. Aksincha, o‘pkada karbonat angidrid konsentratsiyasi ko‘p aysa – nafas olish to‘xtatilsa, miyadagi ba‘zi zonalarda qo‘zg‘alishlar boshlanadi; 2) nafas olish jarayonida turli guruhdagi mushaklar, muskullardan foydalanish ham mistik ekstazga olib kelishi mumkin.

Diniy amaliyotda mistik ekstazga erishish uchun narkotik moddalardan foydalanish diniy axloq va amaliyotning eng nozik masalalaridan sanaladi. Bir tomondan, jamoatchilik axloqi narkotik moddalardan foydalanishni yoqlamaydi, boshqa tomondan, bir qator dinlarda narkotik moddalar diniy amaliyotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Masalan, somadan olingan ichimlik hinduiylikda muqaddas sanalgan va qurbonlik keltirish marosimlarida muhim rol o'ynagan. Soma ilohi bu ichimlikning xudosi sanalgan⁶.

“Arda Viraz Namag”ning pahlaviy matnlarida somadek ta'sir ko'rsatuvchi manga (soma kabi ta'sir qiluvchi ichimlik) dan marosimlarda foydalanish haqida ma'lumotlar bor⁷. Unda kohinlikka o'z nomzodini qo'ygan taqvodor Virazning bu vazifaga munosiblikka oid testdan qanday o'tgani aytilgan. Sinov shartlariga ko'ra Viraz jamoat oldida mang ichimligini ichadi va transga tushadi, shundan keyin ruhiy dunyoda ko'rganlarini hikoya qiladi. Soma nafaqat ruhiy dunyoga o'tuvchi ko'p rik, balki unga kiruvchi ruxsatnoma bo'lib xizmat qiladi, faqat kohin somani jazosiz yutishi mumkin bo'lgan va u o'ziga xos “yolg'onchilik detektor” bo'lgan. Elevsin dramalarida ishlatilgan kikeon muqaddas ichimligi, dzen choyi va boshqalar ko'p hollarda foydalanilgan bunga o'xshash ichimliklardan o'ziga xos diniy tajribaga erishish ko'zda tutilgan, masalan, diniy xarakterdagi arvohlarni ko'rish, o'lim vasvasasidan qutilish va h.k.⁸. Nima bo'lganda ham ko'p lab dinlar doirasida afyun vositasidan foydalanmay transga erishish usullari ishlab chiqilgan. Islomda mast qiluvchi vositalardan foydalanish barcha musulmonlar uchun harom sanaladi va taqiqlangan, chunki ulardan foydalanish marosim va odatlarni amalga oshirishda xatoliklarga, ma'naviy buzilishga olib kelishi mumkin, shuningdek, irodani cheklab, ongni xiralashtiradi. Shuning uchun terrorchilik tashkilotlari va ekstremistik guruhlar boshliqlari yoshlarning ongini boshqarish oson bo'lishi uchun narkotiklarga moyilligi bo'lganlarni yollaydilar yoki ularni shunga o'rgatadilar.

Braxmanlar xudolar olamiga yaqin, ularning tabaqasi kshatriylarnikidan ustun bo'lsa-da, vedizm davrida rojalarning mavqeyi puroxitalar statusidan ancha

yuqori bo'lgan. Rigvedada ruhoniyning dunyoviy hukmdorga ma'naviy xizmatchi sifatida bo'ysunishi tabiiy holat, deb tan olingan⁹. O'z navbatida Dxarmaga bo'ysunish va uni himoya qilish rojaning muhim majburiyati bo'lgan. Jamiyatning barcha a'zolari kabi hukmdor o'zining Dxarma hokimiyatiga bo'ysunishini tan olgan va uning oldidagi o'z majburiyatlarini bajarishga qasamichgan.

So'nggi vedizm davrida podshoh hokimiyatini ilohiylashtirish boshlanadi. Manus Qonunlarida u xudolarning timsoli deb e'lon qilingan. Qadimiy matnlar buni odamlarning Dxarma qonunlari bo'yicha baxtli yashagan davriga, bu qonunlar ularning qalbida bo'lganligiga bog'lab tushuntirishadi. Ammo kishilar ilohiy qonunlarni unuta boshladilar va jamiyatda kuchli kuchsizni yeb qo'yishiga asoslangan baliq qonuni hukmron bo'lib qoladi. Shunda xudolar inson tanasiga, ya'ni o'ladigan tanaga o'z mohiyatlarining bir qismini solib, uni hukmdorning odamlariga dxarmani qo'llab-quvvatlash va tiklash uchun tortiq qildilar. Shuning uchun uning tarixiy davrlarda mamlakatda bo'lmasligiga xaos holati va barcha tabaqalar uchun jamiyatning "baliq qonuniga" qaytgani sababli fojea sifatida e'tirof etilgan. So'nggi Veda davrida hukmdor "deva", ya'ni iloh, deb atala boshlagan¹⁰.

Purana (sanskritda – qadimiy) ham vedizmning muhim manbayi sanaladi. Qadimiy puranalar miloddan oldingi 1-ming yillikning o'rta lariga taalluqli, biroq bizgacha yetib kelgan matnlar asosan 1-ming yillikning 2-yarmida paydo bo'lgan. Markandeya-purana, Vayu-purana, Vishnu-purana, Bxagavata-purana va Matsya-purana ko'p roq o'rganilgan. Har bir purana o'zi bag'ishlangan xudoga sig'inishga mos ravishda vishnuga oid, shivaga oid yoki braxmaga oid puranalar, deyiladi, ammo ular, umuman olganda, hinduiylikning asosiy diniy, ijtimoiy va axloqiy tamoyillarini ifodalashgan. Shakli va mazmuniga ko'ra puranalar qadimgi hind eposlariga yaqin va yaratilgan barcha narsalar haqidagi rivoyatlar, afsonalar, iloh va xudolarning geneologiyasi, donishmandlar va afsonaviy sulolalari haqida hikoya qiladi.

Puranalarning axloqiy va metafizik g'oyalari o'rta asr hind faylasuflarining asarlariga o'z ta'sirini o'tkazgan. Dramaturg va shoirlar ham o'z ijodlarida

puranalar diniy mifologiyasiga murojaat qilishgan. Yangi hind tilidagi diniy va adabiy anʼanalarga xudoni ekstatik, yaʼni uni jazava tutgandek, zavq-shaq bilan sevish – bxakti hamda Krishna, Dxarmashastri va boshqalar hayoti haqida hikoya qiluvchi Bxagavata- purana alohida taʼsir koʻrsatgan.

Vedalarning xotima qismi boʻlgan Vedanta va Upanishadlarda hinduiylik, buddizm va jaynizm uchun umumiy boʻlgan asosiy tushunchalar aniqlab berilgan. Hozirgi paytda ham Vedantaning izdoshlari mavjud va u din falsafasi doirasida faol tadqiq etilmoqda. Karma braxmanizm, hinduiylik va buddizmda insonning tirikligida erdagi ishlari uchun mukofot sanaladi; u inson hayotida uning keyingi amal qiladigan taqdirini belgilovchi xatti-harakatlari yigʻindisi hamdir. Odatda karma, deganda taqdir tushuniladi. Hinduiylik va buddizmda Sansara – tiriklik olamining doimiy emasligi, bir tana qobigʻidan boshqasiga oʻtishning yagona zanjiri, tugʻilish va oʻlishning davriyligi haqidagi tasavvurdir. Atman – individual ruhiy ibtido. Braxman – amal qiluvchi barcha narsalar asosida turuvchi kosmik ruhiy ibtido, shaxssiz absolyutdir. Katta sigʻimga ega bu tushunchaning koʻp lab izohlari mavjud. Vedalarda odamda individual va ruhiy ibtidoning birligi gʻoyasi taʼkidlanadi. Vedanta diniy falsafasi va uning asosiy tushunchalari Sharq dinlari va etikasi porofessori S.Radxakrishnan tomonidan chuqur tushuntirilgan. U 1936-1939-yillarda Oksford universitetida dars bergan. S.Radxakrishnan, G.Chatterdji va S.Vivekananda – vedantaning yangi davrdagi vakillaridir.

Braxmanlik Hindistonda miloddan oldingi I ming yillikda rivojlangan. Oʻz mohiyatiga koʻra braxmanlik – veda dinining davomidir. U oʻz nomini muqaddas matnlar toʻplami hisoblanmish “Braxmanlar”dan olgan boʻlib, u Vedalarni toʻldirgan unda odatlar tasvirlangan va izohlangan. “Braxmanizm”, “vedizm” va “hinduiylik” terminlari Yevropa sharqshunosligi va dinshunosligida qoʻllanila boshlagan, Hindistonda esa hinduiylik Hindu-dxarma, yaʼni Hindlar qonuni, deb ataladi. Braxmanizm veda oriylarining diniy anʼanalari va mahalliy xalq diniy ishonchining oʻzaro aralashuvidan vujudga kelgan. Braxmanizmida animistik va totemistik tasavvurlar, ajdodlarga va muqaddas jonivorlarga sigʻinish muhim rol oʻynaydi. Braxmanizm ijtimoiy munosabatlar barqarorligining asosi boʻlmish

varna va kastalar amal qilishini muqaddaslashtiradi va mustahkamlaydi. U har bir varna uchun hayot kechirish tarzining mezonini va me'yorini o'rnatadi. Braxmanizm har bir varna uchun o'z mezonini va hayot tarzi chegarasini o'rnatib beradi. Inson qancha ko'p bilimdon bo'lsa, u o'zining ishlari uchun shuncha ko'p ma'suliyatlilik bilan jon kuydiradi.

Kundalik hayotda diniy yo'l-yo'riqlarni va murakkab odatlarni qat'iy saqlash braxmanlikning xarakterli xususiyati hisoblanadi. Braxmanizmda tarkidunyochilik amaliyoti qo'llab-quvvatlanadi, chunki bu karmani yaxshilaydi va oxir-oqibatda sansaraning qayta tug'ilishlar zanjiridan ozod qiladi. Braxmanlik dogmatikasi asosida tabiatning jonli ekanligi va barcha jonli mavjudotlarning boshqacha shaklga kirishi haqidagi tasavvurlar yotadi. Har bir keyingi tug'ilish – reinkarnatsiya o'tgan hayotdagi yaxshi va yomon xatti-harakatlarga berilgan adolatli ajrdir. Ijobiy karma insonga keyingi hayotda osmonda yashovchi bo'lib yoki yuqori mavqedagi oilada tug'ilishga imkon beradi, bu ruhiy rivojlanishda yanada ilgarilash hisoblanadi. Hinduiylik afsonalariga ko'ra, salbiy karma jonivor, o'simlik sifatida yoki past tabaqadagi oilada tug'ilishga olib keladi.

Vedizm va braxmanizmni o'rganishning muhimligi ularning jaynizm va buddizm taraqqiyotiga turtki berganligi va hinduiylik taraqqiyotida muhim bosqich ekanligi bilan belgilanadi. Vedizm va uning maktablari asosida ko'p lab yo'nalishlar vujudga kelgan va ularning har biri muqaddas matnlarni o'ziga xos tushuntirishadi. Veda mifologiyasining ba'zi personajlari "Maxobxorot" va "Ramayana" kabi hind eposlarida uchraydi.

Vedizm marosimlari murakkablashgan sari ularni bajaradigan ruhoniylar soni ham ko'paygan. Keyinchalik, hind jamiyatining tabaqalanishi natijasida imtiyozli ruhoniylar – braxmanlar tabaqasi tashkil topdi. Hinduiylikning boshlang'ich bosqichida tuzilgan Rigvedada shoh - rojaning ilohiy tabiatga egaligi haqida ma'lumot yo'q. Unga ko'ra Roja Purukusha yarimxudo – ardxadeva qahramon sanalsa-da, yerdagi boshqarish ishi bilan shug'ullangan, xudolar esa osmonda hukmronlik qilganlar. Roja hokimiyati ilohiy hokimiyatga qiyoslangan, ammo uning shaxsi ilohiylashtirilmagan¹¹. Rigvedada rojaning dunyoviy

majburiyatlari bilan uning shaxsiy ruhoniysi – puroxitining diniy majburiyatlari bir-biridan qat'iy ajratilgan. Boshqarish muvaffaqiyati dunyoviy va diniy hokimiyatning muvozanatiga bog'liq bo'lgan: roja braxmanlarning imtiyozlariga daxl qilmagan, puroxita esa doimo hukmdorga xizmat qilgan. Shunday qilib, kshatriylar – hukmdorlarva braxmanlar – ruhoniylar hokimiyatlarining bir-birini o'zaro nazorat qilishi jamiyatni “muqaddas” yoki “dunyoviy” mustabidlik – zolimona hukmronlikdan himoya qilgan.

Hinduiylik nafaqat dinni balki uning ko'p lab shakllari, e'tiqodlari, hayot tarzini ham anglatadi. Hinduiylikning shakllanish jarayoni ko'p ming yillar davom etgan. Hinduiylik so'zi “hind” so'zidan kelib chiqqan va G'arbiy va O'rta Osiyo xalqlari Hind, deb atagan daryo nomidan olingan. VIII asrda “hindu” so'zi orqali hindlarni, ya'ni Boburiylar davlatining islomni qabul qilmagan barcha aholisini nomlay boshlaganlar. “Hindus” va “hinduiylik” atamasida bu mazmun hozirgacha saqlanib qolgan. Hindiston konstitutsiyasiga muvofiq sikkizm, jaynizm, buddizmga e'tiqod qiluvchilar “hindus” deyiladi. Ammo baribir, ilmiy adabiyot sikkilar, jaynlar va buddistlarni hindularga qo'shmaydi va ularning ta'limotlarini hinduiylik bilan bog'lamaydi.

Hiduiylikning ilk bosqichi – vedizm va braxmanizm – miloddan oldingi III-II ming yilliklarda Hind vodiysida amal qilgan Xarrap sivilizatsiyasidan boshlanadi. Bu hududga hind-yevropa tilida gapiruvchi ko'p lab xalqlar ko'chib kelgan. Bu sivilizatsiya dini hind xudosi Shiva bilan ko'p umumiylikka ega bo'lgan xudolarga sig'inishga asoslangan. II ming yillik o'rtalarida Hindiston shimoli-g'arbiga keyinchalik veda sanskriti tili, deb atalgan tilda so'zlashuvchi oriy qabilalari kirib kela boshlagan. Oriylar Rigvedada dasa deb atalgan mahalliy qabilalar bilan aralashib ketishgan. Bu tilda veda dini asoslari yaratilgan. Qadimgi Hindiston jamiyatining juda turli-tuman tuzilgani varna va kastalarning vujudga kelishiga olib kelgan. Ijtimoiy zinapoya tepasida braxmanlar – Veda bilimdonlari va marosim ijrochilari turishgan.

Mil.avv. I ming yillikda Hindistonda braxmanizm tarqalgan. Mil.avv. I ming yillik o'rta larida braxmanizmning mavqeyi susaygan va u vaqtincha buddizm va

jaynizm tomonidan siqib chiqarilgan. Shunday qilib, Mil.avv. I ming yillik oxiriga kelib, Hindistonda Vedalarga zid bo‘lmagan, ammo yangi hayot sharoitlariga mos bo‘lgan ko‘p lab turlicha diniy ta’limotlar amal qilgan. Milodiy I ming yillik boshida braxmanizm hinduiylik shaklida yana qayta paydo bo‘lgan.

Hinduiylik diniy amaliyoti Vishnu va Shiva xudolariga sig‘inish va qurbonlik keltirish odatlari bilan bog‘liq. Veda dinining tobora murakkablashib boruvchi marosim va odatlari ularni amalga oshiruvchi kohinlar sonining ko‘p ayishiga olib kelgan. Jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish natijasida imtiyozga ega bo‘lgan kohinlar juda ham hurmat qilinuvchi tabaqa – braxmanlar varnasini vujudga keltirganlar. Kshatriylar (sanskritda hukmdorlik, hokimiyat) ham jamiyat elitasiga taalluqli bo‘lgan. Ular davlatni boshqaruvchilar, mansabdor shaxslar, yer egalari, professional harbiylar bo‘lishgan. Miloddan oldingi VI asrda aynan hukmdor oilasida shahzoda Gautama tug‘ilgan, keyinchalik u Buddha bo‘lgan. Yer egalari, savdogarlar, hunarmandlar vayshi varnasiga qaraganlar, xizmatkorlar esa eng past varna – shudralar bo‘lishgan.

Jamiyatning kasta-varna tuzilishi amal qilishini muqaddaslashtirgan qonunlar – Manu qonunlari mavjud bo‘lgan. Hind mifologiyasida Manu – qadimgi donishmand, braxmanizm asosida turuvchi diniy-huquqiy qonunlar muallifidir. Jamiyatning kastalarga bo‘linishi qoldiqlari hozirgi Hindistonda hali ham mavjud bo‘lib, ijtimoiy noroziliklarni vujudga keltirmoqda. Ular inson huquqlari, gender tenglik, diniy bag‘rikenglik sohasidagi xalqaro aktlarga ziddir.

Hinduiylik ibodatxonalarda, jamoat va oilada, muqaddas joylarda amalga oshiriladi. Ular dindorlar ruhiyatiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi, chunki ular o‘zida sig‘inish, musiqa, xor qo‘shiqchiligi, marosim raqslari, meditatsiya amaliyoti kabilarning turli kombinatsiyalarini jamlab olgan. Madhiyalarni kuylash va ibodatxona raqqoslarining chiqishlari vositasida Braxma qudratining sirliligini his qilish kuchayadi. Ularning o‘ziga xosligi unumdorlik, hosildorlik g‘oya va simbolikasining ustuvorligi, ayol ibtidosi rolining muhimligi, odatlarga oid amaliyotning haddan ortiq emotsionalligi, ya’ni ekstatlik, qurbonlik marosimlarining muhimligi sanaladi. So‘nggi braxmanizm g‘oyalari va tantrizm

amaliyoti hinduiylik jonkuyar kohinlarining ijtimoiy qatlami va sadxu darveshlari vujudga kelishiga ta'sir ko'rsatgan. Hinduiylikda ibtidoiy ishonch totemizm va fetishizmning muqaddaslashtirilgan ko'p lab elementlarida saqlanib qolgan (masalan, sigir va ilonlarga, Gang daryosiga, lotos guliga sig'inish va boshqalar).

Hinduiylik xudolari panteoni ancha ko'p sonlidir, ularni ikki guruhga ajratish mumkin: osmoniy ilohlar– Surlar, masalan, haqiqat va adolatli tartibot xudosi – Varuna, Quyosh xudosi – Surya hamda Asurlar pastroq darajadagi ilohlar, yer xudolari va tabiiy kuchlar ilohlari. Asurlar orasida Olov xudosi, zulmatni quvuvchi – Agni, muqaddas va uning nomidagi mast qiluvchi ichimlik xudosi – Soma. Qurbonlik marosimiga oid odatlarida, shuningdek, diniy trans holatga kirishda somadan foydalanish zarur sanalgan. Tabiiy kuchlar ilohlari orasida momaqaldiroq, chaqmoq va yomg'ir xudosi, shu bilan bir qatorda ajoyib jangchi bo'lgan Indra muhim sanalgan. Asuralar buddizmga boshqacha ko'rib chiqilgan.

Hinduiylikda xudolarning Yerda mujassam bo'lishi – avatara (sanskritda – “pastga tushgan”; “namoyon bo'lgan”, “timsol”) haqidagi tasavvur mavjud. “Maxobxorat” va Ramayana” eposlarida hamda puranalarda Vishnuning ko'p lab avatarlari haqida hikoya qilinadi. Masalan, Vishnu ilohining Krishna va Rama qahramonlari obrazlarida, shuningdek, baliq, to'ng'iz, toshbaqa va boshqa jonivorlar ko'rinishida namoyon bo'lishi, ularning erdagi qahramonliklari to'g'risida aytiladi. Ularning ba'zi muhimlari, masalan, Krishna, alohida sig'inish obyektlariga aylanishgan. Hinduiylikdan aloqasini yo'qotmay, krishnaizm mustaqil diniy ahamiyat kasb etgan. Hinduiylikda Krishna qo'rqmas jangchi va oqil siyosatchi, ammo dushmanlariga nisbatan makkor, o'z ahdini buzuvchi bo'lgan. Braxmanizmga Shiva xudosi ko'p hollarda “jonivorlar xo'jasi” sifatida, ko'p incha raqsga tushayotgan holda Shiva-Nataraja tasvirlanadi va Borliq ritmi va kosmik energiyasi sifatida qabul qilinadi. Shuningdek, u o'z dushmanlarini kulga aylantiruvchi peshonasidagi uchinchi ko'zi bilan, ba'zan xayolga cho'mgan aqlli-zohid ko'rinishida tasvirlanadi.

Shiva obrazida muhabbatga va halokatga oidikki qarama-qarshi tavsif mavjud. Krishnaga sig‘inish kabi Shivaga sig‘inish ham shivaizm sifatida mustaqil ahamiyat kasb etgan. Shaktiga (sanskritda – kuch, energiya) sig‘inish – ayolning yaratuvchilik energiyasini ilohiylashtirish, Shiva energiyasining timsoli sifatida tushuniluvchi shaktizm hisoblanadi. Ko‘p incha uni Deviga, ya’ni Shivaning yori bo‘lmish va turli ko‘rinishlarda yerga tushuvchi va turli nomlanuvchi xudoga sig‘iniladi. Durga (“Uzoqlashtirilgan”), Kali (“Qora”) – jinlar bilan kurashayotgan Shaktining timsoli, g‘azabdan qoraygan, qonli og‘iz va tishlari bilan aks ettiriladi. Uning marjoni mag‘lub bo‘lgan jinlarning kesilgan bosh va qo‘llaridan yasalgan. Tinchliksevar Shakti – bu Parvati, Uma, Gauridir. Bu yerda ham to‘liq garmoniya yo‘q, afsonalar kelishmovchiliklar haqida xabar beradi, ularda hamma vaqt ham Shakti g‘alaba qozonmagan. Kalining yerda yotgan Shivaning ustida raqsga tushayotgan tasviri keng tarqalgan. Bu kartina ikki xil sharhlangan: ba’zilar Shaktisiz Shiva passivdir, shuning uchun u yerda yotibdi, Shakti uchun ham suyanchiq kerak, unga buni Shiva beradi, deydi; boshqalar esa ushbu syujetning boshqa variantlariga, ya’ni g‘azablangan Shaktining umr yo‘ldoshini o‘ldirish sahnasiga suyanishadi. Bu quyidagicha izohlanadi: kartina jilovlanmagan kuchi uchun o‘z tayanchini yo‘qotishi mumkin bo‘lgan yolg‘izlikni aks ettiradi. Shakshubhasiz, mifologik syujetlar va tasviriy san’ato‘zida munosabatlar garmoniyasi va yolg‘izlik haqidagi chuqur falsafiy masalalarni, jinlar psixologik muammolariga oid fikrlarni, ijtimoiy barqarorlik masalalari va tinchlik uchun kurashni qamrab olishi mumkin.

Yoga (sanskritda – “usul”, “yolg‘izlashuv”, “mustahkamlash”) – ma’naviy taraqqiyotga erishish maqsadida tana va ongni tozalash uchun foydalaniluvchi maxsus usullar va mashqlar to‘plamidir. Yoga falsafiy maktabi eramizdan.avv. II-III asrlardan beri hinduiylik falsafasi nazariyasi va amaliyotini umumlashtirib tushuntirib kelgan. Ulardan eng ommabopi – Yoga-darshana falsafiy maktabi ruhiy ozodlikka erishishning quyidagi 8 bosqichini ishlab chiqdi: 1) besh turdagi taqvosiz xulqdan bosh tortish; 2) beshta majburiy qoidaga amal qilish; 3) meditatsiya uchun to‘g‘ri holat; 4) to‘g‘ri nafas olish; 5) sezgi organlari diqqatini

ularning obyektidan tortish; 6) diqqatni bir joyga to'plash (meditatsiya); 7) diqqatda tutib turilgan obyektini mushohada qilish; 8) fikrning tiniqlashuvi, oydinlashuvi, ravshanlashuvi. Hozirgi zamonda hinduiylik keng tarqalgan milliy din bo'lsa-da, uning Hindistondagi zamonaviy diniy konfessiyalar orasidagi hissasi asta-sekin kamayib bormoqda. Hinduiylikda jahoniy din bo'lmish buddizm hamda jaynizmning asosiy tushunchalariga asos solingan. Hinduiylikning diniy san'ati dunyo madaniyatini adabiyot, musiqa, haykaltaroshlik, me'morchilik va tasiriy san'atning bebaho yodgorliklari bilan boyitdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hinduiylikning turlicha maktablari va yogada ishlatiluvchi meditatsiya texnikasi, diqqatni jamlash, psixosomatik usullar va nafas olish amaliyoti tibbiyot, sport va pedagogikada keng qo'llanilmoqda.

Konfutsiylik. | Konfutsiylikka Kun-tszi tomonidan asos solinib, uning
Daosizm | davomchilari tomonidan rivojlantirilgan. Bu Xitoy, Koreya, Yaponiya hamda bir qator mamlakatlar diniy ta'limotiga kirgan diniy-falsafiy ta'limotdir. Shu bilan birga Konfutsiylik – bu siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning ma'muriy tizimi va oliy boshqaruvchisi, bir so'z bilan aytganda butun xitoy hayot tarzining asosi hisoblanadi. Konfutsiylik ikki ming yildan ortiq vaqt davomida xitoy xalqi ongi va hissiyotini shakllantirib keldi, ularning ishonchi, ruhiyati, xulq-atvori, fikrlashi, maishiy hayot tarziga o'z ta'sirini o'tkazib, chuqur iz qoldirdi.

Konfutsiy (Kun-tszi, mil.avv. 551 – 479-y.) chjou Xitoyi kuchli ichki ijtimoiy tanglik holatida bo'lib turgan va katta ijtimoiy-siyosiy larzalar davrida yashagan. U davrlarda Van hukmronligi allaqachon susaygan edi. Patriarxal-urug'chilik me'yorlari buzilayotgan, o'zaro nizolarda urug'chi zodagonlik o'lib borayotgan edi. Oilaviy urug'- aymoqchilik hayoti qadimiy ustunlarining halokatga uchrashi, o'zaro nizoli kelishmovchiliklar, amaldorlarning sotqinligi va ochko'zligi, oddiy halqning musibati va azob-uqubatlari – bularning hammasi mamlakat an'anaviy negizlari tarafdorlarining keskin tanqidiga duch kelgan davr edi. O'z asrini tanqid qilgan va o'tgan asrlar yuksak ma'naviyatini yuqori qo'ygan Konfutsiy shu

taqqoslashlar asosida o‘zining mukammal inson namunasi “tszyun-tszi” g‘oyasini ilgari surdi.

Konfutsiy fikricha mukammal inson ikkita eng muhim fazilatlarga ega bo‘lishi shart: insonparvarlik va burch hissi. Insonparvarlik (jen) kamtarlik, bosiqlik, afzallik, beg‘arazlik, insonga muhabbat va boshqalarni o‘z ichiga olishi va amaliy jihatdan namoyon bo‘lishini ta’kidlagan. Jen – bu qadimgi odamlar ega bo‘lgan mukammalliklar yig‘indisi, deyarli yetishish qiyin bo‘lgan mukammallik namunasi hisoblangan. Konfutsiy o‘z zamondoshlari ichidan faqat o‘zini va eng sevimli shogirdi Yan Xueni insonparvar, deb hisoblar edi. Shuningdek, haqiqiy tszyun-tszi burch hissiga ham ega bo‘lishi kerakligi ta’kidlangan. Burch – bu insonparvar kishi o‘zining ezgu ishlari qatorida o‘z zimmasiga oladigan axloqiy majburiyatdir.

Konfutsiyning fikricha burch hissi manfaatdorlik omili bilan emas, balki bilim va oliy tamoyillar bilan belgilangan. Konfutsiy “Olijanob odam burch haqida o‘ylaydi, past odam foyda haqida qayg‘uradi”, deb uqtirgan. U shuningdek, qator boshqa tushunchalarni ham ishlab chiqdi: sadoqat va samimiylik – chjen; odob saqlash, rasm-rusum va udumlarga rioya qilish - shular jumlasidandir. Ushbu tamoyillarga rioya etish har bir axloq-odobli erkakning majburiyati bo‘lishi shart, deb keltirgan. Bu mukammallik unga taqlid qilish uchun majburiy bo‘lib borardi, unga yaqinlashish ijtimoiy nufuz va sharaf ishi edi, ayniqsa, oliy tabaqa vakillari: olimlar, amaldorlar, byurokrat-ma’murlar uchun dasturul amal bo‘lishi kerak edi.

Konfutsiylikning ilk ko‘rinishida axloq masalasi birinchi o‘ringa qo‘yilgan, diniy e‘tiqod esa ikkinchi darajali sanalgan. Konfutsiy yuqori ma’naviyat uchun kurashuvchi mukammal inson obrazini yaratishga harakat qilgan. Lekin uning ta’limoti rasmiy ravishda ta’limotga aylana borishi bilan, oldingi qatorga uning ma’nosi emas, balki o‘zining qadimga sodiqlik, keksalarga hurmat, yuzaki kamtarlik, saxovatpeshalikning tashqi shakli birinchi o‘ringa chiqdi. O‘rta asrlarda Xitoyda har bir odamning ijtimoiy-mansab iyerarxiyasiga qarab, ma’lum odob-axloq me’yorlari va andozalari asta-sekin to‘planib, qonunlashtirilib borildi. Hayotning har bir oni, har qanday holati, tug‘ilish va o‘lim, maktabga o‘qishga

kirish va xizmatga tayinlanish – doimo va hamma narsada qat’iy belgilab qo’yilgan va hamma uchun majburiy odob-axloq qoidalari hisoblangan. Li-tszi traktatiga bilish va amalda qo’llash lozim bo’lgan qoidalar kiritilib, odam ularga qancha ko’p rioya etsa, uning jamiyatdagi o’rni shuncha yuqori bo’lgan. Konfutsiylik etikasi asosida quyi turuvchilar holati tahqir sifatida ko’rilmagan. Bunday yo’l tutish boshliq va bo’ysunuvchi orasida paydo bo’lishi mumkin bo’lgan ruhiy keskinlikni olib tashlaydi. Bo’ysunuvchining sadoqati rahbarning insonparvarligi bilan taqdirlanadi.

Konfutsiy ijtimoiy tartib asoslarini har bir kishi o’z ishi mas’uliyatini yuqori darajada his qilgan holda bajarishida ko’rgan, ya’ni “ota – otaligini, o’g’il – o’g’illigini, shoh – shohligini, amaldor – amaldorligini qilsin”, shundagina hamma narsa o’z joyiga tushadi, hamma o’z huquq va majburiyatlarini biladigan bo’ladi, o’ziga lozim ishni bajaradi. Shu yo’sinda tartibga solingan jamiyat ikki eng asosiy toifadan – “yuqorilar” va “quyilar” – o’ylovchi v boshqaruvchilardan hamda mehnat qiluvchi va bo’ysunuvchilardan iborat bo’lishi shart. Jamiyatni “yuqori” va “quyi” ga ajratadigan me’zon kishining kelib chiqish nasl-nasabi emas, davlati ham emas, balki qay darajada tszyun- tszi mukammaligiga yaqinligida bo’lgan.

Konfutsiy xalq manfaatini boshqaruvning yakuniy va oliy maqsadi, deb bilgan. Biroq bir vaqtning o’zida u xalqning o’ziga o’z manfaatlari tushunarsiz va erishib bo’lmas ekanligini tushunar edi. Shuning uchun ham o’qimishli konfutsiyliklar – boshqaruvchilar homiyligisiz xalqni hech qanaqasiga eplab bo’lmaydi: “Xalqni lozim bo’lgan yo’ldan borishga chorlash kerak, lekin nimagaligini tushuntirish kerak emas”, – degan fikrni aytganlar. Davlat – bu katta oila, oila esa kichik davlat. O’z oilasida tartib o’rnata olmagan odam davlatda ham tartib o’rnata olmaydi.

Nima bo’lganda ham shakl-shamoilga rioya qilish, o’z shaxsini yo’qotmaslik, bularning hammasi alohida muhim rol o’ynagan, barqarorlik garovi, deb qaralgan. Konfutsiylik mamlakatning osmon bilan shuningdek, ayni paytda osmon nomidan dunyoda yashab turgan turli qabilalar va xalqlar bilan o’zaro

munosabatlarni tartibga solib turuvchi sifatida namoyon bo‘ladi. Konfutsiylik in-chjou davrida yaratilgan Yuksak osmon osti boshqaruvchisi – “Osmon o‘g‘li”, imperator, hukmdorga sig‘inishni qo‘llab-quvvatlagan va ko‘klarga ko‘tarib ulug‘lagan.

Konfutsiylik har yangi avlod tomonidan yangicha tushunilgan, 1949-yildan keyingi madaniy revolyutsiya yillarida esa tanqidga uchrab, unutilib ketgan. Uning urf-odatları va me‘yorları Xitoydagi etnik xitoyliklar orasida, shuningdek, Tayvanda keng tarqalib, hanuz urf-odat marosimlarida saqlanib kelmoqda.

Daosizm. Dao haqidagi ta‘limot bo‘lib, mil. avv. IV-III asrlarda paydo bo‘lgan. Uning asoschisi hozirgi zamon tadqiqotchilari tomonidan afsonaviy shaxs, deb hisoblangan faylasuf bo‘lgan. Chunki uning haqida ishonchli tarixiy va biografik ma‘lumotlar yo‘q. Rivoyatlarga qaraganda u Xitoydan ketib qolgan va chegara nazoratchisiga o‘zining Dao-de- tszin asarini qoldirib ketishga rozi bo‘lgan. Ushbu asarda daosizm asoslari, Lao-Tszi falsafasi bayon etilgan. Ta‘limot markazida – ulug‘ Dao, borliqning umumiy qonuni haqidagi g‘oya asosiy o‘rinni egallaydi. Dao hamma joyda, hamma narsada, har doim mavjud va chek-chegarasiz hukmronlik qiladi. Ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib bo‘lmaydigan, sezgi organlari uchun sezilarsiz, doimiy va tugamaydigan, nomsiz va shaklsiz, barcha narsani boshlab beradi, dunyodagi hamma narsa uchun shakl va nom beradi. Hatto ulug‘ Osmon ham Daoga ergashadi. Daoga izdosh hayotining maqsadi ham, mazmuni ham Daoni anglash, unga ergashish, u bilan birlashishdir. Daosizm ta‘limiga ko‘ra Dao o‘zining emanatsiyasi, ya‘ni De orqali ko‘rinadi. Daosizm falsafasida u kosmik ibtido namoyon bo‘lishining tashqi shakli. Hamma narsani Dao yaratadi. Daosizmga ko‘ra inson tanasi mikrokosmni – ruhlar va ilohiy kuchlar yig‘indisini tashkil etadi hamda erkak va ayol ibtidosining o‘zaro harakatlari natijasidir. Abadiylikka yetishish uchun harakat qilayotgan odam, eng avvalo, ushbu monada- ruhlar (ular 36 000 ga yaqin) tanani tashlab chiqib ketishga intilmasliklari uchun sharoit yaratib berishlari shart. Daoslar bunga ovqatlanishni chegaralash hamda maxsus jismoniy va nafas olish mashg‘ulotlari orqali erishishni nazarda tutganlar. Mangulikka erishish uchun nomzodning o‘zi ham 1200 dan ortiq

ezgu ishlarni qilgan bo'lishi shart va bunda birgina yomon ish hammasini yo'qqa chiqarishi mumkin. Daosizm bo'yicha uzoq yashashning shartlari – “tanani oziqlantirish”, ya'ni qat'iy parhezga rioya qilish, organizmga jonlantiruvchi efirni chaqiruvchi maxsus nafas olish mashqlarini bajarishdir.

Daosizm asrlar davomida parvoz va qulashlarni, qo'llab-quvvatlash va quvg'inlarni boshdan kechirdi va ba'zan biron shajaraning rasmiy ideologiyasiga aylandi. U jamiyatning eng sara o'qimishlilari uchun qanday kerak bo'lsa, xitoy jamiyatining kamsavod o'rta sinfi uchun ham shuncha kerak bo'lgan. Ziyolilar ko'p incha daosizmning falsafiy nazariyasiga, uning qadimiy soddalik va tabiiyligiga, tabiat bilan uyg'unlashishiga hamda o'zini ko'rsata olish erkinligiga murojaat etardi. O'rta sinflarni mulkni teng bo'lib beruvchi ijtimoiy xomxayolliklar o'ziga tortardi. Xitoyda daosizm rasmiy-ideologik qadriyatlar tizimida kamtargina joyni egallagan, ammo markazlashtirilgan hokimlik pastlashgan tanglik davrlarda daosizm oldingi qatorga chiqar edi.

Hozirgi vaqtda daosizm – Xitoyda, Tayvanda, Syanganda va Xitoy emigrantlari orasida ommabop. Daosizmning qayta tug'ilishi ma'lum darajada ichki uyg'unlikka ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi tsigun (maxsus nafas texnikasi, ushuning bir turi) gimnastikasining ommaviylashishiga ham sababchidir. Daosizm tibbiyotning bir qator sohalariga va minerologiyaga, falsafa va adabiyotga katta ta'sir ko'rsatdi. U buddizmning ayrim g'oyalari va sig'inishlarini o'z ichiga oldi, neokonfutsiylik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi.

**Sintoizm asosiy aqidalari
va marosimlari**

Sinto atamasi (yapon. sinto – “xudolar yo'li” (ta'limoti)) birinchi bo'lib VI asr boshlarida muomalaga kiritilgan. VIII asrning boshlarida

sintoizmning Yaponiya davlatining milliy dini sifatida shakllanishiga ibtidoiy animistik, totemistik va fetishistik g'oyalar hamda buddizm, konfutsiylik, daosizm diniy-falsafiy tizimlari o'z ta'sirini o'tkazdi. Shu bois, sintoizm yagona diniy aqida va marosimlarga ega emas. Zamonaviy yaponshunoslikda “sintoizm” atamasining talqini va undan to'g'ri foydalanish masalasi ko'p incha bahsli bo'lib, sintoizm

tarixini har biri alohida o'ziga xos aqida va marosimlarga ega bo'lgan diniy-falsafiy an'analar sifatida o'rganish tendensiyasi mavjud¹².

Sintoizm afsonalari Kyusyu orolining shimoliy qismi va Yaponiya markaziy qismining mahalliy xudolariga ibodat qilish haqida hikoya qiladi. Qadimgi yaponlarda urug'-qabila xudolari "udzigami"lar ("udzi" urug'-qabila; "kami" - xudo) alohida ahamiyat kasb etgan. Qadimgi yaponlar e'tiqodiga ko'ra daryo, tog', o'rmonlar kamilarning qudrati sintoizm asosiy xudolarning kuchidan afzal sanalgan. Mahalliy kamilar urug'-qabilani himoya qilib yaponlar hayotining barcha sohalarida yordam beruvchisi hisoblangan¹³. Shuningdek, sintoistlar zilzila, bo'ron kabi barcha tabiiy kuchlar kamilarga ibodat qilganlar.

Keyinchalik, asta-sekin ko'p lab kamilar qatorida "Quyoshli" Amaterasu asosiyga aylandi. Sintoizm mifologiyasiga ko'ra u Yaponiya orollarini yaratib Ninigini "ilohiy" imperator sulolasining asoschisi qilib yuboradi. Unga hokimiyatning ramzi sifatida uch muqaddas narsa – ko'zgu (ilohiylik timsoli), qilich (qudrat timsoli) va yashma (sadoqat va fidoiylik timsoli) topshirildi. 701-yilda tuzilgan "Taixoryo" qonunlari esa bu aqidani ma'qullab, sintoizm diniy ma'muriyati tuzdi va davlatdagi diniy bayramlar ro'yxatini tasdiqladi. 712-yilda yapon orollarining barcha xalqlar afsonalari ("Kodziki") yaratildi, oradan ikki asr o'tib esa, "Marosimlar majmuasi" paydo bo'ldi.

Sintoizm marosimlari (Matsuri) turli shakllarda amalga oshiriladi: uyda amalga oshiriladigan kundalik oilaviy ibodatlar, ibodatxonalarda o'tkaziladigan marosimlar, umumxalq nishonlanadigan diniy bayramlar. Ibodatxonalar uchun umumiy bo'lgan jihatlar mavjud: tozalash marosimi (haray); oziq-ovqat, ichimliklar, pul va shu kabi hadyalar qilish (sensen), iltijo o'qish (norito) va birgalikda hadya qilingan ovqatlarni yeyish marosimlari kabilar.

Sinto ibodatxonasi manzarali joyda qurilib, ikki yoki undan ortiq binolardan iborat bo'ladi. Asosiy xondanda sintay, ya'ni mujassamlashgan kami yashirilgan. Sintay turli narsalar bo'lishi mumkin: kami nomi yozilgan taxtacha, tosh, oyna va b. Xondanning yonida xayden, ya'ni sintoizm marosimlari o'tkaziladigan xona mavjud. Ibodatxonaning ramziy darvozasi (tori) odatda qizil rangga bo'yalgan

qimmatbaho taxta-yo'g'ochdan yasalgan. Ko'p incha, bitta sinto ibodatxonaning dindorlar tomonidan taqdim etilgan bir necha torilari bo'lishi mumkin.

6-asrdan boshlab Koreya va Xitoydan Yaponiyaga buddizmning kirib kelishi sintoizmning aqida va marosimlariga ta'sir ko'rsatdi. "Ryobusinto", deb nomlangan bu ikki dinning birlashishi yapon tilidan "buddizm va sintoizm yo'li", deb tarjima qilinadi. Ko'pgina yaponiyaliklar ikki dinning marosimini o'tkazadilar. Nikoh, tug'ilish va boshqa quvonchli hodisalar bilan bog'liq marosimlar odatda, sinto ibodatxonalarida nishonlansa, xotirlash marosimlari esa buddizm qoidalariga muvofiq o'tkaziladi.

XVII-XVIII asrlarda "Kokugaku – Milliy maktab"ining Kamo Mabuti, Motoori Norinaga va boshqa allomalari ibtidoiy sintoizmning "qayta tiklanishi" jarayonini faol qo'llab-quvvatlab, tennoizmni, ya'ni imperatorga sig'inish an'anani qayta tikladilar. 1867-1868-yillar inqilobidan keyin, Ikkinchi jahon urushi (1939-1945) yillarida sintoizm buddizm bilan birga imperator va hukumat tomonidan qattiq qo'llab-quvvatlandi. Biroq Ikkinchi jahon urushidagi Yaponiya mag'lubiyati sintoizmning obro'siga putur yetkazdi. Yaponiya konstitutsiyasi (1947-y.) dinni davlatdan ajratishni ta'kidladi, ba'zi sintoizm adabiyotlari taqiqlandi, ruhoniylar sobiq rasmiy maqomidan mahrum bo'ldi va yapon imperatori o'zining "ilohiy" maqomini rasmiy tark etgan. Biroq keyingi yillarda sintoizm asta-sekin o'z ta'sirini qayta tiklashga kirishdi va o'z ta'limotini biroz modernizatsiya qildi¹⁴. Ruhoniylar sintoizm talimotini Kokugakuin (Tokio) va Kogakkan (Ise) xususiy universitetlarida o'rganadilar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sintoizmning shakllanishi ibtidoiy dinlar hamda buddizm, daosizm va shular kabi diniy-falsafiy tizimlar ta'sirida kechdi. Aynan boshqa diniy tizimlar ta'sirida u yaxlit aqida va marosimlarga ega bo'lmadi. O'z o'rnida yapon millati ma'naviyati va davlat boshqaruviga katta ta'sir ko'rsatgan sintoizm bugungi kunda ham o'zining ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Yahudiylik | Yahudiylik – yahudiy xalqining dini. Garchand yahudiylik ildizlari ilgariroq, miloddan oldingi II ming yillikda, payg'ambar Muso faoliyati bilan

bog‘liq holda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, rasman miloddan oldingi I ming yillikda Yaqin Sharqda vujudga kelganligi aytiladi. Dinning nomi Yahudiya podshohlighi nomidan kelib chiqqan. Toraning to‘rtinchi kitobiga muvofiq (ivritda – “Sahroda” va rus provoslav cherkovi bosh idorasi – sinodga ko‘ra “Sonlar”) yahudiylik dinning nomlanishi 12 yahudiy qabilalari ichida eng ko‘p sonli bo‘lgan Yahudo qabilasi nomi bilan bog‘liq. Milodiy XI asr oxirlari – miloddan oldingi 977-yillarda eng yuqori kuch-qudratga erishgan Yahudiya davlati podshohi va payg‘ambari Dovud Yahudo qabilasining yuqori mavqega erishishi “yahudiy” so‘zi ham millat, ham diniy e‘tiqod sifatida ishlatilishiga turtki bo‘lgan. Yahudiylik qadimgi monoteistik milliy dinlaridan biridir. Uning ayrim sfarimholatlarda boshqa xalqlar – xazarlar, karaimlar, ashkenazilar orasida tarqalishi, hinduiylikning Hindistondan tashqariga yoyilishi kabi, ularni jahon dinlariga aylantira olmadi. Chunki bu kabi hodisa ushbu dinlar shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynamagan.

Sfarim – yahudiylik diniy ta‘limotining muqaddas yozuvi, uning manbasi sanaladi, u qadimgi yahudiy qisqartma so‘zi (abbreviaturasi)da Tanax nomi bilan ma‘lum. Bu uning tarkibiy qismlari nomlaridan olingan: Tora (Qonun), Neviim (Payg‘ambarlar) va Ktubim (Yozuvlar)¹⁵. Tanax qadimiy yahudiy tilida yozilgan 24 kitobdan tashkil topgan bo‘lib, uch qismga bo‘linadi: Tora (qadimgi yahudiycha Torah – jarahdan olingan bo‘lib, o‘qitmoq ma‘nosini bildiradi) yoki yahudiy “Qonun”ining eng muqaddas qismi – “Besh kitobi”dir. Neviim katta Payg‘ambarlar va kichik Payg‘ambarlar kitoblariga bo‘linadi. Ktubimga Bitiklar kitobi kiradi. Talmud – yahudiylikning diniy-axloqiy, marosimlar va huquqiy qoidalariga oid to‘plam. U dindor yahudiylar uchun qonunchilik va sud asosi hamda axloqiy kodeks sanaladi.

Yahudiylikning 13 aqidalari “Men to‘liq ishonch bilan ishonaman...” so‘zlari bilan boshlanadi. Xudo so‘ziga hamisha “uning nomini marhamat qilinsin” maqtov qo‘shiladi. Moshe (Muso a.s., Moisey) ismiga esa “qabrida tinch yotsin” qo‘shiladi. Ushbu aqidalar 13 tamoyili ko‘rinishida ifodalanib berilgan. Quyida ular qisqartirilgan shaklda, ishonch dalolatlar hamda maqtovlarsiz keltirilmoqda:

1. Xudo barcha narsani yaratadi va barcha narsani boshqaradi.

2. U yagona va uning yagonaligiga o'xshash yagonalik yo'q.
3. U tanaga ega emas, hech qanday shakli yo'q, unga o'xshash hech narsa yo'q.
4. U – birinchi va oxirgi.
5. Unga va faqat ungagina sig'inish kerak.
6. Payg'ambarlar so'zi haqiqatdir.
7. Moshening bashoratlari haqiqatdir, u – payg'ambarlar Otasi;
8. Tora Moshega berilgan edi.
9. Tora o'zgartirilmaydi va boshqa Tora bo'lmaydi.
10. Yaratuvchi odamlarning barcha ishlari va fikrlarini biladi.
11. Yaratuvchi uning amrlarini bajaruvchilarni mukofotlaydi va ularni buzuvchilarni jazolaydi.

Mashiakh keladi; (Mashiakh – najotkor, xaloskor degani)

12. Yaratuvchining istagi bilan vafot etganlar tiriladi... Yahudiylikda diniy amrlari alohida o'rin tutadi.

Yahudiylikda Isroil xalqi Moshe orqali 613 ta amr olgan, deyiladi. Yahudiy an'analarida bu amrlarni shakli katolik, pravoslav va protestantlarnikidan farq qiladi. Xristianlar yahudiylikning birinchi amriga umumiy muqaddima sifatida qarashadi. Quyida 10 amr qisqartirilgan va hozirgi tilga moslashtirilgan holda keltirilmoqda:

1. Mening chehram oldida senda boshqa xudolar bo'lmasin.
2. O'zingga sanam va hech qanday tasvir qilma... ularga sig'inma va ularga xizmat qilma¹⁶.
3. Bekordan-bekorga Parvardigor, ¹⁷Xudongni nomini tilga olma.
4. Shanba kunini doimo tabarruk qilishini yodda tut. Olti kun ishla va o'zingning har xil yumushlaringni qil, yettinchi kun – shanbani Parvardigorga, Xudoyingga (bag'ishla).
5. Ota-onangni qadrla.
6. O'ldirma.

7. Zino qilma;
8. O'g'rilik qilma.
9. O'z yaqinlaringga yolg'on guvohlik berma.
10. O'z yaqinlaring uyi¹⁸, xotini, qullari, chorvasi, eshagi va bu- yumlariga ko'z olaytirma.

Yahudiylarning ibodat marosimlari asrlar davomida sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Ko'chmanchilik hayotini kechirgan davrlardayoq yahudiylarda jamoa bo'lib ibodat qilishlari uchun xos chodirlar – skiniyalar bo'lgan. Dovud payg'ambarning o'g'li shoh Sulaymon skiniyalar o'rniga toshdan ibodatxonalar barpo etishini buyuradi. Ibodatxona xizmatchilari – levitlar – yahudiylarning Leviy avlodlaridan bo'lganlar. “Levit” kitobida ibodatni amalga oshirish va qurbonlik keltirish qoidalarining tavsifi keltirilgan.

Quddus ibodatxonasi Bobil shohi Navuxodonosor tomonidan er. avv. VI asrda buzib tashlangani va rimliklar tomonidan milodning 70- yillarida yana qayta vayron qilinganidan keyin qurbonlik keltirish marosimlari amalga oshirilmadi. Iyunning oxiri va avgustning boshida vayron bo'lgan ibodatxonalar uchun motam kuni o'tkaziladi. Payg'ambar Sulaymon ibodatxonasidan “Yig'i devori” nomini olgan devor saqlanib qolgan, bu yerda yahudiylar o'z xalqi taqdiridan ko'z yosh to'kadilar, qayg'uradilar va duolar o'qiydilar. Sinagoga binosining old tomoni doimo Quddusga qaratilgan bo'lib, unda erkaklar va ayollar uchun alohida xonalar ajratiladi. Sinagoga binosida maxsus parda ostiga Tora o'rami saqlanadigan quti “Aron a-kodesh” joylashtirilgan. Ushbu quti tepasida Quddus ibodatxonasini yoritib turadigan va yaratilishning yetti kuni ramzi bo'lgan yetti shamlik shamdon – menora yonibturadi.

Yahudiylarda ko'p lab urf-odatlar, marosimlar va bayramlar bor. Har bir yahudiy bularning hammasiga umri davomida rioya qilishi shart. Har bir yahudiy o'g'il farzandi tug'ilganining sakkizinchi kuni Xudo bilan inson o'rta sidagi ahd belgisi sifatida “brit-mila” – xatna qilinadi. “Bar-mitsva marosimi” - balog'at yoshini nishonlash. Bu o'g'il bolalarning 13 yoshga to'lganlarida jamoaning to'laqonli a'zosi bo'lishiga bag'ishlangan marosimdir. Ayollar hayzidan, farzand

ko‘rganlaridan so‘ng hamda to‘ylaridan oldin, erkaklar ba‘zi diniy bayramlar arafasida mikva nomi bilan ataladigan maxsus hovuzda yuvinishlari belgilab qo‘yilgan.

Yahudiy yilining birinchi bayrami – Rosh Ash-shana hisoblanadi. U sentabr-oktabr oylarida, ya’ni fuqaro taqvimining 1-oyi va yahudiy taqvimining 7-oyida bayram qilinadi. Shundan so‘ng Yom-kipur – 10 kunlik “tavba qilish”, ya’ni gunohlardan poklanish kuni bo‘lib, duolar o‘qiladi. Yahudiylar ushbu kun Yahve bu yilda kim yashash va kim yashamasligini hal qiladi, deb hisoblaydilar.

Yahudiylarning asosiy bayramlari Peysax “ismlar” kitobida bayon qilingan. Uni nishonlash mart oyining oxiri, aprelning boshiga to‘g‘ri keladi. Yahudiylarning Misrdan chiqishi va millat sifatida shakllanishi sharafiga 15-22 nisan kunlari bayram qilinadi. Shavuot (may-iyun) oylarida Musoga Peysaxning ikkinchi kunidan boshlab, 7 haftadan so‘ng Sino tog‘ida Tora berilgan kuniga bag‘ishlangan bayram nishonlanadi. Torada Shavuot hosil bayrami sifatida tavsirlangan. Har haftalik shabatda (ivr. İldiz “shvt” – tinch yotmoq, to‘xtamoq, sabr qilmoq) Tora qismlari o‘qiladi, an’anaviy marosimlar o‘tkaziladi, ishlash taqiqlanadi.

Hozirgi kunda Isroilda din sezilarli darajada muhim ahamiyat kasb etadi. Shanba kuni, masalan, umumdavlat dam olish kuni bo‘lib, do‘konlar, jamoat transporti, davlat idoralari ishlamaydi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish sinagoglarda amalga oshiriladi, diniy masalalar bo‘yicha alohida sud faoliyat yuritadi. Siyosatda ham diniy partiyalar ustuvorligi kuzatiladi. Yahudiylar shaxsiy hayotning ko‘p gina jabhalarini boshqaradi. To‘y marosimlarini o‘tkazish, ajralishlar, yahudiylar hayotining boshqa jihatlarini faqat ravvinlar nazorat qilishlari mumkin.

Hozirgi vaqtda yahudiylarda turli yo‘nalish va sektalar mavjud bo‘lib, ortodoksallar, islohotchilar, konservativ, gumanistlar va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ortodoksal yahudiylar ichida bir necha yo‘nalishlar mavjud. Masalan, xasidizm – XVIII asrning birinchi yarmida Sharqiy Yevropa yahudiylari orasida,

keyinchalik butun dunyoga tarqalgan ta'limot. Uning asoschisi – rabbi Isroil Besht (1760- y. vaf.). Xasidizm asosiy manbayi Kabbaladir. Uning tarkibida mistika va sehrgarlik qismlari mavjud. Xudoning ilohiy jarayonlarning shartli ifodasini o'zida jo etuvchi kabbala Tora va boshqa muqaddas kitoblarning yashirin mazmunini anglashga harakat qiladi. Ortodoksal yahudiylik galaxaga, ya'ni yahudiylarning diniy, oilaviy va fuqarolik hayotini me'yorlab beruvchi qonun nizomlariga rioya etishni majburiy, deb hisoblaydi. Xasidlar ibodat qilishni nafaqat ilohiy amrlarini bajarish bilan, balki butun insoniy xatti-harakatlar bilan amalga oshirishga undaydi.

Nazorat uchun savollar

1. Afsonaviy ongning vujudga kelishiga qanday omillar a'sir qilgan?
2. Shomon shaxsining psixologik xarakteristikasi qanday?
3. Totemizmning ma'naviy prinsiplari nimalardan iborat?
4. Hozirgi jamiyatda ibtidoiy dinlarning qanday tomonlari kuzatilmoqda?
5. Qadimgi Mesopotamiya dini huquqtizimiga qanday ta'sir o'tkazdi?
6. Qadimgi Misr dini fan va madaniyatga qanday hissa qo'shdi?
7. Vedizm va braxmanizm manbalari haqida nimalar bilasiz?
8. Braxmanizmdagi "karma" va "sansara" tushunchalari haqida nimalarni bilasiz?
9. Konfutsiylikka ko'ra "Tszyun-tszi" qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak?
10. Konfutsiy ta'limotiga ko'ra boshqaruvning yakuniy va oliy maqsadi, nima?
11. Daosizm hozirgi zamondagi qaysi mamlakatlarda mavjud?
12. Sintoizmda marosimlar qanday bajariladi?
13. Sinto ibodatxonalari uchun umumiy bo'lgan jihatlar nimadan iborat?
14. Yahudiylikning qanday buyruqlari mavjud?
15. Zamonaviy yahudiylikda qanday yo'nalish va sektalarni bilasiz?

Asosiy xulosalar

- Dinning ibtidoiy shakllari an'anaviy ravishda tabiatga sig'inish, ajdodlarga sig'inish, animizm, shomonizm, tangrichilik, sehrgarlik, totemizm, fetishizm kiradi. Ular bir-biriga aralashib ketishgan bo'lib, sof holda deyarli uchramaydi.

- Qadimgi dunyo dinlari Markaziy Osiyo, Maya, atsteklar va b. rivojlangan sivilizatsiya dinlaridir.

- Milliy dinlar bu ma'lum bir davlat bilan bog'liq bo'lgan yoki biron etnik jamoa vakillari e'tiqodiga xos bo'lib, boshqa xalqlar o'rta sida tarqalmagan dinlardir. Bunday dinlarni ularga e'tiqod qiluvchi xalqlar madaniyati, afsonalari va marosimlaridan ajratib bo'lmaydi. Uning vujudga kelishi tegishli elat va millatning paydo bo'lishi va shakllanish jarayoni bilan bog'liq.

II modul manbalarga havola

¹ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростовн/Д.; "Феникс", 1996. С. 287; 291

² Merking D. Becoming half hidden: Schamanism and initiation among the Inuit. Stockholm, 1985. -P. 118.

³ "Magic, Science and Religion"/ Science, Religion and Reality/-James Needham, Macmillan Company, 1925. Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.-Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.- P.118

⁴ Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.-Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.В.54, 65, 93, 136.

⁵ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д.; "Феникс", 1996. –С. 554-555.

-
- ⁶ Психология религий: учебное пособие / И.Б. Ардашкин; Томский политехнический университет. - Томск: Изд-во ТПУ, 2011.–С. 219-220. Также см.: Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д.; "Феникс", 1996. –С. 159-160
- ⁷ Flattery D. S., Schwartz M. Haoma and harraaline: The botanical identity of the Indo-Iranian so-called hallucinogen "Soma" and its legacy in religion, language, and Middle East folklore. Berkeley etc.: Univ. of California press. 1989
- ⁸ Singh S. D. The early development of kingship in pre-Muslim India // Patterns of kingship and authority in traditional Asia: Publ. with the assistance of Monash. univ. Publ. comra. / Ed. by Mabbett I.-L. 1985. p. 88
- ⁹ Singh S. D. The early development of kingship in pre-Muslim India // Patterns of kingship and authority in traditional Asia: Publ. With the assistance of Monash. univ. Publ. comra. / Ed. by Mabbett I.-L. 1985.–p.91.
- ¹⁰ Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996.- С. 570.
- ¹¹ Сарвепалли Радхакришнан. Индийская философия (в 2-х томах). М.:Миф, 1993. С.626.
- ¹²Новейший словарь религиоведения/авт.-сост. О.К.Садовников, Г.В.Згурский; под ред. С.Н.Смоленского. - Ростов н/Д: "Феникс", 2010. С. 351
- ¹³ Энциклопедия религий / Под ред. А.П.Забияко, А.Н.Красникова, Е.С.Элбакян. - М.: Академический Проект; Гаудеамус, 2008. – 1520 с: ил. — (Summa). - ISBN 978-5-8291-1084-0 (Академический Проект). - ISBN 978-5-98426-067-1 (Гаудеамус). - С.191-195. С. 223
- ¹⁴ Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова.– 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998. С.104-106.
- ¹⁵ Torāh (thePentateuch), Nebi'im (the Prophets) and Ketūbim (the Hagiographa)] (Bitiklar).

¹⁶ Ko‘plab protestant konfessiyalari yahudiylar an‘anasiga ko‘ra ikkinchi amrni ikkiga bo‘ladilar, bunda birinchi she‘r birinchi amr, qolgan she‘rlar ikkinchi sanaladi. – (Shmot, lotin. Exodus 20: 3-6).

¹⁷ "Parvardigor" so‘zi qadimgi yahudiylik matnlari boshqa tillarga tarjima qilinganda Yahovaga almashtirilgan. Yahovaning xristiancha yozilish shakli (Jehovah, Iyegova).

¹⁸ Rim-katolik va lyuteran cherkovi yahudiy an‘anasiga ko‘ra o‘ninchi amrni ikkiga bo‘ladi. Lyuteranlar Dvarim kitobi tartibiga ergashib, –o‘z yaqinlaring uyini istamall amrini to‘qqizinchi, keyingisini esa o‘ninchi sanashadi.

III MODUL. JAHON DINLARI

3.1. Buddizm

Mazmun. Buddizm. Buddizm ta'limoti – to'rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm axloqiy ta'limoti – “Pancha-shila”. Buddizm oqimlari: maxayana, xinayana, lamaizm va h.k. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi.

Buddizm ta'limoti.

To'rt oliy haqiqat. Nirvana

Buddizm – eng qadimgi jahon dini bo'lib, Hindistonda miloddan oldingi VI-V asrlarida paydo bo'lgan.

Buddizm Hindo-xitoy ayrim orolidagi mamlakatlarda keng tarqalgan. Tailand, Vetnam, Myanma, Kambodja, Laosning asosiy dinidir. Sanskrit va palidan tarjima qilinganda “buddha” so'zi “nurlanish”, “ravshanlashish”, “uyg'onish” ma'nolarini anglatadi. Ushbu din zamonaviy Xitoyning uchta asosiy dinlaridan biri hisoblanadi. Hind madaniyatining ushbu davrga kelib yozuvga tayanishi, brahmanizm va vedizm kabi diniy e'tiqodlar bilan boy bo'lgan san'at shakllari rivojlanishi buddizmning paydo bo'lishi uchun qulay sharoitlar yaratdi. Buddizm vedizm ta'limotining bir qator muhim tushunchalari: karma, sansara, samckara, dxarma va boshqalar to'g'risidagi ta'limotlar, veda timsollari, ba'zi o'simlik va hayvonlarni e'zozlash va ko'p gina oilaviy-maishiy an'analarni o'zlashtirdi. Buddizmni nafaqat din, balki falsafiy ta'limot, madaniyat qoidalari to'plami yoxud hayot tarsi, deb baholash mumkin.

Muqaddaslashtirilgan va ijtimoiy guruhlar o'rtasida qat'iyy chegaralarga ega kasta va varna tuzumi ijtimoiy munosabatlarda katta qarama-qarshiliklarga sabab bo'ldi. Ushbu davrda hokimiyatni qayta taqsimlash yuzaga keldi, bu jumladan, chet hududlardagi kshatriylarning o'z hokimiyatini mustahkamlashga intilishi, quldorlikning yirik shakllariga o'tish, qullarning mehnat unumdorligini oshirish kabilarda namoyon bo'ldi. Bularning barchasi bir tomondan qudratli mamlakat – Magadxa imperiyasi yaratilishiga olib kelgan bo'lsa, ikkinchi tomondan ijtimoiy

ziddiyatlarni kuchaytirdi. Ushbu davrda Hindiston aholisining katta qismi “hayot - bu azob-uqubat” – degan haqiqatni boshdan kechirdi. Keyinchalik bu holat Budda tomonidan keltirilgan to‘rt haqiqatning birinchisi sifatida qabul qilindi. Aynan shunday vaziyatda shimoli-sharqiy Hindistonda Shakya qabilasining Gautama zodagon urug‘ida buddizm asoschisi – hind shahzodasi Siddxartxa Gautama dunyoga kelgan.

Budda tug‘ilgan vaqti haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi arxeologik ma’lumotlar va janubiy paliy an‘analariga ko‘ra bu mil.avv. 623-yilga to‘g‘ri keladi. 1956-yilda Budda nirvanasining 2500 yilligi bayram qilinishi ham ushbu sanaga asoslangan edi. Buddizm yil hisobi shundan boshlanadi. Shimoliy maxayana an‘anasi bo‘yicha boshqacha hisoblaniladi, ammo ko‘p chilik maktablari mil.avv. 380-yilni tan oladilar. Yevropalik taqiqotchilar esa mil.avv. 410-380-yillarni arxeologik va madaniy-tarixiy jihatdan ko‘proq asoslangan, deb hisoblaydilar.

Buddizm mifologiyasi shahzoda Siddxartxaning tug‘ilishi Buddaning birinchi tug‘ilishi emasligi haqida hikoya qiladi. Afsonalarga ko‘ra bo‘lajak Budda jami 550 marta tug‘ilgan. O‘zining avvalgi hayotida u avliyo, podshoh, rohib, maymun, savdogar, tovuq, g‘oz, fil, bundan tashqari baliq, kalamush, duradgor, baqa, quyon va h.k. bo‘lgan. Bu holat u kshatriy oilasida oxirgi marta tug‘ilib, dunyoni qutqarish, nirvanaga erishish yo‘lini topish vaqti kelmagunicha davom etgan, deb hikoya qilinadi. Aynan shuning uchun unga Siddxartxa (Maqsadga erishuvchi) degan ism qo‘yishgan. Afsonalarga ko‘ra bashoratchilar uni buyuk kelajak kutishini: u yer yuzida haqiqiy tartib o‘rnatishga qodir bo‘lgan buyuk hoqon, yoki buyuk asket bo‘lishini bashorat qilgan. Otasi Shuddxodana o‘g‘li bashorat qilingan yo‘llarning birinchisidan borishini xohlagan va o‘g‘lini tarkidunyo qilmasligi uchun qo‘lidan kelganicha harakat qildi: farzandi dunyo tashvishlarini bilmasligi uchun misli ko‘rilmagan hashamda voyaga yetkazdi.

Shuncha harakatlarga qaramasdan otasining harakatlari zoye ketdi. Siddxartxa qasrdan chiqib ketadigan bo‘ldi. Kunlardan bir kuni odamni uchratib, dunyoda kasalliklar borligini, qari odamni uchratib, yoshlik abadiy emasligini,

dafn marosimini kuzatib, o‘limni anglaydi. Keyinroq esa, dunyoning azob-uqubatlaridan qutulishni istab, yolg‘iz hayot kechirishga intilayotgan tarkidunyochi rohibga ko‘zi tushadi. 29 yoshida esa u xuddi shu yo‘ldan ketishga qaror qiladi va saroy hamda oilasini tark etib, Siddxartxa shraman (odamlardan alohida, tarkidunyochi) bo‘lib yurt kezdi. U eng murakkab asketik amaliyotni juda tez o‘zlashtirib oldi: nafas olish, tuyg‘ularni nazorat qilish, ochlik, jazirama issiq va sovuqqa bardosh berish, trans holatiga tushishni o‘rganib oldi, ya’ni o‘zining sezgilariga chuqurroq kirib, o‘ziga xos holatga erishgan va tashqi dunyodan ajralgan. Biroq uni “Qanday qilib azob-uqubatlarga chek qo‘yish kerak?” degan savolga javob topa olmaganligi uchun hech o‘zidan qoniqmas edi.

Budda rivoyatlariga ko‘ra Siddxartxa yuksak fahmlash hissiga erishish uchun olti yillik zohidlik amaliyoti va ochlik yordamida qilgan navbatdagi omadsiz urinishdan so‘ng o‘z-o‘zini azoblash yo‘li haqiqatga olib kelmasligiga ishonch hosil qildi. Shunda u kuchini tiklab, daryo qirg‘og‘ida chekka joyni topib, daraxt tagiga o‘tiradi (shu vaqtdan boshlab u Bodxi daraxti, ya’ni “Fikrlarni ravshanlashtiruvchi daraxt” deb nomlanadi) va mushohadali xayolga cho‘madi. Siddxartxaning xayolidan o‘zining avvalgi hayoti, barcha tirik mavjudotlarning oldingi, hozirgi va kelajakdagi hayoti bir-bir o‘tadi, so‘ngra esa oliy haqiqat ochildi. Budda xohish-istaklar, dunyoviy lazzatlarga cho‘mgan hayot bu quyi, qop-qorong‘i va foydasiz, boshqa, qarama-qarshi tomon esa o‘z-o‘zini azoblashdagi hayot bo‘lib, u ham foydasiz ekanligini anglab yetdi. To‘g‘ri yo‘l esa – xotirjamlikka, yuksak bilimga, fikrlar oydinlashuviga, nirvanaga olib boradigan o‘rta yo‘ldir. Ana shu paytdan boshlab u Buddaga, ya’ni nurlangan, uyg‘ongan shaxsga aylandi¹. Budda azoblardan qutulish yo‘llarini izlayotgan barcha odamlarga ushbu yo‘lni o‘rgatishga qaror qiladi. Natijada Buddaning to‘rt olijanob haqiqati yuzaga keladi:

1. Azob-uqubat mavjudligi haqida. Azob-uqubatning borligi haqiqatdir. Odamning mavjud bo‘lishi bu dukxa, ya’ni azob, qoniqmaslik, ko‘ngil sovishi. Tug‘ilish, qarilik, kasallik, o‘lim bu azobdir. Istagiga erishmaslik bu – azob: inson

hayoti qiyinchiliklardan xoli bo'lishini xohlaydi va bunday emasligidan azob chekadi. Doimiy qayta tug'ilishlar ushbu azoblarni ko'p aytiradi.

2. Azob-uqubatlarning sababi haqida. Azob-uqubat o'z sababiga ega. Bu o'zgarishlarga olib keluvchi istak va ehtirolar bilan bog'liq bo'lgan ishtiyoqdir. Istagan narsaga ega bo'lish va abadiy yashash istagini amalga oshirib bo'lmazligidan qoniqmaslik – bu tanxa, ya'ni hayotga, hissiy huzur-halovatga tashnalik, biror narsa yoki biror odamga xudbinlarcha bog'lanish. Bu tashnalik cheksiz va uni qondirib bo'lmaydi. Yomonlik istakning o'zida emas, balki uning xudbin (egoistik) xarakteridadir.

3. Azob-uqubat sabablarini yo'qotish haqida. Azobni yo'q qilish mumkin. Bu dilning ravshanlashuvi orqali orzu-istak va ehtirolarni yengib o'tishdir. U qayta tug'ilishlar doirasidan chiqish va ular bilan bog'liq bo'lgan azob-uqubatlardan qutilish imkonini beradi.

4. Azoblarga chek qo'yish yo'li to'g'risida. Azob-uqubatlarni yo'q qilishga olib boruvchi yo'l mavjud. Bu o'z fikr-xayollariga cho'mish va bosh maqsad – hamma narsani istashdan, shu jumladan, shaxsiy istaklardan ozod bo'lish yo'lidir.

Ushbu sakkiz bosqichli yo'l quyidagilardan iborat:

1. To'rt olijanob haqiqat haqida bilimlarni to'g'ri tushunish.

2. O'z-o'zini qat'iy tartibga solish uchun to'g'ri niyatlar qilish.

3. To'g'ri so'z. So'z – fe'l-atvorning aksi bo'lib, to'g'ri so'zlar avvalambor rost so'zlardir. Shuningdek, so'zlarni marhamatli qilish, yolg'on, bekorchi gap, haqorat va beadabliklardan o'zini chetga olish.

4. To'g'ri ishlar. Bu yomonlik qilmaslik tamoyiliga mos keladigan ishlardir. Bunda o'zini to'g'ri tutish, ya'ni tirik jonzotlarga zarar yetkazish yoki ularni o'ldirishga olib kelishi mumkin bo'lgan g'azabni jilovlashni buyuradi; o'g'rilik qilmaslik – chunki o'g'rilik kishi o'zi uning bir qismi hisoblangan jamoaga zarar yetkazadi; nikohdan tashqari jinsiy maylni jilovlash, chunki u ruhni buzadi; yolg'ondan uzoqroq yurish. Buddizmda yolg'onning hech qanday shakli oqlanmaydi. Shuningdek, odamni mutlaqo ruhiy va jismoniy nazorat qilish imkon bermasligi bois mast qiladigan moddalardan tiyilish.

5. To'g'ri hayot kechirish, maishiy hayotda, kasbiy faoliyatda, ijtimoiy hayotda axloqiy kodeksga amal qilish. Buddizm qulqurushlik, qurol yasash va sotish, giyohvand moddalarni sotish, shuningdek, fohishalik kabi xatti-harakatlar bilan shug'ullanish taqiqlangan.

6. To'g'ri intilish. Bu maqsad yo'lida sabr va matonatni talab qiluvchi yo'l bo'lib, katta kuch: o'z-o'zini tarbiyalash va o'zligini yo'qotmaslikni talab qiladi.

7. To'g'ri e'tibor, ya'ni diqqat-e'tiborning faol hushyorligi. Buddizm xuddi boshqa hech narsa yo'qdek, bir predmetga e'tiborni to'plashni o'rgatadigan mashqlar, diqqatni jamlash va meditatsiya tizimini ishlab chiqdi.

8. To'g'ri mushohada, mahliyo bo'lish va meditatsiya usullarini to'g'ri tanlash.

Shuningdek, Buddha tomonidan nirvana yo'lida kishanlar, deb nomlangan o'nta buyuk to'siq qayd qilingan: 1) shaxs illyuziyasi (xomxayolligi); 2) shubha; 3) irim; 4) tana ehtiroslari; 5) nafrat; 6) hayotga bog'langanlik; 7) lazzatlanish va ovunish istagi; 8) kibr; 9) mag'rurlik; 10) nodonlik². Nirvanaga erishish uchun buddaviylar ushbu kishanlarni uzishlari kerak bo'ladi.

Buddizm hinduizmning markaziy tushunchalaridan biri bo'lgan dxarma, ya'ni abadiy ahloq qonuni rivojlangan. Buddizm ta'limotiga ko'ra inson ong oqimi dxarma-zarrachalardan iborat. U shartli ravishda besh guruh-skandxga bo'linadi: 1) tana (rupa); 2) his-tuyg'ular (vedana); 3) taniy olish (sandjnya); 4) karma impulslari (sanskara. Buddizm sanskara yoki samskara – karmik iz qoldiruvchi fikrlar, so'zlar, ilgarigi hayotdagi xatti-harakatlar. Karma yangidan tug'ilish va keyingi hayot sifatini belgilaydi. Sanskara hinduiylikda hayotning muhim bosqichlarida bajariladigan va tana va ruhni tozalashga mo'ljallangan hayotiy sikl marosimini aks ettiradi); 5) ong (vidjnyana).

Buddizm insonning borlig'i o'zgarimas ekanligini, uning xatti-harakatlari ta'siri ostida faqat dunyoni idrok qilishi o'zgarishini o'rgatadi: yomon ish qila turib, inson kasalliklar, kambag'allik, xo'rlanishlarni orttirib oladi. Yaxshi ishlar qilib esa, quvonch va xotirjamlik rohatlarini suradi. Buddizm asosiy e'tiborini

soʻzlarning ham, xatti-harakatlarning ham ongga nisbatan ikkilamchi ekanligi haqidagi fikrga qaratadi.

Sansara dunyosidagi bunday mavjudlikning davri quyidagicha: har bir fikr, har bir soʻz va har bir ish oʻz karma izini qoldirib, insonning keyingi mujassamlashuviga olib keladi. Buddistning maqsadi – iloji boricha karma izlarini kamroq qoldirib yashash. Buddizm taʼlimotining axloqi “10 ta yovuz harakatlar” va “10 ta yorqin harakatlar”ni koʻrsatadi³. 10 ta yovuz harakatlarga: qotillik, oʻgʻrilik, xiyonat; yolgʻon, tuhmat, soʻz bilan haqoratlash, yengiltaklik bilan soʻzlashish; qizgʻanchilik, nodonlikni kiritgan. Buddizm yovuz niyatlar keyingi hayotda karma izlarini, yaʼni nomaqbul oqibatlarni qoldiradi, deb oʻrgatadi. Masalan, ichi qoralar majruhlikka, jirkanch axloqqa duchor boʻladilar. Yorqin hislatlar: olijanoblik, axloqiy xatti-harakatlar, meditatsiya, hurmat-ehtirom, beminnat yordamga tayyorlik, oʻz xizmatlarini boshqalarga koʻrsatish, boshqalarning quvonchiga sherik boʻla olish, toʻgʻri taʼlimot ortidan borish. Buddizmning hayot uzluksiz almashib turishi haqidagi tasavvur 6-ilovada keltirilgan.

Buddizmdagi oqimlar | Ilk buddizmdagi kelishmovchiliklar uning ikki oqimga boʻlinishiga olib keldi: Xinayana (“Kichik gʻildirak”) va Maxayana (“Katta gʻildirak”). Xinayana asosan janubiy-sharqiy mamlakatlarda qaror topib, janubiy Buddizm nomini oldi, Maxayana esa shimoliy mamlakatlarda tan olinib, shimoliy Buddizm nomini oldi.

Maxayana koʻp roq ommalashgan boʻlib, uning tarafdorlari koʻp roq va uni “keng qutqaruv doirasi” deb tavsiflaydilar. U tushunarliroq va marosimlari soddaroq boʻlib, tarkidunyochilik va odamovilikni talab etmaydi, asosiy eʼtiborni pand-nasihatlar tinglashga, jamoat-davlat faoliyatida ishtirok etishga qaratadi. Hindiston tashqarisiga chiqqach, maxayana koʻp lab oqimlarni keltirib chiqardi. Bunda nirvanaga (Budda diniy taʼlimotiga koʻra: dunyo tashvishlaridan kechib, oʻzini rohat-farogʻatda sezish) kirib, baxt orttira olishi mumkin boʻlgan, biroq nirvanaga erishishni istayotganlarga yordam berish uchun oʻz manfaatini keyinga qoldirgan ulugʻ shaxslarning bodxisatvga sigʻinishi muhim oʻrin tutadi.

Bodxisatvga sig‘inish marosimlarni birmuncha murakkablashtirgan: yangi ibodatlar, iltijolar va bo‘rttirilgan marosimlar paydo bo‘ldi, natijada ibodat qiluvchi dindorlarning soni ham ortdi.

Xinayana yo‘nalishi ilk buddizm bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, tarkidunyochi bo‘lmagan rohiblar uchun qutqaruv yo‘li rad etiladi.

Budda butun hayoti davomida turli uslublarni o‘rgangan, biroq ular Budda hayotdan ko‘z yumganidan so‘ng yozib olingan. Budda nimalarni o‘rgatganligini og‘zaki tasdiqlash uchun Birinchi Buddizm kengashida, uning besh yuzta o‘quvchisi o‘zlari eshitgan muqaddas matnlardan turli parchalarni yoddan o‘qib beradilar. Buddaning hayoti va faoliyati qator buddizm matnlariga, shu jumladan, “Lalitavistara” (“Lalitavistara Sūtra”)ga asoslanadi. Budda haqidagi birinchi matnlar uning o‘limidan 400 yil o‘tgach paydo bo‘ldi. Har bir asrda monaxlar uning biografiyasini “bezata” boshladilar, unga aniqlanmagan, bo‘rttirilgan va monaxlar tomonidan “tasdiqlangan” axborotlar qo‘shila bordi. Shunga qaramay, buddizmning asosiy manbasi bo‘lmish "Tripitaka" yoki “Uch savat” nomi bilan mashhur bo‘lgan matnlar to‘plami ancha keyin paydo bo‘lgan. "Tripitaka" an’anaviy tarzda, o‘ramlar uchta savatda saqlanganligi bilan izohlanadi. Biroq matnlar yozilgunga qadar “pitaka” so‘zi sanskritda va pali tilida ko‘chma ma’noda yig‘ilish, to‘plamni belgilash uchun qo‘llanilgan.

Buddaning turli mantlari turli tillarda va turli usullarda yozilgan, chunki Buddaning o‘zi ta’limotini ushbu jamiyatga xos uslubni hisobga olgan holda mazkur jamiyatda qanday til qabul qilingan bo‘lsa, o‘sha tilda saqlash kerak, deb ta’kidlagan. Asosiy e’tiborni so‘zlarga emas, balki matnning ma’nosiga qaratish kerak, chunki matn sharhga muhtoj bo‘lmasligi kerak, degan tamoyilga amal qilingan. Bu og‘zaki va ochiq tarzda uzatilgan ta’limotning birinchi guruhi bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan u yozib olindi va xinayananing asosini tashkil etdi. Txeravada maktabi, masalan, Shri-Lanka va Janubiy-Sharqiy Osiyoga tushib qolib, o‘z ta’limotini pali tilida saqlab qoldi, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Sarvastivadlar maktabi esa sanskritdan foydalandi.

Xinayana maxayana tomonidan ham tan olinadigan asosiy ta'limotlardan, ya'ni qismat (karma) haqidagi ta'limot (savob qonuni, sabab-oqibat aloqalari); rohib va rohibalar uchun rohiblik intizomi qoidalari, aqliy va his-tuyg'u sohalari faoliyatining tahlili, qobiliyatni jamlashni (konsentratsiyalashni) qanday rivojlantirish, shuningdek, yanglishishlarni yengib o'tish va reallikni ko'rish uchun donolikka qanday erishish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan barcha axloqiy intizom qoidalaridan iborat. Xinayana ta'limotlari ko'p lab nazariy masalalardan, masalan, muhabbat va hamdardlik tuyg'ularini rivojlantirish usullaridan iborat.

<p>Buddizm ta'limoti.</p> <p>Pancha-shila</p>	<p>axloqiy</p>	<p>Buddizm axloqiy ta'limoti va amaliyoti uch qism: 1) axloq; 2) meditatsiya; 3) donolikdan iborat. Rohiblardan farqli ravishda, maxayana qavmlarga quyidagi fikrga olib keluvchi oddiy Pancha-shila nomli axloqiy kodeksni taklif etgan: 1. Qotillikdan saqlanish. 2. O'g'rilikdan saqlanish. 3. Zinodan saqlanish. 4. Yolg'ondan saqlanish 5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.</p>
---	-----------------------	--

Buddistlar hamma haqiqat ham foydali emas, deb hisoblaganlar: qo'lda siqimlab turilgan barglar tutami o'rmondagi barglar sonidan qanchalik kam bo'lsa, Buddha o'z o'quvchilariga ochib bergan haqiqatning bir qismi ham, u o'zi bilib olgan haqiqatdan kamroqdir, biroq odamlarga buni ochish shart deb hisoblamagan, chunki odamlar uchun bu befoydadir. Buddaning o'zi ushbu fikrni quyidagi taqqoslash bilan izohlagan: agar zaharlangan kamondan yaralangan inson davolanish o'rniga, dushman uni nima uchun yaralaganligi, u qaysi qabiladan, qaysi tabaqadan ekanligi, uning otasi kim, onasi kim ekanligi haqida surishtira boshlasa, u shifokorga murojaat qilishga ulgurmasdan yarasi asoratidan o'lib qoladi. Shuningdek, dunyo azob-uqubatlaridan qutulishni istagan har qanday inson dunyoning borlig'i, uning kelib chiqishi va h.k. haqida befoйда savollar bermasdan, balki saxovat yo'li (ya'ni sakkiz bosqich yo'li) ko'rsatgan yo'ldan borishi kerak.

XII-XIII asrlarga kelib, buddizm Hindistonda deyarli tanazzulga uchraydi va Osiyoning boshqa mintaqalariga ko'chib, mahalliy tusga kira boshlaydi. XII-XV

asrlarda Tibet va Mongoliyada maxayana negizida lamaizmga asos solinadi. Lamaizm axloqida ko'p lab dinlarga xos bo'lgan axloq va huquqning umuminsoniy normalari aks etgan. Jumladan hech kimni o'ldirma, senga tegishli bo'lmagan narsani olma, aldama, mast bo'lma, zino qilma kabi ko'rsatmalar va saxiylik, xushfe'llik, itoatkorlik kabi xislatlarni o'z ichiga oladi. Yevropa dinshunosligi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab lamaizm iborasi o'rniga tibet (mongol, buryat) buddizmi iborasini ishlatishni afzal ko'radi.

**Buddizmning
tarqalishi.
yodgorliklarining
o'rganilishi**

**Osiyoda
Buddizm**

Ilk buddizm g'oyalari va ularning Hindiston hukmdori Ashoka (mil.avv. 268-231/232) tomonidan qo'llab-quvvatlanishi dinning qonuniylashtilishi va tez tarqalishiga sabab bo'lgan. Mil.avv. III asrda buddizm ustunlari vujudga

kelgan: 1) Budda – Ustoz. 2) Dxarma – buddizm ahloqiy ta'limoti. 3) Sangha – diniy jamoa bo'lib, u ta'limotni asraydi va nirvanaga erishish yo'lini o'rgatadi. Ilk buddaviylik ma'rosimlarining nisbiy erkinligi, osonligi dinning yangi hududlarda mahalliy urf-odatlariga moslashishiga yordam bergan.

Mill.avv III-I asrlarda buddizm Hindistondan tashqariga chiqdi. Rohiblar amal qiladigan “to'rt yo'l” – xinayana janub va janubi-sharqqa tomon yoyila bordi. Asosan oddiy xalq qo'llaydigan maxayana esa I asrning boshlarida aksincha shimoliy va boshqa yo'nalishlar bo'ylab tarqala boshladi. Kushonlar imperiyasining shakllanishi buddizmni Markaziy Osiyoga olib keldi, u yerdan u Uzoq Sharqqa kirib bordi. Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab savdo-sotiq ham buddizmni qo'shni hududlarda tez tarqalishiga sabab bo'ldi.

Buddizm turli mamlakatlar va xalqlar bilan madaniy an'analarini buzmaslik va iloji boricha ular bilan qo'shib rivojlanishdan iborat bo'lgan asosiy tamoyilidan foydalanib, mahalliy madaniyat bilan qorisha boshlagan. Sekin-asta VIII asrda Yaponiyada rohib Sayte tomonidan asos solingan tenday-syu buddizm maktabi vujudga keldi, uning ta'limoti asosida ko'p lab boshqa maktablar (masalan, nilufar sutraning noyobligi haqidagi Nitirena maktabi) paydo bo'ldi.

Uning to'liq nomi sanskritdan tarjima qilinganda – “Ezgu qonun Oq nilufarning sutrasi” ma'nasini anglatadi. Bu maxayananing nazm va nasrda yozilgan dastlabki va hurmat qilinuvchi matnlaridan biridir. Amidaizm maktabi asosini Buddha Amidaga (Amida – Amitabxa Buddasining yaponcha nomi) ishonish tashkil etadi. Qator omillar amidaizmning yapon aholisi, ayniqsa, qishloq aholisi orasida juda ommalashishiga olib keldi: 1) sig'inish marosimining oddiyliigi. “Namu Amida Butsu” – ya'ni “Amida Buddaga shon-sharaflar” mantrasini doimiy qaytarish bilan ozodlikka erishish mumkinligi; 2) aqidalarning sodda va tushunarli ekanligi; 3) rohiblarning nikohga kirmaslik ahdining rad etilishi; 4) amida Buddasi haqida o'ziga tortuvchi afsonalar. Amida nomi ostida (Sukxavati – jannat yerlarini boshqaruvchi Buddha) Amitabxa Buddasi, ya'ni behad yog'du taratib turuvchi Buddha tushuniladi. Yapon dzen-buddizmi meditatsiyaga katta e'tibor beradi, uning tozalanish va dilning yorishishidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Dzen-buddizm Yaponiya sarhadlaridan ancha chetga chiqqan va ijodiy intelligentsiya orasida juda ommalashgan.

Buddizmning Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda Kushonlar davlati bilan bog'laydilar. Buddizmning asosiy yo'nalishlaridan biri Sarvastivada Baqtriya va Sug'diyona erlarida keng tarqalgan edi. Baqtriya Afg'onistondagi Hindiqush tog'i va Oksus (Amudaryo) daryosi o'rtasidagi hududda bo'lib, Afg'on Turkistonini va hozirgi Turkmaniston hududining bir qismini o'z ichiga olgan. So'g'diyona asosan Oksus va Yaksart (Sirdaryo) daryolari o'rtasidagi hududni o'z ichiga olgan va hozirgi Tojikiston, O'zbekiston va ehtimol, Qirg'izistonning ba'zi bir hududlarini qamrab olgandi. Mil.avv. I asrning o'rtalarida u Kashmirdan boshlab shimol tomondan to Sharqiy Turkistondagi Tarim daryosi havzasining janubiy qismigacha cho'zilib ketgandi. Eramizning I asri oxirlariga kelib, ushbu hududlarning katta qismi Hindistonning shimoli-g'arbida to'plangan xunnulardan kelib chiqqan Markaziy Osiyo xalqlari joylashib olgan Kushon imperiyasi tarkibiga qo'shilib ketadi. Kushon qiroli Kanishka Sarvastivadaning homiysi bo'lgan va o'zi hukmronlik qilgan davrda Markaziy Afg'onistondagi Bavian, shuningdek, Ajinatepada, Qoratepada va Termiz shahri yaqinidagi ba'zi bir

joylarida buddizmga oid ulkan g'or monastirlari va ilmiy markazlar qurdiradi. Shuningdek, Kanishka podsholik qilgan vaqtda Kashmirdagi Sarvastivada matnlari Ladaxga tushib qoladi. Matnlarni sanskrit tilida yozish ishlari tugatiladi va ularni xutan tiliga tarjima qilish ishlari boshlab yuboriladi. Markaziy Osiyodagi barcha buddizm matnlari sanskrit tilida yozilgan.

Hozirgi vaqtda buddizm butun dunyo bo'ylab tarqalgan. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari tarixchi, arxeolog, san'atshunos, sharqshunos, faylasuf va dinshunoslar tomonidan o'rganilmoqda⁴. 1927-yilda Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasi (TAKE) Qoratepa va Chingiztepa balandliklarida ikkita yirik buddizm ibodatxonalarini topdi va yunon-buddizm me'morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o'nlab joylarni qayd etdi. Ayritom shaharchasining o'rta asrga qadar bo'lgan davri haqidagi batafsil ma'lumotlar VII asrda yashab o'tgan Xitoy ziyoratchisi Syuan-Tszyan tomonidan qoldirilgan. Ko'hna shaharning sharq tarafida aftidan buddizm stupasiga o'xshash minora shaklidagi xom g'ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan. 1933-yilda akademik M.E.Masson xom g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlari ichida haykal, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar borligini aniqladi: "Ostida Buddha nurlangan daraxt ramzidagi besh qavatli loydan yasalgan chaytya, u odatda diniy marosimning idishi – relikvari ustida bo'lgan yoki stupaning sirtqi qismi bo'lib xizmat qilgan; yana ustida palmetta tasvirli gardish ushlagan o'smir ifodalangan tosh topilgan bo'lib, aftidan, u yigit donator–ibodatxona xizmatchisi bo'lgan; buddistlarning sevimli tasviri – loydan yasalgan qo'y kallasi; loydan yasalgan stolchalar – diniy marosim buyumlari uchun poya hisoblanib, ularga Buddaning o'tirgan holdagi haykal-namunalari qo'yilgan. Shuningdek, ibodat uchun belgilangan quyidagi idishlar topilgan: yon jo'mragi bo'lgan shar shaklidagi ko'za, ensxoy turidagi ko'zacha – bu aftidan qadim zamonlarda xudoga atab ichimlik ichish va diniy marosimlarda yuvinish uchun xizmat qilgan, isiriqdonlar ham bo'lgan. Naqshinkor mavzulardan ba'zilar tabiat kuchlarini ilohiylashtirish bilan bog'liq an'anaviy ramzlarni tasvirlash hisoblangan: muqaddas daraxt, osmon

yoritqichlari (quyosh va yulduzlar), buddizm bilan bog‘liq ramziy ifodalar – sopol parchasidan biriga yasalgan Buddha tovonining tasviridir”⁵.

Hozirda Toshkentdagi O‘zbekiston tarixi Davlat muzeyi ekspozitsiya zallarida Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepada topilgan yodgordliklar saqlanmoqda. Eng mashhur namunalari: VIII asrga taalluqli terrakotali Buddha haykalchasi (Qorovultepa), Buddaning oltin suvi yuritilgan haykali va ikkita bronza shamdon (Zartepa), Buddha antipodlari. Din himoyachilari sifatida ular o‘zining qo‘rqinchli ko‘rinishlari bilan odamlarni dunyoviy havas va gunohlardan qo‘rqitgan, xudojo‘ylarda ularga nisbatan g‘azab uyg‘otgan (Quva).

1950-yilda Shri-Lankada buddistlik maktablari va unga oid hozirgi tashkilotlarning yirik birlashmasi – Umumjahon buddistlar jamiyati (UBJ) tashkil etildi. Hozirgi vaqtda uning shtab-kvartirasi Bangkok (Tayland)da joylashgan bo‘lib, tashkilot nizomiga binoan butunjahon buddist jamoalariga madaniy-ma’rifiy faoliyatda amaliy yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi, u shuningdek, rohiblarga buddizm sofliqini saqlash uchun siyosiy faoliyatdan voz kechishni maslahat beradi.

Asosiy xulosalar

- Buddizm ta’limoti to‘rt oliyjanob haqiqatga asoslangan: 1. Azob-uqubat mavjudligi haqida. 2. Azob-uqubatlarning sababi haqida. 3. Azob-uqubat sabablarini yo‘qotish haqida. 4. Azoblarga chek qo‘yish yo‘li to‘g‘risida. Sakkiz bosqichli yo‘l: (1) to‘rt olijanob haqiqatlarni to‘g‘ri tushunish; 2) to‘g‘ri niyatlar qilish; 3) to‘g‘ri so‘zlash; 4) to‘g‘ri ishlar; 5) to‘g‘ri hayot kechirish; 6) to‘g‘ri tirishish; 7) to‘g‘ri diqqat-e’tibor; 8) to‘g‘ri mushohada).
- Ilk buddizm ikki asosiy tarmoqqa bo‘lindi: xinayana (“Kichik g‘ildirak”) va maxayana (“Katta g‘ildirak”). Buddizm Markaziy Osiyo hududida mil.avv. III asrdan boshlab paydo bo‘ldi. Sarvastivada buddizmning asosiy yo‘nalishlaridan biri, Baqtriya va Sug‘diyona yerlarida keng tarqalgan edi.

- Buddizm axloqiy ta'limoti, axloqiy kodeksi – "Pancha shila" – Buddaning besh vasiyati: 1. Qotillikdan saqlanish. 2. O'g'rilikdan saqlanish. 3. Zinodan saqlanish. 4. Yolg'ondan saqlanish 5. Mast qiluvchi narsalardan saqlanish.

- O'zbekiston hududidagi Ayritom, Qoratepa, Fayoztepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepada topilgan buddizm yodgorliklari tarixchi, arxeolog, san'atshunos, sharqshunos va dinshunoslar tomonidan o'rganilmoqda.

Nazorat uchun savollar

1. Buddizm qachon va qayerda paydo bo'lgan?
2. Buddizmning to'rtta oliy haqiqati nimani anglatadi?
3. Sakkiz bosqichli yo'l nimadan iborat?
4. Buddizm braxmanizmdan qanday tushunchalarni qabul qilgan?
5. Pancha-shila axloqiy qoidalari nimalardan iborat?
6. Buddizmdagi xinayana va maxayana yo'nalishlarining farqi nimada?
7. Buddizmdagi meditatsiyaning mohiyati nimada? Unga qanday erishiladi?
8. Dzen-buddizmda meditatsiya amaliyoti nimaga yo'naltirilgan?
9. Buddizm amaliyoti qanday psixologik usullarni qo'llaydi?
10. Buddizmning O'zbekistondagi qanday asosiy yodgorliklarini bilasiz?

Buddizm mavzusi adabiyotlari

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi.- T.: O'zMU, 2004.-208-b.
2. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: Mutaxassislik fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent: TIU, 2007. –48-b.
3. Muhamedov N., Alimova M. Dinshunoslik fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: 2017, – 360-b.
4. Дервиш Р.А. памятники истории, религии и культуры в Узбекистане. Т.- 1994
5. Ибрагимов Э. Источники мировых религий: учеб.-метод. пособие для студентов с русским языком обучения. Т.: ИПО "ТИУ". 2011.- 115 с.

6. Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Дону.- "Феникс"; 1996 - 672 с.
7. Хамфриз К. Дзен-буддизм: пер.с англ. М.:ФАИР-ПРЕСС, 2002
8. Nizomiddinov N., Qodirov A. Lectures in English on Religious and Philosophic Teachings of Southeast Asian Countries.-Т.: „Тошкент ислом университети“ нашриёт-матбаа бирлашмаси.2016.144 p.
9. Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008

Buddizm mavzusi manbalariga havola

¹ Андросов В.П. Индо-тибетский буддизм. Энциклопедический словарь: монография. М.: Российская академия наук. Ин-т востоковедения. 2011.- С.17, 42

² Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 146; 274.

³ Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 146; 274

⁴ Дервиш Р.А. памятники истории, религии и культуры в Узбекистане. Т.- 1994; Ибрагимов Э. Источники мировых религий: учеб.-метод. пособие для студентов с русским языком обучения. Т.: ИПО "ТИУ". 2011.- 115 с. ; Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник.- Т.1999; Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и право.- Т.2000; Кэндзо Кавасаки. Буддийское изобразительное искусство Северной Бактрии – Тохаристана I-IV вв. н.э. (к проблеме интерпретации буддийских образов

по археологическим материалам и письменным источникам). – Дисс. на соиск. уч. ст. канд. искусств. н. – Т., 2000 г. История религий народов Центральной Азии. / Отв. редактор: Ш.А.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006. – С.62-67. Ставинский Б.Я. Судьбы буддизма с Средней Азии. По данным археологии. М., 1998 г

⁵ Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 157-158

3.2. Xristianlik

Mazmun. *Xristian ilohiyoti. Yakka xudoning uch qiyofasi: Ota-xudo; O‘g‘il-xudo; Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar – ortadoks (pravoslav), katolitsizm, protestantizm. Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi.*

Xristian ilohiyoti | Xristianlik (grek tilidan christos “muqaddas yog‘ surtilgan”, ya’ni oliy maqomga ko‘tarilgan shaxs, “Xaloskor”) milodning I asrida Rim imperiyasi tarkibidagi Falastinda, yahudiylikka e’tiqod qiluvchi jamoa orasida paydo bo‘lgan. Uning vujudga kelishidan oldin Falastin yahudiylari bobil, fors va makedoniyalik bosqinchilar istibdodini boshidan kechirgan edilar (mil.avv.VI-II asrlar). Undan keyingi davrda ham yahudiylar mustaqilligi nisbatan uzoq davom etmadi. Bu oliy rutbali ruhoniylar hukmronligi davri edi. Mil.avv. 140-yildan Yahudiya davlati o‘z chegaralarini kengaytirib, aholini yahudiylikka o‘tkazish faol darajada olib borildi. 63-yilda Pompey boshchiligidagi qo‘shin Yahudiyani Rim imperiyasiga qo‘shib oldi. Mustaqillikni yo‘qotish yahudiylar uchun juda qayg‘uli bo‘ldi. Ular buni diniy taqiqlarni buzganliklari uchun Xudoning jazosi, deb hisoblashardi. Shuning uchun Falastin jamiyatining o‘rta tabaqalarida yahudiy dinining asl mohiyatini saqlash uchun harakat boshlandi. I asr boshlarida jamiyatning past tabaqalari orasida radikal harakatlar boshlandi, ular fariseylar

bilan birga Rim imperiyasi va ular qo‘llab-quvvatlab turgan mahalliy zodagonlarga qarshi kurash boshladilar. Rimga qarshi 66-70 va 132-135-yillardagi qo‘zg‘alonlar bostirildi, diniy qadamjolar buzib tashlandi. Shu tarzda jamiyatning mulkiy tengsizligi, tabaqalanishi, ma’naviyatning inqirozi, loqaydlik, ruhiy tushkunlik davom etdi. Natijada Najotkor – Mashiax “yahudiylar shohi”ni kutishga oid mistik kayfiyat kuchaydi.

Bunday jarayonlar nafaqat Falastinda, balki Rim imperiyasiga siyosiy va madaniy ta’siri tobe bo‘lmagan xalqlar – parfiyaliklar, germanlar, gotlar, slavyanlar orasiga tarqaldi. Rimda O‘rta yer dengizi mamlakatlaridan olib kelingan arzon qullarning ko‘p ayishi insonning qadr-qimmatini pasaytirib yubordi, mehnat va xizmatlar bozoridagi raqobatni kuchaytirdi. Bosib olingan yerlardan olib keltirilgan boyliklar mol-mulk bozorida ham raqobatni yuzaga keltirdi. Mahalliy hunarmandlar kasod bo‘lishi va erkin dehqonlar o‘rni qullar tomonidan egallanishi ushbu tabaqalarning qashshoqlashuviga olib kelgan. Bosib olingan turli xildagi milliy va diniy madaniyatga ega hududlarda davlatlar begona siyosat va mafkura tufayli o‘zlarining noyob jihatlarini yo‘qota boshladilar. Imperiyaning kuchli hokimiyati oldidagi ojizlik mahalliy aholining sharqiy dinlarda rivojlangan sehrgarlik, okkultizmga qiziqishni kuchaytirdi. Turli mistik qarashlar, fol ochish kabilar kuchaydi, Xaloskorning kelishi yaqinligidan xabar beruvchi voizlar soni ko‘p aydi.

Iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy inqiroz bilan kurashni yengillashtirish uchun Rim imperiyasi aholisi kasb-kori, dini, ijtimoiy maqomi, qo‘ni- qo‘shnichiligi, yurtdoshligi kabi belgilarga asosan birlashdilar. ko‘p incha bu guruhlarining o‘z moddiy jamg‘armasi bo‘lib, ular yig‘inlar o‘tkazib turishar edi¹. Jamiyatdagi bunday ijtimoiy tashkillashuv xristianlikning paydo bo‘lishini yengillashtirdi va uning tez tarqalishini ta’minladi.

Falastin va O‘rta yer dengizi yahudiylari va greklari orasida tarqalgan xristianlik o‘zi paydo bo‘lgan birinchi o‘n yilliklardayoq boshqa xalqlar ichida ham tarafdorlariga ega bo‘ldi. Xristian konfessiyalari uchun umumiy g‘oya –

dunyo va insoniyatning xaloskori, odam qiyofasida mujassamlashgan Xudo, chunonchi O'g'il-xudoga bo'lgan ishonch hisoblanadi.

Dastlabki xristianlik jamoalarining a'zolari odatda kechqurunlari Sirli kecha xotirasi uchun suhbatlar va ibodatga yig'ilganlar. Iso payg'ambar shogirdlari bilan birodarlarcha ovqatlanayotgan paytda nonni sindirgan va vinoni tatigan. Isoning vafotidan keyin birodarlarcha ovqatlanish Isoning shogirdlar davrasida ko'rinmasdan qatnashayotganining timsoli sifatida qabul qilina boshlandi. Ularni umumiy ta'limot va havoriylar va'zlari birlashtirib turgan. Ilk jamoada ko'p incha xoch va ikona (xristianlik mavzuiga oid rasm)lar bo'lmagan; birodarlik stoli atrofida xristianlar Iso payg'ambarning –tanasi va qoni|| bo'lmish non va vinoni iste'mol qilib, Xudoning mujassamlashgani ramzi bo'lgan unga qo'shilish sirli marosim (prichashchenie)ni ado etganlar. Ilk xristianlik axloqi shaxsiy manfaatdan ko'ra umumiy manfaatlarni afzalroq ko'rishni talab etadi. Tahsinga loyiq ishlardan biri – bu qulni asirlikdan ozod qilish edi. “Qulning pulini to'lab sotib olish – ruhni qutqarishdir” degan g'oya xristianlarning Isoning insonlarning gunohlarini yuvuvchi qurbon ekanligiga ishonchi bilan bog'liq. Rim imperiyasining ulkan hududi bo'ylab tarqalib ketgan jamoalar xristianlik muhabbati va tenglik kabi ommabop g'oyalari tufayli o'zlarining birligini his qilar edilar, xristian dini jamiyatning turli qatlamlari orasida tarqala boshladi. Shu bilan bir vaqtda ushbu g'oyalar uchun dastlabki xristianlar hokimiyat tomonidan quvg'in qilinganlar. ko'p chilikni qatl qilib yuborishar, birovlarning mulklari olib qo'yilar, kimlardir cho'llarga qochib ketardilar va ular ilk xristianlik rohibligiga asos solganlar.

Ulkan Rim imperiyasiga o'zi hukmron bo'lgan hududlardagi xalqlarni birlashtirib turadigan yagona din kerak edi. Mazkur mintaqa milliy dinlarining hech biri bu talabga to'laqonli javob bera olmas edi. 312-yilda xristianlarga o'zlarining yangi dinini targ'ibot qilishga ruxsat beruvchi Milan edikt (oliy farmon)i e'lon qilindi. 325-yilga kelib esa imperator Konstantin xristianlikni Rim imperiyasining davlat dini, deb e'lon qiladi. Shundan so'ng 391-yilda imperator Feodosiy majusiylar ibodatini taqiqlash to'g'risida farmon chiqarganidan so'ng xristianlikning ommaviy tarzda tarqalishi boshlandi.

Xristian dinining paydo bo'lishi, tarqalishi antik davr sivilizatsiyasining chuqur inqirozi, uning asosiy qadr-qimmatining zaiflashish davriga to'g'ri keldi. Ilk xristianlik jamoasi Rim ijtimoiy tuzumidan norozi bo'lgan ko'p lab odamlarni o'ziga jalb etdi. U gunohlarga botgan tashqi dunyoni o'zgartirolmagan o'z tarafdorlariga "ichki qutqaruv", ya'ni din orqali xristianlarning o'zini o'zgartirish yo'lini o'rgatdi. Xristianlar yahudiylikning bir qator qarashlarini: yakkaxudolik g'oyasini; xaloskorlik, ya'ni yer yuzida o'z saltanatini o'rnatadigan Xaloskor (Messiya)ga ishonchni; esxatologiya, ya'ni "Oxir zamon" nazariyasini; xiliazm, ya'ni Isoning qayta dunyoga kelishi, ezgulik kuchlari yovuzlik kuchlari ustidan g'alaba qozongandan keyin ming yillik hukmronlik davri boshlanishi haqidagi ta'limotni qayta anglab o'zgartirdilar⁶. Bundan tashqari xristian teologlari antik davr falsafiy an'alarini rivojlantirib, uning doirasida cherkov patristikani (yunon va lot. pater – ota), ya'ni II-VIII asrlar diniy, falsafiy va siyosiy- ijtimoiy ta'limotlar to'plamini ishlab chiqdilar.

Xristian adabiyoti turli janrlarda yaratilgan. Bibliyaning birinchi qismi bo'lmish Eski Ahd – yahudiylikning xristianlar tomonidan tarjima qilingan muqaddas kitoblaridir. Bibliyaning ikkinchi qismi – Yangi Ahd xristianlar tomonidan e'zozlanadi, ular uchun juda muhim diniy manba hisoblanadi. Yangi Ahd tarkibiga kiritilgan asarlar: to'rtta "Xushxabar", "Havoriylar faoliyati", havoriylarning 21 "Maktublar"i vahavoriy Ioanning "Apokalipsis" nomli ahiysini o'z ichiga qamrab oladi². Bibliya va muqaddas rivoyatlarga qo'shimcha ravishda IV-VIII asrlarda o'tkazilgan yetti Umumjahon Soborlari qarorlari, shuningdek, o'sha davrlar taniqli cherkov ruhoniylari asarlari hisoblanadi.

Yakka xudoning uch qiyofasi | Eski Ahdga ko'ra Xudo – mutlaq bilim va qudrat egasi, barcha jonzotlar va narsalarni yaratuvchisidir. Xristian dini Eski Ahddagi yagona Xudo g'oyasini rivojlantiradi: Xudo bitta bo'lsa ham u uch shaklda: Ota-Xudo, O'g'il-Xudo va Muqaddas Ruh shaklida namoyon bo'ladi. Shunday qilib xristianlik ilohiyoti muqaddas Uchlik haqidagi ta'limotga asoslanadi. Cherkov xristian ta'limotining

asosiy qoidalari ishlab chiqilgan. Nikey – (325-y. va Konstantinopol – 381-y). Butunjahon soborlarida 12 tamoyil (qism)dan iborat bo‘lgan quyidagi ta’limot asoslari qabul qilindi:

1. Olamni yaratuvchisi bo‘lmish Yakka xudoning Ota-Xudo, Muqaddas Uchlikning birinchi a’zosi haqida.
2. O‘g‘il-Xudo ya’ni Iso Masih haqida.
3. Xudoning mujassamlashuvi haqida. Unga ko‘ra Iso Masih pokdomon homiladorlik yo‘li bilan Bibi Maryam tomonidan dunyoga keltirilgan inson bo‘lish bilan birga, Xudo ham bo‘lgan.
4. Gunohni yuvish haqida, ya’ni Iso Masihning azoblanishi va o‘limiga ishonish.
5. Iso Masihning qayta tirilishi haqida.
6. Iso Masihning jisman osmonga ko‘tarilgani haqida.
7. Isoning kelajakda ikkinchi marta yerga tushishi haqida.
8. Muqaddas Ruhga ishonish, uning Xudo-Otadan (katolitsizmga ko‘ra shu bilan birga Xudo-O‘g‘ildan) taralishi haqida.
9. Cherkovga yagona muqaddas, umumjahon, apostollik sifatida munosabatda bo‘lish.
10. Cho‘qintirishning —gunohlarni yuvish sifatida sirli ma’rosim ekanligi haqida.
11. Hamma o‘lganlarning kelajakda umumiy tirilishi haqida.
12. Mangu hayot haqida.

Xristianlik ta’limotining asosiy qismlarida muqaddas Uchlikning yagonaligi va Xudoning mujassamlanishi haqida so‘z yuritiladi. Bu masalada pravoslav va katolik cherkovlarida kelishmovchilik mavjud³. Birinchi tamoyilga binoan ilohiyotning ichki hayoti – bu Uch birlikning mujassamlashuvi, ya’ni Otaning (boshlang‘ichsiz ibtido), O‘g‘il-Xudo, ya’ni Logos (mazmuniy tamoyil) va Muqaddas Ruhning (tiriltiruvchi tamoyil) munosabatlaridir. O‘g‘il-Xudo Otadan “tug‘iladi”, Muqaddas Ruh Otadan “taraladi” (katoliklar: “va Xudo-O‘g‘ildan”,

degan iborani qo‘shadilar). Bunda “tug‘ilish” va “chiqish” xristianlikda vaqt jarayonida emas, balki doimiydir, chunki Uchlikning barcha shaxslari doimo mavjud bo‘lganlar, ya’ni ular “mangu”dirlar va qadr-qimmatini bo‘yicha teng, ya’ni “teng qimmatli” deb sanaladi.

IV asrdan boshlab xristianlik cherkovi davriy ravishda oliy darajadagi ruhoniylarni Jahon xristianlarining “Sobor” deb ataluvchi majlislarga to‘plab turadi. Ushbu soborlarda diniy ta’limot tizimi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan, qonuniy normalar va ibodat qilish qoidalari shakllantirilgan, bid’atlar bilan kurashish usullari belgilangan. 325-yilda Nikeyda bo‘lib o‘tgan Umumjahon xristianlarining birinchi Sobori diniy ta’limot asosini tashkil etuvchi asosiy aqidalarning qisqacha to‘plamini qabul qilgan va qonunlashtirgan.

Xristianlar cherkovning xatosizligi haqidagi g‘oyani rivojlantirdilar. Keyinchalik xristianlik dinining asosiy tamoyiliga aylangan bu g‘oyaga ko‘ra alohida xristianlar adashishlari mumkin, biroq cherkov xatodan xolidir. Xristianlikga ko‘ra o‘g‘il-Xudo, ya’ni Iso yerga azob-uqubat, o‘limni qabul qilish va bu orqali odamlarning dastlabki gunohini yuvish uchun kelgan, inson esa Xudoning “timsoli va o‘xshashi” sifatida yaratilgan. Biroq ilk odamlar tomonidan sodir etilgan gunohkorlik insonda dastlabki gunoh dog‘ini qoldirib, ushbu timsolni buzdi. Iso xochdagi azoblar va o‘limni qabul qilib, odamzod uchun o‘zini qurbon qilib, odamlarning bu gunohini yuvib qo‘ydi. Shuning uchun ham xristianlik azob-uqubatlarning tozalovchi rolga ahamiyat berib, insonni mashaqqatlanib o‘z nafsini tiyishiga undaydi, hamda bu bilan o‘zidagi va atrof olamdagi yovuzliklar ustidan g‘alaba qilishini ta’kidlaydi.

Manaviy-axloqiy poklikni saqlab qolish uchun xristian cherkovi ilohiy kuchlarni inson hayotiga olib kirishga da’vat etuvchi e’tiqod amaliyoti – sirli marosim ibodatlarini ishlab chiqdi. Ular: cho‘qintirish; non va vino totish (yevxaristiya); ruhoniylikka qabul qilish (ordinatsiya); cherkovda gunohlariga tavba qilish marosimi; chaqaloqni cho‘qintirishdan so‘ng bo‘ladigan marosim, podshohga toj kiydirish marosimi paytida hayotda bir marta o‘tkaziladigan tanaga xoch shaklida xushbuy miro yog‘ini surish marosimi; nikoh marosimi; o‘layotgan

yoki og‘ir yotgan odamning badanini cherkovlarda ishlatiladigan maxsus eley (zaytun) yog‘i bilan moylash marosimi va b.

Xristianlikka ko‘ra har bir sirli ibodat xudoning bir inoyatini keltiradi. Masalan, eley nomli moyni surish qalb va tanani gunohlardan tozalab, xristian kishini poklanishiga, og‘ir kasal bo‘lgan insonning tuzalishiga yordam beradi, o‘layotgan xristianga taskin beradi, deya ta’kidlanadi. Protestantlarning aksar qismi esa bu sirli marosimni faqatgina ramziy tarzda qo‘llaydilar. Non va vino totish marosimi (prichashcheniye)ning mazmuni shundaki, xristian dindor non va vino shaklida Isoning tanasi va qonini iste’mol qiladi hamda u bilan sirli tarzda birlashgan holda mangu hayot kafolatini oladi. Muqaddas miro moyini surish marosimi – tanaga xushbo‘y moy (miro)ni surish orqali xristianlarga cherkov a‘zosi bo‘lishni hamda Muqaddas ruhning inoyatini beradi. Tavba qilish sirli marosimi – bu Iso nomidan xristianlarning gunohlarini kechirishdir. Ruhoniylik faoliyati bilan shug‘ullanishga ijozat berish marosimi – cherkov xizmatchilariga ruhoniylik bilan shug‘ullanish vakolatini beradi. Bu marosim faqatgina yepiskop tomonidan o‘tkaziladi. Nikoh sirli marosimi cherkovda o‘tkazilib, cherkov va Xudo o‘rta sidagi uzilmas bog‘liqlik kabi er- xotinning nikohi ham abadiy bo‘lishini bildiradi.

Xristianlikda asosiy oqimlar | Xristianlikdagi bo‘linish qator ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy omillar bilan belgilangan bo‘lib, ular keyinchalik diniy ta’limot masalasida kelishtirib bo‘lmaydigan bahslar bilan birlashib ketgan. Xristianlik Rim imperiyasining ulkan hududi bo‘ylab tarqalgan edi. Bunda u ko‘p lab mahalliy diniy e’tiqodlar, milliy madaniyatlar bilan o‘zaro aloqaga kirishgan hamda mintaqaviy ijtimoiy munosabatlar va bu yerdagi xalqlarning mentalitetiga moslashgan. V asrda Rim imperiyasi Sharqiy va G‘arbiy qismlarga ajralganidan keyin dastlabki avtokefal, ya’ni mustaqil cherkovlar vujudga keldi. Bu kabi bo‘linishlar uzoq vaqt davom etgan. Ba’zi cherkovlar Jahon xristianlarining Sobori qarorlarini pisand qilmaganlar, ular tomonidan tasdiqlangan aqidalarni tan olmaganlar. Imperiyaning G‘arbiy va Sharqiy qismlarida turlicha ijtimoiy tuzilish hamda davlat va cherkov o‘rta sida turlicha o‘zaro munosabatlar mavjud bo‘lgan.

Sharqiy xristianlik markazi Vizantiyada bo‘lib, u kuchli markazlashgan hokimiyat sharoitida rivojlandi. Shu tarzda ruhoniylar davlat hokimiyati obro‘cini tan olib uni qo‘llab-quvvatlaganlar.

G‘arbiy qism esa aksincha, mayda-mayda knyazliklardan tashkil topgan edi. Knyazlar g‘arbiy xristian cherkoviga o‘z hokimiyatini kuchaytirish, uning obro‘cidan foydalanish uchun murojaat qilishar edi. IX asrda Rim va Vizantiya o‘rta sida hududiy kelishmovchiliklar vujudga keldi. Buning ustiga ichki nizolar va tashqi xavf-xatarlar sharoitida

murosasiz aqidaviy bahs-munozaralar yuz berar edi. 1054-yilda yakuniy bo‘linish yuz berdi, xristianlikda ikki oqim: pravoslav va katolik yo‘nalishlari vujudga keldi.

1453-yilda Vizantiya imperiyasi qulaganidan so‘ng sharqiy Yevropa yerlari *pravoslavlar* hududiga aylandi. U asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq mamlakatlari va Bolqonda tarqalgan. “Pravoslav” so‘zi yunoncha “orthodóxia” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “to‘g‘rilik” ma‘nosini anglatadi. Bu so‘z ilk bora II asrda yozilgan xristian mualliflari asarlarida uchraydi. Pravoslavlikning ta‘limoti va ibodatlari IV-XI asrlarda Vizantiyada shakllandi. Pravoslav cherkovi bayram va “post”ga katta ahamiyat beradi. Post odatda cherkovning katta bayramlaridan oldin keladi. Post vaqtida xristianlar yovg‘on, go‘shtsiz, sutsiz, sabzavot va baliqdan tayyorlangan ovqatni iste‘mol qiladi. Uning mohiyati – inson ruhining poklanishi va yangilanishi bo‘lib, diniy hayotdagi muhim voqealarga tayyorlanishdir.

Rus yeridagi udumlar amaliyoti normalari haqidagi nizolar XVII asrda uning parchalanishiga olib keldi, natijada pravoslavlar cherkovidan eski rasm-rusumchilikni qo‘llab chiqqan “eski e‘tiqodlilar” ajralib chiqdi. Ularning obro‘qozongan vakillaridan biri protopop Avvakum aynan insonni cherkovning haqiqiy hayoti markazi, deb hisoblagan. U rasmiy cherkov va patriarx islohotlari qusurlarini fosh qilib bergan. Shuning uchun Avvakum la‘natlangan, qarq‘ishlangan va cherkovdan haydab yuborilgan hamda o‘z safdoshlari bilan birga surgunda yondirib yuborilgan.

Katolik yo'nalishi. Xristanlikda yana bir yirik yo'nalish katolik ta'limoti hisoblanadi. "Katolik" so'zi barchaga, butun dunyoga taalluqli ma'nosini bildiradi. U G'arbiy, Janubi-G'arbiy, Markaziy va Sharqiy yevropada, Ukraina va Belorussiyaning g'arbiy hududlarida, Lotin Amerikasida va AQShda keng tarqalgan. Katolik ta'limoti xristian dinining yo'nalishlaridan biri sifatida uning asosiy aqidalarini va udumlarini tan oladi, biroq diniy ta'limotida, sig'inishda, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bibliya katolik diniy ta'limotning asosi. Biroq pravoslav yo'nalishidan farqli ravishda, katolik cherkovi nafaqat dastlabki yettita Butun dunyo xristianlari yig'inlarining, balki keyingi barcha yig'inlarning qarorlarini, bundan tashqari papalik nomalari va qarorlarini ham Muqaddas noma, deb hisoblaydi. Bibliyaning lotincha tarjimasiga kiritilgan barcha kitoblarini (Vulgatlar) muqaddas deb qabul qilgan.

Katolik cherkovida tashkiliy jihatdan Rim papasining katolik cherkoviga rahbarlik qilishi, ya'ni qat'iy markazlashtirilgani bilan farq qiladi. U e'tiqod va axloq masalalari bo'yicha aqidalarni belgilab beradi va uning hokimiyati Butun dunyo xristianlari yig'inlarining hokimiyatidan ham yuqoridir. Xristian erkakni (ayolni) muqaddas, deb e'lon qilish, avliyo darajasiga ko'tarish haqidagi masalani katolik ta'limotida maxsus kardinallar Komissiyasi hal qiladi. Uning a'zolaridan biri, ya'ni "Xudoning advokati" deb atalgani muqaddaslikka nomzodni tanlaydi, so'ngra uning foydasiga dalillar keltiradi. "Iblisning advokati" deb ataluvchi boshqa a'zo esa muqaddaslikka nomzodning kamchiliklarini aniqlab beradi.

Katolik ta'limotida ruhning xalos bo'lishida cherkovning ahamiyati haqida o'ziga xos ta'limot shakllandi. E'tiqod va ezgu ishlar xalos bo'lishning asosi, deb sanaladi. Katolik ta'limotiga ko'ra cherkov Iso Masix, Bibi Maryam, muqaddas taqvodor xristianlar tomonidan yaratilgan ezgu ishlar "zahirasi" ega. Katolik cherkovi ushbu xazinadan foydalanish, u yerdan kim nimaga muhtoj bo'lsa, o'sha narsani berish, ya'ni gunohlariga tavba qilganlarni kechirish huquqiga ega. Buning natijasida pul uchun yoki cherkov oldida biror xizmati uchun gunohlarini avf etish haqidagi indulgeniya ta'limoti shakllandi. Shuningdek, o'lganlar uchun duo o'qish qoidalari va Papaning ruh "purgatory"da, bo'lish muddatini qisqartirish

huquqi kabilar paydo bo'ldi. Purgatory – katoliklar ta'limoti bo'yicha jannatga kirishdan oldin o'lganlarning joni gunohdan poklanadigan makon haqidagi ta'limot bo'lib, I asrdayoq shakllangan va 1438-1445-yillarda Florentiyskiyig'ini tomonidan qabul qilingan. Ruhning shu joyda bo'lish muddati o'lganlarning yerdagi qarindoshlari va yaqinlari ularning xotirasiga bag'ishlab qilgan ezgu ishlari, yod etishlari, cherkov foydasiga xayr-ehsonlari bilan qisqartirilishi mumkin. Katolik ta'limotining o'ziga xos xususiyatiga Bibi Maryamni qadrlab, unga sig'inish ibodati kiradi. G'arb cherkovlarining ta'limotida Bibi Maryamning jisman arshi a'lga ko'tarilishi haqidagi aqida tasdiqlangan. Ruhoniylikning nikohsizligi (tselibat) katolik ruhoniylarga uylanish, rohibalarga esa erga tegish imkonini bermaydi. Rohiblik katolik cherkovida muhim o'ringa ega hisoblanadi.

Katoliklarda Rojdestvodan avval tutiladigan post "Advent" deb ataladi. U Muqaddas Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanba kunida, 30 noyabrda boshlanadi. Iso Masihning Tug'ilgan kuni (Christmas, Rojdestvo) xristianlarning eng tantanali bayramidir.

Protestantlik – xristian dinining yirik yo'nalishlaridan biri. U bir qator Yevropa mamlakatlarida O'rta asrlar katolitsizmida vujudga kelgan Reformatsiya (lotincha reformatio - o'zgarish, tuzatish) va islohotchilar tomonidan Bibliya g'oyalariidan chekinish, deb izohlangan jarayonlarga munosabat sifatida yuzaga kelgan. O'rta asrlarda G'arbda poplik mafkurasi va amaliyoti dunyoviy hokimiyat (ayniqsa, Germaniya imperatorlari tomonidan) hamda jamiyatning pastki tabaqalarida (Angliyada lollardlar, Chexiyada gusitchilar harakati) ham katta norozilikka sabab bo'ldi. XVI asrga kelib ushbu norozilik Reformatsiya harakatida o'z ifodasini topdi.

Oksford universitetining professori Djon Viklif (1320-1384) Rim papalarining Angliyadagi soliq yig'ishlariga qarshi chiqib, ingliz cherkovining fuqarolik ishlarida ingliz qiroliga bo'ysunishi hamda Muqaddas Yozuvning cherkov naqllaridan ustun turishini talab qiladi, cherkovning Bibliya g'oyalari ruhida qayta shakllanishi yoqlab chiqadi. Ushbu nizomlarning ko'plarini ingliz "lollard"lari – cherkov ishida qatnashuvchi dunyoviy odamlar, katolitsizmni

isloh qilishga tarafdor bo'lganlar qo'llab-quvvatladilar. Praga universitetining rektori Yan Gus (1369-1415) Dj. Viklif g'oyalari ta'siri ostida cherkovning boylikdan voz kechishi tarafdori bo'lgan va dindorlar ongini buzadigan indulgensiya savdosiga qarshi chiqqan. Buning uchun u 1415-yilda Konstanta Soborining hukmi bilan olovda yondirib yuborildi. Bu guschilar harakatini g'azabga keltirib uni kuchaytirgan. Buning natijasida 1443-yilning noyabr oyida katoliklar gusitlar bilan kelishishga majbur bo'lgan.

Lyuteranlik. Yan Gus yondirib yuborilgandan keyin yuz yil o'tib, Germaniya Vittenberg universitetining professori Martin Lyuter (1483- 1546) protestantlik cherkovining asosiy nizomlarini shakllantirdi va uni himoya qildi. Shuningdek, u indulgensiya bilan savdo qilishni tanqid qildi, ichki tavba qilish g'oyasini oldinga surdi, o'lganlarning joni gunohdan poklanadigan makon haqidagi ta'limotni, shuningdek, o'lganlar uchun duo qilish va muqaddas kishilarning xizmatlari evaziga (do'zaxdan) qutilib qolish imkoniyati haqidagi aqidalarni gumon ostiga qo'ydi. Qolaversa, u rohiblikni diniy xizmatning oliy shakli, deb bilmagan va inson Xudo bilan bevosita aloqada bo'lishi mumkin, deb hisoblagan. Martin Lyuterning o'z noroziligini 1517-yil 31-oktabrda Vittenberg cherkovi eshigiga katolitsizmni isloh etish bo'yicha 95 tezisni osib qo'yish orqali namoyon qildi. Lyuter ta'limotining asosiy qoidalari protestantlik yo'nalishlaridan biri – lyuteranlikning boshlanishiga asos bo'ldi. Tezislardan birida Lyuter gunohlardan tavba qilish faqat ruhoniy oldida afsus-nadomat chekishdan iborat emas, haqiqiy tavba qilish juda uzoq davom etuvchi jarayon, deb bilgan. Shuningdek, uning fikricha Xudo chin dildan tavba qilganlarning gunohlarini kechiradi va uni mangu azoblardan qutqaradi, bunga esa xristian kishi Papa yorlig'isiz ham umidvor bo'lishi mumkin. Lyuter ortidan borgan nemis knyazlari, Daniya, Shvetsiya hukmdorlari shunga o'xshash islohotlar o'tkazdilar va Anglikan cherkoviga asos soldilar.

Kalvinizm. Shveytsariyada XVI asrda protestantlik diniy ta'limotlaridan biri sifatida vujudga keldi va Fransiya, Niderlandiya, Angliyada keng tarqaldi. Uning kelib chiqishi fransuz Reformatsiyasining yirik arbobi Jan Kalvinga borib taqaladi.

Uning asosiy asari butun hayoti davomida to'ldirib va takomillashtirgan "Xristianlik dinidagi o'g'itlar" (1536-y.) bo'lib, u M. Lyuter g'oyalari ta'siri ostida dunyoga kelgan. Ilk Reformatsiya arboblardan farqli o'laroq, Kalvin uchun Yangi Ahd emas, balki Eski Ahd diqqat markazida bo'lgan. Kalvinizm e'tiqodning umumijammiy ramzi yo'q. Kalvin "oldindan belgilangan mutlaq taqdir" haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Unga ko'ra Xudo dunyo paydo bo'lgunga qadar odamlarni tanlanganlarga va mahkum etilganlarga ajratib qo'ygan. Biroq hech kim o'ziga tayyorlab qo'yilgan joyni bilmaydi. Kalvinistlarda cho'qinish xalos bo'lishning zaruriy sharti, deb qaralmaydi va ular xochni rasmiy ramz, deb hisoblamaydilar, ibodatxonalarda esa na ikonalar, na mahobatli rangtasvir namunalari bo'ladi. Shuningdek, ibodat qilishni musiqa bilan birgalikda bajaradigan lyuteranlardan farqli ravishda kalvinistlar ibodat paytida shamlar va musiqadan voz kechganlar. Fransiya kalvinistlari – gugenotlar XVI asrda katoliklar bilan davomli qonli urushlarni olib borganlar, buning epizodlari dunyoviy adabiyotda, rassomlikda, tilda ham keng yoritilgan. Natijada "Varfolomey kechasi" (1572-yil 24-avgust) ko'pincha muqaddas Varfolomey kuni bilan emas, balki katoliklar tomonidan gugenotlarning ommaviy o'ldirilishi tufayli esga olinadi.

Kongregatsionalistlar (lotinchadan congregatio – birlashish) qat'iy puritanlar (lot. puritas – pokizalik), ya'ni, axloq va tilni qattiq va pokiza saqlashga urinuvchilar hisoblanadi. Ular har bir kongregatsiya, ya'ni bir nizomga rioya qiladigan diniy jamoalar birlashmasining diniy e'tiqodda va shakllanishda to'liq avtonomiyaga ega bo'lish tamoyiliga asoslanadi. Kalvinistlardan farqli ravishda ular ibodatlarni o'tkazishga va voizlik qilishga barcha dunyoviy kishilarni jalb qiladi. Dunyoviy va diniy jamoaviychilik tamoyilini targ'ibot qiladi, shuning uchun butun jamoa xudoning marhamatini oladi, deb hisoblaydi. Taqdirning oldindan belgilangani haqidagi ta'limot va Bibliyaning benuqsonligi g'oyasi ular uchun kalvinistlardan farqli ravishda, muhim sanalmaydi. Kongregatsionalizm Buyuk Britaniya, Irlandiyada, AQShda keng tarqalgan.

Presviterianlar (yunonchadan presbyteros – keksa, oqsoqol) – o'rta miyona puritanlar, ya'ni o'ta sipo odamlardir. Shotlandiya parlamenti 1592-yilda ushbu

ta'limotni davlat ta'limoti sifatida qabul qilishga qaror qildi. Cherkovga jamoa a'zolari tomonidan saylanadigan presviter rahbarlik qiladi. Diniy jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadilar. Marosim presviter ibodati, targ'iboti, psaltirdagi qo'shiqlarni aytishdan iborat. Shuning uchun liturgiya (cherkovdagi eng katta ibodat) bekor qilinadi.

Baptizm (yunoncha baptizō – suvga botiraman, cho'qintiraman) XVII asr boshida Djon Smit tomonidan asos solingan bo'lib, tarafdorlarining soni bo'yicha eng katta protestantlik oqimlaridan biri hisoblanadi. Baptistlarning asosiy qismi AQShda bo'lib, ushbu ta'limot tarafdorlari faqat voyaga yetgan insonlarni cho'qintiradilar, ularning fikricha, hech kim, shu jumladan, ota-ona ham inson uchun diniy e'tiqodni tanlab bera olmaydi. Inson diniy e'tiqodni ongli ravishda o'zi qabul qilishi kerak. Diniy e'tiqodning yagona manbasi sifatida ular Bibliyani tan oladilar. Ibodat diniy qo'shiqlar, va'zlar aytish tarzida olib boriladi.

“Yahova shohidlari”ning to'liq rasmiy nomi nomli – Qo'riqlash Minorasi, Bibliya va risola(traktat) jamiyati (the Watch Tower, Bible and Tract Society) hisoblanib, ushbu diniy tashkilot AQShda 1872-yilda Charlz Rasselning tashabbusi bilan paydo bo'lgan. Tashkilot nomi Bibliyadagi Xudoning ismi “Yahova (Iegova)”dan olingan. “Yahova shohidlari” Yahova obrazini va Bibliyadagi bilimlarni o'z qarashlari yuzasidan targ'ib qiladilar. XX asrning 60-yillari o'rtalariga kelib, “Yahova shohidlari” dunyoning ko'p lab davlatlarida o'z tashkilotlariga ega bo'ldi, ularning eng ko'pi AQShda ekanligi aniqlangan. Yahovachilar xristianlikning ilohiy Uchlik ta'limoti asosini rad etib, yagona xudo sifatida Yahovani tan oladilar, ruhning manguligini, xoch, do'zax va jannatni tan olmaydilar. Yahova va iblis kuchlari o'rta sida yaqin orada bo'lib o'tadigan, “najot”ni qo'lga kirituvchi tanlangan yahovachilardan tashqari butun insoniyat halok bo'ladigan Armageddon jangini bashorat qiladilar. Yer yuzida “Ming yillik podsholik” – Yahova rahbarligi ostidagi teokratik davlat o'rnatilishiga ishonadilar. Yahovachilar “Boringlar va targ'ib qilinglar!” degan chaqiriqqa tayanib, faol missionerlik faoliyatini olib boradilar. Ular o'z ruhoniylariga ega emas, yakshanba kunlari “Yahova shohidlari” yig'ilishlarini o'tkazib turadilar va unda dunyoda

ko‘p millionli tirajda dunyoning ko‘p lab tillarida chiqariladigan “Soqchilar minorasi” (“The Watchtower”) jurnalining maqolalarini muhokama qilib turadilar. Dunyoning ko‘p lab tillaridagi OAV, teletarg‘ibotlar, missionerlik adabiyotlari dindorlarning Bibliyaga e‘tiborini qaratadi.

AQSh va G‘arbiy Yevropa protestantlik cherkovlarining tashabbusi bilan XX asrning boshlarida ko‘p lab tashkilotlar xristianlik cherkovlarining o‘zaro bir-biriga yaqinlashishi, yarashishi va diniy birligi uchun ekumenlik (oecumenicus - tirik jon mavjud olam) harakatini qo‘llab-quvvatlab turdilar.

Protestantlik ruhoniylarni oddiy kishilardan ajratmaydi, ya‘ni ruhoniylar mashg‘uloti barcha odamlarga xos, deb hisoblanadi. Faqat cho‘qintirish, non va vino totish sirli marosimlar, deb tan olinadi. Ular Rim Papasiga bo‘ysunmaydilar. Ibadatlar nasihatlar, birgalikda ibodat va diniy qo‘shiqlar kuylashdan iborat. Protestantlar Bibi Maryamga sig‘inishni tan olishmaydi, rohiblikni, xoch alomatiga ishonishni, diniy libos kiyishni, ikonalarini rad qilishadi.

Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishi		O‘rta Osiyoga xristianlikning kirib kelishi haqida yirik rus sharqshunosi V.V.Bartold o‘zining Movarounnahrning mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davr tarixiga oid tadqiqotlarida to‘xtalgan. Mazkur mavzu G.I.Bogomolov, Yu.F.Buryakov, L.I.Jukova, A.A.Musakayeva, G.V.Shishkina, 3.I.Usmonova, L.I.Albaum, I.D.Ivanitskiy, T.V.Belyaeva, B.A.Abdulg‘oziyeva, V.D.Goryachyeva, S.Ya.Peregudova, K.M.Baypakov, L.V.Underova kabi tadqiqotchilar tomonidan ham o‘rganilgan va “Markaziy Osiyo dinlar tarixi” kitobida bu haqda keng ma‘lumotlar berilgan.
--	--	--

Xristianlikning tarqalishida xristian jamoalarining missionerlik faoliyatlari katta rol o‘ynadi. Xristianlikning O‘rta Osiyoga kirib kelishiga Rim imperiyasida xristianlarning ta‘qib qilinishlari ham sabab bo‘ldi. Xristianlar Vizantiya, Suriya, Falastin va Erondan ko‘chib kelib O‘rta Osiyoda o‘z madaniyati, san‘ati va diniy ta‘limotini tarqatishgan. O‘zbekiston hududidagi xristian diniy yodgorliklari ko‘p gina tarixchi, arxeolog va dinshunoslar tadqiqot mavzuyi bo‘lgan⁴.

2019-yil holatiga ko'ra O'zbekiston aholisi soni 33 milliondan oshgan bo'lib, ular 130 dan ziyod millat va 16 diniy konfessiyaga mansub. O'zbekistonda 1 ta buddaviylik va 11 ta xristianlik konfessiyalari faoliyat olib boradi⁵. 2019-yildan boshlab yana quyidagi 3 ta xristianlik tashkilotlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita ro'yxatidan o'rinni: "Sun Bogim" (Bekobod), Baptistlar cherkovi (Xorazm) va "Vozrojdnie" (Qo'qon). Fuqarolarimizning 3,5 foizga yaqini xristian dinining pravoslav yo'nalishiga mansub. O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xristian konfessiyalari diniy bag'rikenglik an'analari shakllanishida muhim o'rni egallaydi⁶.

Asosiy xulosalar

- Xristianlik milodning I asrida Rim imperiyasi tarkibidagi Falastinda, yahudiylikka e'tiqod qiluvchi jamoa orasida paydo bo'lgan.
- Xristian ta'limoti muqaddas Uchlik haqidagi ta'limotga asoslanadi (Xudo-Ota, Xudo-O'g'il va Xudo-Muqaddas ruh).
- Manaviy-axloqiy soflikka erishish maqsadida xristianlar quyidagi sirli marosim ibodatlarini qo'llaydi: cho'qintirish, non va vino totish, ruhoniylikka qabul qilish, tavba qilish, xushbo'y miro yog'ini surtish, nikoh, zaytun yog'i bilan moylash marosimi.
- Xristianlikning asosiy yo'nalishlari pravoslav, katolik va protestantlik yo'nalishlari hisoblanadi.
- Xristianlikning tarqalishida xristian jamoalarining missionerlik faoliyatlari katta rol o'ynagan. O'zbekiston aholisining taxminan 3,5 foizi xristian dinining pravoslav yo'nalishiga mansub.

Nazorat uchun savollar

1. Ilk xristianlikning Rim bilan munosabatlari qanday edi?
2. Yangi Ahd tarkibiga qanday kitoblar kirgan?

3. Xudoning advokatil va -Iblis advokatilning majburiyatlariga nimalar kirgan?
4. Protestantlikning ko‘p lab yo‘nalishlarida qanday sirli marosimlar saqlanib qolgan?
5. Sirli ma’rosimlar mazmuni nimadan iborat?
6. Reformatsiya vujudga kelishining asosiy sabablari nimada?
7. Protestantlikning qanday yo‘nalishlari mavjud?
8. O‘zaro ajralib ketish arafasida Sharqiy va G‘arbiy xristianlikning ijtimoiy tuzilishi qanday bo‘lgan edi?
9. Xristianlikdagi asosiy yo‘nalishlari nima bilan farqlanadi?
10. Ekumenlik harakati qanday ta’riflanadi?
11. Xristianlikning Markaziy Osiyoga O‘rta asrlarda kirib kelishiga qanday omillar bo‘lgan?

Xristianlik mavzusi adabiyolari

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi.- T.: O‘zMU, 2004.-208-b.
2. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: Mutaxassislik fanidan o‘quv-uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: TIU, 2007. –48-b.
3. Ibragimov E. O‘zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag‘rikenglik an‘analari shakllanishida tutgan o‘rni.- Tarix fan.nomz. ilm.dar. dissert. T.2010.
4. Muhamedov N., Alimova M. Dinshunoslik fanini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. - T.: 2017, – 360-b.
5. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari.- Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. 552-b.
6. Амон А.Г. Повседневная жизнь первых христиан. М. 2003;
Бернштам А.Н. Археологический очерк Северной Киргизии. Фрунзе, 1941.

7. Дервиш Р.А. памятники истории, религии и культуры в Узбекистане. Т.- 1994
8. Ибрагимов Э. Источники мировых религий: учеб.-метод. пособие для студентов с русским языком обучения. Т.: ИПО "ТИУ". 2011.- 115 с.
9. История религий народов Центральной Азии. / Отв. редактор: Ш.А.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006.
10. Великий шелковый путь: Древность и раннее средневековье / Э.Ртвеладзе. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1999. – 280 с.

Xristianlik mavzusi manbalariga havola

¹Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. – 2-е изд. перераб. и доп.– М.: Высш.шк., 1998.– С.157-158.

² Ибрагимов Э. Источники мировых религий: учебно-методич. пособие для студентов с русским языком обучения. Т.: ИПО "ТИУ". - 2011.-115 с.

³ Энциклопедия религий / Под ред. А.П.Забияко, А.Н.Красникова, Е.С.Элбакян. - М.: Академический Проект; Гаудеамус, 2008. – 1520 с: ил. — (Summa). - ISBN 978-5-8291-1084-0 (Академический Проект). - ISBN 978-5-98426-067-1 (Гаудеамус). - С.191-195. С. 101

⁴ История религий народов Центральной Азии. / Отв. редактор: к.п.н., доц. Ш.А.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006. – С.60-62. Великий шелковый путь: Древность и раннее средневековье / Э.Ртвеладзе. – Тошкент : Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1999. – 280 с.; См.также: Амон А.Г. Повседневная жизнь первых христиан. М. 2003; Бернштам А.Н. Археологический очерк Северной Киргизии. Фрунзе, 1941.

⁵ Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552-b.

⁶ Ibragimov E. O‘zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag‘rikenglik an‘analari shakllanishida tutgan o‘rni. - Tarix fan.nomz. ilm.dar. dissert. T.2010.

3.3. Islom dini

Mazmun. *Islom dini. Islom dini shakllanishidagi tarixiy shart-sharoitlar. Muhammad payg'ambar hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo'la boshlanishi. Madinaga hijrat. Makkaning fath etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablar paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi. Qur'on – islom dinining muqaddas kitobi. Hadislar. Islom ta'limotida oila muqaddasligi. Er-xotinning bir-biriga nisbatan huquq va burchlari. Islomda ayollarga munosabat.*

Islom dini shakllanishidagi tarixiy shart-sharoitlar

Jahon diniga nom bergan “islom” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, (arab. bo‘ysunish, itoat etish) “o‘zini Alloh irodasiga topshirish” degan

ma‘noni anglatadi. Islom so‘zining yana bir lug‘aviy ma‘nosi tinchlik-omonlikdir. Shuning uchun ham azaldan musulmonlar bir-birlariga “Assalomu alaykum” javoban esa “Va aleykum assalom” deydilar, ya‘ni Sizga tinchlik-omonlik tilayman, degan ma‘noni anglatadi. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar arabcha “muslim, ko‘pligi – muslimun” deb ataladi va bu so‘z islomni qabul qilgan(lar), degan ma‘noni anglatadi.

Musulmonlar soni taxminan 1,5 milliardni tashkil etadi¹. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar soni jihatdan xristianlikdan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Islom – jahon dini, dunyoda tan olingan ijtimoiy-madaniy hodisa, ilgari rivojlanayotgan mafkuraviy tizim va zamonaviy ijtimoiy jarayonlarning muhim omilidir. Hozirgi kunda islom asosan Shimoliy Afrika, G‘arbiy, Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Dunyoda musulmonlar jamoalari mavjud bo‘lgan 120 dan ortiq mamlakatlardan 35 tasida musulmonlar aholining ko‘p chiligini tashkil qiladi. Musulmonlar soni jihatidan eng yirik davlatlar qatoriga Indoneziya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh kiradi². Indoneziya aholisining arab tilida so‘zlashuvchi qismi deyarli to‘laligicha, turkiy va forsiy tillarida so‘zlashuvchilarining aksariyati islom diniga e‘tiqod qiladi. Hindistonning shimoliy hududlarida yashovchi xalqlar orasida ham musulmonlar ko‘p chilikni

tashkil etadi. Ko‘p sonli musulmon jamoalar Rossiyaning katta shaharlarida, Shimoliy Kavkaz mintaqasi hududlarida, Volga bo‘yi, Ural atrofi, Sibirda, shuningdek, Xitoy, Hindiston, Livan, G‘arbiy Yevropa, Filippin va AQShda ham istiqomat qiladilar. Sunniylarning ko‘p chiligini hanafiy mazhabi izdoshlari tashkil qiladi, ular Markaziy Osiyoda, Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlarida (Ozarbayjon va Shimoliy Kavkazdan tashqari), Afg‘oniston, Turkiya, Bolqon, qisman Yaqin Sharqda, Hindiston, Indoneziya va Bangladeshda tarqalgan.

Islom dinini chuqur o‘rganish uchun uning nafaqat din shakllanishdagi tarixiy shart-sharoitlar, balki islom yuzaga kelgunga qadar Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy va madaniy holat, iqtisodiy sharoit va diniy an‘analarni bilish kerak. Ushbu davr va mintaqa qabilalarining ijtimoiy, madaniy va diniy hayotini o‘rganishda A.A.Xasanov³, Q.T. Zoxidov⁴, Z.N.Shokirova⁵, O.G.Bolshakov⁶, N.V.Pigulevskaya⁷, M.B. Piotrovskiy⁸, I.Sh.Shifman⁹, G.E.Gryunebaum¹⁰, L.V.Negrya¹¹, H.Wissmann¹², W.Muir¹³larning ilmiy ishlari yordam beradi.

Muhammad ibn Abdul-Karim ash-Shahristoniyning “Kitab al-milal va-n-nihal” (Millat va elatlar kitobi) asarida ham islom taraqqiyoti va diniy manbalari haqida tarixiy ma’lumot mavjud. Sharqshunoslar ushbu manbani fors, turk, ingliz, nemis, fransuz va qisman rus tiliga tarjima qilganlar va ushbu kitob Yevropa, Eron, Misr, Turkiya, Hindiston va Rossiyada chop etilgan¹⁴.

Arabistonda musulmon davlati vujudga kelishining ildizlari Shimoliy va Markaziy Arabistonidagi o‘troq qabilalar va ularni qurshab turgan hamda qadimda sivilizatsiyaga erishgan mamlakatlar ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishi darajasi bilan uzviy bog‘liq. XX asrda esa islom tadqiqotchilari Arabistonni endigina urug‘chilik-qabilachilikdan sinfiy munosabatlarga o‘tish boshlangan ko‘chmanchilar yurti, deb ta’riflangan. O‘sha davrda Arabistondagi ko‘chmanchi aholi yarim orolning asosiy qismida istiqomat qilishsada, ularning soni ko‘p bo‘lmagan. A.Xasanov “VII asrga kelib Janubiy Arabistondagi sinfiy jamiyat hech bo‘lmaganda ikki ming yillik tarixga ega edi va u ham taxminan Sharqdagi boshqa qadimgi sivilizatsiya jamiyatlari o‘z rivojlanishida bosib o‘tgan bosqichlarni o‘tgan edi”. Arabiston

hududi qadimgi sivilizatsiyalar qatorida orqada qolgan”¹⁵ degan. U Arabiston hududi qadimgi civilisatsiyalar qatorida orqada qolgan degan xato fikrini ushbu masalaning yetarli darajada o‘rganilmaganligi bilan bog‘laydi. Odatda Yaqin va O‘rta Sharq, O‘rta yer dengizi havzasi, Hindiston va Xitoy qadimgi sivilizatsiyalar o‘chog‘i sifatida tan olinadi, Arabistonga esa qadimgi dunyoning markazidan chetdagi o‘lka sifatida qarashadi. Haqiqatda esa u qadimgi dunyo jamiyatlarining o‘zaro munosabatlari va xalqaro munosabatlarda qisman bo‘lsa-da sezilarli o‘rin egallab turgan. Arabistondagi jamiyat va davlat islomgacha bo‘lgan davrda o‘z yozuviga ega edi. XIX asrning ikkinchi yarmida yevropalik olimlar janubiy Arabistonda ko‘p lab tosh va bronzaga yozilgan epigrafik yozuvlarni topishdi va ularni o‘qishdi. Hozirgi efiop tiliga qardosh sanaluvchi alfavit yozuvi arab tilida “musnad” nomini olgan. Bunday yozma yodgorliklar islomgacha bo‘lgan Arabiston aholisi orasida rivojlangan ijtimoiy munosabatlar: shaharlar va o‘troq aholi orasida ijtimoiy-guruhiy, ko‘chmanchilarda – qabilalararo munosabatlar, shuningdek, ko‘chmanchi qabilalar va shaharliklar o‘rta sida turli shartnomaviy munosabatlar mavjudligidan darak beradi. Masalan, shaharliklar qo‘shni ko‘chmanchi qabilaga o‘zlarini himoya qilganliklari uchun “i’tavo”ni to‘lagan. Hijozdagi shaharlarda (Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Haybar kabi bir qancha shaharlarni o‘z ichiga olgan qismi qadimdan Hijoz, deb atalgan) tovar-pul munosabatlari, xo‘jalik yuritishning polis tizimi rivojlangan. Eron Yamanni ishg‘ol etib, Hijozdagi tranzit savdoni nazorat qila boshladi. Bu esa Yaman orqali Suriya, Falastin va Eronga olib boradigan tranzit yo‘lining to‘silishi va Eronga surilishiga sabab bo‘ldi¹⁶. Qo‘shni davlatlar hujumlari natijasida Hijozning zaiflashishiga olib keldi, arablarda qabilalaroro ziddiyatlari kuchaydi. Vaziyat uyushmagan qabilalarning birlashuvini va kuchli davlatchilikni yaratishni talab qildi. Islom dini, Muhammad payg‘ambar va uning sahobalari tomonidan VII asrda ushbu masala hal etildi.

Qadimgi Arabiston sivilizatsiyasi tarixida arab-islom madaniyati va monoteistik din bo‘lmish islom vujudga kelishining muhim jihatlarini, shuningdek, islomgacha bo‘lgan davr arablarining diniy tasavvurlari o‘zgarishini kuzatish

mumkin. Islomdan avvalgi davrda Arabistonning shimoliy qismidagi yozuvlarda arab tilidagi Alloh soʻzi koʻp uchraydi. Xususan, sharqshunos I.Sh.Shifman Ramafiy ibodatxonasida topilgan va milodning II–III asrlariga taalluqli boʻlgan yozuvga asoslanib, Samud qabilasi aholisi Allohni xudo sifatida qabul qilganliklarini koʻrsatib berdi¹⁷.

Islom vujudga kelishi arafasida arab jamiyatida arxaik eʼtiqodlar, koʻp xudolik (arabcha al-vasaniya), yahudiylik va xristianlik mavjud edi. Qadimgi arab oʻqimishlilar – Arabiston aholisining qoʻproq qismini tashkil qiluvchi oʻtroq aholi, ayniqsa, Makka va Yasrib (Madina) kabi shaharlar aholisi rivojlangan diniy ong va madaniyatga ega edi. Muqaddas Kaʼbada (“haram”)da janjallashish, qon toʻkish mumkin boʻlmagan. Qadimda Makka aholisi butlarga topingan. Kaʼbada asosiy but atrofida arablarning boshqa ilohlarini ifodalovchi, 300 ga yaqin butlar joylashtirilgan edi. Har bir qabilaning oʻz ilohlari boʻlib, faqat ularga topinishar edi. Shunday qilib, diniy tasavvurlar qabila aʼzolarini birlashtirsa-da, qoʻshni qabilalar va bir butun mintaqa ajratib qoʻyilgan edi. Makkalik qurayshi qabilasining xudosi – Alloh (arabcha – al-Ilah) yagona deb eʼlon qilindi¹⁸. VI asr oxiri – VII asr boshlarida shundoq ham qudratli boʻlgan Makka Arabistonning barcha eʼtirof etadigan siyosiy, iqtisodiy va diniy markaziga aylanadi. Muhammad paygʻambar va uning izdoshlarining targʻiboti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati tufayli Makka va Yasrib islom sivilizatsiyasi tarixida muhim oʻrinni egalladi. Bu davrda Arabistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayoti koʻp jihatdan Hijoz (Arabistonning shimoli-gʻarbidagi tarixiy viloyat, asosiy shahri – Makka)ga bogʻliq edi. Urugʻchilik-qabilachilik munosabatlaridan feodal munosabatlariga oʻtish jamiyatning ijtimoiy qatlamlashuviga, markaziy shaharlarda, eng avvalo, Makka va Madinada, tovar-pul munosabatlarining rivojlanishiga olib keldi. Bu esa taʼlim, shu jumladan, diniy taʼlim, maʼnaviyat, madaniyat, diplomatiya hamda xalqaro savdoga mablagʻ sarflash imkoniyatini kengaytirdi. Islom vujudga kelishi arafasida Makka va Madinaning iqtisodi oʻsishda boʻlganini tasdiqlovchi koʻp lab dalillar mavjud. Ayni vaqtda maʼlumotlar Madinada arab-yahudiy qarama-qarshiligiga qaraganda, makkalik arablarning oʻzaro nizosi kuchliroq boʻlganini

ko'rsatadi. Ilk musulmon jamoasining Muhammad payg'ambar yetakchiligida Makkadan Madinaga qilgan hijrati, birinchi navbatda, ana shu nizoga barham berdi.

Boyib borayotgan mintaqa boyligi aholini himoya qilish, armiyani tuzish va uni qo'llab-quvvatlab turishni talab qilardi. Arabistonda markazlashgan ijtimoiy-iqtisodiy, pul, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish fuqarolarni diniy to'siqlar bir-biridan ajratmaydigan markazlashgan davlat tuzilishini taqozo qildi.

VI asr oxiri – VII asr boshlarida Arabistonda ana shunday vaziyat vujudga keldi. Bungacha Arabiston aholisi diniy ongining uzoq evolyutsiyasi yuz berdi. A.Xasanov o'zining ilmiy asarlarida mil.avv. IV-III ming yilliklardayoq sharqiy Arabistonda Dimun va Magan jamiyatlari vujudga kelganligini, qadimgi Yaman madaniyatini qadimgi Misr va Mesopotamiya madaniyati bilan bir qatorga qo'yish mumkinligini ko'rsatadi. Qadimgi Arabistondagi texnikaviy yutuqlar sifatida Marib to'g'onini, madaniyat va yozuvga oid yodgorliklarga mil.avv. VI ming yilliklarga taalluqli yuzlab iyerogliflarni ko'rsatish mumkin. Milodning IV asri o'rtalarida Yamandagi bag'ishlov yozuvlarida ilgarigi xudolar deyarli esga olinmaydi, ularning mualliflari oddiygina Yer va Osmon Hukmroni, Hukmdori deb ataluvchi bitta va yagona xudoni eslatgan. Taxminan V–VI asrlarda Ichki Arabistonda, Yamanda yagona xudoga sig'inuvchilar – haniflar, mo'minlar, taqvodorlar paydo bo'ldi¹⁹.

VII asrda arab madaniyatida politeizmdan monoteizmga o'tish tendensiyasi vujudga keldi. Arabiston aholisining diniy madaniyati xristianlik, yahudiylik va undanda qadimiyroq diniy tasavvurlar bilan tanish edi. Muhammad payg'ambarning faoliyati, harbiylarning tartib-intizomi jihatdan islomning tez tarqalishiga yordam bergan. Ichki ziddiyatlar va o'zaro qarama-qarshiliklar tufayli zaiflashgan Eron va Vizantiya imperiyasi islom dinining tarqalishiga bardosh berolmadi.

**Muhammad payg‘ambarning
hayoti va faoliyati. Qur‘on**

Muhammad Ahmad ibn Abdulloh
(570/571 – 632) – islom dini payg‘ambari va
musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisi.
Islom rivoyatlariga ko‘ra uning tug‘ilishi

avvalgi payg‘ambarlar – Ibrohim, Ismoil, Muso va Iso tomonidan bashorat qilingan. Muhammad payg‘ambarning nomlarini aytganda yoki eshitganda musulmonlar uchun “sallalohu alayhi vasallam” (s.a.v.) – “unga Allohning rahmat va salomi bo‘lsin” yoki “alayhissalom” (a.s.) – “unga salomlar bo‘lsin”, deb salovat aytib qo‘yish vojib hisoblanadi. Payg‘ambar uncha boy bo‘lmagan oilada tug‘ilgan bo‘lsa-da, ularning oilasi Makkada hukmron Quraysh qabilasining hoshimiylar urug‘iga mansub bo‘lgan. Tug‘ilmasdan oldin otasidan, olti yoshida onasidan yetim qolgan Muhammad to sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib, so‘ngra amakisi Abu Tolib qo‘lida tarbiyalangan. 583- yildan boshlab Muhammad payg‘ambar Arab yarim orolining tashqarisidagi tijorat karvon safarlarida qatnashgan. U makkalik sharafli va boy-badavlat savdogarlardan hisoblangan Xadicha bin Xuvaylidning savdo ishlarini yuritgan. Xadicha bin Xuvaylid Muhammad payg‘ambardan to‘rt qiz va ikki (go‘dakligidayoq nobud bo‘lgan) o‘g‘il ko‘rgan. Ularning qizi Fotimaning o‘g‘illaridan Fotimiylar (Husandan) va Idrisiylar (Hasandan) sulolalari tarqalgan.

Muhammad payg‘ambar 40 yoshga yetganlarida, ko‘pincha Makka yaqinidagi Hiro g‘orida ehtiros bilan ibodat qilar edi. Taxminan milodiy 610-yilda Muhammad payg‘ambar o‘zini Allohdan Jabroil farishta orqali vahiy olayotganini e‘lon qiladi.

Muhammad payg‘ambarning dastlab pand-nasihatlarini, dinga da‘vatlarini atrofdegilar, ayniqsa, quraysh qabilasi zodagonlari tomonidan unga ishonmasdan, hatto dushmanlik bilan kutib olindi. Boy savdogarlar qatlami qadimgi arab qabila xudolarining inkor etilishi Makkaning diniy va iqtisodiy markaz sifatidagi ahamiyatiga zarar keltirishi mumkin, deb o‘ylagan. Bundan tashqari ular ibodatning yangi shakliga qarshi chiqqanlar. Arablarning Ka‘baga qarab ibodat

qilish an'anasi saqlanib qolinsa-da, lekin namoz vaqtidagi avvallari qo'llanilmagan sajda Makka aholisining aksariyatini achchiqlantirardi. Ularni fikricha sajda qilish qadr-qimmatini yo'qotish bilan tengdir. Har holda, Muhammad payg'ambarga ergashayotgan, uni Rasul, deb e'tirof etayotganlar va bu yo'lga da'vat qilayotganlar soni ortib bordi. Shu qatorda dushmanlar soni ham ko'p aydi. Ular Payg'ambarga qarshi turli usullar bilan kurashni avj oldirdilar. Muhammad payg'ambar sahobalardan bir guruhini Habashiston (Efiopiya)ga jo'natishga majbur bo'ldi, zero o'sha davlat podshohi muhojirlarni yaxshi qabul qilishiga ishonchi bor edi. Makkaliklarning musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Muhammad payg'ambar ko'rsatmasiga binoan avval musulmonlar, undan so'ng Payg'ambar 622-yili Yasrib (Madina)ga hijrat qiladi. Madinaliklar makkalik muhojirlarni do'stona va samimiy kutib oldilar. Muhammad payg'ambarni bir necha mahalliy qabilalar qo'llab-quvvatladilar. Payg'ambar va uning tarafdorlari tomonidan 630-yili yanvar oyida Makka fath etiladi. Ammo Muhammad payg'ambar Madinada yashashni davom ettiradi. Hijratdan keyinroq o'sha yerda birinchi musulmonlar masjidi qurilib, azonga asos solinadi, islom arkonlari va hayot tarzi belgilanadi, meros, nikoh va boshqa ijtimoiy masalalar bilan bog'liq tartib-qoidalar vahiy asosida joriy etiladi. Juma musulmonlarning haftalik jamoat namozi o'qiladigan kun, Ka'ba muqaddas joy sifatida e'tirof etiladi hamda namozda musulmonlar unga qarab (qibla) ibodat qilishlari belgilandi.

Muhammad payg'ambar Madina shahriga hijrat qilganlaridan keyin shaharni islomiy qoidalarga asoslanib boshqardi. Payg'ambar vafot etgandan keyin musulmonlar jamoasini xalifalar (arab. xalifa – o'rinbosar) boshqardilar. 632-yildan boshlab Arabiston yarim orolining aksariyat qismi muayyan darajada Xalifalikka qarashli edi. Islom tarixida xalifalik besh davrga bo'linadi: 1. Xulafoi roshidinlar davri (632-661). 2. Shom umaviylar xalifaligi davri (661-750). 3. Iroq abbosiylar xalifaligi davri (750-1258). 4. Misr abbosiylar xalifalik davri (1261-1517). 5. Usmonli turk xalifaligi davri (1517-1924).

Payg‘ambarga birinchi vahiy etilgan 5 oyat (arabcha – alomat, dalil, ishora, mo‘jiza) keyinchalik Qur‘onning Alaq surasi tarkibiga kiritilgan. Qur‘on asosan oyat bo‘lib tushgan, ba‘zida to‘liq sura bo‘lib vahiy etilgan. Sura – faqat Qur‘onga xos tushuncha hisoblanadi. Odatda oyatlar vujudga kelgan savollarga javoblar bo‘lgan yoki biror voqea sababli tushirilgan. Bu sabablarni bilmasdan ularning mazmunini to‘g‘ri tushunish juda qiyin va bunda izoh – tafsir talab qilinadi. Vahiy kelgach, Payg‘ambar har bir oyatda bu suraning joyini ko‘rsatar edi. Sahobalar yozilgan oyatlarni o‘qir edilar, ko‘p chilik esa ularni yod olardi. Shu bilan birga yozishni biladigan odamlar Qur‘onni yozib borganlar. Suralardan ibodatda, diniy marosimlarda foydalanilar, da‘vat jarayonida dalil sifatida keltirilar edi.

Qur‘onning (arab.–o‘qimoq, qiroat qilmoq, jamlash) nozil etilish jarayoni Makkada o‘n uch yil, Madinada o‘n yil davom etgan. Qur‘on 114 suradan iborat bo‘lib, ular oyatlardan tashkil topgan. Oyat Qur‘on matnlarining eng kichik qismidir. Qur‘on nafaqat musulmonlarning muqaddas kitobi, balki jahon madaniyatining bebaho yodgorligi hamdir. Musulmonlar Qur‘onga katta hurmat va hayajon bilan munosabatda bo‘ladilar. Musulmonlardan Qur‘on o‘qishda o‘ziga xos qiroat va odoblarga rioya etish talab etiladi. Bular: 1) Qur‘onga tahoratsiz qo‘l tekkizmaslik; 2) Qiroat qilishni "A‘uzu billahi minash-shaytonir rojiym Bismillahir rohmanir rohim" bilan boshlash; 3) Qur‘onni pok joylarda, imkon qadar Ka‘ba tomonga yuzlanib o‘qish; 4) Qur‘onni eshitmaydigan kishilar orasida o‘qimaslik; 5) Qur‘onni bexato, tajvid qoidalariga amal qilgan holda, harflarini aniq talaffuzi bilan o‘qish va boshqalar. Qur‘on qiroati to‘g‘ri bo‘lishi uchun ustozdan tajvid ilmini o‘rganish lozim sanaladi. Qur‘oni Karimning 70 ortiq o‘rinlarida Alloh taolo barcha narsani biluvchi zot ekanligi ta‘kidlanadi. Jumladan “U shunday Allohdirki, Undan o‘zga iloh yo‘qdir. (U) yashirin va oshkora narsalarni biluvchidir. U Mehribon va Rahmlidir. – Qur‘on. Hashr surasi, 22-oyat”.

Muhammad payg‘ambar hayotlik vaqtlarida Qur‘on suralarini jamlab kitob shakliga keltirilmagan. Payg‘ambar vafotidan keyin Abu Bakr xalifa qilib saylangan. Uning hukmdorligi davrida janglarda Qur‘onni to‘liq yod olgan ko‘p

lab qorilar vafot etadilar. Shunda hazrati Umar hazrati Abu Bakrga, Qur'onni kitob shakliga keltirib jamlab qo'yish kerak, degan maslahatni beradi. Abu Bakr sahobalardan Zayd ibn Sobit bu ishni amalga oshirishga loyiq deb hisoblaydi, chunki u Payg'ambar bilan juda ko'p vaqt birga bo'lib, Qur'onni eng yaxshi yod olgan va ba'zan yozib ham borgan sahoba edi. Islom olamining kengayishi va musulmonlarning ko'p ayishi bilan tarjimalarda noaniqliklar topildi, muqaddas kitobni tushunish va uni talaffuz qilishdagi nuqsonlar aniqlandi. Keyingi xalifa Usmon ibn Affon Qur'onning Abu Bakr xalifalik davridagi barcha sahifalarini to'plashni buyuradi. 650–656-yillar o'rta sida xalifa Usmon topshirig'i bilan Zayd ibn Sobit rahbarligida maxsus hay'at tuziladi va barcha oyat va suralarni taqqoslab, Payg'ambar ko'rsatgandek holatda keltirish yakunlandi. Shunday qilib, Qur'onning eng to'g'ri matni tuzildi, undan oltita nusxa ko'chirildi va ular musulmonlarning markaziy shaharlariga yuborildi. Aynan ulardan nusxa ko'chirish va ularga muvofiq ifodalashga ruxsat berildi.

Jahon madaniyatida Qur'onni eshitish va o'qish ta'sirida yaratilgan ko'plab san'at va adabiyot asarlar mavjud. Islomda Qur'on abadiy amal qiluvchi, ilohiy vahiyning eng yuksak to'plami va musulmonlar uchun ko'rsatma sifatida tushuniladi.

Islom dinining Markaziy Osiyoga kirib kelishi

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va islomlashuv jarayonining xususiyatlari "Markaziy Osiyo dinlar

tarixi" kitobida²⁰ yoritilgan. Mualliflar ushbu mavzuni yoritishda tarixiy yozma manbalar, tarixiy asarlar, turli ilmiy tadqiqotlar va hujjatlar, shuningdek, shaxsiy tadqiqotlar natijalariga tayanganlar. Qator chet el va O'zbekiston olimlarining tadqiqotlari Ushbu davrni o'rganishga bag'ishlangan. (Xayrullayev M.M.²¹; Mo'minov A.K.²²; Rudolf U.²³; Bolshakov O.G.²⁴; G'oirov G.²⁵; Gibb H.A.R.²⁶; Madelung W.²⁷; Paul J.²⁸).

Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi va tarqalishi 643-644- yillarda O'rta Osiyoga arab yurishlari bilan bog'liq. Bu yurishlardan so'ng mintaqa ikki

qismga bo‘lindi: 1) Movarounnahr (arab. daryoning narigi tomoni); 2) Sirdaryodan sharqda joylashgan Arodi at-turk (“Turklar yerlari”, ya’ni arablarga bo‘ysunmagan hukmdorlar yerlari). Ushbu ikki hududda islomlashuv jarayonlari turlicha kechgan. Movarounnahrda islomdan oldingi davr hukmdorlari o‘z mavqelarini saqlab, mahalliy aholini boshqarish, soliq yig‘ish kabi vazifalarni bajardilar. Ilk islom davrida arablar ko‘p imtiyozlarga ega edilar. Shu bilan bira bunday imtiyozlardan islom dinini qabul qilgan mahalliy aholi ham foydalana olar edi. “Arodi at-turk” aholisini islomlashtirish jarayoni haqida ma’lumotlar ko‘p incha og‘zaki, folklor tarzida, keyinchalik esa tarixiy manbalarda yozma qayd etilgan. Shuning uchun ushbu mintaqaga islom dini kirib kelishi va islomlashuv jarayoniga oid yozma ma’lumotlar keyingi davrlar – XVIII-XIX asrlarga oid manbalarda uchraydi²⁹.

Islomda mazhablarning paydo bo‘lishi

Islom tarqalgan sari, mahalliy din shakllari bilan o‘zaro aloqada bo‘lgan. Bundan tashqari, vaqt va madaniy muhit musulmonlarning diniy ongini o‘zgartirdi. Bular diniy ixtirolfarga olib keldi. Islomda aqidaviy, siyosiy va fiqhiy masalalardagi ixtiloflar mazhablarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Islomdagi yo‘nalishlar mazhablarning vujudga kelishi va tadrijiy rivojlanishi murakkab bosqichlardan iborat. Islomda ilohiyotga oid ko‘p lab masalalarni ulamolar tomonidan bir qadar erkin yechish xarakterli bo‘lgan. O‘z-o‘zidan ravshanki, ularning fikrlari, ijtimoiy holati, siyosiy qiziqishlari hamma vaqt ham bir-biriga mos kelavermas edi. Bu esa jamoalarda vujudga kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy masalalarni, ijtimoiy va shaxsiy axloqiy normalarni hamda shu kabi masalalarni yechishga oid turli-tuman yondashuvlarning hosil bo‘lishiga olib kelishi tabiiy edi. Islomdagi diniy-siyosiy guruhlar, huquq va ilohiyot maktablari o‘rta sidagi g‘oyaviy ixtiloflarni tushunishga doksografiya yordam beradi. Doksografiya (yunoncha. “dokso” fikr, tasavvur” va “grafo” “yozish, bayon etish”) qadimgi donishmandlarning fikrlari va tasavvurlarining keyingi mualliflar tomonidan bayon etilishi. S.M.Prozorov fikriga ko‘ra “Musulmon diniy- tarixiy adabiyotidagi islom uchun o‘ta muhim va o‘ziga xos

muammo bo'lgan “diniy e'tiqod” va “adashish” muammosini tushunish kalitini doksografik adabiyotdan boshqa hech qanday janr bera olmaydi”³⁰.

Munozaralarning asosiy mavzulari diniy-falsafiy xarakterda edi: imon (al-iman), ishonch masalasi, oliy hokimiyat (al-imama, al-xalifa) masalasi, huquq (al-fiqh), iroda erkinligi va taqdir (al-qadar)ning mohiyati, ruxsat etilgan va taqiqlangan xatti-harakatlar (al-xalal va-l-xaram), Allohning mohiyati va uning sifat (as-sifat)lari to'g'risidagi aqidaga oid bahs-munozaralar³¹. Ana shunday xilma-xillikka qaramay, islomda huquqiy va ilohiyotga oid masalalarning yechimida, marosimlarni amalga oshirishda o'ziga xos usul va yondashuvlar mavjud edi. Qaror qabul qilish uchun asosiy manbalarni yaxshi biluvchi, shuningdek, jamoada hurmat qozongan ilohiyot bilimdoni bo'lgan shaxs “mujtahid” (“ijtihad” so'zidan – qaror qabul qilishdagi qunt, tirishqoqlik) deb atalgan. Uzoq rivojlanish natijasida, taxminan X asr o'rta lariga kelib, “mazhab” deb nom olgan to'rtta katta ilohiyot-huquqiy maktablar vujudga keldi. Ularning vakillari ilohiyot yoki huquqiy masalalarni yechish va qaror qabul qilishda o'ziga xos, muayyan usullarga asoslanar edilar. Bu turli yo'nalishlar asosida hokimiyatga taalluqli turlicha konsepsiyalar, Qur'on va sunnalar (hadislar)ni turlicha talqin qilishlar yoki qaror chiqarish uchun asoslarni tan olish (yoki inkor qilish) turar edi. Islomda mavjud bo'lgan eng muhim ilohiyot-huquqiy maktab va oqimlar ularning ilohiyot va huquqiy masalalarni muhokama qilishdagi bir-biridan farqlanuvchi muhim asoslari bilan ko'rib chiqiladi. Bunday oqim va maktablar anchagina ko'p bo'lgan, ammo ularning ko'p qismi hozir o'z dolzarbligini yo'qotgan.

Sunniylik Islomdagi mazhablar o'z asoschilari nomlari bilan atalgan. *Xanafiylik* sunniylik mazhablarining eng yirigi hisoblanib, asoschisi Abu Hanifa No'mon ibn Sobit (699-767-yy.)dir. Hanafiylik mazhabi qoidalari mo'tadilligi, birmuncha yumshoqligi, qulayligi, xalqlarning mahalliy an'analarni e'tiborga olgani sababli XI asrdan boshlab shimol va sharqqa yoyilgan. Bolqon, Qora dengiz bo'yi, Volga bo'yi, Markaziy Osiyo, Hindiston, Xitoyning cho'l vohalari, Indoneziya orollari, Oltin O'rda xonlari, Hindistondagi Boburiylar, Usmoniylar

imperiyasi sultonlari hanafiylik mazhabiga ergashganlar. Hozirgi paytda MDHdagi musulmonlarning ko'p chiligi (Ozarbayjon va Shimoliy Kavkazdan tashqari) va Turkiya aholisi hanafiylar sanaladi. Bu mazhab Suriya (taxminan 40%), Pokiston, Hindiston va Bangladeshda keng tarqalgan. Bu mamlakatlarda islom odat va marosimlarini ijro etishda hanafiylik normalariga rioya qilinadi. Hanafiylar faoliyati islomning mahalliy madaniy an'analar bilan ko'p asrlik aloqalari jarayonida muhim rol o'ynagan. Hanafiy ilohiyotchilar islom diniy-huquqiy tizimini "Taboqot al-hanafiya", "Manoqib Abu Hanifa" janrlari bilan, adabiyotni esa tarixiy-biografik asarlari bilan boyitishdi. Hanafiylar turli etnik tarkibli, o'ziga xos iqtisodiy, huquqiy ukladli, boy diniy-madaniy an'ana va urf-odatlariga ega Markaziy Osiyoga islomning moslashuviga ko'maklashdilar³².

Shofeiylilik mazhabi Muhammad ibn Idris ash-Shofeiyl (767-820) nomidan olingan. Ushbu mazhab ta'limotida hanafiylik va molikiylik mazhablarining ta'siri seziladi. Oddiyligi bois Shofeiylilik mazhabi Suriya, Livan, Pokiston, Misrda, shuningdek, Eron va Yaman sunniylari orasida tarqalgan, Indoneziya, Malayziya, Filippin, Tailand va qator Afrika mamlakatlarida ham jamoalari mavjud.

Molikiylik mazhabi Molik ibn Anas (713-795) Muhammad payg'ambar nomidan olingan. U o'z jdavridagi hayot tarzi, an'analari va Madina ulamolari qarashlari asosida mazhabini rivojlantirgan. Uning "Aal-Muvatto" asari ilk hadis ilmiga oid to'plam sifatida mashhur.

Hanbaliylik (al-xanābila) mazhabining nomi ham o'z asoschisi, Shofeiylning o'quvchisi – Ahmad ibn Hanbal (780-855) nomidan olingan. Ular taqlid qilishga, an'anaviy yo'l-yo'riqlarga ergashishga qat'iyy turishadi. Ushbu mazhabning paydo bo'lishi IX asrda Abbosiy xalifalar hukmronligi paytida vujudga kelgan keskin ijtimoiy-siyosiy inqirozning natijasi bilan bog'liq.

Ushbu mazhabning shariatga prinsipial jihatdan ergashishi unga xos bo'lgan xarakterli xususiyat sanalishi shubhasiz. Unda ishonchli, deb hisoblanuvchi va boshqa fikr-mulohaza yuritishni talab qilmaydigan asosiy qoidalar soddaligi va

ommabopligi bilan ajralib turadi. Hanbaliylik mazhabi asosan Saudiya Arabistonida keng tarqalgan³³.

Sunniylik mazhablaridan tashqari shialik diniy-siyosiy harakati bilan bog‘langan shialik mazhablari ham vujudga keldi. Ular xalifa Alining tarafdorlari sanaladi. O‘z navbatida, shialikdagi kabi sunniylik mazhablarida ham yuqoridagi masalalarni yechishga yondashuvda mahalliy, tarixiy-madaniy va etnik xususiyatlar bilan bog‘liq holda mahalliy yo‘nalishlar vujudga kelgan. Moturidiy ta‘limoti Imom al-Moturidiy nomini olgan Samarqand teosofiya maktabi (kalom)ning ta‘siri ostida o‘ziga xos xususiyatga – ko‘p lab huquqiy va hatto maishiy masalalarni yechishda ratsional (aqliy) yechimni izlash xususiyatiga ega bo‘ldi. Shunga ko‘ra mahalliy ilohiyot-huquqiy maktabining ikkinchi nomi – moturidiylik, deyiladi. Uning yirik markazlari Samarqand, Farg‘ona vodiysi, Buxoro, Qashqadaryo (Nasaf) va boshqa shaharlar bo‘lgan. Ular bilan bir qatorda yanada mahalliyroq bo‘lgan Shofeylik kabi Toshkent va Xorazmdagi sunniylik ilohiyot-huquqiy maktablari mavjud bo‘lib, keyinchalik ular asosiy hisoblanmish xanafiylar maktabiga qo‘shilib yoki yo‘qolib ketishgan.

Turli mazhablarning huquqiy yo‘l-yo‘riqlari, ularning o‘zaro va boshqa konfessiyalar vakillari bilan munozaralari ko‘p incha falsafiy bahslarga aylanib ketar edi. Bu mazhablar huquqiy masalalarni yechishda umumiy manba bo‘lmish Qur‘ondan tashqari sunnani, ulamo- mujdahidlarning yo‘l-yo‘riqlarini, diniy jamoaning fikrini, mahalliy urf- odatlarni va h.k.ni turli darajada qabul qilishlaridan kelib chiqar edi. Shunday qilib, turli maktablar faqihlarining qarorlari albatta bir-biridan farq qilar va bu islomda turli oqim va guruhlarini vujudga keltirar edi. Bundan tashqari turli maktablarning birgalikda amal qilishi, arab sivilizatsiyasi doirasida yangi diniy doktrinalarning ishlab chiqilishi jo‘shqin munozaralar vujudga kelishining omili bo‘lar edi. Bularning barchasi VIII-IX asrlarda musulmon ilohiyotchi-mu‘taziliylar orasida kalom (ilm al-kalom), deb atalgan maxsus fanni vujudga keltirdi.

Sunniylik va shialik – islomdagi asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi. O‘z navbatida sunniylikda ham, shialikda ham ko‘p lab diniy-mafkuraviy va siyosiy oqimlar mavjud. Masalan, VIII-IX asrlarda mu‘taziliylar (al-mu‘tazila–”ajralgan”) oqimi vujudga kelgan. Ular musulmon ta‘limotini ratsionalistik ruhda talqin qilganlar, aqlning ko‘r- ko‘rona ishonchdan ustun turishini ta‘kidlashgan, biror narsaning haqiqat ekanligiga toki uning aksi ko‘rsatib berilgunga qadar shubha qilishga chaqirishgan. IX asr mu‘taziliylik aqidasi rivojlangan davr sanaladi.

Shia (arabcha - ash-sha – tarafdor, muxlis) xalifa Ali va uning avlodlarini Muhammad payg‘ambarning qonuniy vorislari va ma‘naviy izdoshlari, deb hisoblovchi turli guruhlarining umumiy nomi³⁴ hisoblanadi. To‘rtinchi xalifa Ali Muhammad payg‘ambarning qarindoshi amakisining o‘g‘li va uning kuyovi bo‘lgan. Xalifa Alining tarafdorlari o‘tgan xalifalarning qonuniyligini tan olmaganlar, chunki ular Payg‘ambarga qarindosh bo‘lmay, diniy jamoa tomonidan “saylangan” edilar. Hokimiyat uchun kurash xalifalikda hokimiyatning kimga meros bo‘lishi to‘g‘risidagi munozaralarga olib keldi. Shialar e‘tiqodiga ko‘ra Muhammad payg‘ambarning qonuniy izdoshlari Aliga taqaluvchi imomlar sanaladi. Shialar rivoyatiga ko‘ra xalifa Ali va uning o‘g‘illari Hasan va Husayn o‘z e‘tiqodlari yo‘lida aziyat chekib halok bo‘lishgan. Ana shu voqealar xotirasi uchun shialar har yili Ashuro kunida motam marosimi o‘tkazadilar. Bunda fanatik kayfiyatdagi shialar badanlariga pichoq sanchib va kesib jarohat yetkazadilar, bu bilan ular shialik yo‘lida aziyat chekkanlarga hamdardlik, ularga o‘z qayg‘u-alamlarini namoyish etadilar.

Shialikda ham bir qator oqimlar mavjud: o‘n ikki imomga e‘tiqod qiluvchi va yetti imomga e‘tiqod qiluvchi ismoiliylar, shu bilan birga turli guruhlar chegarasida hosil bo‘lgan oqimlar, masalan, druzlar³⁵, ular ichida asosiysi – mahdiylik hisoblanadi. Ular Alining (r.a) avlodlari bo‘lmish 11 imomning qonuniyligini tan olishadi. O‘n ikkinchi imom IX asrda qayergadir sirli yashiringan va qayerdadir yuribdi, u albatta qachondir xaloskor, najotkor – Mahdiy sifatida paydo bo‘ladi.

Shialikning boshqa yo'nalishlari kamroq izdoshlarga ega. Masalan, ismoiliylar – VII asr o'rta sidagi oltinchi imomning o'g'li Ismoil nomidan olingan. Hozirgi paytda Afg'oniston va Tojikistonning tog'li hududi bo'lgan Badaxshonda tarqalgan. Bir-birining o'rnini oluvchi ismoiliy imomlar Og'axonlar sulolasini tashkil etadilar. Osiyodagi musulmonlikka bo'lgan qator diniy-falsafiy qarashlar va mahalliy xalq odatlari ismoiliylar ta'limotiga singib ketgan.

Hadislar | Sunna (urf-odat, an'ana, yo'l) Qur'on bilan bir qatorda musulmon huquqining asosiy manbalaridan biri sanaladi. U Muhammad payg'ambarning xatti-harakatlari va u yoki bu masalalar yuzasidan aytgan so'zlaridan – hadislardan iborat. Sunniylar Payg'ambarning doimiy ravishda amalga oshirgan xatti-harakatlari (muaqadda), masalan, uning asosiy namozni o'qib bo'lgach, qo'shimcha namozni o'qiganligi, yoki uning ba'zan amalga oshirgan xatti-harakatlari (mustahaba) ham musulmonlar uchun taqlid qilish uchun misol bo'lishini aytadilar. Shariatda musulmonlar xatti-harakatlari: majburiy (farz), lozim, shart bo'lgan (vojib), tavsiya etilgan (sunnat), joiz bo'lgan (halol), bahsli bo'lgan (muboh) kabi turlarga bo'linadi. Nizoli masalalar bo'yicha qarorni qozi chiqargan yoki jamoa fikriga qaralgan. Shu bilan birga nojo'ya, ammo jazoga loyiq bo'lmagan (makruh), taqiqlangan va jazoga loyiq (harom) xatti-harakatlar ham mavjud³⁶. Ba'zi islomshunoslar ko'p lab xatti-harakatlarni bir-biridan farqlashsa, ba'zilar faqat ikkita, ya'ni bajarilishi majburiy bo'lgan va bajarish taqiqlangan xatti-harakatlarni bir-biridan farqlaydilar.

Hadislarda arab jamiyatida ijtimoiy munosabatlarning rivojini aks ettiruvchi turli huquqiy normalarni ham uchratish mumkin. Hadislarning yakuniy tahrir qilinishi IX asrda amalga oshirildi. Hadis ikki qismga ajratiladi: 1) isnod (hadis yozilgan paytidan uning birinchi manbasigacha, ya'ni Muhammad payg'ambar yoki uning sahobalarigacha bo'lgan yo'lni, uni kim kimdan olganligi yo'lini qayd qilish); 2) matn (hadisning axborot qismi). To'g'ri, ishonchli, deb tan olingan asarlarga Imom Buxoriy va Imom Muslimlarning "al-Jomi' as-sahih"lari, Termiziyning "Sunan at-Termiziy", Nasoiy, Ibn Mojjalarning "as-Sunan"

asarlarini misol qilib keltirish mumkin va bu kitoblar keng tarqalgan hadis kitoblari sanaladi.

Shuningdek, sunnatlardan nikoh va merosga oid normalar, dalil va sud huquqiga oid qoidalar, qullar haqidagi va boshqa ko'p lab qoidalar keltirib chiqariladi. Hadislarda ularning ishonchliligini aniqlash bo'yicha qayta ishlanganiga qaramay qator ziddiyatli qoidalar mavjud, shuning uchun ularning qanchalik muayyan vaziyatga mosligini hal qilish ilohiyotchi huquqshunoslar va qozilar ixtiyoriga tashlangan. Bunda Muhammad payg'ambar sahobalari va safdoshlari tomonidan aytib berilgan hadislar kuchga ega sanalgan, sunniylardan farqli ravishda shialar esa xalifa Ali va uning tarafdorlariga taqaluvchi hadislarni o'rinli deb tan olishgan.

Islomda axloqiy va oilaviy munosabatlar

Islomda ijtimoiy-axloqiy me'yorlarga amal qilish, saxovatli bo'lish, yaxshilik qilish, muhtojlarga yordam berish, er-xotinning bir-biriga nisbatan huquq va burchlarini tushuntirish, ayollarga, ayniqsa, onalarga nisbatan mehr-shafkatli bo'lish va boshqa xayrli ishlarga chaqiriladi. Qur'onda ayollarning insoniy va fuqarolik huquqlari himoyalaniadi: erning xotiniga qattiqqo'l bo'lmasligi, ayollarning mol-mulk, merosdagi ulushlari, nafaqalari borasidagi huquqlari va h.k.

Dunyodagi barcha dinlarda oila masalasi, uning tinch-totuvligi hamda mustahkamligiga alohida e'tibor berilganini ko'rish mumkin. Aynan oilada diniy ong asoslari shakllanadi, ilk diniy tajriba paydo bo'ladi. Oila – qondoshlik yoki o'zaro nikoh orqali bog'langan insonlar jamoasidir. U insoniyat davomiyligini ta'minlovchi eng muhim omil bo'lib, uning mustahkamligi jamiyat barqarorligi va ravnaqining garovi hisoblanadi. Oila bunyod bo'lishining asosi bo'lgan nikoh muqaddas hisoblanadi. Islom ta'limotlariga ko'ra ikki jins vakillari o'rta sidagi jinsiy yaqinlikning yagona to'g'ri yo'li nikoh orqali amalga oshadi. "Nikoh" so'zi arab tilida "uylanish", "qo'shilish", degan ma'nolarni anglatadi. Shariat istilohida esa, nikoh erkak bilan ayolning o'zaro oila bo'lib yashashga kelishuvidir. Oila

qurish jamiyatdagi har bir balog‘atga yetgan insonning ixtiyoriy huquqlaridan biridir.

Islomda oila quyidagi shartlarga rioya qilishi qayd etilgan: oilaning bir-biriga munosib odamlardan tashkil topishi; oila qurishdan oldin, avvalo, har bir kishi o‘ziga munosib juft tanlashga e‘tibor qaratishi lozim. Nikoh qurishdagi tenglikning bunday shakli shariatda “kafoat” deyilib, ya‘ni tenglik yetishmasligi nikohga to‘sqinlik qilmasa-da, ammo zaruriy shartlardan ekaniga ittifoq qilganlar; er-xotin orasidagi o‘zaro hurmat va totuvlik; oilada er-xotinlik o‘zaro muhabbat, hurmat hamda mehr-muruvvatga asoslanishi zarur. Er-xotin bir-birlariga e‘tiborli, barcha narsada xolis, oilaviy sirlarni saqlash, sadoqatli bo‘lishlari talab etiladi. Oilaning sirlarini yoyish kabi holatlar qattiq qoralanadi; erkak kishi o‘zining oila ustuni ekanini hamda zimmasidagi mas‘uliyatini his etishi, ayoliga yaxshi munosabatda bo‘lishi ham muhimdir³⁷.

Islom ta‘limotida Qur‘onga va Payg‘ambar sunnatlariga asoslanuvchi va so‘zsiz bajarilishi shart bo‘lgan diniy va huquqiy me‘yorlar va ko‘rsatmalar yig‘indisi shariatdir. Qur‘on oyatlarining katta qismi oila va nikoh, diniy marosim va odatlarga oid qoidalar va ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

3.4. Islom ta‘limoti

Mazmun. *Islom ta‘limoti. Islom ilohiyoti, uning asosiy aqidalari. Islom falsafasi – odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to‘g‘risida. Abu Nasr Forobiy va Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari. Abu Homid G‘azzoliy, Ibn Rushdning falsafiy ta‘limotlari. Imom Moturudiy ta‘limoti. Kalom falsafasi. Tasavvuf ta‘limoti va tariqatlari. O‘zbekiston allomalarining islom ta‘limoti va dinshunoslikni rivojlantirishdagi xizmatlari.*

**Islom ilohiyoti, uning
asosiy aqidalari**

Qur'onda "al-islom" atamasi "al-imon" (ishonch) va "ad-din" (din, diniy majburiyatlar yig'indisi) so'zlariga yaqin ma'noda 8 marta uchraydi³⁸. Arab tilida "din" so'zi juda keng

ma'noda ishlatiladi: 1) islomgacha bo'lgan davrda – "urf-odat", "taomil"; "ajr", "jazo", "mukofot", "savob", "hukm, bo'ysunish"; 2) din atamasi Qur'onda islomga hamda majusiy, yahudiy va nasroniylar e'tiqodi va ibodatiga nisbatan ham ishlatiladi: (albatta, Alloh nazdida (maqbul) din Islom (dini)dir... (Oli Imron surasi, 19-oyat). Sizlarning diningiz sizlar uchun, mening dinim men uchundir (Kofirun surasi, 6-oyat). Ey, siz (ahli kitoblar) – o'zingiz biladigan narsalar (Musos va Iso)lar haqida (bilib-bilmay) bahslashdingiz. Nega endi bilmagan narsangiz (Ibrohim dini) haqida bahslashasiz?... (Oli Imron surasi, 66-oyat). Allohning (haq) dinidan o'zga dinni istaydilar mi?! Vaholanki, osmonlaru yerdagi barcha zotlar (farishtalar, insujinlar) xoh ixtiyoriy, xoh majburiy Unga bo'y sungandir va Uning huzuriga qaytarilurlar (Oli Imron surasi, 83-oyat). Ammo "din" so'zining asosiy Qur'oniy mazmuni islom uchun muhim g'oyasi bilan bog'liq, ya'ni Allohga bo'ysunish, uning amrlariga taslim bo'lmoq demakdir.

Qur'onda din atamasi³⁹

- a) "Qiyomat kun", "ajr" ma'nosida;
- b) aynan bir kishining diniy e'tiqodi (Qiyoslang: (Ey, Muhammad,) albatta, Biz Sizga bu Kitobni haqiqatan nozil qildik, bas, Siz Allohga – dinni Unga (shirkdan) xolis qilgan holda ibodat qiling! (Zumar surasi, 2-oyat);
- v) diniy jamoaning ibodati ma'nosida ishlatiladi Ayting: "Rabbim meni to'g'ri yo'lga, rost dinga, Ibrohimning hanif – to'g'ri diniga yo'lladi. (U) mushriklardan emas edi" (An'om surasi, 161-oyat);
- g) "din" atamasi "Yaum ad-din" iborasi tarkibida aynan bir payt (vaqt, kun) yoki qaror ma'nosini anglatadi. Misol uchun "evaziga ko'ra jazo" mukofot, ajr, ajrim kuni" (Mana shu sizlar (dunyoda) yolg'on debo'tgan Ajrim kunidir (Soffot surasi, 21-oyat). Qiyomat, jazo kuni, qayta tirilish kuni, (U jazo kuni (qiyomatda) mening

xatolarimni mag‘firat etishini umid qilurman (Shuaro surasi, 82 - oyat). “Qayta tirilgan Kunda meni sharmanda qilmagin!” (Shuaro surasi, 87 - oyat.) Ularning barchasi Qiyomat kuni yolg‘iz holda Uning huzuriga kelishidir (Maryam surasi, 95-oyat);

d) diniy marosim, diniy jamoa hayotining ajralmas qismi va h.k. ma’nolarida 100 martadan ortiq uchraydi. “Din” so‘zining asosiy Qur’oniy mazmuni Allohga bo‘ysunishning majburiyligi va uning hukmronligining cheksizligi g‘oyasi bilan bog‘langan. Masalan, (“A’robiylar: “Imon keltirdik”, – dedilar (Ey, Muhammad! Ularga) ayting: “Sizlar imon keltirganingiz yo‘q, lekin sizlar “Islomga kirdik” deng! (Chunki hanuz) dillaringizga imon kirgan emasdir. Agar sizlar Allohga va Uning payg‘ambariga itoat etsangiz, U sizlarga (qilgan yaxshi) amallaringizdan (savobidan) biror narsani kamaytirmas. Albatta, Alloh mag‘firatli va rahmlidir” (Hujurot surasi, 14-oyat, Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri). Shu oyati karimadan ma’lum bo‘ladiki, imon bilan islom, mo‘min bilan musulmon mazmun jihatdan farq qiladi. Imon – bu ilohiy ta’limotni tan olib tasdiq etish bo‘lsa, islom – ilohiy ko‘rsatma va buyruqlarni amalda bajarishdir. Bu oyatda mo‘minlikni da’vo qilayotgan bir guruh a’robiylarga Alloh taolo raddiya berib, "Yo‘q! Sizlarda imon yo‘q, balki o‘zlarinigizni musulmon ko‘rsatish uchun amal qilib turibsiz",– degan mazmunda tanbeh bergan".⁴⁰.

Islomshunoslik qomusiy lug‘atida: “Din aqida, shariat va tariqat bobidagi ilohiy ko‘rsatmalarning to‘plamidir”. Aqida so‘zi arab. “aqd” o‘zagidan yasalgan – bir narsani ikkinchisiga mahkam bog‘lash ma’nosini anglatadi. Ko‘p lik shakli – aqoid, musulmon kishini ma’lum narsalar bilan mahkam bog‘lab turadigan e’tiqodlar majmuyidir. Islomning asosiy aqidasi – “Allohdan o‘zga sig‘iniladigan (iloh) yo‘q! Muhammad Allohning rasulidir”(kalimayi tavhid). 7 aqidani o‘z ichiga olgan mo‘minlikning batafsil ifodasi quyidagicha bo‘lishi mumkin: Allohga, Uning farishtalariga, rasullariga, kitoblariga, Qadarga (taqdir, qismat, yozmish, al-qada’ va-l-qadar) ya’ni yaxshilik va yomonlik Alloh tomonidan taqdirida belgilangan, “peshonaga yozilgan”ga, Oxirat kuniga va o‘limdan keyin qayta tirilishga ishonmoq.

Aqoid – diniy e'tiqodning nazariy qismi, uning ma'naviy asosi, aqidalar yig'indisidir. U dinga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shariat islom dinining amaliy qismidir. U ibodat (usul ad-din) (namoz, ro'za, zakot, haj) va muomalotga bo'linadi. Muomalot – fuqarolik huquqi munosabatlarini o'rganadigan bo'lim hisoblanadi. Uqubot, deb nomlangan bo'lim islom huquqining jinoyat va jazo masalalarini o'rganadi.

Tariqa (tarīqa– aynan “yo'l”, “usul”) atamasi “haqqa to'g'ri yo'l”, “bayon etish usuli, misol tariqasi” ma'nosida Qur'onda mavjud. Ularni Qur'onning ikkita oyati misolida ko'rish mumkin: Ular dedilar: "Ey, qavmimiz! Darhaqiqat, biz Musodan keyin nozil qilingan, o'zidan oldingi (ilohiy kitob)larni tasdiq qiluvchi haq (din)ga va to'g'ri yo'lga hidoyat qiladigan bir Kitobni (Qur'onni)tingladik (Ahqof surasi, 30-oyat). Shu tariqa Alloh sizlarga o'z oyatlarini bayon etadi, shoyad (shunda) aqlni ishlatsangiz (Baqara surasi, 242-oyat).

Islom dinining besh asosiy rukni (arab. asos, ustun) – eng muhim beshta vazifa: 1. Imon, ya'ni Allohning yagonaliliga, Muhammad (“La ilaha illallah, Muhammadur rasululloh”. Kalimayi shahodat); Rasullohligiga, payg'ambarlariga ishonish; kitoblariga, avvalam bor Qur'onga ishonish; Zabur, Tavrot va Injilda zikr etilgan payg'ambarlar va b. 2. Namoz. Har bir musulmon kishining kuniga besh mahal poklanib, qibla tomonga Makkaga yuzlangan holda amalga oshiradigan ibodati. 3. Ro'za (fors., kunduzgi ish; arab. saum – biror narsadan o'zini tiyish ma'nosini anglatadi) yilda bir oy – qamariy taqvimning Ramazon oyi davomida kunduz kunlari yeyish-ichish va jinsiy aloqada bo'lishdan tiyilish. 4. Zakot – arab tilidan poklash ma'nosini bildiradi. Mulk va daromaddan olinadigan shart bo'lgan moliyaviy haq bo'lib, zakot miqdori shariat tomonidan belgilangan bo'lib muayyan boylikka ega bo'lgan musulmonlar zakot beradi. 5. Haj – jismoniy va moliyaviy jihatdan qodir bo'lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka'bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o'z ichiga oladigan arkonlarni ado etish hisoblanadi.

Islomda farz qilib qo'yilgan asosiy shartlardan biri namoz bo'lib, kecha-kunduzda besh mahal (bomdod, peshin, asr, shom, xufton) namozlarini o'qish farz hisoblanadi. Namozni kishi bir o'zi yoki jamoa bo'lib o'qishi mumkin, lekin juma

kuni peshin namozi masjidida o'qilishi ma'qullanadi. Erkaklar va ayollar alohida jamoa bo'lib namoz o'qiydilar, er va xotin jamoatdan alohida bo'lgan holat bundan mustasno. Mastlikda, alahsirash va karaxtlik paytida namoz o'qilmaydi. Tahorat uchun suv bo'lmagan paytda pokiza yer, qum, tuproq, tosh bilan tayammum qilinadi.

Ramazon ro'zasini vaqtida ado qilish ham islomda farz qilingan amallardandir. Dastlab ro'za tutish Muhammad payg'ambar Madinaga hijrat qilganidan bir yarim yil o'tgach, 624-yildan boshlangan. 30 kun mobaynida sog'lom, balog'at yoshidagi musulmonlarga farz qilingan. Ro'za bu tong otgandan to quyosh botguncha yemoq, ichmoq, jinsiy aloqani, g'iybatni, chaqimchilikni va hokazo harom qilingan narsalarni niyat bilan tark qilmoqdir. Quyosh botishi bilan taqiqlar to'xtaydi, biroq haddan ortiq yeyish-ichish ma'qullanmaydi, bu vaqtda gunohdan saqlanish, taqvodorlar suhbatida bo'lish, Qur'onni o'qish, o'zaro nizolarga chek qo'yish, sadaqa berish, kabilar bilan mashg'ul bo'lish joiz.

Quyidagi odamlarga ro'za farz bo'lmaydi: 1. Musulmon bo'lmaganlarga. 2. Aqli joyida emaslariga. 3) Balog'atga yetmagan yosh bolalarga. Shuningdek, Musofirga, bemorga, hayz yoki nifos ko'rgan ayolga ham ro'za tutish farz bo'lmaydi, lekin ular safardan qaytganda, tuzalganda, poklanganda qazosini tutib beradilar. O'ta qari shaxs, yoki homilador, emizikli ayol, yoki musofir ro'za tutishdan o'ziga qiz bo'lsa, bular ro'za tutmaslikka ruxsatlilar, deb hisoblanadi. Keyin ro'za tutishga qodir bo'lib qolsa, qazosini tutadi, yoki har bir tutmagan kuni uchun bir miskinga sadaqai fitr miqdorida taom beradi, yoki fidyasini qazo qiladilar.

Zakot (arab. o'sish, poklanish) ham diniy, ham ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, musulmonlar mol-mulki, boyliklaridan faqir-miskinlarga berilishi shart bo'lgan moliyaviy haq zakot hisoblanadi. Zakotning shartlari: balog'at yoshiga yetgan va aqlu hushi joyida bo'lgan, musulmon bo'lishi, hur va ozod bo'lgan, nisob miqdoriga yetgan jamg'arma mol-dunyoga ega bo'lishi lozim.

Qodir bo'lgan musulmonga umri davomida kamida bir marta haj qilishi farz qilingan. "Haj" so'zi (biror ishni) "qasd", "maqsad qilish", "niyat qilish", "yuzlanish" ma'noni anglatadi, shar'iy istilohda esa maxsus amallarni ma'lum bir

joyda, muayyan vaqtda ado etishni qasd qilishdir. Maxsus joy – Masjidul Harom, Mino, Arafot va Muzdalifa hajning bosh rukni Arafot maydonida turish muayyan vaqt, Zulhijja oyining to‘qqizinchi kuni bo‘lishi shart. Maxsus amal esa Baytullohni tavof qilish, Safo va Marva orasida sa’y qilish, Arafotda turish, Muzdalifada tunash va shaytonga tosh otishdir.

Taqvodor musulmon kishi har bir xayrli ishni “Bismilloh” (Alloh nomi bilan) iborasi bilan boshlashi lozimligi ta’kidlanadi. Qur’onning barcha suralari (Tavba surasidan tashqari) “Bismillahir-rohmanir-rohim” (Mehribon va rahmli Alloh nomi ila) so‘zlari bilan boshlanadi. Ushbu ibora musulmonlar tomonidan tez-tez takror aytiladi, masalan, ovqatlanishdan avval, nutq boshida va h.k.

Islomda asosan ikkita rasmiy diniy bayram mavjud. “Hayit” – arabcha “iyd”, ya’ni bayram demakdir. Ro‘za hayiti (arabcha nomi “iyd al-fitr”) qamariy shavvol oyining 1-kunida va Qurbon hayiti (arabcha nomi “iyd al-adho”) zulhijja oyida keng nishonlanadi. Bundan tashqari mavlid – Muhammad payg‘ambarni yodga olish kuni, laylatul qadr, me’roj – Payg‘ambarning Alloh huzuriga arshi-a’loga ko‘tarilishi va boshqa e’tiborli sanalar ham mavjud. Shia musulmonlari imomlar Ali, Husan va boshqalarni xotirlab maxsus bayramlarni nishonlaydilar.

Islom falsafasi | Islom falsafasi odamning yaratilishi, inson hayotining mazmuni, ezgulik va yovuzlik kurashi to‘g‘risidagi Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida, Abu Homid G‘azzoliy, Ibn Rushdning falsafiy ta’limotlarida, Imom Moturidiy ta’limoti va kalom falsafasida o‘z aksini topgan. Buyuk mutafakkirlarimiz o‘ziga xos falsafiy ta’limotlari bilan ilm-fanning turli sohalari rivoj topishiga turtki berdilar. Al-Forobiy “Ikki qarash jam qilingan kitob”ida Yunon faylasuflari Aflotun va Arastuning qarashlarini islom ilohiyatiga yaqinlashtirishga urindi. Forobiy kabi Ibn Sino ham vujudni ikki qismga ajratadi:

- 1) "Vojib ul-vujud" (ya’ni Alloh – Birinchi Sabab – hamma narsalarning asoschisi va boshi – Allohning bo‘lishi zarur);
- 2) "Mumkin ul-vujud" (ya’ni Tangridan kelib chiqqan barcha narsalar (odam, o‘simlik, quyosh)ning bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin), degan

g'oya ilgari surilgan. Forobiy va uning mantiqiy qarashlarini davom ettirgan Ibn Sinoning asarlaridan jahon olimlari keng foydalanganlar.

Vujudi vojib va vujudi mumkin – sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanatsiya tarzida, ya'ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo'lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog'liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Ushbu substansiya (javhar)dan tashqari borliqda aksidensiya (siymo) mavjud, ya'ni narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hislari. Jism shakl va moddadan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo'lmish materiya ham abadiydir⁴¹.

Abu Nasr Farobiy antik falsafiy modellari (aristotelizm, neoplatonizm) va X asr tabiatshunosligining kashfiyotlari asosida o'zining falsafiy kontsepsiyasini yaratdi.

Islomiy ilmning an'analari (Ilm nakliya)dan tashqari Farobiyning islom falsafasi aqlga asoslangan (Ilm aqliya). "Sharq Aristoteli, Ikkinchi muallim" deb tan olingan Farobiy bilimlar nazariyasiga ulkan hissa qo'shgan. U dunyoviy va diniy ilmlarning uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surdi. "Himmatli shahar aholisining nuqtai nazari haqida" kabi ijtimoiy-axloqiy risolalarda al-Farobiy himmatli shaharni davlatga tenglashtiradi, inson organizmiga o'xshatadi. Tirik jonzot hayotini saqlab qolish maqsadida barcha a'zolari bir-biriga yordam berishu shart.

Ar-Roziy bilim falsafasi islomning ratsionalistik ilohiyotini, antik Aristotelizm va neoplatonizm falsafasini islom ilohiyoti bo'lmish kalom bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muvaffaqiyatli urinishdir. Ilm-fanga "Buyuk skeptik" nomi bilan ma'lum bo'lgan ar-Roziy o'zining "Sharq muzokaralari" ("al-Mabashit al-Mashriqiya") asarida islom olamining olimlari bilan munozara qildi, ularning falsafiy va diniy qarashlarini umumlashtirdi, Ibn Sinoing "Kitob al-ishorot val tanbexot" va "Kitob at-tafsir al-kabir" nomli Qur'onga sharhi yo'zdi. Uning "Gyoshiy ul-lug'at" kitobi hali o'rganilmagan.

Ibn Miskavayh o'zining mashhur «Tahdhib al'Akhlaq» asarida islom falsafasining axloqiy tamoyillariga ratsionalistik izoh beradi. Asar, shuningdek,

"Tathir al'Araq " ("Axloq pokligi") ikkinchi sarlavhasi bilan ham tanilgan. Ibn Miskavayh o'zining falsafiy asarida ta'kidlaydiki, insonning tabiatiga o'zining ehtirolarni aqli bilan boshqarish xosdir. Bundan foydalanish – farovonlik, baxtli hayot va ijtimoiy odalotning shartidir.

Jaloliddin Rumiyning falsafiy-diniy merosi g'oyat katta. So'fiyona mushohadalar, ruhiyat dialektikasini kashf etib, teranlik bilan yozilgan "Masnaviy-ma'naviy", bu mashhur asarga qo'shimcha bo'lmish "Fih-i mā fihī" nomli asarlari ham mavjud. "Fih-i mā fihī"ni "Ichindagi ichinda" deb tarjima qilish mumkin (ingliz tilida – «It Is What It Is» ("Rumiylar diskurslari")). Jaloliddin Rumiylar alloma va Mavlaviya tariqatining shayhi, uning diniy va falsafiy asarlari islom adabiyoti va falsafasining yanada rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Islom falsafasi G'arb falsafiy tafakkuriga katta ta'sir ko'rsatdi. Masalan, XIII va XVI asrlarda Averroizm, ya'ni Ibn Rushdning (Averroes) dunyoning abadiyati va yaramasligi haqidagi falsafiy ta'limoti keng tarqaldi. Ibn Rushdning asarlari lotin tarjimasini tufayli G'arbiy Evropada tarqaldi, lekin katolik cherkovi tomonidan tanqid qilinib taqiqlandi.

Musulmon madaniyatida bilim konsepsiyasi Yunon-Rim falsafasidan farqlanadi. Islomshunoslikda "ilm" atamasining har xil izohlari mavjud. Qur'onda "ilm, (ko'pl. – bilim)" so'zi va uning ildizidan tarkib topgan o'zakdosh so'zlar taxminan 765 marta uchraydi, uning turli ma'nolari mavjud. 1. Mutlaq bilim (Allohning bilimi – barcha narsadan xabardorlik). 2. Inson bilimi: a) islomiy ilmlari: ilm al-hadis, ilm al-kalam va h.k., b) dunyoviy bilimlar.

Jahonda tan olingan amerikalik sharqshunos Frans Rouzentall o'rta asrlarda islomdagi ilm mavqeyiga bag'ishlangan "Knowledge triumphant. The Concept of Knowledge in Medieval Islam" nomli monografiyasida ushbu davrning eng muhim ilmiy-falsafiy, bilim nazariyasiga oid gnoseologik muammolarini yoritgan. Muallif boy qo'lyozma fondidan foydalandi va qiziqarli yangi ma'lumotlarni o'z fundamental tadqiqotiga kiritdi.

Hadisshunoslar, mutakallimlar "bilim" tushunchasiga to'g'ri keluvchi ta'rif izlash ishiga katta hissa qo'shganlar. Har bir ilohiyotga doir kitob "ilm"

ta'rifini muhokama etuvchi "Bilim kitobi" deb nomlangan qismga ega bo'lgan. Bu an'anani F.Rouzental fikricha Ismoil al-Buxoriy (810-870) boshlab bergan. Al-Buxoriyning "Bilim kitobi" o'z davrining "bilim metodologiyasi", hadisshunoslikning ajralmas qismi hisoblangan. Keyinchalik hadisshunoslikda, kalomda "bilim" muammosini muhokama qilish yana bir muhim maqsadga - bilimning haqiqiy dinga doir imon bilan bog'liqligini ko'rsatib berishga xizmat qiladi⁴².

Islom ilmi uchun arab tilini, kamida arab tilidagi atamalar ma'nosini bilish muhim hisoblanadi. Shu munosabat bilan bu yerda asosiy tushuncha va atamalar arab transliteratsiyasida, ya'ni arabcha so'zlarning kirill yoki lotin alifbosida yozilganini aytib o'tish joiz. Ularni ona tili vositalarida tarjima qilish mazmunning buzilishiga olib keladi.

Qur'onda "ilm" so'zi va undan hosila so'zlar 765 marta uchraydi. Har qanday ilm kabi uning ham o'z o'rganish predmeti mavjud. Islom ilmi Qur'onni turli usullar bilan izohlaydi.

Tafsir – Qur'on va sunna matnilardagi so'zlarni tarixiy-filologik tahlil orqali o'zining davriga mos asl ma'nosida sharhlashga (ahl az-zahir) qaratilgan usuldir. Kalom va uning turli maktablari, masalan, moturidiya ta'limoti (asoschisi – Abu Mansur al-Moturidiy) ta'vil (arab. - izoxlash, asl ma'nosiga qaytarish), deb atalmish metoddan foydalangan, ayrim murakkab oyatlar mazmunini o'z bilimi doirasida izohlash. *Tasavvuf* va ismoiliylikda Qur'onning – yashirin, botin mazmuni (ahl al-botin)ni izlashga yo'naltirilgan majoziy va ramziy sharhlash ham qo'llaniladi. Ismoiliylar o'z imomlari va ularning vorislarigina Qur'on oyatlarining botin ma'nosini anglashga qodir, deb hisoblaganlar. Islom falsafasi va kalomda bir xil metod – ta'vildan foydalanadilar. Al Forobiy islomni jamiyatdagi axloqiy-huquqiy munosabatlarni boshqarishning muhim "siyosiy san'at"i (sina'a siyasiya) sifatida qarash an'anasiga asos soldi. *Sunnat* taqvodor hayot tarzi va muammolarni yechishning modeli sifatida ya'ni Muhammad payg'ambarning hayoti, uning muomala va xatti-harakatlari, fikr-mulohazalari va loyiq, deb bilgan, munosib ko'rgan ma'qullashlari (taqdir), qilgan ko'rsatmalari to'g'risidagi rivoyatlarni

o'rgatadi. Bular sunniylarning hadislar (arab. – xabar, yangilik) va shialiklarning xabarlar to'plamini tashkil etadi. *Fiqh* islom huquqi Qur'on va sunnat asosida ibodat bilan bog'liq amaliyot qoidalarini belgilab beradi, musulmonlarning o'zaro va o'zga konfessiyalar bilan munosabatlarni tartibga soladi. Fiqh – islom huquqi va qonunchiligi msnbai, uni diniy huquq bilimdonlari bo'lmish faqihlar sharhlaydi. *Muftiy* – shariatni sharhlovchi, ma'naviy va fiqhiy masalalar bo'icha xulosa beruvchi shaxs. Balog'at ilmi tahsil qilish orqali Qur'on va hadislarining nozik ma'nolarini tog'ri tushunish, anglshga yordam beradi va da'vatda qo'llaniladigan tilning psixolingvistik usullari va usullari va vositalarini o'rgatadi.

X-XIII asrlarda Movarounnahr hududida madrasalar keng tarqolgan edi. Asosiy islomiy ilmlardan tashqari, falsafiy va aniq fanlar – falsafa, mantiq, balog'at ilmi, handasa (geometriya, chizmachilik), xisob (arifmetika, algebra), hayot (astronomiya) bilimlarni bilish shart edi. O'quv dasturida leksikografiya, sintaksis (nahv), tarix, djugrafiya (geografiya) kabi dunyoviy fanlar mavjud edi. Bunday diniy ta'lim tizimi O'rta Osiyoda nafaqat Qur'on, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha mutaxassislarni, balki ko'plab gumanitar va aniq fanlar mutaxassislarini tayyorlashga yordam berdi. Taniqli islomshunos olimi A.K. Muminov O'rta Osiyo va Usmonli Turk imperuyasidagi diniy ta'lim tizimlarini qiyosladi va shuni tasdiqladiki, O'rta Osiyo ilmiy an'analari Usmonli madrasalarining shakllanishii va rivojlanishiga ulkan ta'sir etdi. Sulton Muhammad Fotih (1451-1481) davrida ularning soni 500 bo'lgan⁴³.

Kalom falsafasi. Ilk islomda aqidaviy, siyosiy va fiqhiy masalalardagi ixtiloflar kalom ('ilm an-nazar va-l istidlal)ning paydo bo'lishiga olib keldi. VIII asrda siyosiy va fiqhiy masalalardagi munozaralar kalom (ilm an-nazar va-l istidlal)ning – islom ilohiyoti nazariyasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Kalom (arab. – ayn. qamish qalam. 1) so'z, jumla, gap; 2) ravon nutq), tarafdorlari mutakallimlar, deyiladi. Kalom islom ilohiyotini aql va tafakkur yordamida asoslashga harakat qiladi. Bu borada deduktiv usuli (istidlal) qo'llaniladi. Bu nazariy mulohaza ma'lum qoidalardan, misol uchun islom aqidalaridan, xususiylariga qarab yuritilish va mantiqiy xulosa chiqarish usuli, degan ma'noni

anglatadi. Kalom turli diniy-siyosiy guruhlar (xorijiylar, qadariylar, jabariylar, murji'iyalar va h.k.) paydo bo'lishi bilan bog'liq bahslar jarayonida vujudga kelgan va tarqalgan. O'rta asrlarda kalom atamasi islomiy adabiyotda keng ma'noda ishlatilar edi va har bir diniy-falsafiy mulohaza ma'nosini anglatar edi. Tor ma'noda kalom – diniy aqidalarni aqliy dalillar bilan mustahkamlovchi islom ilohiyot ilmidir. Mutakallimlar ommaviy munozaralarda aql-idrokka asoslangan yo'lni va mantiqiy isbotlash uslublarini keng qo'llaganlar. Bu ularni faylasuflar bilan yaqinlashtirgan. Kalomning tasavvufdan farqi shundaki, biri yangi bilim vositasi sifatida aqlni ishlatib, ikkinchisi haqiqatga erishish uchun intuitiv tarzda o'z tariqatiga oid maxsus amaliyotga tayanadi. Mutakallimlar ulamolar fikrlariga taqlid qilishdan ko'ra islom aqidalardan mustaqil tarzda mantiqiy xulosa chiqarishni afzal bilganlar. Bu bilan mutakallimlar kalomni bid'at, deb e'lon qilgan salafiylardan ajralib turadilar. Salafiylar (arab. salaf – "ajdodlar", "o'tmishdoshlar") - islomning turli davrlarida ilk musulmon jamoasi "solih ajdodlar" e'tiqodi va turmush tarziga rioya etishni da'vat etib, keyingi davrda kiritilgan barcha yangiliklarni bid'at, deb e'lon qilgan musulmon din arboblarning umumiy nomi.

Kalomning yirik namoyandalari bo'lgan al-Ash'ariy (873-935) va al-Moturidiy (870-944) "naql" va "aql" tarafdorlarini murosaga keltirishga uringanlar. Imom al - G'azzoliy (1111-y. v.e.) kabi mashhur musulmon ulamolari kalom ilmi haqida o'z zamonlari va bilimlariga qarab ijobiy va salbiy fikr bildirganlar. Ibn al-Jauziy fikricha kalom ko'p chilik mutakallimlarni shubhaga solgan, ba'zilarni – dahriylik (ilhad)ga yo'naltirgan. Ash'ariylar maktabi asosan shofe'iyalar orasida tarqalgan bo'lsa, moturidiylik hanafiylik doiralarida ko'p lab tarafdorlarga ega bo'ldi va xususan, Movarounnahr musulmonlarining asosiy aqidasi aylandi. XIII asrdan kalom Ibn Sino asos solgan Sharq falsafasi bilan yaqinlasha boshladi. Natijada arab tarixshunos va faylasuf olimi Ibn Xaldun (1332 –1406) fikricha kalom va falsafani bir-biridan ajratish mushkul bo'lib qoldi.

Kalom tomonidan ishlab chiqilgan ratsionalistik yo‘l-yo‘riqlar, tafakkur qilish va bahs-munozara yuritish usullari keyingi teologik maktablar tomonidan qabul qilingan va ijodiy ravishda qayta ishlangan⁴⁴.

Islom falsafasi G‘arbiy Yevropa falsafiy tafakkuriga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Masalan, XIII-XVI asrlarda averroizm, ya‘ni Ibn Rushd (Averroes)ning dunyoning abadiyligi va yaratilmaganligi, barcha odamlar uchun umumiy, yagona dunyoviy aqlning individual jonlarning substansial (butun borliqning birlamchi) asosi ekanligi haqidagi ta‘limoti keng rivojlandi. Ibn Rushd asarlarining lotinchaga tarjimasini orqali averroizm G‘arbiy Yevropaga tarqaldi, ammo u katolik cherkovi tomonidan tanqid qilindi va quvg‘in ostiga olindi.

Tasavvuf ta‘limoti va tariqatlari | VIII-X asrlarda islomda sufiylik (tasavvuf) paydo bo‘ldi. ko‘pchilik olimlarning fikricha bu atamaning etimologiyasi “suf” – jun so‘zi bilan bog‘liq. Bu fikr o‘z davrida o‘rta asrlar musulmon mualliflari tomonidan ham aytilgan bo‘lib, qo‘pol ishlov berilgan jun kiyim tarkidunyo qilgan zohidning odatdagi belgisi sanalgan. ko‘p lab sufiylarning boshlanishi shunga borib taqaladi. Sufiylarning ko‘p chiligi “svf” o‘zagini “sof”, “pokiza” so‘zining ma‘nosi yoki “ahl as-suffa” (“kursi”, “maktab”, “ayvon”, “soyabon”) iborasi bilan bog‘laydilar, bu ibora Payg‘ambarga juda sodiq va taqvdor, xudojo‘y kambag‘allarga nisbatan qo‘llanilgan. Ular “suffa”da aylana bo‘lib o‘tirishib, borliqning mazmun-mohiyati, Allohning sifatleri va shular haqida suhbatlashishni yoqtirishgan. G‘arbiy yevropalik olimlar to XX asr boshigacha “sufizm” so‘zi yunoncha “sofiya” (oqillik, ziyo, donishmandlik)dan kelib chiqqan, deb hisoblashardi⁴⁵. Hozirda sufiylikning ma‘nosi “jun”, “po‘stin” degan so‘zdan kelib chiqqan, degan fikr shunchalik nozik diniy falsafiy maktab bo‘lmish sufiylikni ifodalash uchun juda soddalik qiladi, chunki sufiylar orasida po‘stin kiyimaydiganlari ham bo‘lgan, deb hisoblaydiganlar ham kam emas. Shuning uchun ko‘p olimlar bu talqinning to‘g‘riligiga shubhalanishadi.

Sufiylik doirasida Allohning ismini xotirlash yoki ma‘lum xatti- harakatlarni ado etish – zikr, qo‘shimcha namoz o‘qish – nafila va b.lar vujudga keldi.

Falsafa va kalom ilmi bilan boyigan sufiylik ancha ommaviy oqimga aylandi. Unda ko'p lab sufiylikning "tariqat deb atalgan jamoalari vujudga keldi. Bu ibora original etimologiyada sufiyning mistik va diniy-axloqiy jihatdan o'z-o'zini kamolotga yetkazishi, intuitiv ravishda haqiqat (al-Haqq)ga erishish usulini, fikr-mulohaza va psixo-fizik mashqlar orqali unga, ya'ni haqiqatga aloqadorligini anglatadi. O'z taraqqiyotining ana shu bosqichida tariqat sufiylikning mohiyatini asta- sekinlik bilan o'zlashtirishni, ruhiy tajriba orqali mushohada qilishni anglatadi. Keyinchalik sufiylik guruhlarining institutsionallashuvi boshlanishi bilan qator yo'nalish va maktablar paydo bo'ladi va "tariqat" atamasi o'z mazmunini kengaytirib, bu maktablarga nisbatan qo'llanila boshlandi.

Sufiylikda ta'limning muvaffaqiyati muridning o'z o'qituvchisi, shayx bilan tenglashishga, unga o'xshashga qanchalik darajada intilishiga bog'liq. Bu "uning shaxsiga qorishib, aralashib ketish", keyin esa Allohga qo'shilishning asosiy yo'lidir⁴⁶.

Sufiylikdagi meditatif tajriba din psixologiyasi uchun o'ziga xos qiziqish o'yg'otadi. Uning faol va passiv turlari bir-biridan farqlanadi. Passiv meditatsiya – bu diqqatning konkret real yoki tasavvur qilinuvchi detallar – naqsh, husnixat, harf va shu kabilarga yoki mavhum tushunchalar – Alloh, muhabbat, erkinlik va shu kabilarga to'planishidir. Meditatsiya konkretlikni detallashtirish tajribasidan boshlanadi. Masalan, e'tiborni husnixatga to'plash jarayonida fikr va ruhdagi ichki tartibsizlik tartibga keladi, qo'rqinch va g'azab, jahl va tashvish pasayadi. Allohning 99 ismiga e'tiborni to'plash sufiylardagi faol meditatsiyaga misol bo'la oladi.

Allohni doimiy eslash va bu hissiyotni mustahkamlash, "zikr" orqali erishiladi. Sufiylar bunda o'zlarining Alloh bilan to'xtovsiz aloqada ekanligini his qiladilar. Allohga erishish yo'lining bosqichlari quyidagilardir: 1) asketizm, o'zini tartibga solish va irodani mustahkamlashga ko'maklashadi; 2) ilohiy muhabbatni his qilishga xalaqit beruvchi qo'rqinchni, eng avvalo, o'lim qo'rqinchini yo'qotish:

3) jannatga, oliy ilohiy huzur-halovatga intizorlik; 4) Allohga muhabbat, u Alloh bilan o‘zaro muhabbatga cho‘lg‘anish hissida aks etadi⁴⁷.

Raqs sufiylikda o‘ziga xos harakat meditatsiyasi sanaladi. Bunday xatti-harakatlarni qo‘llashning turli usullari mavjud. Faol meditatsiya sufiyga Alloh bilan birlashishni his etishga ko‘maklashadi. Darvishlar raqsi, ularning aylanishi va tanalarining boshqa holatlari, muzika va qo‘shiq aytish ruhiy ekstazga erishishga yo‘naltirilgan. Sufiylik poeziyasi allegorik shaklda Allohga muhabbatni kuylaydi, chunki unga hamma vaqt ham U haqidagi bahs-munozaradagina emas, balki o‘z ruhini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Shuning uchun sufiylar so‘zdan ko‘ra psixotexnik amaliyotni ustun qo‘yishadi. E‘tiborga loyiq joyi shundaki, dinlar o‘rta sidagi tafovutlar diniy tajriba darajasida emas, balki tushunchalar, ya’ni og‘zaki darajada, aqidaviy bahslar jarayonida yuz beradi. Jaloliddin Rumiy bu fikrni fil haqidagi masalda isbot qilib beradi: yaqinda Hindistondan keltirilgan filni tor bir xonaga qamab qo‘yishadi. Unga kirishga faqat qorong‘i tushgandagina ruxsat berishadi. Qorong‘ilikda hech narsani ko‘rmay, qiziquvchan tomoshabinlar fil tanasining turli joylarini paypaslab ko‘rishadi va filning qanaqa ekanligi to‘g‘risida bahslashadilar. Uning xartumiga tekkan kishi: “Fil suv oqib tushadigan tarnovga o‘xshaydi” desa, uning qulog‘iga qo‘l tekkizgan odam: “Sen yolg‘on aytyapsan. Bu hayvon yelpig‘ichga o‘xshaydi” deydi. Uchinchi odam uning oyog‘iga qo‘l tekkizib, “U yo‘g‘on yog‘ochga o‘xshaydi” deydi. Bu odamlarning barchasi bu hayvonni ko‘rmasdan, uni turlicha tasavvur qiladilar. Bordiyu ularda sham bo‘lganda edi, ularning gaplarida ziddiyat bo‘lmas edi, deyiladi masal yakunida. Masal mazmuni Alloh to‘g‘risida to‘liq bilim bo‘lmagan holda u to‘g‘risida bo‘luvchi bahs-munozaralarga o‘xshab ketadi.

XI asr oxiri XII asrning o‘rta larida Xurosonda doimiy o‘quvchilarga ega bo‘lgan xonaqohlarda “ustoz (shayx, murshid, pir) – shogird (murid, o‘quvchi)” munosabatlari, ya’ni silsila vujudga keldi va butun islom olamiga tarqaldi. Uning markaziy shaxsi ustoz (pir) bo‘lib, shogird (murid) bilim olishda va boshqa masalalarda unga yagona yo‘l boshlovchi sifatida butunlay bo‘ysunar edi. XII asr oxiriga kelib silsila – ya’ni “pir – murid” munosabatlarining uzluksiz genealogik

zanjiri o'z takomiliga yetdi. Silsila tariqatning hayotiy asosi sifatida doimo qo'llab- quvvatlanar edi. Unda muridning o'rni ta'lim yo'li bilan unvon olish orqali ezoterik xarakter kasb etdi. Mavhum mulohazalarga berilish yoki diniy avtoritetlarga, muqaddas matnlar "so'ziga" so'zsiz ergashishdan farqli o'laroq, sufiylarning amaliy yo'li azaldan inson ruhining har qanday harakatini chuqur tahlil qilishga, shaxsiy kechinmalarga e'tibor berishga va diniy haqiqatlarni ichki anglashga yo'naltirilgan edi.

Xorijda Markaziy Osiyodagi ba'zi sufiylik maktablari (birinchi navbatda Naqshbandiylik va Yassaviylik)ning o'rganilishi sufiylikning O'rta asrlardan hozirga qadar rivojini kuzatishga imkon beradi. O'zbekistonda sufiylikni o'rganish B.Bobojonov, X.Yuldoshxo'jayev, N.Komilov, I.Usmonovlarning asarlarida o'z aksini topgan. Mamlakatimizda sufiylikning ilmiy tadqiq etilishi nisbatan kam. Keyingi bir necha yilda dinshunoslikda sufiylik tarixi va falsafasini yoritishda yangi tushuncha va atamalar paydo bo'ldi. Masalan, sufiylik atamasining kelib chiqishiga oid qator gipotezalar qayta ko'rib chiqildi.

Sufiylik juda erta jamiyatning yuqori qatlamiga mansublik va ezoterik (yashirin, faqat tanlangan kishilarga ma'lum bo'luvchi) xarakter kasb etdi. Ya'ni uni Allohni bilish sirlaridan xabardor bo'lgan tor doiradagi qatlam tushunar edi. Shialikda va uning ko'p lab yo'nalishlaridan biri bo'lgan ismoiliylikda o'zlarining zohid-sufiylar uyushmasi tarkib topgan, ular boshqa sufiylik jamoalaridagi diniy-mafkuraviy qoidalarni, tashkiliy tamoyillarni va marosimlarni u yoki bu darajada o'zlashtirib olganlar. Qur'on matnlarini ramziy-majoziy izohlash, undan faqat xabardor bo'lganlargagina ma'lum bo'lgan botiniy mazmunni chiqarib olish ismoiliylar mistik ta'limotining muhim tarkibiy qismlariga kirar edi. Sufiylik shuningdek, okkultizmga oid (ya'ni olamda sirli, yashirin, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi) bilimlar: alximiya, fiziognomika, harf va sonlar timsollariga oid fanlar (al-jafir)ning elementlarini qabul qilgan edi. Bu esa sunniylik avtoritetlari tomonidan sufiylikning tanqid qilinishiga olib keldi. Ko'plab sufiylarning tasavvuriga ko'ra shayxdan muridga sufiylik bilimi va "baraka"sini berish – bu uzoq ta'lim olishni talab qiladi. Unga erishgan shogird ustoz qo'lidan

sufiylik hirqasini oladi, bu unga mustaqil ravishda xutba (va'z) o'qish huquqini beradi. Muridlar musulmon yurtlaridagi o'z uylariga qaytib kelishgach, u yerda sufiylikni o'rganuvchi guruhlar va xonaqolar tashkil etishar va o'z o'quvchilarini tayyorlar edilar. Bu sufiylikning tezda tarqalishiga olib keldi. An'anaga ko'ra XII-XIV asrlarda sufiylikda 12 ta asosiy tariqatlar⁴⁸ vujudga kelgan. Markaziy Osiyo musulmon dunyosida eng keng tarqalgan Kubroviylik, Xojagon-Naqshbandiylik, Yassaviylik, Ishqiylik⁴⁹ va boshqa sufiylik maktablarining beshigi bo'ldi.

Sufiylik falsafasi Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa ko'p lab mutafakkirlar, olimlarning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan. Markaziy Osiyodagi sufiylikni tadqiq etgan B.Radtke, F.Mayer kabi olimlar mo'g'ul bosqinchiligiga qadar bu mintaqada islomni o'ziga xos ko'ra olgan ilohiyot va huquqqa oid maktablar mavjud edi hamda ular zohidlikning alohida turlari va din yo'lida fidokorlik qilgan shaxslarni yetishtirib chiqargan, degan fikrni bildirgan edilar. ko'p incha ularning o'zi shunga o'xshash maktablarning bitiruvchilari bo'lib, ularni klassik sufizmdan farqli ravishda intellektual sufizm deb atash qabul qilingan. III-IV asrlarda mistitsizmning tashkiliy shakllari to'liq shakllanmagan edi, shu sababli o'zgarmas, barqaror maktablar haqida gapirish mumkin emas⁵⁰.

O'rta asrlarda sufiylik ittifoqlari islomning tarqalishiga, ayniqsa, islom dunyosining chekka hududlari bo'lmish G'arbiy va Markaziy Afrikaga, Hindiston va Markaziy Osiyoga yoyilishiga ko'maklashgan. Yangi va eng Yangi davrda esa sufiylik musulmon Sharqida ham, G'arbda ham diqqat bilan o'rganiladigan obyektga aylangan. O'rta asr an'alariga ergashib, musulmon olimlari uni yoki haddan ortiq maqtashadi yoki haddan ortiq tanqid qilishadi. G'arbiy Yevropa, Amerika va Yaponiya sharqshunoslari esa umuman olganda sufizmga obyektiv baho berishsada, ba'zan ularda ham sufiylikka xristianlik ta'limotining ta'sirini bo'rttirishga, undagi tushunchalarni zamona- viylashtirishga moyillik bor.

Biroq sufiylikning evolyutsiyasi murakkab va ziddiyatli bo'ldi. Zohidlik harakatidan vujudga kelib, dunyoviy hayotdan, ayniqsa, siyosatdan uzoq ekanliklarini alohida ta'kidlagan sufiy shayxlar vaqt o'tishi bilan jiddiy ijtimoiy va siyosiy obro'ga ega bo'lishdi. XII asr oxiriga kelib sufiy rahnamolar hukmdorlar

topshirig'iga ko'ra diplomatik vazifalarni ham bajara boshlagan. Keyinroq sufiylarni siyosatga tortish yanada faollashdi. Biroq ayni ana shu jarayon, ya'ni sufiylarning (amalda siyosatlashuvi va dunyoviylashuvi), ko'p lab shayxlarning o'tmishdagi asketizm va mistikadan voz kechishi ularning islom dunyosiga ta'siri yo'qolishiga olib keldi.

Tariqat tushunchasining mazmuni vaqt o'tishi bilan o'zgarib bordi, unga islomdagi turli mazhablar har xil izoh beradilar. IX—X asrlarda tariqat tushunchasi mistik muroqaba va mushohadaga moyil bo'lgan kichik guruh musulmonlarning individual ma'naviy-ruhiy tajribani amaliy o'zlashtirishini anglatardi. Bu yerda mistik (yunon. *mystikos* – sirli) tajriba – aql va hissiyotdan yuqori bo'lgan usul (tariqa)ni qo'llash ma'nosini beradi. Ushbu yo'lning maqomat, deb atalgan bosqichlarini o'zlashtirish bu yo'lni tanlaganlardan o'ziga xos meditatsiya ko'nikmalarini, psixofizik mashqlarni takomillashtirishni, qat'iyy tartibni talab qilardi. Tariqatda insonning o'z ekstatik (jazava, qattiq hayajon) holatini an'naviy-ruhiy rivojlantirishi g'ayriixtiyoriy, inson irodasiga bog'liq bo'lmagan holda Alloh tomonidan in'om etiladi, deb tushuniladi.

Shunday qilib, tariqat tushunchasi kengaydi va bu tushuncha ostida usul yo'lining yagonaligi, bilimni uzatish zanjiri va jamoaning tashkiliy shaklini tushuna boshladilar⁵¹.

O'zbekiston allomalarining islom ta'limoti va dinshunoslikni rivojlantirishdagi xizmatlari

Mamlakatimizda islom ta'limoti va dunyoviy fanlarni o'rganish va undan xalqimizni bahramand qilishdek xayrli ishlarga katta e'tibor berilmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan tashkil etilgan O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekiston xalqaro Islom akademiyasi, "Mir Arab" Oliy madrasasi allomalariga diniy-ma'rifiy merosimizni o'rganish uchun davlat tarafidan bir qator imtiyozlar yaratildi. O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyati respublikada faoliyat olib borayotgan oliy va o'rta maxsus

diniy ta'lim muassasalarini yuqori malakali ilmiy kadrlar bilan ta'minlashga, tayyorlanayotgan mutaxassislarining ilmiy va kasbiy salohiyatini oshirishga, islom tarixi, Qur'onshunoslik, tafsir va fiqh, hadisshunoslik, kalom ilmi yo'nalishlari bo'yicha magistrnlarni, yetuk ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlashga qaratilgan. Ushbu Akademiya huzurida ISESCO – Ta'lim, ilm-fan va madaniyat bo'yicha Islom hamkorlik tashkilotining maxsus kafedrasi, Buxoro va Termiz davlat universitetlarida "Islom tarixi va manbashunosligi" yo'nalishi ochildi. Milliy domenda 50 dan ziyod diniy-ma'rifiy saytlar faoliyati yo'lga qo'yildi. Tajribali ulamolar tomonidan onlayn tarzda savol-javoblar va diniy o'quv mashg'ulotlari o'tkazish joriy etildi.

O'zbekistonning bir qator sharqshunos, faylasuf, tarixchi, siyosat va jamiyatshunos olimlari islom ta'limoti va dunyoviy fanlarni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shmoqda. Bu yo'nalishda ko'p lab doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Ular ichida A.Xasanovning "Qadimgi Arabiston yohud "Johiliya" tarixi va uni o'rganish muammolari" (T., 2001.); A.Muminovning "Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o'rni va roli (II- VII/VIII-XIII asrlar)" (T., 2003); B.Babadjanovning "Qo'qon xonligida hukumat va din" (T., 2010); U.Uvatovning "Movarounnahr va Xuroson olimlarining hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (Al-Buxoriy, Muslim, At- Termiziy)" (T., 2001). 2020y. Ubaydulla Uvatov ilm-fan yo'lidagi xizmatlari yuksak e'tirof etilib, "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi. I.I. Bekmirzayevning "X-XIII asrlar Movarounnahr ijtimoiy munosabatlariga oid protsessual va notarial hujjatlari" (T., 2017) fan doktori dissertatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy sharqshunoslarning ko'p chiligini islom manbashunosligi va tarixi, hadisshunoslik, islom huquqi mutaxassisligi, hanafiylik mazhabi va tasavvuf ilmiga oid manbalar va tadqiqotlar qiziqtiradi. Bu yo'nalishda islomshunos olimlar tomonidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, D.R.Maxsudov "Abu-l-Barakot an-Nasafiyning tafsir ilmida tutgan o'rni". T.-2008), M.F.Alimova ("Imom ad- Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi". T. 2009), R.B.Matibayeva "Abu-l-Muayyad al-Makkiy al-Xorazmiyning "Manoqib Abi

Hanifa” asari hanafiylik bo‘yicha nodir manba. T.2009” mavzusida falsafa doktori dissertatsiyalarini himoya qildilar.

Islom falsafasi va manbashunosligi sohada Sh. Ziyodovning “Abu Mansur al-Moturudiyning yozma merosi va uning – Kitob at-ta’vilot” asari”, S.Oqilovning Abu-l-Mu’in an-Nasafiy va uning moturidiya ta’limoti rivojiga qo‘shgan hissasi (“Tabsiratu-l-adilla” asari asosida), A.Boynazarovanning “Islom falsafasida diniy va dunyoviy ilmlar uyg‘unligi masalasi”, Sh.Shakirovanning “Bobojon Sanoiyning adabiy-irfoniy merosi” nomli falsafa doktori dissertatsiyalari, M.A. Mamatovning “Tasavvuf ta’limotining tarixiy-falsafiy mohiyati” nomli fan doktori dissertatsiyasida (2018-y.) turli tasavvufiy qarashlar kompleks tarzda o‘rganilgan, tasavvuf ta’limotining tarixiy-falsafiy mohiyati, uning islom madaniyati va sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o‘rni, undagi yuksak ma’naviy va diniy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan g‘oyalarning mohiyati ochib berilgan. Bu tadqiqotlarning o‘ziga xosligi – ularning diniy va ilmiy nuqtayi nazaridan uyg‘unligidadir.

S.M.Prozorovning fikricha “normativ” islomning islomlashgan xalqlar ma’naviyati bilan birlashib ketishi natijasida islomning ko‘p shakllarda namoyon bo‘lganligi islom madaniyati va fanining taraqqiy etishiga imkon berdi, islomning mafkuraviy tizim sifatidagi hayotiyiligini ta’minladi. Musulmon hamjamoasi ichida islom turli shakllari teng huquqliligining tan olinishi boshqa din va e’tiqodlar shakllarining ham shundayligi tan olinishiga olib keladi⁵². Ana shu narsa insoniyat jamiyatidagi bag‘rikenglikning asosi bo‘lishi mumkin.

XXI asrda islomda ma’rifat va modernizatsiyalash g‘oyasi katta ahamiyatga ega. O‘zbekistonda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash siyosati amalga oshirilayotganidek, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlashga, ilm-fan va ta’limning rivojlanishiga muvofiqlashtirish uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan islom dini arboblari ham, dunyoviy jamoat olimlari ham “ilm” tushunchasini yanada kengroq sharhlash, diniy va dunyoviy ilmlarning bir-biriga zid emasligini tushuntirish borasida qayta muzokara olib bormoqdalar.

Asosiy xulosalar

- Islom VII asrda vujudga kelishi arafasida arab jamiyatida ko‘p xudolik (arabcha al-vasaniya) e‘tiqodlar, yahudiylik va xristianlik mavjud edi.
- Muhammad Ahmad ibn Abdulloh (570/571 – 632) – islom dini payg‘ambari va musulmonlarning birinchi jamoasi asoschisi. U taxminan milodiy 610-yilda o‘zini Allohdan Jabroil farishta orqali vahiy olayotganini e‘lon qiladi.
- Islom dinga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydigan 7 aqidani o‘z ichiga olgan
 - 1) Allohga; 2) Uning rasullariga; 3) Uning farishtalariga; 4) Uning kitoblariga; 5) Qadarga; (taqdir, qismat, yozmish, al-qada’ va-l-qadar), ya’ni yaxshilik va yomonlik Alloh tomonidan taqdirda belgilangan, “peshonaga yozilgan”ga; 6) Oxirat kuniga; 7) O‘limdan keyin qayta tirilishga ishonish.
 - Islom dinining besh asosiy rukni (arab. asos, ustun) – eng muhim beshta vazifa: 1. Imon 2. Namoz 3) Ro‘za 4) Zakot 5) Haj
 - Islom falsafasi, kalom keyingi davr islomiy ilmlar va G‘arbiy Yevropa falsafiy tafakkuriga katta ta’sir ko‘rsatdi.
 - Islom dini arboblari ham, dunyoviy jamoat olimlari ham “ilm” tushunchasini yanada kengroq sharhlash, diniy va dunyoviy ilmlarning bir-biriga zid emasligini tushuntirish borasida qayta muzokara olib bormoqdalar.

Nazorat uchun savollar

1. Hadislarning qanday to‘plamlari sahix hisoblanadi?
2. Sunniylik dunyoning qaysi mintaqalaridan tarqalgan?
3. Islomdan oldin Hijoz va Yasribdagi diniy muhit qanday holatda edi?
4. Islomda qanday bayramlar bor va ular qachon o‘tkaziladi?
5. Islomda qanday muqaddas manbalar mavjud?
6. Qur’onni o‘qish uchun qanday ko‘rsatmalar mavjud?
7. Shariat nimani anglatadi?

8. Aqoid va aqida nima?
9. Sufiylikda meditatif tajriba nimani bildiradi?
10. Islom falsafasi G‘arbiy Yevropa falsafiy tafakkuriga qanday ta’sir ko‘rsatdi?

Islom mavzusi bo‘icha adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdulaziz Mansur. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. - T.:”Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. 624-b.
2. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - T.: O‘zMU, 2004. 208-b.
3. Амон А.Г. Повседневная жизнь первых христиан. М. 2003; Бернштам А.Н. Археологический очерк Северной Киргизии. Фрунзе, 1941.
4. Андросов В.П. Индо-тибетский буддизм. Энциклопедический словарь: монография. М.: Российская академия наук. Ин-т востоковедения. 2011. С. 488.
5. Asrorova L. Abu Hafis Kabir Buhoriy va hanafiy fihi. T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. 280- b.
6. Большаков О.Г. История халифата. Ислам в Аравии 570-633. – М., 1989.
7. Великий шелковый путь: Древность и раннее средневековье / Э.Ртвеладзе. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 1999. С.280.
8. Ибрагимов Э. Источники мировых религий: учеб-метод. пособие для студентов с русским языком обучения. – Т.: ИПО "ТИУ". 2011.
9. Ibragimov E. O‘zbekistonda xristian konfessiyalari faoliyati va ularning diniy bag‘rikenglik an‘analari shakllanishida tutgan o‘rni. – Tarix fan.nomz. ilm.dar... dissert. – T., 2010.
10. Ибрагимов Э., Каландарова Д. Источники мировых религий. Учебное пособие. – Т.: ИПО “Тошкент ислом университети”, 2015. С. 136.

11. Islom va hozirgi zamon. O‘quv qo‘lanma/ Mas‘ul muhar. Sh. Yovqochev. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. 208-b.
12. Isoqjonov R. Islom filosofiyasi. O‘quv qo‘llanma. – T.: TIU, 2012. 140-b.
13. История религий народов Центральной Азии / Отв. редактор: к.п.н., доц. Ш.А. Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006.
14. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr, 2009.
15. Муминов А.К. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии / Под ред. С.М.Прозорова. – Алматы: Қазақ энциклопедиясы, 2015.400 с.
16. Oqilov S., Matibayeva R.B. Kalom. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
17. Основы религиоведения: Учебн./ Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 1998.
18. Payg‘ambarlar tarixi islomiyat tarixidir. (Qur‘oni karimda payg‘ambarlar siymosi). Rahmatulloh qori Obidov. - Toshkent islom universiteti – T., 2005.
19. Тримингэм. Дж. С. Суфийские ордена в исламе./Пер. с англ. А.А. Ставинской под ред. и предисл. О. Ф. Акимушкина. – М.: София, ИД “Гелиос”, 2002. - 480с.
20. Yo‘ldoshxojayev H., Qayumova I. O‘zbekiston ulamolari. Mas‘ul muh. U.Alimov, V.Bobojonov; O‘zbekiston musulmonlari idorasi. “Toshkent: Movarounnah”, 2015. 496-b.
21. Хасанов А. Лекции по истории раннего ислама. – Т.: ТИУ, 2014. – 325 с.

22. Hadisshunoslik: o‘quv qo‘llanma / Tuzuvchilar: D.Rahimjonov, D.Muratov, R.Obidov, M.Alimova. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2013.
23. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafquraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – Toshkent: TIU nashriyot-matbaa birlashmasi, 2014. – 552-b.
24. Xasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom. Johiliya asri. – T.: “Toshkent islom universiteti”, 2001.
25. Xasanov A., Komilov N., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q. Islom tarixi. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008.
26. Вольф М. Средневековая арабская философия. Ашаритский калам. Учебное пособие. - Новосибирск, 2008. - 152 с.
https://www.academia.edu_Средневековая_арабская_философия_ашаритский_калам/Medieval_Islamic_Philosophy_Ashari_Kalam
27. Энциклопедия религий / Под ред. А.П.Забияко, А.Н.Красникова, Е.С.Элбакян. –М.: Академический Проект; Гаудеамус, 2008. – 1520 с: ил. — (Summa). - ISBN 978-5-8291-1084- 0 (Академический Проект).- ISBN 978-5-98426-067-1 (Гаудеамус). - С.191-195.
28. Babadzanov B. “On the History of the Naqsbandiya mugaddidiya in central Mawara'annahr in the late 18th and early 19th centuries” // Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries/ Ed. by Anke von Kuegelgen, Michael Kemper, D. Yermakov. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1996. T. 1. S. 385-413.
29. Babadzanov B. Islamowov Sh. Sharīa for the Bolsheviks? Fatwās on Land Reform in Early Soviet Central Asia // Islam, Society and States across the Qazaq Steppe (18th- early 20th centuries). - Vienna, 2013. p. 52-78.

30. Radtke Bernd. Theologen und Mystiker in Hurasan und Transoxanien // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen Gesellschaft, 136 (1986). Franz Steiner Verlag. S. 536-567.

31. Schacht Joseph. Das kitab aš-Šuf'a aus dem al-gami al-Kabir fiš- Šurut des Abu Ga'far Ahmad ibn Muhammad at-Tahawi. Heidelberg: Carl Winter's Universitätsbuchhandlung, 1930. – 58s.

32. Schacht Joseph. Das kitab adkar al-huquq war-ruhun aus dem al-gami al-Kabir fiš-Šurut des Abu Ga'far Ahmad ibn Muhammad at-Tahawi. Heidelberg: Carl Winter's Universitätsbuchhandlung, 1927. – 38s.

Islom dini va ta'limoti mavzusi manbalariga havola

1 Islom. Ensiklopediya. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 113- b.

² Hasanov A.A.. Qadimgi Arabiston tarixi va uni o'rganish muammolari. Tarix fan.dok.ilm.daraj.diss. –T., 1994.

³ Makka va Madina tarixi. – T.: Mehnat, 1993. – 79-b.

⁴ Zohidov Q.T.. Ilk islom davlatchiligi va uning shakllanish jarayonlari (632-661 yillar). Tarix fan.nomz.ilm. daraj...diss. –T., 2005.

⁵ Shokirova Z.N. Ilk islomda sulhparvarlik tamoyillarining tarixiyqiyosiy tahlili. Tarix fan.nomz.ilm. daraj...diss. –T., 2012.

⁶ Большаков О.Г. История халифата. Ислам в Аравии 570-633. – М., 1989.

⁷ Пигулевская Н.В.. Арабы у границ Византии и Ирана. – М., 1964.

⁸ Пиотровский М.Б. Южная Аравия в раннее средневековье. – М., 1985.

⁹ Шифман И.Ш. Набатеяское государство и его культура: из истории культуры доисламской Аравии. – М., 1976.

-
- ¹⁰ Грюнебаум Г.Э.. Классический ислам. Очерк истории (600 – 1258): пер. с англ. – М.: Наука ГРВЛ, 1986
- ¹¹ Негря Л.В. Общественный строй Северной и Центральной Аравии в V-VII вв.– М., 1981. –156 с.
- ¹² Wissmann H.. Zur Geschichte und Landeskunde von Alt Suedarabien. – Wien, 1964.
- ¹³ Muir W. Life of Mahomet and History of Islam to the era of the Hegira. – London, 1858.
- ¹⁴ Мухаммад ибн Абд ал-Карим аш-Шахрагани. Книга о религиях и сектах (Китааб ал-милал ва-н-нихал). Ч. 1. Ислам. // Пер. с араб., введ. и коммент. С.М. Прозорова. – М.: Наука ГРВЛ, 1984. 270 с. Ч.2. Шахристиани
- ¹⁵ Hasanov A. A. Qadimgi Arabiston tarixi va uni o'rganish muammolari: Tarix fan. dok. ilm. daraj. Diss. avtoref. –Т., 1994.- С. 54
- ¹⁶ Основы религиоведения: Учебн. / Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. – М.: Высш. шк., 1994. –368с. - С.160
- ¹⁷ Шифман И. Ш. Надпись из Рамафы. Эпиграфика Востока. – Л., 1988, 24. – С. 29-36
- ¹⁸ Hasanov A. A. Qadimgi Arabiston tarixi va uni o'rganish muammolari.– Tarix fan.dok.ilm.daraj.diss.avtoref. –Т., 1994.– В. 59
- ¹⁹ Hasanov A. A. Qadimgi Arabiston tarixi va uni o'rganish muammolari.– Tarix fan.dok.ilm.daraj.diss.avtoref. –Т., 1994.– В. 59. Shuningdek, См.также: Основы религиоведения: Учеб./ Ю.Ф.Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Никонов и др.; Под ред. И.Н.Яблокова.– 4-е изд., перераб. и доп. – М.: Высш. шк., 2002. – 511 с. – С.226.

-
- ²⁰ История религий народов Центральной Азии. / Отв. редактор: к.п.н., доц. Ш.А.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006. – С. 86-92.
- ²¹ Хайруллаев М.М. Uygonish davri va Sharq mutafakkirlari. Toshkent: FAN, 1971 y.
- ²² Муминов А. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии/ под редакцией С.М.Прозорова. - Алматы: Казак энциклопедиясы, 2015. - 400 с.; яна қаранг, Муминов А. “Ўзбекистон шарқшунослари ханафий уламоларнинг Марказий Мовароуннаҳр шаҳарлари ҳаётида тутган ўрни ва ролини” – тарих фан. докт. дисс., 2003 й.
- ²³ Ulrich Rudolph. Al-Māturīdī und die sunnitische Theologie in Samarkand, Leiden, New York & Köln 1997.
- ²⁴ Город в конце VIII-начале XIII в. // Беленицкий А.М., Бентович И.Б, Большаков О.Г. Средневековый город Средней Азии. Ленинград, 1973, С. 132-352.
- ²⁵ Гаипов Г. Ранние походы арабов в Среднюю Азию. Душанбе, 1989
- ²⁶ Gibb, H. A. R. The Arab conquests in Central Asia. London: The Royal Asiatic Society, 1923. VIII, 102 p.
- ²⁷ Madelung W. The Early Murji’a in Khurasan and Transoxania and the Spread of Hanafism // Der Islam, LIX (1982), pp. 32-39.
- ²⁸ Paul J. Doctrine and Organisation: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha’uddin // ANOR. No. 1. Halle-Berlin, 1998.
- ²⁹ История религий народов Центральной Азии. / Отв. редактор: к.п.н., доц. Ш.А.Ёвкочев. – Т.: Ташкентский государственный институт востоковедения, 2006. – С.88
- ³⁰ Прозоров С.М. Ислам как идеологическая система. -М.: «Восточная литература», 2004. – С.4

-
- ³¹ С.М.Прозоров. Ислам как идеологическая система. -М.: «Восточная литература», 2004. – С.8; Шунингдек: Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. –И-т.- Тошкент: "Мовароуннаҳр", 2013. - 272 с. Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. II-т.- Тошкент: «Мовароуннаҳр», 2014. - 432 с.
- ³² Муминов А.К. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии / Под ред. С.М.Прозорова. – Алматы: «Қазақ энциклопедиясы», 2015. С. 10, 41
- ³³ Основы религиоведения: Учеб./ Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 245-246
- ³⁴ Основы религиоведения: Учеб./ Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 246
- ³⁵ Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. O'quv qo'llanma. T.: - Movarounnahr\|nashriyoti, 2014. – 93-b.
- ³⁶ Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. –И-т.- Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2013. - 272 с. Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. II-т.- Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2014. Б. 139-140
- ³⁷ Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. <http://islamcenter.uz/islom-dinida-nikova-oila/>
- ³⁸ Ислам: Энциклопедический словарь. - М.: Наука, Главная редакция восточной литературы& СП “Дом Бируни”, 1991. – С. 105; См.: также Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. –И-т.- Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2013. - 272 с. Исломшунослик қомусий луғати / Масъул муҳаррир З.М.Исломов. II-т.- Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2014. - Б.218
- ³⁹ Islom tarixi. Darslik. - A.Hasanov va b. - T.: TIU.,2008 - B.104.; Ислам: энциклопедический словарь. – Ответ. ред. Прозоров С.М. – М.: Наука,

Главная редакция восточной литературы & СП “Дом Бируни”, 1991. – С. 103. Yana qarang: Das Oxford-Lexikon der Weltreligionen. – Herausgegeben von John Bowker. – Frankfurt am Main_ Oktober 2003 – S. 467

⁴⁰ Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolarining tarjima va tafsiri. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. 624-b.

⁴¹ Абу Али ибн Сино. <http://e-tarix.uz/shaxslar/140-ibn-sina.html>

⁴² Роузентал Франц. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе. (Перев. с англ. С. А. Хомутова по изданию Franz Rosenthal. Knowledge triumphant. The Concept of Knowledge in Medieval Islam. Leiden, E. J. Brill, 1970). - М.: Главная редакция восточной литературы издательства “Наука”, 1978. - 372 с.

⁴³ Муминов А. Исследование по теме «Преемственность и взаимосвязи в научных традициях между школами ханафитского фикха в Центральной и Малой Азии в XI-XV вв.». Университет Коч, Стамбул, Турция. - Сентябрь 2012 г. – июнь 2013 г.

⁴⁴ Основы религиоведения: Учеб./ Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- С. 321-322

⁴⁵ Ислам: Энциклопедический словарь.- М.: Наука, Главная редакция восточной литературы&СП “Дом Бируни”, 1991. – С. 225; Комилов Н., Тасаввуф.-Т.1999

⁴⁶ Психология религий: учебное пособие / И.Б.Ардашкин. Томский политехнический университет. - Томск: Изд-во ТПУ, 2011.–С.202-203; shuningdek: Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. –С.145; Комилов Н., Тасаввуф.– Т.1999

⁴⁷ Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Ф. Майера (1912-1998). /Сост. и отв.редактор А.А. Хисматулин.- СПб. Филологический факультет СПбГУ, 2001 г. - (Азиатика). С. 120

⁴⁸ Дж. С. Тримингэм. Суфийские ордена в исламе. /Пер. с англ. А.А. Ставинской под ред. и предисл. О. Ф. Акимушкина. М.:

“София”, ИД “Гелиос”.-2002.-480 с.

⁴⁹ Babadzanov B. M. “On the History of the Naqsbandiya mugaddidiya in central Mawara'annahr in the late 18th and early 19th centuries” // Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries / Ed. by Anke von Kuegelgen, Michael Kemper, D. Yermakov. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1996. T. 1. – S. 385-413

⁵⁰ Radtke Bernd. Theologen und Mystiker in Hurasan und Transoxanien // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen Gesellschaft, 136 (1986). Franz Steiner Verlag. – S. 563

⁵¹ Ислам: Энциклопедический словарь. - М.: Наука, Главная редакция восточной литературы & СП “Дом Бируни”, 1991. – Б.224.

⁵² Прозоров С. Многообразие форм бытования ислама как историческая основа веротерпимости в современном многоконфессиональном обществе. - С.33-35// ТИУ Халқаро конференцияси, 12 ноябрь 2014. –С.34

IV Modul. JAMIYAT VA DIN

4.1. Xalqimizning ma'naviy yuksalishida dinlarning o'rni

Mazmun. *Avesto – xalqimiz diniy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma'naviy meros. Turkiy xalqlarning islomgacha bo'lgan yakkaxudolik g'oyalari – Tangriga e'tiqod va uning diniy ong rivojida ahamiyati. “Musulmon renessansi” – Sharq uyg'onish davri ma'naviyatining xususiyatlari. Mustamlaka va mustabid tuzum sharoitida o'zbek xalqining milliy va diniy qadriyatlarini yo'qotishga urinishlar. Mustaqillik yillarida ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi. Hadisshunoslik, fiqh, tasavvuf maktablarining tashkil etilishi. Diniy-ma'naviy merosni o'rganishning hozirgi zamon muammolarini hal etishdagi roli.*

Avesto. Jamiyatimizning ma'naviy yuksalishida jahon, milliy va **Zardushtiylik** ibtidoiy dinlardagi insonparvarlik g'oyalari, diniy-axloqiy tamoyillari muhim ahamiyatga ega. Zardushtiylik dini miloddan avval VI asr o'rtalarida va O'rta Sharqning bir qator boshqa mamlakatlari hududlarida tarqalgan. Ushbu din uning asoschisi hisoblangan Zardusht nomi bilan atalgan. “Avesto” matnlari ham aynan shu shaxs tomonidan tuzilgan, deb qaraladi. Bu afsonaviy shaxs mil. avv. VI asr yoki undan oldingi davrda yashagan, deb qayd qilinadi. Zardushtiylik afsonalari dastavval bir vujud haqiqat va yolg'on o'rtasidagi kurashni ifodalovchi ikki burgut boshli yagona xudo haqida hikoya qiladi. Sh.Shakedaning fikricha “dualizmni biryoqlama, hatto tajovuzkorona tan oldirish Zardushtiylikka azaldan xos bo'lgan xususiyat hisoblanmaydi”¹. Shuningdek, M.Mole ham “moddiy” (avest. Astvant – ustuxonlik, suyakka oid) “ma'naviy”ga qarama-qarshi qo'yilmagan, deya to'g'ri ta'kidlaydi. “Avesto”da Axura-Mazda tirik, moddiy olamning yaratuvchisi sifatida jismga g'amxo'rlik qilish, uni tahqirlanishdan asrash, tarkidunyochilik bilan tinkamadorini quritmaslikka chaqiradi. Dualistik g'oyalarning kuchayishi keyinchalik Sosoniylar hukumronligi davridan boshlangan. “Ikki olam muxolifati” Vedevdatning o'limdan keyingi ruhiy olam moddiylikdan iborat foni dunyodan ancha yaxshi ekanligi keyingi bo'limlarida berilgan². Birinchi ijobiy tomonda

Ezgulik xudosi Axuramazda o'z atrofidagi izdoshlari va sevimli jonzotlari – turli itlar, uy hayvonlari; “pok” unsurlar – olov, suv va yer; ijtimoiy foydali faoliyat turlari – yerga ishlov berish, ariqlar qazish, xayru ehson, ayniqsa, mazdakiy kohinlarga ehson qilish kabilar bilan turadi. Ikkinchi, salbiy tomonda yovuzlik xudosi Axiraman o'z jinlari, tabiatning salbiy hodisalari – qurg'oqchilik, ayoz; odam uchun zararli bo'lgan jonzotlar – ilonlar, pashsha, bo'ri, sichqon, zuluk, chumoli va h.k.; shuningdek, jinoyatlarning turli shakllari bilan turadi. Yomonlik va yaxshilik o'rtasidagi kurashda insonga alohida o'rin beriladi. Unda tanlash erkinligi mavjud.

Vedevdat azaldan yo yaxshilik yoki yomonlikka tegishli bo'lgan dunyoda inson o'zining “iroda erkinligi”dan qanday darajada foydalana olishi mumkin, degan savolga javob beradi. Insonning ezgu amallari yovuz kuchlar, ayniqsa, yolg'onni zaiflashtiradi. Shu tarzda inson yaxshilik yoki yomonlik orasini emas, balki unga yuklatilgan axloqiy dasturulamalni ro'yobga chiqarish yo'llarini tanlaydi³. E'tiqod qiluvchilarning birdamlikdagi sa'yi-harakatlari yaxshilikning g'alaba qozonishga bo'lgan imkoniyatlarini oshiradi.

Pahlaviy tilida bitilgan sharhlarda fatalizm (taqdirga ishonish) mavzusi rivojlanib boradi. Ularda ta'kidlanishicha xotin, farzandlar va hukmdorlik taqdir tomonidan beriladi, ma'naviy komillikka esa qilgan ishlari orqali erishiladi. “Inson o'ziga taqdir etilmagan ezgulikka erisha olmaydi . Biroq uning taqdiriga bitilgan u (ezgulik) faqatgina jiddu jahd orqali keladi. Shon-shuhrat dangasa bo'lmaganlarga beriladi. Gunohlar tufayli shon-shuhrat tark etadi. Haqqoniy g'ayrat bilan peshonasiga bitilgan baxtsizlikdan ham qochib qutilish mumkin”⁴. Yovuzlikni mahf etish yo'li – undan tozalanishdadir.

Vedevdatda jazoga “gunohlarni yuvuvchi, xudoga ishonuvchiga najot beruvchi” sifatida qaraladi (Fragard 14). Zardushtiylar uchun ruhiy poklanishning eng ta'sirchan yo'li – beg'araz bajarilgan ijtimoiy-foydali mehnat: ko'priklar qurish, ariqlar qazish, kambag'allarga yordam berishdir. Ma'naviy hamda e'tiqodiy poklanishda muqaddas olovga sig'inish alohida rol o'ynaydi.

Zardushtiylikning asosiy qoidalari uning muqaddas kitobi “Avesto”da jam bo‘lgan. Jahon madaniyatining ushbu noyob durdonasi avesto tilida bitilgan. Xuddi lotin tili singari avesto ham “o‘lik” til hisoblanib, faqat ibodat qilishda foydalaniladi. “Avesto”dan olingan parchalar “Kichik Avesto” deb nomlanadi. U Yasht – duolar, madhiyalar va turli ma‘budlar sha‘niga aytilgan madhiyalar, zardushtiyning eng muhim diniy qarashlari va topinishning bayoni keltirilgan. Shuningdek, dinga oid bo‘lmagan ayrim mavzular (masalan, badanni pokiza saqlashga oid ko‘rsatmalar) qatorida yovuz ruhlardan saqlanish, duoibadni daf etish, tavba qilish usullariga oid ma‘lumotlar ham berilgan.

“Avesto”ni o‘rgangan mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar uning uchta asosiy qismiga quyidagicha tavsif beradilar: Yasna (yaz - sajda, topinch, namoz) marosimlarda, ibodatlarda koinlar tomonidan o‘qilgan she‘rlar (Gatalar), afsonalardan iborat. Zardusht o‘zi ijod qilgan Gatalarda diniy ta‘limotning asoslari bayon qilingan. Vispered (Vispe ratvo – barcha yaxshi farishtalar) Yasnaga qo‘shimcha bo‘lib ma‘budlar sha‘niga o‘qilgan duolar va ibodat ustida ularga murojaatlardan iborat.

Videvdat (qad. forsiy. Vendidad – avesto. Vi devo datem – “Devlarga qarshi berilgan”) ustoz bilan izdoshlari o‘rtasidagi o‘ziga xos suhbatga o‘xshaydi. Axura-Mazda Zardushtning ijtimoiy-huquqiy va marosim masalalariga oid savollariga javob qaytaradi, shuningdek, dunyo dualizmi, uning ikklamchi xarakteri to‘g‘risidagi axloqiy mulohazalarini bildiradi.

Ikkinchi kitob Yasna, deb nomlanadi. Unda zardushtiylikdagi ibodat marosimlari bayon qilingan, duolar va qurbonlik qilish bilan bog‘liq bo‘lgan afsungarlik formulalari keltirilgan. Duolar orasida olov va suvga murojaatlar muhim o‘rin egallaydi. Olovga sig‘inish alohida ahamiyat kasb etgan. Zardushtiylik ibodatxonalarida (Bombeydagi zamonaviy zardushtiylikning ibodatxonalarida ham) ma‘budlarning hech qanday tasvirlari yo‘q. Ibodat qiluvchilar mehrobda yonib turgan olovga sig‘inishadi. Olovning tozaligi xushbo‘y yog‘lar va o‘simliklar tashlab turish bilan ta‘minlanadi. Mayyitlarni yoqish bilan uni harom qilinmaydi. Mayyit jasadi nopok sanalganligi uchun uni tekkazish bilan

olovni harom qilish taqiqlanadi. Xuddi shunday, yer, havo va suv kabi muqaddas unsurlarni ham tahqirlash mumkin emas. Shuning uchun zardushtiylar marhumning jasadini maxsus ajratilgan joyga (daxma yoki “sukut minoralari”)ga qo‘yishgan. Murdaning go‘shini qushlar yeb, suyaklarini tozalagandan so‘ng ularni maxsus sopol idish – ostadonlarga solib saqlashgan.

“Avesto”ga bir qancha sharh – Zandlar bitilgan. Olimlar hozircha ularning muallifi moniylarmi yoki mazdakiylar ekanligini aniqlay olmaganlar. “Avesto”ga pahlaviy tilida bitilgan muqaddas hisoblanmagan matnlarda ham sharhlar berilgan. Masalan, dunyoviy va diniy hukmronlikning birligi, tarix, shuningdek, bid‘at masalalariga bag‘ishlangan “Diniy harakatlar” shular jumlasidandir.

Bid‘atchi (“ashemaogxa” – haq yo‘ldan ozdiruvchi – Asha) – zardushtiylikda devlarga tenglashtirilgan soxta ustozlardan biri. “Imon to‘g‘risida mulohazalar” va “Manushchixraning xati” ijtimoiy-iqtisodiy hamda axloqiy masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, milodiy IX asrdagi diniy islohotlar to‘g‘risidagi savollarga oliy ruhoniyning javoblaridan tarkib topgan.

Markaziy Osiyoda “Avesto”ning o‘rganilishi tarixi X asrdan boshlanadi. “Avesto”ga bitilgan sharhlarning o‘rganilishiga oid ma‘lumotlar Beruniy, Xorazmiy, Shahrisoniy kabi buyuk allomalarimizning asarlarida uchraydi.

Britaniyalik taniqli eronshunos va arabshunos olim Klifford Edmund Bosvord Videvdat va zand haqidagi masalalarga oid tadqiqotida “Avesto”ga bitilgan sharh, ya‘ni zandlarning mualliflari moniylar (al-manaviya) va mazdakiylar (al-mazdakiya) bo‘lganliklarini ta‘kidlagan, al-Xorazmiy asarlaridan iqtiboslar keltirgan. “Mazdak eroniy ruhoniylar (mubadan-mubad) orasida bosh hakam bo‘lgan hamda barcha dunyoviy mol-mulk va ayollarga birgalikda egalik qilish kerakligini ta‘kidlagan. Va u “Zand” deb nomlangan kitobni tarqatdi hamda Zardusht tomonidan keltirilgan “Avesto” afsungarlarining muqaddas kitobiga sharhlar (ta‘vil)dan iborat ekanligini uqtirdi”⁵. Arab tarixchisi Ma’sudiy “Avesto”ga yozilgan sharhlarning muallifi Zaradushtra bo‘lgan, deb hisoblaydi⁶.

Yevropada “Avesto”ning o‘rganilishi va tarjima qilinishi J.Bouche tomonidan 1723 yilda Hindistondan keltirilgan Videvdatning qadimiy qo‘lyozmalaridan biri

bilan bog‘liq. Qariyb yarim asr davomida bu qo‘lyozma o‘rganilmagan. 1771-yilda “Avesto”ning fransuz tilidagi ilk tarjimasini dunyo yuzini ko‘rdi⁷.

O‘zbekistonda zardushtiylikni o‘rganish bilan bog‘liq zamonaviy tadqiqotlar tarixiy, manbashunoslik va ijtimoiy-huquqiy sohalardagi izlanishlarda namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, “Avesto”ning 2700 yilligi munosabati bilan O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyoning turli respublikalarida o‘zbek va boshqa tillarda qator nashrlar amalga oshirildi (X.Boboev, S.Hasanov, M.Isxokov, T.Karim, A.Maxkam, X.Xomidiy, B.Duschonov). Zardushtiylikka oid ma‘lumotlar Markaziy Osiyo, Buyuk ipak yo‘li sivilizatsiyasi bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy tadqiqotlardan ham o‘rin olgan. A.Otaxo‘jayevaning Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlardagi turk-sug‘d munosabatlariga bag‘ishlangan monografiyasi, shuningdek, M.Ishoqov, A.Saidov, E.Rtveladzelarning zardushtiylik atamaları va tushunchalariga oid sotsiolingvistik va tarixiy-huquqiy tadqiqotlari shular jumlasidandir⁸.

Mahalliy va xorijiy mualliflarning qator tadqiqotlari Zardushtiylikning ijtimoiy-huquqiy jihatlariga bag‘ishlangan⁹.

2008-yilda E.Rtveladze, A.Saidova, A.K.Abdullayevalar Videvdatning keng o‘quvchilar ommasiga moslashtirilgan tarjimasini tadqiqot, kirish maqola va sharhlari bilan chop ettirdilar¹⁰.

Zardushtiylikda ilk davrlardayoq ijtimoiy-huquqiy masalalar yetarlicha ishlab chiqilgan edi. Videvdatda zardushtiylik huquqshunosligining qonun, shartnoma, jinoyat, jazo singari asosiy me‘yorlari tavsiflab berilgan. Safo-Isfaxoniyning ta‘kidlashicha “zardushtiylikning muqaddas kitobining uchdan bir qismi turli sohalardagi qonunlarga oid bo‘lib”, “Avesto”ning “amaliy qonunlar”idan maqsad esa “har tomonlama uyg‘un bo‘lgan uyushgan, farovon jamiyat barpo qilish bo‘lgan”¹¹.

Videvdatda gullab-yashnayotgan jamiyat yaratuvchisi va hukmdori sifatida afsonaviy shox Yima tasvirlangan. Insonlar orasida birinchi bo‘lib, Zardushtdan ham ilgariroq, Axura-Mazda unga o‘z e‘tiqodi bo‘yicha ta‘lim bergan (Fragard 2; 1). Yima (Jamshid) payg‘ambar bo‘lmayman, chunki “men imonni saqlashga qodir

emasman va o'rgatilmaganman", deb hukmdor bo'ladi. Shunda Axura-Mazda Yimaga amr qilib, "unday bo'lsa menga dunyoni ko'paytir, o'stir, himoya qil va saqla!", deydi. Hukmdor bunga, "men senga dunyoni ko'paytiram, o'stiram, himoya qilaman va saqlayman. Mening davlatimda sovuq shamollar ham, qurg'oqchilik ham, azobu uqubat va o'lim ham bo'lmaydi!" deb, javob qaytaradi. Zardushtiylik matnlarida hatto Yimaning o'zi ham bir safar yolg'on gapirganligi tufayli jazolanganligi va boqiy hayotdan mahrum bo'lganligi haqida qaydlar mavjud (Yasht: 19.32-33). Shu tariqa barchaning qonun oldida barobar ekanligi g'oyasi ta'kidlanadi.

A.G.Perixanyan va S.T.Ganbarovlar¹² ularni quyidagicha tasniflaganlar: 1) dinga qarshi jinoyatlar: bid'atchilik, boshqa din vakili bilan oila qurish, ruhoniylar majburiyatlarini noqonuniy bajarish, dahriylik; 2) shaxsga nisbatan jinoyatlar: qasddan hujum qilish yoki jazava holatida hujum qilish, tahdidlar, shifokorning zararli harakatlari, bola oldirishlar, homiladorlik davrida ayol kishining sog'lig'iga qarshi jinoyat qilish; 3) hayvonlar, ayniqsa itlarga qarshi jinoyatlar; 4) mol-mulkka nisbatan jinoyat: o'g'irlik, talon-taroj, bosqinchilik, firibgarlik. Xasislik mol-mulkka nisbatan jinoyatning alohida turi sanalib, o'g'irlik bilan tenglashtirilgan; 5) axloq-odobga qarshi jinoyatlar: gomoseksualizm, fohishalik, er-xotin o'rtasidagi xiyonat; 6) tabiat kuchlariga qarshi jinoyat: yer, suv, olov va o'simlik olami; ayniqsa, yerni ifloslantirish va b.

Poklanish to'g'risidagi qonunga bag'ishlangan beshinchi parcha yuqoridan quyiga qarab tirik jonzotlarning turli solihlik darajalari haqida tasavvur beradi. Ushbu parcha nafaqat solih zardushtiyning, balki itning va bid'atchining, gunohkor, dev va boshqa jahannam maxluqlarining ruhiy portretini tuzishga imkon berishi bilan ham qiziqarlidir. Buni Axura-Mazdaning pok qalbli tirik jonzotlar jasadining yaqinida turgan o'laksa iblis nechtasini ifloslantirishi, maraz narsalarni yuqtirishi mumkin?, degan savolga javobidan ham ko'rish mumkin. Tabiiyki, inson qanchalik solih bo'lgan bo'lsa, o'laksa iblis uning atrofidagi shuncha ko'p odamlarni buzadi. Masalan, ruhoniylar uchun 10 ta jonzot, jangchi uchun – 9 ta, yer haydovchi uchun – 8 ta jonzot zarar ko'rishi mumkin. Zardushtiylik jamiyatidagi

mazkur uchta asosiy tabaqadan tashqari itlarning har xil zotlari ham turli darajada solihlikka ega bo‘ladi: cho‘ponning iti – 7; uy egasining iti – 6; ovchining iti -5; kuchuk bolasi – 4. Bu qatorni o‘liklari bir, ikki yoki uchta jonzotni harom qilishi mumkin bo‘lgan jayra, tipratikon va tulki yakunlaydi.

Zardushtiylikda ayrim hayvonlarning pok ko‘ngilga ega ekanligi yoki aksincha, o‘zlarida yomonlikni saqlashlari fakti Totemizim e‘tiqodining qoldiqlarini kuzatish, shuningdek, hayvonlarning ruhiy xususiyatlarini odamlarga yoki aksincha, insonlarnikining hayvonlarga o‘tkazilishi, ularning ijtimoiy pog‘onadagi o‘rnini, axloqiy qadriyatlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, murtadning o‘limi hech kimga ziyon yetkazmaydi. Axura-Mazdaning aytishicha uning ziyoni “bir yildan oldin o‘lgan qurbaqaning zaharichadir!...Faqat tirikligidagina u suvni loyqalatadi;... olovni o‘chiradi;... sigirlarni o‘g‘irlaydi;... dindor kishilarni kaltaklaydi”. Qiyoslanganda tipratikonning umri murtadnikidan qadrliroqdir, zero u Axura-Mazda tomonidan ilonlar va chumolilar, Axriman malaylariga qarshi kurashish uchun yaratilgan.

Videvdatdan tashqari “Avesto”ga Anushravon davrida yana quyidagi to‘rt huquqiy nask (bo‘lim)lar kiritilgan: Nikadum (Nokrdum – asosan protsessual kodeks), Ganabasa-sar-nigad (jinoyatni aniqlash va jazolashga qaratilgan qoida va me‘yorlar), Xusparam (Hbisparrm) va Sakadum (Sakrdbm). So‘ngi ikki bo‘lim oila huquqi, kohinlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga oid yo‘l-yo‘riqlar, marosimlarni bajarish, sud ekspertizasi (ordaliya) singari ko‘plab masalalarni o‘z ichiga olgan. Mazkur nasklardan hozirda faqatgina Denkartada qisqagina hikoya saqlanib qolgan.¹³.

Videvdatdagi ijtimoiy-huquqiy masalalarni o‘rganish nafaqat zamonaviy huquqshunoslik nazariyasi, balki din sotsiologiyasi, psixologiyasi va antropologiyasi uchun ham foydali bo‘lib, Markaziy Osiyoning qadimgi madaniyatidagi ijtimoiy hamda diniy g‘oyalarni tushunishga imkon yaratadi.

Zardushtiylikning keng hududlarga tarqalishi albatta, mahalliy diniy e‘tiqodlar bilan moslashish bilan birgalikda kechgan. Bu o‘z navbatida Zardusht ta‘limotining shaklan o‘zgarishiga olib kelgan. Bundan tashqari zardushtiylik

ta'limoti doirasida vaqt o'tishi bilan zindiqlar, ya'ni "Avesto"ning sharhlari - Zand (Zend) larning mualliflari bilan bog'liq bo'lgan islohotchilik oqimlari ham paydo bo'la boshlagan. "Avesto"ning mohiyatini noto'g'ri talqin etgan mazkur sharhlovchilar eretik (bid'atchi)lar ("ashemaogxa" — haqiqatni buzuvchi - Asha), deb nomlanib, jinoyatchi hisoblanganlar.

Vendidatda (Fragard 18, III. [Yolg'onning to'rt yeri], 55) "afsungar va zindiq singari" Adolatli dunyoni buzuvchi sohta ruhoniy va bid'atchiga ta'rif beriladi. Zindiqlar zardushtiylikni keskin isloh qilib, unga borliq sirlarini va ruhni xolos qilish yo'llarini (gnostitsizm) bilishga yo'naltirilgan falsafiy ta'limot elementlarini, shuningdek, platonizm g'oyalarini olib kirganlar.

Zardushtiylikka yod bo'lgan asketik (tarkidunyochilik) hayot tarzi bilan bir qatordagi g'oyaviy kelishmovchiliklar Eronda Sosoniylar hukmronlik qilgan III asrda moniylikning shakllanishiga olib kelgan. Mazkur dualistik diniy ta'limot uning asoschisi bo'lgan eronlik diniy targ'ibotchi va islohotchi Moniy (216-276-yy.) nomi bilan atalgan. Moniyar juda ko'p diniy asarlar yaratishgan. Rivoyatlarga ko'ra, Moniy taniqli rassom bo'lib, kitoblarini o'z suratlari bilan bezagan. 7 asosiy kitob moniylikning diniy ta'limoti asoslaridan iborat Qonunlarini tashkil qilgan.

Monihiylikning dualistik etikasi ko'proq keskin xarakterga ega. Zardushtiylikdan farqliravishda moniyar murosasiz ravishda moddiylikni ruhiylikka qarshi qo'yadilar, shahvoniy huzur-halovatni qoralaydilar. Shunga asoslangan holda Isoning moddiy xilqatini, ya'ni yagona Uchlik bilan bog'liq asosiy diniy aqidasi inkor etib nasroniylar bilan bahsga kirishadilar. Moniyning ta'limotiga ko'ra tarixan Iso Yerda tug'ilgan havoriy sanaladi. Samoviy Iso – Yog'du osmonda bo'ladi. Insonning ruhi xuddi jism kabi yovuzlik mahsuli sanaladi, biroq unda yaxshilik kurtagi – "ilohiy nur uchquni" ham bor. Insonning maqsadi kamolotga yetishish orqali uni xolos etish, Zulmat ichra qolgan uchqunlarini Nurga qaytarishdan iborat. Buning uchun moniylikda poklanish marosimlari qayd qilingan, masalan, zohidona hayot tarzi bilan jismni o'ldirish, ro'za tutish va boshqalar. Moniyning fikricha moddiy, qora jihatlarni kamaytirish orqali yorug', ma'naviy jihatlarni ko'paytirish mumkin. O'ta taqvoli dindorlar oila

qurmaslikka qasam ichganlar. Moniylik jamoatining ijtimoiy tuzilmasi ham dualistik xarakterga ega bo'lgan: dindorlarning oliy tabaqasini "saralangan"lar tashkil etgan, quyi qatlamda "tinglovchilr" (qavm) turganlar. "Saralangan"lar havoriy boshchiligidagi faqat diniy amallar bilan shug'ullanganlar, qavm tomonidan sodir etilgan gunohlarning yuvilishi uchun ibodat qilganlar, ta'lim berganlar, taqvoga qat'iyy rioya qilganlar. Qavm esa "saralangan"larga xizmat qilgan. Yorug'lik havoriysi (Apostol) - Moniy o'zini Budda, Zardusht va Iso Masihdan keyingi so'nggi havoriy, deb hisoblagan. U o'z dindoshlarini munosib bo'lgan yuksak ma'naviyatli hayot kechirishga chaqirgan.

Moniylik quyidagi axloqiy normalarga rioya qilishga majbur bo'lganlar: o'ldirmaslik, yolg'on so'zlamaslik, sharob ichmaslik, go'sht yemaslik, ro'za tutish, boylikka intilmaslik, diniy marosimlar va bayramlarga amal qilish. To'g'ri yo'lga qo'yilgan targ'ibot-tashviqot ishlari tufayli mazkur din tez orada Mesopatiya, Kichik Osiyo, Rim, O'rta Osiyo, Xitoyga (Sharqiy Turkiston orqali) tarqalgan. Ayniqsa, aholining quyi va o'rta qatlamlari vakillarini moniylikning "kim boy bo'lsa, o'sha kambag'al bo'ladi, tilamchilik qiladi va qattiq azobu uqubatga duchor bo'ladi", degan shiori o'ziga jalb qilardi. Zardushtiylikning g'oyalarini o'zlashtirib olgan moniylik dini nasroniylik va buddizm singari mahalliy dinlarga moslashib ketgan. Mazkur dinlarning asosiy qoidalari ham moniylikka moslashtirilgan. Bu holatda tabiiyki, Moniy va uning izdoshlarini ayblab bo'lmaydi. 276-yilda Moniy qamoqqa olinib, ikki oydan so'ng qatl qilinadi. Izdoshlarining katta qismi taqiblardan qochib Markaziy Osiyoga ko'chib o'tganlar. Bu davrga kelib u yerda moniylikning taniqli vakili Mar-Amo diniy jamoani shakllantirgan edi. Keyinchalik ular O'rta Osiyoning Marv, Samarqand, Chog'niyon kabi ko'plab shaharlarida paydo bo'la boshladilar. Moniylik, shuningdek, turk qabilalari orasida ham tarqalgan¹⁴.

Sosoniylar hukmronligi davrida moniylikning III asrda, shuningdek, mazdakiylarning V asrda Eronda o'z ta'sirlarini o'tkazishga bo'lgan intilishlari mag'lubiyatga uchradi. Binobarin, ularning ijtimoiy loyihalari zodagonlar hamda

qisman dindorlar orasida ancha keskin e'tirozga uchragan. XIII asrda nasroniylik va islomning ta'qibi natijasida monixiylik tugatildi.

“Avesto”ning ko'p g'oya va tushunchalari Osiyo va O'rta yer dengizi mintaqasida yashovchi qator xalqlarning madaniyatiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylik O'rta Osiyoga islom dini kirib kelgunga qadar amalda bo'lgan. Diniy e'tiqod va konfessiya doirasida u muhim o'rin egallagan. Bartoldning yozishicha, “Zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar sirasiga zodagonlar va xalqning boy qatlami vakillari kirganlar”. Zardushtiylik boshqa diniy konfessiyalardagi dualistik g'oyalarning rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Zardushtiylikning fikr, so'z va amalning pokligiga, diniy marosimlar, kundalik turmush tarzi, ma'naviy tozalikka, xayru saxovatga da'vat qiluvchi etikasi Sharq xalqlarining falsafasi, adabiyoti, san'ati, urf-odatlarini, bayramlariga, shuningdek, ularning insonparvarlik asoslariga ta'sir ko'rsatgan.

Videvdatning daryo va suv havzalari, tuproq va o'simlik olamining tozaligini saqlashga oid yo'riqnomasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgan emas.

“Avesto” boshqa dinlarning muqaddas manbalari qatorida jahon madaniyatining noyob yodgorliklaridan biri sanaladi. Uning dualistik axloqiy qoidalari ko'plab diniy va falsafiy tizimlarning rivojiga ta'sir ko'rsatgan. 2001-yilda UNESCO shafeligida O'zbekiston hamda Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida “Avesto”ning 2700 yilligi nishonlanishi munosabati bilan “Avesto” va zardushtiylikka bag'ishlangan ko'plab ilmiy-ommabop va adabiy-badiiy asarlar nashr etildi. Dinshunoslarga Zardushtiylikni o'rganish borasida fundamental tadqiqotlar olib borish imkoniyati tug'ildi. So'nggi yillarda Avestaning falsafiy tahliliga, tarixiy-manbaviy ahamiyatiga, dinshunoslik jihatdan haqiqiy mohiyatiga qaratilgan monografik tadqiqotlar yaratildi, xalqaro va Respublika ilmiy anjumanlarida bu sohada chuqur tadqiqotlar chop etildi¹⁵.

Tangrichilik Markaziy Osiyo hududida turli diniy e'tiqodlar mavjud
e'tiqodi bo'lib, ayrimlari yo'q bo'lib ketsa-da, ularning izlari turli ko'rinishda hozirgi kungacha yetib kelgan. Ba'zi e'tiqodlarning ramz va marosimlari o'zining diniy mohiyatini yo'qotib urf-odatga aylangan, xalq

ongiga singib ketgan¹⁶. Turk hoqonligi davrida, VIII asr birinchi yarmi oxirlariga qadar Tangrichilik (Ko'k Tangri Osmon) e'tiqodi keng tarqalgan. Tangriga sig'inish davlat mafkurasiga aylangan, mansabdor shaxslarning imtiyozi, deb hisoblangan.

Qadimgi turk runiy yozuvlari bo'lgan O'rxun-Enasoy bitiklari nafaqat turkiy xalqlarning, balki Markaziy Osiyolik boshqa ko'chmanchi qabilalarning diniy e'tiqodlari tarixini o'zida aks ettiradi. Ularning e'tiqodi ramzi sifatida yodgorlikda uch iloh nomi keltirilgan: Tangri (turk. "Osmon"); Umay; Iduk Yer-Sub ("Muqaddas Yer-Suv"). Tangri xudosi va uning funksiyalarining universalligi aksariyat tadqiqotchilarda qadimgi turk xalqlarining dini o'ziga xos, monoteizm (yakka xudolik) e'tiqodiga yaqin, deb baholashlariga turtki bo'ldi. Ba'zi tadqiqotchilar fikriga ko'ra tangrichilik – qadimgi turkiy va qadimgi Oltoy xalqlari dini bo'lib, 5-6 ming yillar muqaddam qadimgi Shumerdan Oltoygacha bo'lgan ulkan hududda yashagan protooltoy qabilalari xalqlarining eng qadimgi diniy e'tiqodi. Shuningdek, tangrichilik qadimda jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri bo'lgan¹⁷.

“Musulmon renessansi”. Sharq Ulug' ajdodlarimiz tomonidan aniq
uyg'onish davri ma'naviyatining fanlarga oid asarlar bilan bir qatorda
xususiyatlari islom tarixi, falsafasi va kalom sohalari
ham taniqli asarlar yaratilgan. Xususan,
al-Forobiy, al-Beruniy, al-Xorazmiylarning ma'naviy tarbiya, adolatli davlat
tuzilishi, qonun ustuvorligi, ilmiy beg'arazlik, diniy bag'rikenglik¹⁸, to'g'risidagi
masalalar yechimiga oid asarlaridagi g'oyalar jahon madaniyati va sivilizatsiyasi
rivojiga turtki berdi. Masalan, al-Xorazmiyning “Tarix kitobi”, Abu Rayhon
Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” hamda “Hindlarning aqlga
sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini tadqiq etish”) (“Hindiston”) asarlari. Al-
Forobiy “Ikki qarash jam qilingan kitob”ida Yunon olimlari Aflotun va Arastuning
qarashlarini shariy dalillar orqali shariatga yaqinlashtirishga urindi.

Movarounnahrda VIII asr oxiri – IX boshlarida islom ta'limotiga e'tibor kuchaydi, ilk madrasalar qurila boshladi. Buyuk ajdodlarimiz – al-Xorazmiy,

Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy, al-Forobiy, al-Beruniy, ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va yana ko‘plab buyuk allomalar, mutafakkirlar va davlat arboblari madrasalarda ta‘lim olganlar va egallagan bilimlarini dunyo bo‘ylab tarqatganlar.

Temuriylar davriga kelib maktab va madrasalar qurilishi kengayib, ilmiy tadqiqot ishlari yanada rivoj topdi. Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida madrasalarda diniy ta‘lim bilan bir qatorda dunyoviy bilimlarni o‘qitishga e‘tibor kuchaytirildi. Sharq uyg‘onish davri ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy merosini o‘rganishda, zamonaviy ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirishda, komil insonni tarbiyalashda, yoshlarni mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy va diniy qadriyatlardan mahrum etishga urinishlar

Sobiq Sho‘ro ateistik siyosati sovet xalqining, shu jumladan, O‘zbek xalqining ma‘naviy va diniy qadriyatlarini

hamda an‘analarining unutilishiga olib keldi. Sovetlar davrida hokimiyatning dunyoviy xususiyati agressiv, ateistik ahamiyat kasb etdi. Din jamoat hayotidan, davlatdan uzoqlashtirildi va deyarli yo‘q qilishga qadar yetib bordi. G‘arbiy Yevropada ham o‘sha davrda hokimiyat dunyoviy xarakter kasb etgan, lekin dunyoviylik davlat va din vazifalarining bo‘linishini, ularning o‘zaro munosabatlarining huququy asosini, dinning ba‘zi ijtimoiy funksiyalari cheklovini anglatar edi. Ushbu cheklovlar O‘rta asrlar yevropasida dinning total hukmronligi, uning Yevropa jamiyati hayotining barcha sohalariga salbiy ta‘siri yuzaga keltirgan. Sovetga qadar davrda ham islomga e‘tiqod qiluvchi xalqlarda ezgulik, dinga bo‘lgan munosabatiga qaramasdan insonni hurmat qilish, milliy qadriyatlarni ezozlashga asoslangan umumiy diniy an‘analar shakllandi. Bugun buning imkoni faqat ko‘p dinli muhitda barchaning teng huquqliligini ta‘minlay oladigan dunyoviy jamiyat sharoitlaridagina mavjud.

Shunday qilib, dunyoviylikni dahriylik deb tushunmaslik lozim. Dunyoviy davlatning teokratik davlatga nisbatan asosiy farqi shundaki, teokratik davlat bir dinga mansub bo‘lgan guruhning manfaatlarini himoya qilsa, dunyoviy davlat

barcha ijtimoiy guruhlarning manfaatini humoya qiladi hamda barcha din va madaniyatlarga bir xil sharoit yaratadi. Albatta ular ham o'z navbatida qonun doirasida faoliyat olib borishlari lozim bo'ladi¹⁹.

Mustaqillik tufayli diniy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash jarayoni boshlandi, dinga, ayniqsa, islomga munosabat tubdan o'zgardi.

Ma'naviyatning davlat siyosatida ustuvor sohaga aylanishi Mustaqillikning ilk yillaridanoq yurtimizni rivojlantirishning asosiy tamoyillaridan biri – xalqimizning ma'naviy va diniy merosini o'rganishdan iborat.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrdagi BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik"deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish bo'yicha taklif bilan chiqqan murojaatlari hamda 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni mazmun-mohiyat jihatidan katta tarixiy ahamiyaga ega bo'lib, xalqimizning boy ilmiy va ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasini keng tanishtirish, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berishdek ezgu maqsadlar davlat siyosatida ustuvor sohaga aylandi²⁰.

Hozirgi kunda bizning tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma'rifatga o'rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi.

**Hadisshunoslik, fiqh,
tasavvuf maktablarining
tashkil etilishi**

Yurtimizda Qur'on ilmi, hadis, islom huquqi, tasavvuf, islom iqtisodiyoti va moliyasi, xalqaro munosabatlar, xorijiy tillar va boshqa xalqaro miqyosda ehtiyoj mavjud bo'lgan sohalar

bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-son qaroriga ko'ra O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi tashkil etildi. Ushbu sohalarda chuqur tadqiqotlar olib boruvchi ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash, O'z.XIAning asosiy vazifalaridan biri qilib belgilandi. O'z.XIA professor-o'qituvchilari, doktorant va magistrantlari, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqandda Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi olimlari, hadisshunoslik, fiqh, tasavvuf sohasidagi ilmiy tadqiqotlari bilan O'zbekistonda hadisshunoslik, fiqh, tasavvuf maktablarining tashkil etilishiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bu yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ular ichida Movarounnahr va Xuroson olimlari – Al-Buxoriy, Muslim, At-Termiziylarning hadis ilmi rivojida tutgan o'rni (U.Uvatov); Al-Xakim at-Termiziyning "Navodir al-usul" asari (hadis va tasavvuf ilmiga oid muhim manba) (I.Usmonov); Abu Hafs an-Nasafiyning "Kitob al-qand fi ma'rifat 'ulamo' Samarqand" asari (Samarqandda hadis ilmi tarixi bo'yicha muhim manba) (D. Rahimjonov); Imom ad-Dorimiyning hadis ilmi rivojiga qo'shgan hissasi (M. Alimova); Abu Mansur al-Moturudiyning yozma merosi (Sh. Ziyodov); Abu Zayd ad-Dabusiy merosining Movarounnahrda fiqh ilmi rivojida tutgan o'rni (Z.Najmiddinov); Majduddin al-Ustrushaniyning Movarounnahr fiqh ilmi tarixida tutgan o'rni (R.Atayev); Lutfulloh Nasafiyning "Fiqhi Kaydoniy" asari va unga yozilgan sharh va hoshiyalar tahlili (H. Nasrullaev); Movarounnahr fiqh ilmi rivojida Alouddin as-Samarqandiyning o'rni (M.M.Kamilov); XVI asr birinchi yarmida Movarounnahrda Naqshbandiya sufiy shayxlari siyosiy faoliyati (B.Babadjanov); Musoxon Dahbidiyning Naqshbandiya-Mujaddiya tariqati rivojida tutgan o'rni (H.Yo'ldoshxo'jayev); tasavvuf ta'limotining tarixiy-falsafiy

mohiyati (M. Mamatov) kabi asarlar muhim ahamiyatga ega. Tasavvuf ta'limotini o'rganish borasida yangi muhim manbalar, bir qancha tasavvuf shayxlarining faoliyati o'rganildi. Masalan, Sh.Yu. Shakirova Xorazm tasavvuf maktabi namoyandasi bo'lgan Bobojon Sanoiyning adabiy-irfoniy merosini o'rganib, uning tasavvufiy qarashlarini tadqiq etgan.

Diniy-ma'naviy merosni o'rganishning hozirgi zamon muammolarini hal etishdagi roli

Diniy-ma'naviy merosni o'rganishi hozirgi zamon muammolarini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlash masalasi diniy qadriyatlar hamda dunyo ilm-fani va madaniyati

rivojiga ulkan hissa qo'shgan diniy-manaviy meros asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash vazifasi bilan chambarchas bog'liq. Islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosi yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish vazifasi diniy-ma'rifiy sohaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan. Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik g'oyalarini targ'ib etish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy merosi va islom dinining asl mohiyatini tushuntirishga yo'naltirilgan audiovizual materiallar (elektron kitoblar, nashrlar, olimlarning sharhi bo'lgan videoroliklar) kompleksi ishlab chiqilmoqda. Mamlakatimizda dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ajdodlarimizning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan boy diniy-ilmiy merosini keng targ'ib qiluvchi, diniy-ma'rifiy hayotdagi yangiliklarni jamoatchilikka yetkazuvchi asosiy media tuzilma sifatida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi "Ziyo" media markazi shakllantirilgan. "Vaqf" xayriya jamoat fondi islom ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimiz, zamonamizning yetuk olim va ulamolari qalamiga mansub diniy-ma'rifiy asarlarni chop etish va aholiga yetkazishga ko'maklashmoqda.

Ta'lim muassasalarida O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunini o'rganishga bag'ishlangan "Axborot soati" va "Ma'naviyat kunlari"ni o'tkazish ishlarini yanada takomillashtirish vazifasi diniy-ma'rifiy sohaning ustuvor yo'nalishlari etib belgilangan.

Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri – ziyorat turizmini rivojlanirishdan iborat. Ushbu vazifa bevosita diniy-ma'rifiy merosni o'rganish bilan bog'liq. Muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar moddiy madaniy meros obyektlari hisoblanadi hamda ularning talab darajasida muhofaza qilinishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan davlat nazorati o'rnatiladi. Din ishlari bo'yicha qo'mitada Ziyorat turizmini qo'llab-quvvatlash bo'limi tashkil etilib, unga ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan, xorijiy ommaviy axborot vositalarida O'zbekiston to'g'risida Islom dini va boshqa jahon dinlarining madaniy-tarixiy va ilmiy-teologik markazi sifatida axborot materiallarini targ'ib qilish va tarqatish yuklanmoqda.

Turistlar uchun yo'nalishni mo'ljalga olishni yengillashtirish maqsadida chet tillaridagi (ingliz, rus va boshqa tillarda) ko'rsatkichlarni o'rnatish tashabbusi bilan chiqqan xo'jalik yurituvchi subyektlarga ushbu ko'rsatkichlarda ular tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar (xizmatlar va ishlar)ning reklamasini joylashtirish huquqi berilmoqda²¹.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-apreldagi "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga asosan, "Vaqf" xayriya jamoat fondi tashkil etildi. Hozirda fondga "Payme", "Click" va "M-bank" elektron to'lov tizimlari orqali mablag'larni jalb etishga mo'ljallangan xizmatlar ishga tushirildi. Berilgan ko'rsatmalarga asosida Toshkent shahridagi 12 ta yirik masjid va "Zangiota" ziyoratgohi hududiga mamlakatimiz yirik banklarining infokiosklari o'rnatildi. "Vaqf" xayriya jamoat fondi nizomidan kelib chiqib, jamg'armaga tushgan mablag'larni maqsadli sarflash bo'yicha asosiy sarf-xarajat yo'nalishlari ishlab chiqildi²².

Davlatimiz diniy madaniyatga oid qadriyatlar, nomoddiy madaniy meros obyektlari, qo'lyozmalar, yodgorliklar, shuningdek, arxeologik topilmalarni muhofaza qilish masalasiga oid O'zbekistonning "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risidagi" qonun mavjud. Unga ko'ra nomoddiy madaniy meros obyektlari tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o'zgacha madaniy qimmatga ega bo'lgan urf-odatlar, xalq ijodiyoti (so'z, raqs, musiqa, tomosha

san'ati), shuningdek, ular hamda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'ati bilan bog'liq bilimlar, ko'nikmalar, asbob-anjomlar, artefaktlar, madaniy makonlardir²³.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jahon, milliy va ibtidoiy dinlardagi insonparvarlik g'oyalari, diniy-axloqiy tamoyillari jahon madaniyatining noyob yodgorliklaridir. Xalqimizning boy ilmiy va ma'naviy merosini har tomonlama o'rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berishdek ezgu maqsadlar davlat siyosatida ustuvor sohaga aylandi.

O'zbekiston hadisshunoslik, fiqh, tasavvuf maktablari tomonidan islom sivilizatsiyasi taraqqiyotida tutgan o'rni, undagi yuksak ma'naviyat, diniy-axloqiy fazilatlar chuqur o'rganganilmoqda.

Diniy-ma'naviy merosni o'rganish hozirgi zamon tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishda muhim ahamiyatga ega.

4.2. O'zbekistonda vijdon erkinligi

***Mazmun.** Vijdon erkinligi tushunchasi. O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi. Missionerlik va prozelitizm xayfining bartaraf etilishi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar. Xalqaro me'yoriy hujjatlarda vijdon erkinligi. Ma'rifiy islomni targ'ib etish – yoshlarni diniy fanatizm, fundamentalizm va ekstremizm g'oyalardan muhofaza etishning oqilona yo'li.*

Vijdon erkinligi Vijdon erkinligi bu fuqarolarning har qanday dinga **tushunchasi** e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat huquqidir.

Vijdon tushunchasi – ma'naviy ong hamda o'z xatti-harakati uchun o'zi, jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatga egaligini anglash va uning oqibatlarini baholash - qadimgi Yunonistonda ham ma'lum edi. Hozirgi kunda vijdon tushunchasi o'zgardi, unda yangi urg'u va nozik ohanglar, belgilar paydo bo'ldi. Aristotel (eramizdan oldin 384-322) vijdonni "insofli insonning haqiqiy sudi" deb

hisoblagan. Uning yaxshi xislatni “mulohaza bilan uyg‘unlashgan nafosatga intilish” tushunchasidan kelib chiqib, vijdonni quyidagicha tavsiflasi bo‘ladi: 1) mulohaza bilan to‘g‘ri vositalarni tanlash; 2) yaxshi maqsadning orqasidan borish.

Antik polislardagi boshqaruvning demokratik shakli fuqarolarning vijdoni va mas‘uliyatining davlat oldidagi rolini oshirdi. Fuqarolar polis uchun nima yaxshi va nima yomonligini hal qilishda nisbiy erkinlikka ega edilar. Haqiqatda, bunga faqat ozod fuqarolar haqli bo‘lib, qullarda bunday huquq yo‘q edi. Aristotelning fikri bo‘yicha “har qanday qullik tabiiylikka ziddir”, chunki, qul xo‘jayiniga to‘la qaram bo‘lgani uchun mustaqil ravishda na yashash, na mulohaza qilish qobiliyatiga ega.

“Xudolarning tabiati haqida”gi traktatida Tsitseron ilohlar muammosini erkin muhokama qilish misolida turli yo‘nalishdagi faylasuflarning avtoritetdan ko‘ra dalilning kuchiga o‘rin berishlarini ko‘rsatdi. U o‘zining fikri yo‘q, lekin o‘zi hurmat qiladiganlarning fikrini eng to‘g‘ri, deb qabul qiladigan insonlarni qoralaydi. Qadimgi Yunoniston davlat tizimi, bir tomondan, polislarda yangi g‘oyalarning paydo bo‘lishini qo‘llab-quvvatlasa, ikkinchi tomondan, vujudga kelgan an‘analarni yangiliklardan himoya qilardi. Protagor, Sokrat, Anaksagor va boshqa bir qator yangicha fikrlaydigan antik faylasuflar eramizdan oldin V asrda quvg‘inga duchor bo‘lishgan edi. Platon an‘analar va davlat asoslarini buzgan insonlar quvg‘in qilinishi kerak, davlat qonunlari hamfikir fuqarolarni vujudga keltiruvchi dinni himoya qilishi lozim, deb hisoblagan. Rim hukumati esa xristianlikni xalq orasida tarqatishni davlat diniga, deb qabul qildi. IV asr boshidagi Rim imperiyasining siyosiy inqirozi va iqtisodiy tanazzuli hukumatni jamiyatni universal din atrofida to‘plashga majbur qildi. Xristianlikni ta‘qib qilish to‘xtadi, insoniyot tarixida vijdon erkinligining yangi sahifasi ochilib, davlat va din o‘rtasida konstruktiv munosabatlar boshlandi. Vijdon erkinligi tushunchasi paydo bo‘lib, qonuniy jihatdan mustahkamlandi.

Lekin xristianlik Rim imperiyasining davlat diniga aylangach, bir paytlar o‘zi boshidan kechirgandek, boshqa dinlarga nisbatan murosasizlik ko‘rsata boshladi. X-XI asrlarda tashkil topgan Papa teokratiyasi (cherkov boshlig‘ining ayni paytda

davlat boshlig'i ham bo'lganligi) bid'atchilar (ya'ni odatdagi din g'oyalariga qarshi chiquvchilar) bilan kurash boshlab, inkvizitsiya boshlandi. G'arbiy va Markaziy yevropada XVI asrda boshlangan reformatsiya rasmiy cherkov tomonidan vijdon erkinligini barbod qilishga qaratilgan harakatlariga javob edi. Djordano Bruno, Galileo Galiley, Yan Gus va boshqa ko'plab iqtidorli olimlar yovuzlik qurboni bo'lishdi. 1555-yil 25-sentabrda Augsburg reyxstagida protestant knyazlari va imperator Ferdinand I o'rtasidagi tuzilgan bitim, ya'ni diniy sohadagi tinchlik shartnomasi, nemis katoliklari va protestantlari o'rtasidagi urushlarga nuqta qo'ydi. Augsburg diniy tinchlik shartnomasi "cuius regio, eius religio" (ya'ni, hokimiyat kimniki bo'lsa, diniy e'tiqod ham shuniki) tamoyilini ta'kidladi, ya'ni hukmdorga istalgan dinini tanlash huquqini berdi va boshqa dinga e'tiqod qiluvchilarga ko'chib ketish ixtiyori berildi. "Bag'rikenglik akti"²⁴ Styuartlar sulolasining diniy siyosatini yumshatishga va davlat anglikan cherkovi va undan chetlashgan protestant-dissenterlar o'rtasidagi keskinlikni yo'qotishga yo'naltirilgan edi.

Yevropa Ma'rifatparvarlik davri faylasuflari vijdon erkinligi tushunchasini sekulyarizatsiya jarayoni bilan bog'lab, o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdilar. Sekulyarizatsiya (lotin. saecularis – dunyoviy; xristianlikda –muqaddas manbalardan uzilgan degani). Ushbu so'zning dunyoviy ma'nolari – jamoaviy va shaxsiy hayotning barcha jabhalarini din ta'siridan xalos etish jarayoni diniy tashkilotlar mulkidan davlat foydasiga voz kechish. G'arbiy Yevropada Ma'rifatparvarlik va XVIII-XX asrlardagi revolyutsiyalar davrida diniy holatdan dunyoviylikka o'tish jarayoni keskinlik bilan o'tdi.

Ingliz ma'rifatparvari J.Lokk turli xil diniy yo'nalishdagi sektalarning fanatizmiga qarshi chiqib, diniy bag'rikenglikni targ'ib qildi. U o'z fikrlarini "Xristianlik oqilligi" (1695) asarida aytib o'tadi. Bu asarida Lokk protestantlik ruhida Iso Masihning "asl" ta'limotini keyin paydo bo'lgan o'zgarishlardan ajratishga harakat qiladi. Modomiki, insonning aqli cheklangan ekan, - deb fikr yuritadi Lokk, - hatto oqil xristianlik ham vahiya, ilohiyotning "ruh orqali o'tuvchi" tajribasiga muhtoj, busiz har qanday din quruqdir.

Fransuz ma'rifatparvarligi vakili Jan Jak Russo tarbiya jarayonida insonning ichki vijdon ovozi shaklida amal qiluvchi diniy hissiyot bo'lishini, uning vatandoshi Volter esa ma'rifatli aqlni qo'llab-quvvatlagan. Vijdon erkinligi g'oyalari Lessingning "Donishmand Natan" dramasida aks etgan. T.Djefferson Amerika Konstitutsiyasida vijdon erkinligi muammolarini ko'targan.

O'zbekistonda vijdon erkinligi | O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlangan. O'zbekistonda vijdon erkinligi huquqiga ko'ra fuqaro o'zining dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligi, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi. Voyaga yetmaganlarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi. Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida (1998), hukumatimiz qarorlarida, shuningdek, qator xalqaro deklaratsiyalar va qonunchilik aktlarida bag'rikenglikning asosiy tamoyillari to'g'risida so'z yuritiladi.

Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda vijdon erkinligi va diniy e'tiqod erkinligi huquqidan foydalanadilar hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun qonunda belgilangan tarzda javobgar bo'ladilar (3-modda).

O'zbekiston Respublikasida din davlatdan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi (5-modda). Ta'lim tizimi ham O'zbekistonda dindan ajratilgan. Ta'lim tizimining o'quv dasturlariga diniy fanlar kiritilishiga

yo‘l qo‘yilmaydi. Fuqarolarining dunyoviy ta‘lim olish huquqi ularning dinga bo‘lgan munosabatidan qat’iyy nazar ta‘min etiladi (7-modda).

O‘zbekiston fuqarolari dinga munosabatidan qat’iyy nazar qonun oldida tengdirlar. Hech kim diniy e‘tiqodini ro‘kach qilib qonunda belgilangan majburiyatlarni bajarishdan bosh tortishga haqli emas (4-modda).

O‘zbekistonda bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. (5-modda). Mamlakatimizda missionerlik va prozelitizmning oldini olish, ayniqsa yoshlarni bunday zararli oqimlar domiga tushib qolishlarining oldini olish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirishni taqozo qilmoqda. Bu vazifani muvaffaqiyatli hal etishda yosh avlodni hozirgi davrda mamlakatimizda din sohasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar, yaratilgan imkoniyatlar bilan muntazam asosda tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega.

Davlat diniy tashkilotlar zimmasiga o‘zining hech qanday vazifasini bajarishni yuklamaydi, ularning qonun hujjatlariga zid bo‘lmagan faoliyatiga aralashmaydi. Diniy tashkilotlar davlat vazifalarini bajarmaydi. Davlat diniy tashkilotlarning faoliyatini hamda dahriylik targ‘ibotiga oid faoliyatini mablag‘ bilan ta‘minlamaydi (5-modda).

O‘zbekistonda davlat va dinning o‘zaro munosabatlari qonun bilan muhofaza qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 18- moddasida ushbu huquqiy asoslar o‘z ifodasini topgan: O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’iyy nazar qonun oldida tengdir. Vijdon erkinligi kafolatlari 31-moddada o‘z aksini topgan: Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi. 57-moddaga ko‘ra diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning ma‘naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Yashirin tashkilotlar va birlashmalarning tuzilishi taqiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar” to‘g‘risidagi qonunida davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o‘zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita zimmasiga yuklanadi. Qo‘mitaning huquqiy maqomi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

Davlat turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi va ularga e‘tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e‘tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o‘rtasida o‘zaro murosa va hurmat o‘rnatilishiga ko‘maklashadi, diniy va o‘zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo‘yish va keskinlashtirishga, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi (5-modda). Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, tuman va shahar hokimliklari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tegishli hududlarda vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi uchun qonun bo‘yicha javobgardirlar (6-modda).

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi Qonunning maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e‘tiqod huquqini, dinga munosabatidan qat‘iy nazar fuqarolarning tengligini ta‘minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

Diniy tashkilotlar amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishlari shart. Dindan davlatga va konstitutsiyaga qarshi targ‘ibot olib borishda, dushmanlik, nafrat, millatlararo adovat uyg‘otish, axloqiy negizlarni va fuqaroviy totuvlikni buzishda, bo‘hton, vaziyatni beqarorlashtiruvchi uydirmalarni tarqatishda, aholi o‘rtasida vahima chiqarishda hamda davlatga, jamiyat va shaxsga qarshi qaratilgan boshqa xatti-harakatlarda foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka ko‘maklashadigan, shuningdek, boshqa g‘arazli maqsadlarni ko‘zlovchi diniy tashkilotlar, oqimlar, sektalar va boshqalarning faoliyati man etiladi. Davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga, mansabdor shaxslarga tazyiq o‘tkazishga qaratilgan har qanday urinish, shuningdek, yashirin

diniy faoliyat qonun bilan taqiqlanadi (O‘zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar” to‘g‘risidagi qonunining 5-moddasi)²⁵.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi Nizomiga ko‘ra (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23 noyabrdagi 946-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori) quyidagilar Qo‘mitaning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq din ishlari sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- O‘zbekiston Respublikasining dunyoviy davlat tamoyilini amaliy ro‘yobga chiqarish, fuqarolarning vijdon erkinligi kafolatlarini himoya qilish;
- diniy mutaassiblik va ekstremizm g‘oyalarini tarqatish, turli konfessiyalar o‘rtasida adovatni yuzaga keltirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;
- jamiyatda diniy-ma‘rifiy muhit barqarorligi va e‘tiqod erkinligiga tahdid tug‘dirishi mumkin bo‘lgan omillarni o‘rganish, tahlil qilish va ularning oldini olish choralarini ko‘rish, shuningdek, ushbu jarayonlarda diniy-ma‘rifiy soha vakillarining ishtirokini kengaytirish.

Konfessiyalararo kengashi tarkibiga O'zbekistonda faoliyat yuritadigan eng yirik diniy konfessiyalarning rahbarlari kiradi. 2019 yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 16-ta diniy konfessiyalar mavjud, Konfederatsiyalararo Kengashi tarkibiga 17 a'zo kiradi.

Hozirda O‘zbekiston aholisining soni 33 milliondan oshgan bo‘lib, ular 130 dan ziyod millat va 16 diniy konfessiyaga mansubdir. Dindor fuqarolarimizning 94 foizdan ziyodi islom diniga e‘tiqod qiladi. 3,5 foizga yaqin fuqarolar xristian dinining pravoslav yo‘nalishiga mansub bo‘lib, qolganlarini boshqa konfessiya vakillari tashkil etadi, ular o‘zaro tinchlik va hamkorlikda yashab kelmoqda.. Hozir O‘zbekiston Respublikasida 2257 diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2083 tasi islomiy, 160 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari bo‘lib, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasi mavjud. Bulardan

tashqari konfessiyalararo O'zbekistondagi Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda.

Xalqaro meyoriy hujjatlarda vijdon erkinligi Hozirgi zamondagi "vijdon erkinligi" tushunchasi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasida (1948), Inson huquqlari va asosiy erkinliklar bo'yicha Yevropa konvensiyasida (1950), BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1981-yilda qabul qilingan Din va e'tiqodlar niqobidagi murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Deklaratsiyada, Vena uchrashuvidagi Yakuniy hujjatda (1989), Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasida (1990), UNESCOning 1995-yil 16-noyabrdagi Bosh konferensiyasida 5.61 rezolyutsiyasi qabul qilingan Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasida qayd etilgan. UNESCO bag'rikenglik deklaratsiyasining 3-moddasida (1995) ta'kidlanishicha, bag'rikenglik hozirgi davrda ilgarigi hamma davrlardagidan ko'ra muhimroq, chunki bizlar jamiyatning barcha asosiy sohalari: iqtisodiyot, siyosat, madaniy, aloqalarning tez rivojlanayotgan, integratsiya va hamkorlik, aholining keng ko'lamli ko'chishi davrida yashayapmiz. Har bir mintaqaning noyobligi va har xilligi tufayli murosasizlikning va mojarolarning kengayishi dunyoning barcha qismlariga potensial jihatdan tahdid soladi. Bunday tahdidlardan milliy chegaralar himoya qila olmaydi, chunki ular global xarakter kasb etmoqda.

Bundan tashqari vijdon erkinligi inson huquqlari sohasidagi respublikamiz ham qo'shilgan xalqaro-huquqiy hujjatlar: Inson huquqlari xalqaro deklaratsiyasi; Din va e'tiqodlarga asoslangan murosasizlik va kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Deklaratsiya; rivojlanish huquqiga egalik Deklaratsiyasi; Dinlararo muloqot va dunyo madaniyati bo'yicha UNESCO Xalqaro kongressi va boshqalar bilan qo'llab-quvvatlanyapti.

2017-yil 19-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 72/176-sonli Rezolyutsiyasi qabul qilindi. Unda diniy murosasizlik, kamsitish, isnod keltirish va ularga bog'liq zo'rvonlik, shuningdek, din va e'tiqod niqobidagi odamlarni kamsitish holatlari butun dunyoda ko'payib borayotgani ta'kidlandi. Bu esa milliy,

mintaqaviy va xalqaro miqyosda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Rezolyutsiya yuqorida qayd etilgan barcha salbiy holatlarga barham berishga targ'ib qiladi²⁶.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi, 2017-yil 11-dekabrda 72/136-sonli Rezolyutsiyada dinlararo va madaniyatlararo muloqot va hamkorlik zarurligi haqida gap boradi. Bu borada BMT, UNESCO, Anna Lind jamg'armasi, Qirol Abdulla Ibn Abdulaziz nomidagi Xalqaro dinlararo va madaniyatlararo muloqoti markazi muhim ahamiyatga ega²⁷.

2017-yil 19-sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Davlatimiz Rahbari Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. 2018-yil 12-dekabr BMT Bosh Assambleyasida "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Ma'rifiy islomni targ'ib etish – yoshlarni diniy-radikal g'oyalardan muhofaza etish omili sifatida – Dunyo bo'ylab ekstremistik tashkilotlarning XXI asr bo'sag'asidan hozirgacha faoliyati tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, diniy ekstremistik oqimlar (DEO) faoliyatining aksariyati siyosiy muzokaralar o'tkazish diplomatik, mafkuraviy va ma'rifiy yo'llar vositasida, barham topgan. Qadim zamonlardan beri dinlar ko'plab ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zida mujassam etib keladi. Xalqlarning hayot tarzi xususiyatlari ular ibodat qilayotgan dinlarda va vijdon erkinligi xususiyatlarida aks etadi. Shu bilan birga dunyodagi yirik dinlarning hammasi insonning qadr-qimmatini, saxovat, ezgulik, tinchliksevarlik kabi g'oyalarga tayanadi, halollik va ochiq ko'ngillikni, oliyjanoblikni targ'ib qiladi. Sharq adabiyoti ham bag'rikenglikning mustahkamlanishiga yordam bergan. Buni Sharqning Rumi, Sa'diy, Navoiy, Bobur va boshqa mutafakkirlarining asarlaridan ham yaqqol bilish mumkin. A.Navoiy asarining qahramonlari har xil millat – turk, fors, yunon, xitoy, arman – va din vakillaridan ekanligi ham bejiz emas.

Qur'onda keltirilgan insonparvarlik g'oyalari konsensus (kengash), adolat kabi zamonaviy siyosiy tamoyillarga monand.

1. O‘zaro maslahat bilan bo‘ladigan ishlar konsensus tamoyilini namoyish qiladi: “Ular Parvardigorlariga itoat etgan va namozni barkamol ado etgan zotlardir. Ularning ishlari o‘zaro maslahat (bilan) bo‘lur va Biz ularni rizqlantirgan narsalardan (muhtojlarga) ehson qilurlar” (Qur‘on, Sho‘ro surasi, 38-oyat).

“Allohning rahmati sababli (Siz, ey, Muhammad,) ularga (sahobalarga) muloyimlik qildingiz. Agar dag‘al va toshbag‘ir bo‘lganingizda, albatta, (ular) atrofingizdan tarqalib ketgan bo‘lur edilar. Bas, ularni afv eting, (gunohlari uchun) kechirim so‘rang va ular bilan kengashib ish qiling!” (Oli Imron surasi 159-oyat). Shayx Abdulaziz Mansurning ushbu oyatga izohi: Allohdan ko‘rsatma berilmagan ishlarda Muhammad payg‘ambar sahobalar bilan bamaslahat ish tutadi. Maslahatlashib (Allohga) tavakkal qilgan holda o‘sha ishni amalga oshiraveradi.

2. Mol-mulkka egalik huquq masalalarida adolat tamoyili Qur‘onning bir qator oyatlarida o‘z ifodasini topgan. Misol uchun, Niso surasi 58-oyatda: “Darhaqiqat, Alloh omonatni o‘z egalariga topshirishingiz va odamlar o‘rtasida adolat bilan hukm qilishingizga buyurar. Albatta, Alloh sizlarga yaxshigina nasihat qilur. Albatta, Alloh eshituvchi va ko‘ruvchi zotdir”.

Zulm va rahmdillik masalalarida adolatlilik tamoyili alohida muhim rol o‘ynaydi. Sho‘ro surasining 40, 41, 42-oyatlari: “(Har qanday) yomonlikning jazosi xuddi o‘ziga o‘xshash yomonlikdir. Bas, kimki afv etib (o‘rtani) tuzatsa, uning mukofoti Allohning zimmasidadir. Albatta, U zolim (tajovuzkor)larni sevmas”. “Albatta, kimki mazlum bo‘lganidan so‘ng (zulm qilgan kimsadan) g‘olib bo‘lsa (intiqom olsa), bas, ular(ni ayblash)ga yo‘l yo‘qdir”. “Faqat odamlarga zulm qiladigan va erda nohaqlik bilan hadlaridan oshadigan kimsalar(ni ayblab jazolash)gagina yo‘l bordir. Ana o‘shalar uchun alamli azob bordir”. Yaxshilik va yomonlik masalalarida adolat tamoyili – ijtimoiy axloqning ajralmas xususiyatidir. Oli Imron surasi, 30-oyat: “Har bir jon o‘zi qilgan yaxshi va yomon amallari (ko‘z o‘ngida) hozir qilingan Kun (Qiyomat)da ular (yomon amallari) bilan uning o‘rtasi uzoq masofa bo‘lishini orzu qiladi. Alloh sizlarni "O‘zidan" ogohlantiradi. Alloh bandalarga mehribondir”²⁸. “Yaxshi” va undan hosil bo‘lgan so‘zlar Qur‘onda 200 martadan ko‘p uchraydi.

Din sotsiologiyasi bo'yicha mashhur amerikalik olim Jefri Xedden fundamentalizmning quyidagi turlarini ajratgan: teologik, siyosiy, madaniy va nihoyat, global fundamentalizm²⁹. IShID terrorchilik tashkilotida mana shularning barchasi mujassam. Muqaddas matnlar kontekstidan ajratib olingan iqtiboslar bilan niqoblab, islomning insonparvarlik g'oyalarini ongli ravishda buzib ko'rsatuvchi IShID mafkurachilari o'z teologik davlati – xalifat tuzish bilan bog'liq siyosiy maqsadlarga intiladilar. Ular shafqatsizlik, yolg'on, johillikka asoslangan o'zlariga xos bo'lgan madaniyatlarini yaratmoqdalar. Ushbu tashkilotning asosiy quroli – terror va tahdidlar bo'lib, ular global xarakter kasb etmoqda³⁰.

2017-yil 19-sentabrda Davlatimiz Rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi o'z nutqida ma'rifiy islom dinining insonparvarlik ahamiyatiga yana bir bor e'tiborni qaratib,: “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz”- deya ta'kidlaydi.

4.3. Diniy mutaassiblik va ekstremizmga qarshi mafkuraviy kurash:

O'zbekiston tajribasi

Mazmun. *Diniy fanatizm (mutaassiblik), ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm, xalqaro terrorizm tushunchalari, ularning reaksion mohiyati. Virtual olamdagi tahdidlar. Mafkuraviy immunitet tushunchasi. Internet tarmog'idagi axborot g'oyaviy xurujlarga qarshi kurash. Zamonaviy diniy ekstremistik oqimlarning shakllanish tarixi. Diniy ekstremistik oqimlar tomonidan sof islom tushunchalarini buzib talqin etilishi. O'zbekiston Respublikasida mutaassiblik va ekstremizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O'zbekistonning diniy mutaassiblik va ekstremizmga qarshi mafkuraviy kurash boradasidagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishi.*

**Diniy fanatizm, ekstremizm,
fundamentalizm, terrorizm
va xalqaro terrorizm**

Diniy fanatizm (mutaassiblik) – o‘z diniy qarashlarini mutlaq haqiqat sifatida e’tirof etgan holda boshqa diniy e’tiqodlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish. Mutaassiblikka

berilgan odamlar va ularning guruhleri tarqatayotgan g‘oyalari va amaliy faoliyati jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka tahdid hisoblanadi. Insoniyat tarixida bunday e’tiqoddan g‘arazli siyosiy maqsadlarda foydalanilgan. O‘rta asrlardagi yevropada “muqaddas yerlarni ozod etish” g‘oyasi ostida xristian ruhoniylari da’vati bilan Sharq tomon amalga oshirilgan salb yurishlari, keyinchalik amalga oshirilgan inkvizitsiyalar, Reformatsiyaga qarshi harakatlar, islom dunyosida avval va hozirgi kunda faoliyati kuzatilayotgan diniy-ekstremistik oqimlarning mafkurasi zahirida diniy mutaassiblik yotadi. Islom dini mutaassiblikni, fundamentalizm va aqidaparastlikni qoralaydi. Teran o‘ylashga, boshqalarga nisbatan murosali bo‘lishga chaqiradi³¹.

Aqidaparastlik – dindagi aqida va qoidalarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ko‘r-ko‘rona qo‘llash va mutlaqlashtirishga qaratilgan harakatlar hisoblanadi. Aqidaparastlik barcha dinlarda turli mazhab va yo‘nalishlar orasida, shuningdek, dunyoviy jamiyatda keskinlik, nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi. Aqidaparast guruhlar o‘z g‘oyalarini tushuntirish, ishontirish kabi usullar orqali targ‘ib etishni tan olmaydi. Ular o‘z da’volarida boshqalarga nisbatan o‘ta johil va murosasiz munosabatda bo‘ladilar. O‘zini shak-shubhasiz haq, deb bilish, haqiqatni faqat men bilaman, degan qarashga asoslangan manmanlik esa zo‘ravonlikni yuzaga keltiradi³².

Diniy fundamentalizm (lotin. fundamentalis – asos):

1) keng ma’noda deyarli barcha dinlar ichida uchraydigan oqim bo‘lib, mazkur oqim tarafdorlari ijtimoiy hayotning barcha sohalarida dastlabki diniy manbalarning talablariga qaytishni targ‘ib qiladilar. Fundamentalistlarning asosiy jihatlari muqaddas matnlarni so‘zma-so‘z talqin qilish, diniy ta’limotni mutlaqo o‘zgarmas, deb e’lon qilish, barcha diniy ko‘rsatmalarni to‘la-to‘kis bajarishni talab etish va h.k. Diniy fundamentalizm buzg‘unchi mohiyatga ega. Chunki u

jamiyatda ustuvor maqsad sifatida milliy qadriyatlarni mustahkamlash, davlat manfaatlarini himoya qilishni emas, balki gumanizm, demokratiya tamoyillarini inkor etgan holda muayyan din mafkurasi asosida “yangi tartib” joriy qilishga chaqiradi. Diniy fundamentalizm hozirgi zamondagi dunyoviy davlatchilikni rad etib, dinni siyosiy sohada ham inson ustidan hukmron, deb talqin qilib, jamiyat ustidan xudo nomidan harakat qiluvchi diniy hokimiyatni tiklashni targ‘ib qiladi;

2) tor ma’noda XX asrning boshida AQShda protestantlik yo‘nalishida vujudga kelgan oqim tushuniladi. Protestant fundamentalistlari Bibliyani so‘zmaso‘z talqin etgan, ijtimoiy-ma’naviy hayotda xristian dinining mutlaq (monopol) boshqaruv huquqini talab etganlar. Oqim o‘z nomini 1912-yildan “Asos” nomli davriy nashridan olgan. Fundamentalistlar 1919-yili Filadelfiyada “Umumjahon xristian fundamentalistlari uyushmasi”ni tuzgan³³.

Islom yo‘nalishidagi fundamentalistlar turli yo‘nalish va kayfiyatdagi guruhlarni o‘z ichiga oladi. Ayrimlari terroristik usullar bilan qonuniy hokimiyatga qarshi kurash olib borsalar, boshqalari targ‘ibot-tashviqot ishlari, diniy ta’lim, jamoat tashkilotlari, maktab, universitet, ommaviy axborot vositalariga kirib borish, adabiyot, audio-videokassetalar, SD-DVD-disklar tarqatish bilan shug‘ullanadilar.

Diniy g‘oyalar–diniy da’vatlar, aqidalar, ilohiy qadriyatva maqsadlar ifodalangan qarashlar majmuyi. Ular turli dinlarning amal qilish yo‘lini belgilab olishda namoyon bo‘ladi³⁴.

Keyingi yillarda Yevroosiyo qit’asi va Afrikada joylashgan qator mamlakatlarda ijtimoiy-siyosiy vaziyatga salbiy ta’sir o‘tkazayotgan diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlarning faollashuvi kuzatilmoqda. Ma’lumki, muayyan siyosiy omillar va turli ilmiy yondashuvlar bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra diniy mutaassiblik va ekstremizm tushunchalari bo‘yicha soha mutaxassislari tomonidan umume’tirof etilgan yagona ta’rif yo‘q.

O‘zbekiston tomonidan imzolangan “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash bo‘yicha Shanxay Konvensiyasi” (Shanxay, 2001-yil 15-iyun)ga muvofiq ekstremizm – konstitutsion tuzumni zo‘rlab o‘zgartirish, kuch

ishlatish orqali hokimiyatni egallash va ushlab turish, jamoat xavfsizligiga tajovuz qilishga qaratilgan faoliyat, mazkur maqsadlar yo'lida noqonuniy qurolli tuzilmalar tashkil etish yoki ularning faoliyatida ishtirok etish hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 30-iyulda qabul qilingan O'RQ 489-sonli "Ekstremizmga qarshi kurash to'g'risidagi" qonunida ekstremizmga "ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodasi" deb ta'rif berilgan³⁵.

Diniy sohada ekstremizm boshqa din vakillariga o'ta murossasizlik (masalan, Hindistonda musulmonlar va hinduiylar, hinduiylar va sikxlar orasidagi nizolar), bitta din ichidagi (Pokiston, Afg'oniston, Iroqda sunniylar va shialar, Suriyada alaviylar va sunniylar) mojaroli munosabatlar, dunyoviy tuzumga qarshi kurash (aksariyat musulmon mamlakatlarida) yoki xalqaro darajadagi sivilizatsion qarama-qarshiliklar ("Al-Qoida", "Hizbulloh" tashkilotlari tomonidan AQSh yetakchiligidagi G'arbga qarshi e'lon qilingan kurash) bilan bog'liqdir.

Ta'kidlash joizki, ekstremizm deyarli doimo siyosiy maqsadlarda – sekulyar davlatchilikka qarshi va muayyan konfessiya vakillarining hokimiyatni egallashga qaratilgan faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, diniy ekstremizm – ba'zi diniy tashkilotlar yoki ayrim dindorlarning jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan mafkurasi va faoliyati hisoblanadi.

Diniy ekstremizmning mohiyati jamiyat uchun an'anaviy bo'lgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va diniy-aqidaviy qarashlarni rad etish hamda umuminsoniy qadriyatlarga zid keluvchi dunyoqarashni tajovuzkor ravishda targ'ib qilishdan iborat. Bu diniy oqim a'zolari tomonidan o'z g'oyalarini butun jamiyatga tarqatishga qaratilgan harakatlarda namoyon bo'ladi. Diniy ekstremizmning xos jihatlari sifatida boshqacha dunyoqarash egalari, ayniqsa, boshqa din vakillari va dahriy (ateist)larga o'ta murossasizlik, o'z g'oyalarini targ'ib etish va atrofdagilardan go'yoki ustun ekanini namoyish etish va ksenofobiyani qayd etish

mumkin. Diniy ekstremizm asosan dunyoviy davlatga, jamiyatda shakllangan tartibga, davlat va din orasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga qarshi qaratilgan bo'lib, teokratik boshqaruvni barpo etishni maqsad qiladi. Diniy mutaassiblik va ekstremizm siyosat, madaniyat, millatlar va dinlararo munosabatlarga buzg'unchi ta'sir o'tkazadi.

Islom olamida diniy ekstremistik mafkurani vujudga kelish ildizlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

– XX asr o'rtalarida islom dunyosida mustamlakachilarga qarshi terror usullaridan foydalangan milliy-ozodlik harakati asosida keyinchalik kuch ishlatish uslublariga tayanuvchi guruhlarining vujudga kelishi;

– Arab-Isroil urushlari va Yaqin Sharq muammosining hal etilmay kelayotgani, G'arb mamlakatlarining turli geosiyosiy loyihalarni amalga oshirish orqali Yaqin Sharq davlatlarini o'z ta'sir doirasiga olishga qaratilgan intilishlari;

– yetakchi davlatlarning musulmon dunyosi mamlakatlaridagi energetik zaxiralar ustidan o'z nazoratlarini o'rnatishga qaratilgan siyosati;

– ayrim musulmon davlatlarining mintaqaviy yetakchilik yo'lida olib borayotgan o'zaro raqobati doirasida boshqa musulmon mamlakatlarida o'z ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan intilishlari;

– sunniylar va shialar orasida an'anaviy davom etib kelayotgan qarama-qarshiliklarning davlatlararo munosabatlar darajasiga ko'tarilishi oqibatida o'zaro kurashning turli ko'rinishlarda, jumladan, noqonuniy qurolli tuzilmalar orqali olib borilishi.

O'zini islom nomi bilan bog'laydigan diniy-ekstremistik tashkilotlarning xususiy jihatlari quyidagilardan iborat:

– dunyoviy davlat va jamiyatga murossasiz munosabatda bo'lish va uni shariatga asoslangan tuzumga aylantirishga harakat qilish;

– dinning davlatdan ajratilishini rad etish va jamiyatning barcha a'zolarini majburan shariat talablari asosida hayot kechirishini ta'minlash;

– islom dinini dunyoning boshqa jamiyatlariga qarshi qo'yish;

– mamlakatlarning mustaqilligi va hududiy yaxlitligini tan olmaslik, yagona davlat - “xalifalik” qurish g‘oyasini ilgari surish;

– o‘z maqsadlari yo‘lida davlat va jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarishga qaratilgan xatti-harakatlarga urg‘u berish;

– o‘z g‘oyalariga ergashmagan musulmonlarni dindan chiqqanlikda, “kofir”likda ayblash, an’anaviy islom tarafdori bo‘lgan ulamolarni obro‘sizlantirish, ularga tazyiq o‘tkazish va hattoki o‘ldirish.

Terrorizm zamonaviy ilmiy doiralarda uch nuqtayi nazardan, ya’ni jinoiy faoliyat, terroristik guruh va terroristik ta’limot sifatida qaraladi. Ko‘pchilik mutaxassislar terrorizm ostida turli ijtimoiy guruhlar tomonidan siyosiy maqsadlar yo‘lida kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan qo‘rqitishni e’tirof etadilar.

O‘zbekiston Respublikasining 2000-yil 15-dekabrda 167-II-sonli “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra:

- terrorizm – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog‘lig‘iga xavf tug‘diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo‘q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur yetkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko‘zlab ig‘vogarliklar qilishga, aholini qo‘rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo‘rlik, zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlardir;

- xalqaro terrorizm – bir davlat hududi doirasidan tashqariga chiqadigan terrorizm.

Bugungi kunda yirik xalqaro terrorchi tashkilotlar qatorida “Al-Qoida”, “Iroq va Shom islom davlati”, “Ash-Shabab”, “Xayat tahrir ash-Shom”, “Sharqiy Turkiston islom harakati”, “Turkiston islom harakati”, “Islom jihodi ittihodi” va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

Virtual olamdagi tahdidlar

Terroristik guruhlarining mafkurachilari omma ongini egallash va fuqarolik jamiyatining ichiga chuqur kirib borishni ustuvor vazifa sifatida qaraydilar. Yangi jangarilarni yollashning asosiy manbalari sifatida virtual makon, qamoqxonalar, masjidlar, yoshlar tashkilotlari, milliy diasporalar, maktablar, o'ldirilgan yoki qamoqqa olingan jangarilarning oila a'zolari, terrorizmga qarshi tadbirlarda jabr ko'rganlar hisoblanadi³⁶. Masalan, birgina ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilgan tartibsizliklarning salbiy oqibatlarini 2011-yilning boshlarida bir qator arab davlatlarida yuz bergan "twitter inqilobi" voqealarida ham ko'rish mumkin. Xususan, tashqi kuchlar tomonidan Facebook, Twitter ijtimoiy tarmoqlari va proksi-IP xizmatidan foydalangan holda Tunis, Misr, Liviya, Suriyadagi tartibsizliklar tashqi kuchlar tomonidan nazorat qilib turilgan. Ayniqsa, yoshlar orasida mutaassiblikka yo'g'rilgan forumlarning tobora ommalashuvi hamda ularda turli ko'rinishdagi buzg'unchi "fatvo"larning berib borilishi muammoning naqadar jiddiy tus olib borayotganini namoyon etmoqda.

Internet tarmog'ida tarqatilayotgan ma'lumotlar tahlili diniy mutaassiblik va ekstremizm g'oyalarining targ'iboti hujumkor va tajovuzkor tarzda, chuqur nazariy asosda amalga oshirilayotganidan dalolat bermoqda. O'zbekistonga tahdid solayotgan aksariyat ekstremistik saytlar, blog va forumlar rus va o'zbek tillarida bo'lib, buzg'unchi kuchlar tomonidan nafaqat respublikada, balki Markaziy Osiyoda beqarorlik keltirib chiqarish maqsadida foydalanilmoqda. Mazkur saytlarda diniy mutaassiblik va ekstremizm mafkurasi bilan birga davlatlararo nizolar keltirib chiqarishga mo'ljallangan ayirmachilik va millatchilikni avj oldirishga qaratilgan g'oyalar ham ilgari surilmoqda.

Bunday tahlikali sharoitda fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, din haqida xolis tushunchalar shakllantirish, ushbu tushunchalar zamirida jamiyatga vatanparvarlik, millatparvarlik, daxldorlik g'oyalarini chuqur singdirish, turli diniy mutaassib oqimlarning soxta iddaolariga nisbatan muhosasiz munosabat shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mafkuraviy immunitet (lotin. “immunitatis” – biror narsadan ozod etish) – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g‘oyaviy ta’sirlardan himoyalashga xizmat qiluvchi tizim. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi bilimdir. Ikkinchi element ana shunday ilg‘or bilimlar zamirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Uchinchi element ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’rifiy sohalardagi maqsadlar tizimi bilan bog‘liq. Bunday aniq maqsadlar tizimi bo‘lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat, goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera olmaydi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarda mafkuraviy profilaktik ishlarning o‘rni katta. Mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy ishlar majmuyini, bir so‘z bilan aytganda, to‘g‘ri tashkil etilgan butun tarbiya tizimini qamrab olishi lozim.

Jumladan, Internet tarmog‘ida diniy mutaassiblik va ekstremizmqa qarshi mafkuraviy kurashning asosiy yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- Internet saytlari va ijtimoiy tarmoqlarda diniy-ekstremistik oqimlar(DEO)ning aqidalaridagi soxta da’volarni sof islom ta’limoti asosida fosh etish;
- Internet tarmog‘ida DEO va xalqaro terroristik tashkilotlar yetakchilarining ijobiy imidjini yo‘qqa chiqarish, o‘zlari o‘ylab topgan “qahramonlik” sifatlarini ularning jinoiy qilmishlari va kirdikorlari misollarida keng jamoatchilik oldida ro‘yi-rost ochib berish;
- yoshlarning Internetda radikallasuviga sabab bo‘layotgan omillarni aniqlab, ularni barham qilish choralarini ko‘rish;
- Internetdagi diniy mutaassiblik va ekstremizm g‘oyalarini targ‘ib qiluvchi sayt va sahifalarning faoliyatini aniqlash va qonunlarda belgilangan tartibda to‘xtatish.

Zamonaviy diniy-ekstremistik oqim va tashkilotlarning shakllanish tarixi hamda ular tomonidan sof islom tushunchalarining buzib talqin etilishi

Islom dunyosidagi deyarli barcha diniy-ekstremistik oqimlarning mafkurasida tizim tashkil etuvchi ikkita tamoyil –

takfir va jihod mavjud. “Takfir” – dindan chiqqanlikda ayblashdir. Masalaning e’tiborli jihati shundaki, ekstremistlar tomonidan takfir aynan musulmonlarga qarshi qo’llanilmoqda. Chunki aqidaparastlarning nazarida boshqa dinga e’tiqod qiluvchilar shunday ham kofir sanaladi.

“Jihod” esa diniy-ekstremistik oqim vakillari tomonidan faqat muqaddas urush, “g‘azot” ma’nosida qo’llanilib, islomiy davlat qurishning farz hisoblangan vositasi sanaladi. Bunday qurolli jihod musulmon bo‘lmaganlarga qarshi bo‘lgani kabi, dinsizlikda ayblangan musulmonlarga nisbatan ham amalga oshirilishi mumkin hisoblanadi.

Bugungi kunda ekstremizm terrorizm bilan uzviy bog‘langan. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo va Shimoliy Kavkaz respublikalari, Afg‘oniston, Pokiston, Iroq, Liviya, Suriya, Mali, Misr kabi mamlakatlarda, Yaqin Sharq mintaqasida diniy-ekstremistik guruhlar o‘z maqsadlariga erishish vositasi sifatida kuch ishlatishdan foydalanmoqdalar. Ushbu jinoiy faoliyat siyosiy hokimiyat vakillariga nisbatan alohida qotillik uyushtirish, tinch aholi ichida ommaviy qurbonlarga olib keladigan, davlatning moddiy, iqtisodiy, axborot resurslariga zarar etkazishga qaratilgan qo‘poruvchilik ishlarini amalga oshirish, “axborot urushi” olib borish, xudkush-terrorchilardan keng ko‘lamda foydalanish kabi uslublarda amalga oshirilmoqda.

XX asrning so‘nggi choragida ko‘proq tilga olinib boshlagan xalqaro terrorizmning xarakterli jihatlari uning xalqaro huquq himoyasidagi obyektlar yoki subyektlarga qarshi qaratilgani, mustaqil davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi, a’zolari yoki yo‘riqchilari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari ekanligi, jangarilarning xorijdagi maxsus lagerlarda tayyorgarlik o‘tab kelishlari, shuningdek, qo‘poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog‘ savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanishi sanaladi.

Mutaxassislar islom dunyosida vujudga kelgan dastlabki terrorchilik guruhi sifatida xorijiy (arab. “ajralib chiqqan, isyonchi”) diniy-siyosiy harakatini e’tirof

etadilar. Harakat 657-yil to'rtinchi xalifa Ali ibn Abu Tolib va Shom hokimi Muoviya ibn Abi Sufyon orasida siyosiy hokimiyat uchun kurash borgan davrda vujudga kelgan. 657-yil ular o'rtasida bo'lib o'tgan "Siffin jangi" Muoviya tarafdorlarining tashabbusi bilan to'xtatilgan. Ali ibn Abu Tolib xalifani saylash masalasini ikkala tomondan tayinlanadigan vakillardan iborat "hakamlar"ning hal etishiga rozi bo'lgan. Shunda Abdulloh ibn al-Kavva al-Yashkuriy at-Tamimiy, Itob ibn al-A'ur, Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiy kabi shaxslar yetakchiligida bir guruh jangchilar (turli manbalarda 6-12 ming deb keltiriladi) go'yoki "Hukm faqat Allohnik, Ali hukm chiqarishni hakamlarga topshirib dindan chiqdi", degan da'vo bilan xalifa Alining qarorgohi joylashgan Kufani tark etib, Haruraga ketib qolgan.

Xorijiyalar "imon amalsiz bo'lmaydi", "og'ir gunoh qilgan musulmonlar abadiy do'zaxda qoladi" degan g'oyalari ostida og'ir gunoh qilgan musulmonlarni dindan chiqqanlikda ayblab, ularga qarshi urush olib borish kerak, deb hisoblaganlar. O'zga g'oyalarga o'ta murossasiz bo'lgan xorijiyalar nafaqat xalifalik hokimiyati vakillari, balki o'zlariga ergashmagan musulmonlarni ham ayovsiz qirg'in qilganlar.

Diniy-ekstremistik mafkurada nafaqat davlatni dunyoviy qonunlar bilan boshqarish, balki ushbu qonunlarga itoat qilgan fuqarolarni ham dinsizlikda ayblash g'oyasi mavjud. Jumladan, XX asrning ikkinchi yarmidan Misrda faoliyat ko'rsatgan "Al-Jihad" guruhining yetakchilaridan biri Muhammad Abdusalom Faraj "Al-farida val-g'oyiba (Unutilgan burch)" kitobida musulmon mamlakatlari hukumatlarini "salbchilar", sionistlar va kommunistlarga xizmat qilishda ayblab, "kofir" deb e'lon qilgan hamda dindan qaytganlarni qatl etish shart, deb da'vo qilgan. M.Faraj avvalgi jihodiy g'oyalarni yanada rivojlantirib, "musulmonlar dinsizlarning qo'li ostida bo'lgan vaqtda qurolli jihod o'z-o'zidan islomning oltinchi ustuniga aylanadi", deb yozg³⁷.

1970-yillarning oxirida Afg'onistonga sobiq Sovet Ittifoqining qurolli kuchlari kiritilishi hamda musulmon dunyosida mazkur armiyaga qarshi qurolli jihod e'lon qilinib, Afg'oniston hududiga xorijiy mamlakatlardan jangarilarning kirib kelishi islomdagi mavjud salafiy aqidalar asosida yangi "Al-valou val-barou"

(o‘zbekchada taxminan “Allohning do‘stlarini sevish, dushmanlaridan nafratlanish”) konsepsiyasining shakllanishiga olib keldi. Mazkur tamoyil Qur‘on oyatlari, hadislar, Ibn Taymiya, Ibn Qayyum al-Javziya, Muhammad ibn Abdulvahob kabilarning asarlarini o‘ziga xos talqin qilish asosida bosh maqsad – turli yurtlardan kelgan jangarilarning o‘zlari begona bo‘lgan mamlakatlarda terrorchilik faoliyatini olib borishini shar‘iy jihatdan asoslash bo‘lib, quyidagi tamoyillarni ilgari suradi:

- go‘yoki ko‘pchilik musulmonlarning imoni susayib, kofirlarni do‘st va ittifoqchi qilib olgan. Oqibatda ular hayot kechirishda ulardan ibrat olib, o‘zlari dinsizga, yashayotgan davlatlari esa kufr yurtga aylanmoqda;
- asl musulmonlarning barchasiga sobiq islom hududlarini ozod qilish uchun qurolli jihad go‘yoki majburiy (farz) amal hisoblanadi.

Qayd etilganlardan ko‘rinib turibdiki, zamonaviy terrorchilar borgan sari o‘zlarining mavhum g‘oyalari yo‘lida istalgan insonni, dini va millatidan qat‘iy nazar o‘ldirishdan qaytmaydigan darajada radikallashib bormoqdalar. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra islomiy davlat qurish amaliy strategiyasini belgilashga diniy-ekstremistik mafkurada uch xil nazariy-konseptual yondashuv mavjud:

– birinchi yondashuv Misrda o‘tgan asrning 20-yillarida vujudga kelgan “Musulmon birodarlar” tashkilotining birinchi rahbari Hasan al-Bannoning g‘oyalari asoslanib, unga ko‘ra siyosiy hokimiyatni egallash uchun bosqichda bo‘ladi: ma‘rifiy va xayriya ishlari bosqichi; tashkilotni mustahkamlash va guruh a‘zolarini chiniqtirish; siyosiy hokimiyatni qat‘iy harakatlar bilan qonuniy hukumatdan tortib olish;

– ikkinchi yondashuv Hasan al-Bannoning izdoshi Sayid Qutb tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u butun jamiyatni “johiliya” da ayblab, uni qayta “tarbiyalash”ga va undan yordam olishga ishonmas edi. Shuning uchun S.Qutb islomiy davlat qurish uchun kurashni ikki bosqichga: zaiflik va jihadga bo‘lgan. “Zaiflik” davri go‘yoki “haqiqiy musulmonlar”ning e‘tiqod sofligini asrash maqsadida johiliyat jamiyatidan “hijrat” qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, jihad bosqichi

kichik “haqiqiy musulmon jamoasi”ning kufr jamiyat bilan g‘alabagacha qurolli kurash olib borishi hisoblanadi;

– uchinchi yondashuv kofirlikda jamiyatni emas, balki undagi dunyoviy hokimiyatni ayblashga asoslangan. Siyosiy hokimiyatni egallash jamiyatni bosqichma-bosqich “islomlashtirish”, keng tarmoqlangan yashirin bo‘linmalar tashkil etish, davlat idoralari va qurolli kuchlarga kirib borish va vaziyat qulay bo‘lgan vaqtda davlat to‘ntarishini amalga oshirishni nazarda tutadi³⁸.

Diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlarning faoliyatida so‘nggi yillarda quyidagi xatarli jarayonlar kuzatilmoqda:

– tinch aholi ichida mumkin qadar ko‘p qurbon bo‘lishiga qaratilgan terrorchilik harakatlari ko‘payib bormoqda. Terrorchilar ushbu harakatni atayin, qasddan va puxta rejalashtirib amalga oshirmoqdalar. Bosh maqsad – jamiyatda vahima darajasida qo‘rquv uyg‘otish, hukumatga ishonchsizlik shakllantirish hamda fuqarolarda psixologik karaxt holatni yuzaga keltirib, ularning qarshilik ko‘rsatish qobiliyati va irodasini sindirish;

– terrorchi tashkilotlar ayrim siyosiy doiralarning manfaatparast siyosatidan o‘z maqsadida foydalanib, ulardan moliyaviy, moddiy-texnik va axborot ko‘mak olgan holda mustaqil davlatlarning hokimiyat tizimi va hududiy yaxlitligini buzishga qaratilgan buzg‘unchilik faoliyatini amalga oshirmoqdalar;

– terror harakatlarida xorijiy mamlakatlardan kelgan yollanma jangarilarning ishtirok etishi keng tus oldi;

– diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar zamonaviy axborot va piar-texnologiyalarni chuqur o‘zlashtirgan holda, “Internet” tizimidagi sayt va ijtimoiy tarmoqlardan quyidagi yo‘nalishlarda samarali foydalanmoqdalar: psixologik va axborot urushi olib borish; targ‘ibot-tashviqot o‘tkazish; mablag‘ to‘plash; yangi a‘zolari yollash; o‘zaro aloqani ta‘minlash; o‘quv-malaka oshirish, mafkuraviy va amaliy terroristik faoliyatni tashkil etish uchun yo‘riqnomalar tarqatish. Qo‘llanmalar video, audio va kitob shaklida internetga joylashtiriladi.

1990-yillarda mustaqillikni qo‘lga kiritgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish bilan bog‘liq chuqur ijtimoiy-siyosiy va

iqtisodiy islohotlarni boshidan kechirayotgan Markaziy Osiyoda ayrim norasmiy islomiy markazlar, jamgʻarmalar va xalqaro diniy-ekstremistik guruhlarining homiyligi va yashirin koʻmagi yordamida aqidaparast shaxslar tomonidan turli diniy-ekstremistik guruhlar tuzildi. Mazkur guruhlar qatorida “Adolat uyushmasi”, “Islom lashkarlari”, “Islom tiklanish partiyasi”ning oʻzbek boʻlinmasi, “Odamiylik va insonparvarlik”, “Tavba” kabi islomiy partiya va harakatlarni qayd etish mumkin. Oʻtgan davr ichida ushbu tuzilmalar tashqi va ichki omillar taʼsirida strategik va taktik jihatdan muayyan taraqqiyot davrini boshidan kechirdi.

Mintaqada diniy-ekstremistik guruhlarining vujudga kelishi, rivojlanishi va bugungi kunda faoliyat olib borishiga sabab boʻlgan tashqi va ichki omillar mavjud. Hozirgi kundagi voqelikka ustuvor taʼsir koʻrsatib kelayotgan tashqi omillar qatorida quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

- mintaqaga chegaradosh Afgʻoniston va Pokistonda diniy-ekstremistik tashkilotlarning keng koʻlamda faoliyat olib borayotgani hamda ushbu mamlakatlar hududida MDH mamlakatlari fuqarolari ham tayyorgarlik oʻtayotgan jangarilarni tayyorlash markazlarining mavjud ekanligi;

- qator musulmon mamlakatlarida “salafiylik” gʻoyalari targʻib qilinadigan diniy taʼlim muassasalarining mavjud ekanligi hamda mazkur muassasalarda mintaqa davlatlaridan chiqqan yoshlarning oʻqib kelayotganligi;

- mintaqada faoliyat yuritayotgan diniy-ekstremistik tashkilotlarning xorijiy markazlar va homiylaridan moddiy yordam olayotganligi;

- Gʻarb va islom dunyosiga mansub baʼzi mamlakatlardagi ayrim siyosiy doiralar tomonidan mintaqa davlatlariga taʼsir oʻtkazish maqsadida ekstremizmga qarshi kurash masalasida ikkiyoqlama yondashuv, xususan, aqidaparast oqim aʼzolariga “eʼtiqod qurboni” deb qarash va “siyosiy qochqin” maqomi berish kabi siyosat olib borilayotganligi;

- ekstremistik gʻoyalar “Internet” tarmogʻi va ayrim arab nodavlat tele- va radiokanallari orqali kirib kelayotganligi.

Mintaqa Respublikalarida diniy-ekstremistik tashkilotlarning faoliyatiga ijobiy muhit yaratayotgan salbiy ichki omillar qatorida quyidagilarni qayd etish mumkin:

– aholining turli qatlamlari ichida barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarni islomiy davlat qurish orqali hal etish mumkin, deb hisoblovchi toifaning mavjud ekanligi;

– ayrim dinga moyilligi bor shaxslar, ko‘proq yoshlar va ayollar ichida diniy-ekstremistik g‘oyalarni sof islom ta‘limoti sifatida qabul qilib, aldanib qolayotganlarning uchrayotganligi;

– demografik bosim ostida yuzaga kelgan mehnat migratsiyasi sababli xorijga ish axtarib borayotgan shaxslar oila va mahallaning tarbiyaviy nazoratidan chiqib qolishi va DEO yollovchilarining ta‘siriga tushib qolayotganligi;

– ijtimoiy bandsizlik oqibatida shakllangan marginal qatlamlar aqidaparast guruh faollari targ‘ibot ishlari olib borishi uchun qulay ijtimoiy muhit sifatida shakllanib borayotganligi³⁹.

Hozirgi kunga kelib, Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyati kuzatilayotgan diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar qatorida “jihodchi” jamoalarni, “Turkiston islom harakati”, “Islom jihodi ittihodi”, “Imom Buxoriy katibasi”, “Tavhid va jihod”, “Salafiylar”, “Hizbut tahrir”, “Nurchilar”, “Akromiylar”, “Jamoati Tablig‘“, “Bay‘at”, “Jamoati Ansorulloh”, “Jayshul Mahdiy”, “Jundul Xalifat” kabilarni ko‘rsatish mumkin.

Agar diniy-ekstremistik guruhlar tomonidan sodir etilayotgan jinoiy faoliyatga e‘tibor qaratsak, bunday ishlar islomda qat‘iyyan man etilganining guvohi bo‘lamiz:

Begunoh odamlarni o‘ldirish. Qur‘onning 50 dan ziyod surasidagi yuzlab oyatlarda musulmonlar mo‘min-qobillik, tinchlikka va bag‘rikenglikka chaqirilgan. Musulmonlar uchun eng afzal amal haqida kelgan hadisda shunday deyiladi: “Rasululloh (s.a.v.)dan so‘radilar: “Yo Rasululloh! Musulmonlarning afzali qaysi kishidir?. U zot (sav): “Qo‘lidan va tilidan boshqa musulmonlar ozor topmagan kishidir”, – deb javob berdilar”⁴⁰.

Vidolashuv haji vaqtida Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) musulmonlarning joni, mol-mulki va nomusi daxlsiz ekanini ta’kidlab aytganlar: “...Alloh taolo qoningiz, molingiz va oru nomusingizni bir-biringiz uchun ana shu muqaddas shahringiz, tabarruk oyingiz va ulug‘ ayyomingiz kabi muqaddas qildi”⁴¹.

Tinch jamiyatda fitna chiqarish, odamlarni o‘ldirish, portlatish, o‘g‘irlab ketish, o‘z davlatiga qarshi chiqish kabi qabih ishlar orqali fitna chiqarish, xalqning xavfsizligi va xotirjamligini buzib, tahlikaga solish Qur‘on ko‘rsatmasiga ko‘ra katta gunoh hisoblanadi. Musulmonlarga fitnada qatnashish Qur‘onda qat‘iyy man etilgan: “Sizlardan faqat zolimlargagina xos bo‘lmagan (balki hammalaringizga ommaviy bo‘ladigan) fitna (azob)dan saqlaningiz va bilib qo‘yingizki, Alloh jazosi qattiq (zot)dir” (“Anfol” surasi, 25-oyat)⁴².

Imom Buxoriydan rivoyat qilingan hadisda musulmonlar fitnadan ogohlantirilib, aytiladi: “Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: “Rasululloh (s.a.v.) bunday dedilar: Fitnalar sodir bo‘lganda tik turgandan ko‘ra o‘tirgan afzaldir, tik turgan esa, yurib ketayotgandan, yurib ketayotgan esa yugurib ketayotgandan afzaldir, kimki fitnaga aralashib qolsa, halokatga uchraydi va kimki fitnadan panoh topsa, darhol yashirinsin!”. Ulamolar ushbu hadisni musulmon odam jamiyatda beqarorlik keltirib chiqaruvchi fitnalardan qanchalik uzoqda bo‘lsa, o‘zi va musulmon jamiyati uchun shunchalik foydali bo‘ladi, deb sharhlaydilar⁴³.

Amaldagi hukumat va qonunlarga itoatsizlik qilish. Islomda odilona saylangan hokimiyatga qarshi fitna qilib, qurol ko‘tarib chiqish man etilib, bunday holatda musulmonlarga qonuniy hukumatni himoya qilish buyurilgan. Imom Buxoriy keltirgan hadisda aytiladi: “Abu Hurayra (r.a.) rivoyat qiladilar: Rasululloh (s.a.v.): “Kim menga itoat qilsa, Alloh taolaga itoat qilgan bo‘ladi. Kimki amirga itoat qilsa, demak menga itoat qilibdi va kimki amirga osiylik qilsa, demak menga osiylik qilibdi. Chunki amir – orqasidan, ya’ni uni himoya qilib jang qilinadigan hamda u bilan dushmandan saqlanadigan qalqondir”⁴⁴.

Mashhur hanafiy ulamo Imom Tahoviy (858–933)ning “Al-Aqida at-Tahoviya” asarida yozilishicha: “Podshohlarimiz, rahbar amaldorlarimizga qarshi, garchi zulm qilsalar ham xuruj qilmaymiz, ularni duoi bad ham etmaymiz. Itoatdan

bosh tortmaymiz. Ularga itoat etishni Allohga itoat etish jumlasidan, ya'ni farz deb bilamiz. Ularning haqqiga duoi xayr etib turamiz"⁴⁵.

“Takfir” (arabchada “kufr” – “inkor qilish”) ishlatish. Ushbu ibora shariatda ko‘proq Allohni tan olmaslik ma’nosida ishlatiladi. Mutaassib guruh a’zolari o‘zlarining soxta aqidalariga ergashmagan musulmonlarni “kofir”, ya’ni “dinsiz” deb asossiz hukm chiqaradilar.

Yurtimiz musulmonlari e’tiqod qiladigan hanafiylik mazhabi va moturidiylik aqidasi muvofiq imonning sharti yakkaxudolikka til bilan iqror bo‘lish, qalb bilan tasdiqlash sanaladi. Insonning imonini o‘lchash imkoniyati boshqa insonda yo‘q, chunki imon inson qalbida bo‘ladi. Shariatga ko‘ra qalbni faqat Alloh biladi. Shunga ko‘ra musulmon odamning imoni haqidagi hukmni yolg‘iz Alloh chiqarib, diniy amallarni bajarishi yoki bajarmasligidan qat’iyy nazar musulmonlarni kofirga chiqarish man etilgan. Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa aytganlar: “Imon – bu iqror va tasdiqdan iboratdir. Mo‘minlar imonda, tavhidda o‘zaro tengdirlar”⁴⁶.

“Hijrat” va “jihod” tushunchalarini soxta talqin etish. “Hijrat” arab lug‘atida biror narsadan ajrash, islom ta’limotida esa, Muhammad payg‘ambarning Makkani tark etib, Madinaga borishiga qiyosan qo‘llaniladi. Diniy-ekstremistik tashkilotlarning yetakchilari esa tinch davlatda yashab kelayotgan yoshlarni xorijdagi jangarilarning lagerlariga jo‘natish maqsadida go‘yoki “hijrat qilmagan dindan chiqadi, hijrat uchun musulmonga ota-onaning ruxsati shart emas” kabi soxta iddaolar bilan aldamoqda. Vaholanki, Muhammad payg‘ambar va undan keyin musulmon davlatlarini boshqargan xulafoi roshidinlar o‘zga yurtlarda yashayotgan musulmonlarni hech qachon musulmon davlati hududiga ko‘chib kelishlariga da’vat qilmagan. Abu Usmon Mujoshi’ ibn Mas’ud rivoyat qilgan hadisda aytiladi: “...Rasululloh(s.a.v): “Makka fathidan keyin hijrat yo‘q...”, dedilar”⁴⁷. “Hijrat” haqida Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda: “Rasululloh (s.a.v.) aytganlar: “Qo‘li va tili bilan o‘zgalarga ozor bermagan kishi musulmondur. Alloh taolo man etgan narsalardan qaytgan kishi Xudo yo‘lida hijrat qilgan kishidir”⁴⁸, deyiladi.

Yuqoridagi dalillardan musulmonlar uchun barcha sharoitlar yaratilgan O‘zbekiston kabi mamlakatlardan islom ta’limotiga ko‘ra “hijrat” qilinmasligi haqidagi qat’iy xulosa chiqadi. O‘z navbatida, “jihod” so‘zi arabchada insonning bor moddiy va jismoniy imkoniyatlarini ishga solib harakat qilishi ma’nosini anglatadi. Istilohda esa, ushbu so‘z bir qancha ma’nolarda ishlatiladi. Jumladan, “jihod” – Allohning yo‘liga da’vat qilish, yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish, Alloh yo‘lida insonning o‘z havoyi-nafsiga qarshi kurashi, ota-onaga xizmat qilishi va yovga qarshi kurashishdek turlari mavjud. Mutaassib guruhlar esa turli mamlakatlarda adolat bilan saylangan hukumatlarga qarshi terrorchilik harakati olib borishlarini “jihod” deb da’vo qilmoqda.

Imom Termiziydan rivoyat qilingan hadisda “Jihadning afzali Alloh taoloning roziligini, deb inson o‘z havo nafsiga qarshi jihad qilishidir”, deyilgan⁴⁹.

Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadisda aytiladi: “Abdulloh ibn Amr (r.a.) rivoyat qiladilar: “Bir kishi Nabi (s.a.v.)ning huzurlariga kelib, u zotdan jihad qilishga izn so‘radi. Shunda u zot: “Ota-onang tirikmi?” dedilar. U “Ha”, dedi. U zot (s.a.v.): “Unday bo‘lsa, ana o‘shalarning yo‘lida jihad qil!” dedilar”⁵⁰.

Islom ulamolari qurol jihad hukmi sharoitga qarab o‘zgarib turishi va ikki qism: talab (farzi ayn) va mudofaa (farzi kifoya)dan iborat ekanini ta’kidlaydilar. Hanafiy ulamolarning xulosalariga ko‘ra, talab jihodi hozirgi kunda yo‘q. Chunki musulmonlar hozir turli mamlakatlarda istiqomat qilib, mamlakatlar orasidagi munosabatlar hozirda o‘zaro urushmaslikka va elchixonalar orqali aloqalarga asoslangan. Mudofaa jihodi dushman musulmon yurtiga bostirib kirsa, himoya uchun zarur bo‘lib, u hech qachon ichki fitna shaklida bo‘lishi mumkin emas.

O‘zbekiston Respublikasida diniy ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari

Mustaqillik yillari dinning huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatida tutadigan o‘rni va mavqeyi aniq belgilanib, bu sohada mustahkam qonunchilik poydevori yaratildi. Jumladan,

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar”, degan tenglik tamoyil o‘z aksini topdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning 2019-yil 15-iyunda Bishkekda o‘tgan beshinchi sammitidagi nutqida dinlararo hamjihatlikni mustahkamlash, ma’rifat va madaniyatlarni o‘zaro boyitish masalalari bo‘yicha tizimli muloqotni yo‘lga qo‘yishni taklif qildi. Xususan, O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi va Samarqanddagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi buning uchun samarali platforma bo‘lib xizmat qilishi mumkinligini ta’kidladi⁵¹.

Ma’lumki, O‘zbekiston qadim davrlardan turli millatga mansub, turfa dinlarga e’tiqod qiluvchi xalqlar tinch-totuv yashagan o‘lka bo‘lib kelgan. Bu ko‘p asrlik tarixiy an’ana bugungi kunda ham davom etib, umumiy, tinch va osoyishta uyimizda totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhi yanada mustahkamlanishi va rivoj topishiga asos bo‘lmoqda.

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash, jamiyat va alohida shaxsni tanazzulga boshlovchi g‘ayriinsoniy mafkura ta’siridan, u diniy yoki siyosiy mazmunga ega bo‘lishidan qat’iy nazar himoya qilish davlatning jamiyat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan O‘zbekistonda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning mustahkam huquqiy zamini yaratilgan. Jumladan, “Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rluk bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish taqiqlanadi.” (57-modda), deb belgilab qo‘yilganiga alohida e’tibor qaratish lozim⁵².

O‘zbekiston tomonidan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash borasida imzolangan barcha xalqaro, mintaqaviy va ikki yoqlama shartnoma, konvensiya va protokollarda belgilangan qoidalar respublikada mazkur yo‘nalishda qabul qilingan qonunlar va boshqa huquqiy-me‘yoriy hujjatlarda o‘z aksini topmoqda va to‘laqonli ijrosi ta‘minlanmoqda.

O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy kurash boradasidagi tashabbuslari va ularning xalqaro hamjamiyat tomonidan e‘tirof etilishi O‘zbekistonda 1999 yil fevral oyida terroristik hujum sodir bo‘lgandan so‘ng mamlakatimiz ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda yanada faol ishtirok eta boshladi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.

A. Karimov xalqaro tashkilotlar - BMT, YEXHT, Shanxay hamkorlik tashkiloti, EAPC va boshqalar nuqtai nazarida ushbu dolzarb vazifani hal etishda hamkorlikni kuchaytirish zarurligini bir necha bor ta‘kidladi. Xususan, 2001-yil 28-sentabrda BMT Xavfsizlik kengashi doirasida terrorizmga qarshi kurash qo‘mitasining (XTKQ) tashkil etish tashabbuslarini ilgari surdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimizning ifodasi sifatida behad qadrlaymiz, degan fikr bildirgan. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iyy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da‘vat etadi”, deb ta‘kidladi.

Bunday adolatli yondashuv xalqaro doiralarda qo‘llab-quvvatlandi hamda BMT Xavfsizlik Kengashining 2017-yil 21-dekabrda 2396-sonli rezolyutsiyasida: “Terrorizm, zo‘ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog‘liq holda talqin qilinmasligi kerak”, deb qayd etildi.

Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mazkur muammoni faqat harbiy kuch ishlatish bilan to‘la hal etib

bo'lmaydi. Diniy ekstremizm va terrorizmni takror ishlab chiqarish tizimi saqlanib qolar ekan, qayd etilgan tahdidlar saqlanib qoladi. Diniy ekstremizm va terrorizmni takror ishlab chiqarish tizimining muhim bo'g'inlari aqidaparastlik va terrorizm mafkurasi, ularning ilhomchilari va da'vatchilari, mazkur mafkurani tarqatish kanallari va ularning ta'siriga tushayotgan shaxslar hisoblanadi.

Internet va boshqa kommunikatsiya vositalarining o'ta rivojlanib ketishi axborot tarqatish, xususan, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir o'tkazish imkonini borgan sari kengaytirib yubormoqda. Hozirgi kundagi mafkuraviy kurash – bu insonlarning qalbi va ongi, e'tiqodi, dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy timsollari uchun kurashdir.

Shu nuqtayi nazardan, diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi axborot-mafkuraviy kurashning uchta ustuvor yo'nalishlari mavjud:

1. *Ommaviy axborot vositalari.* OAV zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi kuchli qurol sanaladi. Ma'lumki, diniy ekstremizmga munosabat, boshqa siyosiy jarayonlarga nisbatan bo'lgani kabi, insonlarning ijtimoiy ongida shakllanadi. OAV diniy ekstremizm haqida ma'lumot beruvchi muhim manba sifatida o'z auditoriyasining mazkur masalaga munosabatini shakllantirishi va o'zgartira olishi mumkin.

Jamoatchilik bilan aloqa terrorchilarning muhim quroli bo'lib, OAV ushbu quroldan foydalanishdagi asosiy vosita hisoblanadi. Terrorchilar OAV orqali jamiyat ichida vahima va qo'rquv tarqatishga, fuqarolarning davlat ularni muhofaza qila olishga bo'lgan ishonchini yo'qqa chiqarishga harakat qiladilar⁵³.

Bunday sharoitda respublika OAV oldidagi dolzarb vazifalardan biri diniy ekstremizm va terrorizm mafkurasini targ'ib qilayotganlarning qabih rejalarini ro'yi-rost ochib tashlash hisoblanadi. OAVning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi axborot-mafkuraviy kurashini samarali tashkil etishda quyidagi chora-tadbirlarga e'tibor qaratilmoqda:

- diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning turli jihatlariga bag'ishlangan davra suhbatlari, ko'rsatuvlar va eshittirishlar, filmlar, roliklar

tayyorlash va ularni tele- va radiokanallarda efirga uzatish, “Internet” tarmog‘iga joylashtirish;

– diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mavzularda axborot portallari tashkil etish, ularda axborot (mavzuga oid yangiliklar, diniy sohada qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlar, kitoblar) berib borish, mutaxassislarning mavzuga oid bahs-munozaralarini tashkil etish, tahliliy maqolalar joylashtirish;

– OAV orqali aholini diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar haqida xabardor qilib borish. Mavjud muammoni yashirish doimo ham ijobiy natija bermaydi. Aksincha, aholiga muammoning mohiyatini tushuntirib, davlat unga qarshi qanday kurash olib borayotganini yetkazish ijobiy omil hisoblanadi.

2. *Kommunikativ asosdagi axborot-targ‘ibot tadbirlari* turli auditoriya yoki yakka tartibda amalga oshiriladigan bevosita muloqotga asoslangan bo‘lib, ular seminarlar, uchrashuvlar, konferensiyalar, shuningdek, umumiy yoki yakka tartibdagi suhbat shakllarida o‘tkazilish mumkin. Ta’kidlash joizki, axborot texnologiyalari yuksak sur‘atlarda rivojlanayotgani va OAVdan interaktiv tarzda foydalanish imkoniyati oshib borayotganiga qaramay hozirgi vaqtda ham ikkiyoqlama muloqotga asoslangan omma bilan o‘tkaziladigan targ‘ibot va aksiltarg‘ibot ishlari eng ko‘p qo‘llanuvchi va samarali amaliyot sifatida saqlanib qolmoqda. Bunday tadbirlarga uchrashuvlar, seminarlar, davra suhbatlari kiradi.

3. *Ko‘rgazmali vositalarga asoslangan targ‘ibot va aksiltarg‘ibot ishlari* aholini, asosan yoshlarni diniy-ekstremistik oqimlarga qo‘shilib qolishini oldini olish maqsadida tayyorlanadi. Ko‘rgazmali vositalar sifatida tashqariga qo‘yiladigan reklamalar, elektron tablo shaklidagi reklamalar, plakatlar, devoriy gazetalar, komikslar va hokazolarni qayd etish mumkin.

2017-yil 19-sentabrda Davlatimiz Rahbari BMT Bosh Assambleyasining yuqorida 72 sessiyasida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ishlab chiqish hamda “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. BMT tomonidan 2018-yil 12-dekabrda ushbu rezolyutsiya qabul qilindiva jahonning etakchi davlatlari va

xalqaro tashkilotlar tomonidan e'tirof etildi. Rezolyutsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining diniy-ma'rifiy sohaga oid tashabbuslari nafaqat xalqimiz, balki xalqaro jamoatchilik tomonidan ham faol qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatib, dunyo jamoatchiligini bezovta qilayotgan terrorizm, ekstremizm, zo'ravonlik, murosasizlik kabi bugungi kunning o'tkir muammolariga yechim sifatida ilm-ma'rifat, o'zgalarga adolatli va bag'rikeng yondashuv hamda tinchlikparvar siyosatni targ'ib qiladi.

Ta'kidlash joizki, turli diniy-ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo respublikalaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqdalar. Shu nuqtayi nazardan Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev jahon hamjamiyati e'tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm, diniy ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, ShHT, EXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida o'zaro hamkorlik, mintaqa mamlakatlari o'rtasidagi amaliy hamkorlik mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni "o'ziniki va o'zgalarniki" deb ajratishdan voz kechish, "yaxlit xavfsizlik" tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

2018-yil 28 martda «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg'oniston bo'yicha yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etish uchun mamlakatimizga Afg'oniston Islom Respublikasi Prezidenti Muhammad Ashraf G'ani, BMTning Afg'onistondagi maxsus vakili Tadamiti Yamamoto, Yevropa Ittifoqining tashqi ishlar va xavfsizlik siyosati bo'yicha Oliy vakili Federika Mogerini, shuningdek, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Fransiya, Turkiya, Rossiya, Xitoy, Hindiston, Eron, Pokiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Saudiya Arabistoni va Birlashgan Arab Amirliklari tashqi siyosat mahkamalari rahbarlari, jami 25 davlat va xalqaro tashkilot vakillari tashrif buyurdi⁵⁴.

Afg‘oniston bo‘yicha o‘tkazilgan yuqori darajadagi Toshkent konferensiyasi zamonaviy Afg‘oniston tarixida xalqaro miqyosdagi eng qamrovli anjuman o‘tkazildi hamda uning yakuni bo‘yicha qabul qilingan, barcha qatnashchilarining yakdil pozitsiyasi ifoda etilgan “Toshkent deklaratsiyasi” Afg‘onistonda tinchlik o‘rnatish bo‘yicha o‘ziga xos Dastur bo‘ldi.

2017-yil 15-iyun kuni Prezidentimiz diniy soha vakillari va keng jamoatchilik ishtirokida “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash - davr talabi” mavzusida o‘tkazilgan anjumanda bugungi murakkab zamonda aholimizni, ayniqsa, yoshlarimizni turli yot g‘oyalarning ta’siridan asrash, jamiyatda diniy va milliy bag‘rikenglikni yanada mustahkamlash, bu boradagi hamkorlikda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan o‘z tavsiyalarini berdi. Mazkur tavsiyalar asosida “jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” uchun Surxondaryo viloyatida Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Samarqand viloyatida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Toshkentda O‘zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilgan. Xalqimizning ma’naviyatini, ma’rifatini yanada oshirish, yoshlarni sog‘lom dunyoqarashli, ilmga intiluvchan etib tarbiyalash kabi ezgu va umidbaxsh maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Ayni vaqtda, respublikada to‘g‘ri yo‘ldan adashganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ularni sog‘lom hayotga qaytarish maqsadida mazkur shaxslar bilan keng jamoatchilikni jalb etgan holda tushuntirish-profilaktika ishlarini tizimli tashkil qilish, ularni maxsus ro‘yxatlardan chiqarish bo‘yicha mexanizm yaratildi.

Ushbu toifaga mansub 20 mingdan ziyod fuqarolarning ichki ishlar organlarining maxsus hisobidan chiqarilishi jamiyatda katta ijobiy rezonans berdi hamda xorijiy mamlakatlarning O‘zbekistonning diniy ekstremizmning profilaktikasi bo‘yicha tajribasiga qiziqishlariga sabab bo‘lmoqda⁵⁵.

Tajribamiz shuni ko‘rsatmoqdaki, birinchi galda yoshlarni ilm-ma’rifatga o‘rgatish, ularga islom dinining insonparvarlik mohiyati, islom madaniyatining asl qadriyatlarini yetkazish ekstremizmga qarshi kurashishning eng samarali vositasi hisoblanadi. Mazkur maqsadlarda hamda diniy-ma’rifiy sohani yanada

rivojlantirish, milliy-ma'naviy merosimiz va qadriyatlarimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan qaror va farmoyishlar qabul qilindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018-yilning 16-aprelidagi Farmoniga ko'ra quyidagilar diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin: "jaholatga qarshi ma'rifat" ulug'vor g'oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ifodasi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma'rifiy faoliyatni jadal tashkil etish; islom va jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o'rganish asosida yoshlarning ongu tafakkurini shakllantirish; dinni zo'ravonlik va qon to'kish bilan bir qatorga qo'yadigan buzg'unchi yot g'oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish; jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish; jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish; diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish belgilangan.⁵⁶

Dunyoning turli nuqtalarida diniy aqidaparastlik va murosasizlik, millatchilik va irqchilik oqibatida nizolar avj olib borayotgan bugungi tahlikali zamonda ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali jamiyatda totuvlikka erishish asosida demokratik islohotlarni amalga oshirish, bag'rikenglik va millatlararo hamkorlikni ta'minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Yurtimizda qadim zamonlardan turli dinga e'tiqod qiluvchi fuqarolar o'zaro tinchlik va hamkorlikda yashab kelganlar. O'lkamizning turli nuqtalarida masjid, cherkov va sinagogalar yonma-yon faoliyat ko'rsatib kelgani, tariximizning eng murakkab va og'ir davrlarida ham ular o'rtasida kelishmovchilik va mojarolar

bo‘lmagani xalqimiz uchun diniy bag‘rikenglik azaliy qadriyat ekanidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ham yurtimizdagi bag‘rikenglikning buyuk tarixiy an‘analariga monand ravishda O‘zbekistonda fuqarolarning vijdon va e‘tiqod erkinligi ularning millati, irqi va diniy kelib chiqishidan qat‘iyy nazar to‘liq kafolatlangan. Turli millat va din vakillari o‘rtasidagi hamjihatlikni mustahkamlash borasida keng qamrovli va izchil siyosat amalga oshirilmoqda.

O‘z navbatida, mamlakatimizdagi mavjud konfessiyalar va turli millat vakillari o‘zaro do‘stlik va ahillikda yashab, umummilliy yuksalish yo‘lida xalqimizda milliy g‘urur va iftixor, vatanparvarlik va fidokorlik tuyg‘ularini shakllantirishga munosib hissa qo‘shib kelmoqdalar.

Hech shubhasiz, O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy kurash, fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlash va diniy amallarini bajarishlariga yanada qulay sharoitlar yaratish, yoshlarni azaliy milliy va diniy qadriyatlar asosida barkamol etib tarbiyalash, ularni hozirgi tahlikali davrda turli soxta va mutaassib g‘oyalardan avaylab-asrash borasidagi tajribasi boshqa mamlakatlarga namuna bo‘la oladi. Abdurauf Fitrat aytganidek, bu dunyo haqiqatan ham kurash maydoniga, sog‘lom tan, o‘tkir aql va yaxshi axloq esa bu kurashning quroliga aylanib borayotganini chuqur anglab, shu borada jaholatga qarshi ma‘rifat asosida ish olib borishimiz zarur.

IV bob asosiy xulosalar

- Sharq uyg‘onish davri madaniyati – umumjahon boyligidir. Diniy-ma‘naviy merosni o‘rganish, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish, hozirgi zamon muammolarini hal etishi mumkin. Bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri – ziyorat turizmni rivojlanirish – bevosita diniy ma‘rifiy merosni o‘rganish bilan bog‘liq.

- Qadimdan yurtimiz hududida turli din va elat o‘z diniy qadriyatlari asosida emin-erkin hayot kechirib kelgan.

- Vijdon erkinligi O‘zbekistonda Konstitutsiya bilan kafolatlangan. Vijdon erkinligi huquqiga ko‘ra fuqaro o‘zining dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta’lim olishga o‘z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo‘l qo‘yilmaydi.

- O‘zbekistonning fuqarolarning vijdon erkinligini ta’minlash va diniy amallarini bajarishlariga yanada keng va qulay sharoitlar yaratish, yoshlarni azaliy milliy va diniy qadriyatlar asosida barkamol etib tarbiyalash, ularni hozirgi tahlikali davrda turli soxta va mutassib g‘oyalardan avaylab-asrash borasidagi tajribasi boshqa mamlakatlarga namuna bo‘ladi.

- 2017-yil 19-sentabrda Davlatimiz Rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konventsiyani ishlab chiqish hamda maxsus rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi bilan chiqdi. 2018-yil 12-dekabr BMT Bosh Assambleyasida “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi qabul qilindi va jahonning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar tomonidan e’tirof etildi.

- Islom dini mutaassiblikni qoralaydi. Dindagi aqida va qoidalarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ko‘r-ko‘rona qo‘llash va mutlaqlashtirishga qaratilgan harakat – aqidaparastlik – barcha dinlarda turli mazhab va yo‘nalishlar orasida, shuningdek, dunyoviy jamiyatda keskinlik, nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sababchi bo‘ladi va zo‘ravonlikni yuzaga keltiradi.

- Diniy-ekstremistik guruhlar islomda qat’iyyan man etilgan ishlarni qiladi: begunoh odamlarni o‘ldiradi; tinch jamiyatda fitna chiqaradi; amaldagi hukumat va qonunlarga itoatsizlik qiladi; mutaassib guruh a’zolari o‘zlarining soxta aqidalariga ergashmagan musulmonlarni “kofir”, “dinsiz”, ya’ni dindan chiqqanlikda ayblab, asossiz hukm chiqaradilar;”hijrat” va “jihod” tushunchalarini noto‘g‘ri talqin etadi, soxta iddaolar bilan yoshlar ongini zaharlaydi. Hanafiy ulamolarning xulosalariga ko‘ra talab jihodi hozirgi kunda yo‘q.

- Ommaviy axborot vositalari – jamiyatimiz jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi kuchli qurol sanaladi. Diniy ekstremizmga munosabat, boshqa

siyosiy jarayonlarga nisbatan bo'lgani kabi insonlarning ijtimoiy ongida shakllanadi.

- Terrorizm, zo'ravon ekstremizm hech bir din, millat va sivilizatsiya bilan aloqador emas va bog'liq holda talqin qilinmasligi kerak.

- Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, xalqimizning ma'naviyati, ma'rifatini yanada oshirish, yoshlarni sog'lom dunyoqarashli, ilmga intiluvchan etib tarbiyalash kabi ezgu maqsadlar uchun Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etilgan.

Nazorat uchun savollar

1. Zardushtiylikning qaysi muhim ijtimoiy g'oyalarini bilasiz?
2. Tangrichilikning asosiy g'oyasi qanday ifodalanadi?
3. O'zbekistonda ziyorat turizmi rivojlanishi qaysi muammolarni xal qilishi mumkin?
4. Moddiy-madaniy meros obyektlariga nimalar kiradi?
5. O'zbekiston Respublikasining qaysi qonunlarida davlat va din o'rtasidagi munosabat tamoyillari ro'rsatilgan?
6. O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi (1998) qonunida missionerlik va prozelitizm haqida nima deyilgan?
7. Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning qaysi modellarini bilasiz?
8. O'rta asrlarda yevropadagi diniy murosasizlikning sababi nimada?
9. Ma'rifiy islomni targ'ib etishning maqsadi nimada?
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida "vijdon erkinligi" qanday ifodalanadi?
11. Xalqaro bag'rikenglik kuni nima uchun va qachon nishonlanadi?
12. "Axborot soat" va "Ma'naviyat kunlarini" tashkil etishdan maqsad nima?
13. O'zbekistonning fuqarolarning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy amallarini bajarishlariga qanday sharoitlar yaratilgan?

14. Islom dinida mutaassiblik va aqidaparastlik qanday ta'riflanadi?
15. Islomda qat'iyman etilgan qaysi ishlarni diniy-ekstremistik guruhlar qiladilar?
16. Nima uchun ommaviy axborot vositalari –jamiyatimiz jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi kuchli qurol, deb sanaladi?
17. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etishdan maqsad nima?
18. Kommunikativ asosdagi axborot-targ'ibot tadbirlarining qaysi shakllarini bilasiz?
19. O'zbekistonning ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy kurash boradasidagi qaysi tashabbuslarini bilasiz?
20. Ma'rifiy islomni targ'ib etishdan maqsad nima?

IV modul bo'yicha adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23 noyabrdagi 946-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori. - <https://lex.uz/docs/4604155?otherlang=1>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5416-sonli "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni.– 2018-y.,16-aprel.
4. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
5. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". –T.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 31-b.
6. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi.- T.: O'zMU, 2004.-208-b.
7. Boboyev X., Xasanov S. "Avesto" – ma'naviyatimiz sarchashmasi. T., 2001.

8. Ибрагимов Э., Тулеметова Г., Исокжонов Р.- Динамика развития религиоведения в Узбекистане (на материале анализа диссертационных исследований по религиоведению с 1992 по 2017 гг. и правительственных решений). - “Диншунослик фанининг методологияси, ёндашуви ва услубиятини такомиллаштиришнинг долзарб масалалари” мавзuidaги IX Республика илмий-амалий конференцияси. - Тошкент, “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2017й. Б. 10-14.
9. Isxoqov M. Avesto: Yasht kitobi / Maxkamov tarjiması. Toshkent, 2001.
10. Ishoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992; Sug‘diyona tarix chorrahasida. – T.: Fan, 1990.
11. Махмудова Г.Т. Философская сущность Авесты. – Т., 2011
12. Отахо‘jayeva A. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari. Monografiya. –T.: ART-FLEX, 2010.
13. Ртвеладзе Э., Саидова А.Х., Абдуллаева А.К. Авеста. Закон против дэвов (Видевдат)/Адаптированный перевод, исследование и комментарии СПб. Изд-во Политехнического ун-та, 2008.- 300 с. ISBN 978-57422-17-93-0
14. Ртвеладзе Э. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье.Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”.-1999.- С.81-86.
15. Урозова Р.Т.Зардуштийликда аёл маъбудаларнинг тарихий-ижтимоий таҳлили. –Т. 2013
16. Яблоков И. Н. Религиоведение : Учебное пособие и учебный словарь-минимум по религиоведению. – М. : Гардарики, 2000. – С. 272
17. Hasanboyev O‘. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yo‘nalishlari.– T.: TIU, 2014. – 552-b.
18. Pahlavi Vendidad (Zand-i Jvit-Dev-Dat)/ Translit. Andtransl. in English by B.T.Anklesaria. Bombay, 1949.
19. Pikkat K. Promoting peace through inter-cultural and -religious dialogue. // Intern. scient.-pract.conf. of Tashkent Islamic University jointly with the

UNESCO Representative in Uzbekistan and Committee of the Religion affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: "Interconfessional dialogue and religious tolerance-guarantee of stability in society."-P.16-19. In the same place: Wegmarshaus G.-R. The idea of tolerance. - P. 146-149

20. Tulemetova G., Alimova M. European experience in supporting of religious tolerance. – (Diniy bag‘rikenglikni qo‘llab-quvvatlashda Yevropa tajribasi). – // TIU Ilmiy-tahliliy axborot, 2017, N 4.- ISSN 2181-7308.-B.37-40

IV-modul mavzulariga havola

¹ Shaked Sh. Zoroastrian Polemics against Jews in the Sasanian and Early Islamic Period //Irano-Judaica II. Studies relating to Jewish contacts with Persian culture through the ages.Ed. Sh.Shaked and A.Netzer. Jerusalem, 1990., 1990, p.87

² Mole M. Un ascetism moral dans les livres pelevis? //Revue de l'histoire des religions, 1959, P 156.

³ Э.Ртвеладзе, А.Х.Саидова, А.К.Абдуллаева Авеста. Закон против дэвов (Видевдат)/Адаптированный перевод, исследование и комментарии СПб. Изд-во Политехнического ун-та, 2008.- 300 с. ISBN 978-57422-17-93-0. С. 62.

⁴ Pahlavi Vendidad (Zand-i Jvit-Dev-Dat)/ Translit. Andtransl. in English by B.T.Anklesaria. Bombay, 1949.

⁵ Bosworth, C.E.Al-Khwarazmi on various faith and sects, chiefly Iranian // Iranica Varia: Papersin Honor of Professor Ehsan Yarshater. Aclr 30, 1990, P.12.

⁶ Shaked Sh. Esoteric Trends in Zoroastrianism //Proceedings of the Israel Academy of Sciences and Humanities. Vol. III. No.7. Jerusalem, 1969, P.189.

⁷ Anquetil-Duperron A.N. Zend-Avesta.Ouvragede Zoroastre. T. - M. Paris, 1771.

⁸ Boboyev X., Xasanov S.: “Avesto” – ma’naviyatimiz sarchashmasi. Toshkent, 2001; Jabborov: Otashparastlik va muqaddas “Avesto” / Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. Tarixiy-etnografik lavhalar. Toshkent, 1999; Isxoqov M.:

Avesto. Yasht kitobi / Maxkamov tarjiması. Toshkent, 2001; Karimov T.: Muqaddas “Avesto”. -Toshkent, 2000; Maxkamov A.: Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik. - Toshkent, 2001; Xomidiy X., Duschonov B.: “Avesto” va tibbiyot. Toshkent, 2001; Otaxo‘jayeva A.: Ilk O‘rta asrlar Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida turk-sug‘d munosabatlari. Monografiya. – T.: ART-FLEX, 2010; Ishoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – Toshkent: Fan, 1992; Sug‘diyona tarix chorrahasida. – T.: Fan, 1990.

⁹ Богданов, 1961; Периханян, 1973, 1983; Safa-Isfahani, 1980; Derooy, 1987; Меликова, 1985; С.Т.Ганбаров, 1992; Расули, 1999; Саидов, Абдуллаев, 2000; Графский, 1999; 2001; А.Г.Периханян,1983; С.Т.Ганбаров, 1992; М.Б.Мейтарчиян, 1992; 1999; Mole, 1959, Grenet F. 1984

¹⁰ Э.Ртвеладзе, А.Х.Саидова, А.К.Абдуллаева Авеста. Закон против дэвов (Видевдат)/Адаптированный перевод, исследование и комментарии СПб. Изд-во Политехнического ун-та, 2008.- 300 с. ISBN 978-57422-17-93-0

¹¹ Safa-Isfahani, 1980, p.1

¹² А.Г.Периханян: Общество и право в Иране в парфянский и сасанидский периоды - М.,1983, -С.248; С.Т.Ганбаров: Политические и правовые идеи в Авесте. – Автореф.дисс.на соиск.уч.ст.канд.юрид.н. - Баку, 1992, -С. 15-17.

¹³ Pahlavi texts / translated by E.W. West. Pt. V. Content of the Nasks. Delhi, 1965, p.35-152

¹⁴ Ртвеладзе Э. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник. Древность и раннее средневековье. Т.:“Ўзбекистон миллий энциклопедияси”. - 1999. - С.81-86.

¹⁵ Ishoqov M.M. “Avestodagi” ikki egiz ruh “uchrashuvi” masalasining talqiniga doir. – Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. \ Xalqaro konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2014-yil, 12-noyabr. – 159-b – 162. Г.Т.Махмудова: Философская сущность Авесты. - Т., 2011; R.T.Urozova. Zardushtiylikda ayol ma’budalarning tarixiy-ijtimoiy tahlili. – T. 2013.

¹⁶ Караматов Ҳ.С. Ўзбекистонда мозий эътиқодлар тарихи. – Т.: JIDU, 2008. – Б. 9

¹⁷ Alimova M., Nurahmedova B. Turkiy xalqlarning qadimgi diniy e'tiqodlari tarixidan. - Konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi, Xalqaro konferensiya materiallari (12 noyabr; 2014; Toshkent) / O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent islom universiteti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti.- 2014.- B. 207-208

¹⁸ Oqilov C. X–XI asrlarda Movarounnahrda e'tiqod va diniy bag'rikenglik siyosati// Xalqaro konferentsiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2014 yil, 12 noyabr. – B.163

¹⁹ Байтенова Н. Светскость как гарант цивилизованного развития государства\ Мат. межд. конф.«Ислам в современном светском государстве» мавзудаги Халқаро конференция материаллари тўплами. - Бишкек, 27-29 сентябрь, 2017й. – С.85-89

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5416-sonli “Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.– 2018-y.,16-aprel.<https://lex.uz/docs/-3686277>

²¹ Зиёрат туризмни ривожлантириш бўлими- <https://religions.uz/pages/7>

²² Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda “Vaqf” xayriya jamoat fondi hamkorligida “Vaqf” xayriya jamoat fondining tashkil etilishi va foliyatiga bag'ishlangan matbuot anjumani.

²³ O'zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida” qonuni.-<https://www.lex.uz/docs/-25461?otherlang=1>

²⁴ "Акт о веротерпимости" (англ. Toleration Act, 1689), закон, принятый английским парламентом, допускающий терпимость по отношению к протестантам, не признававшим официальной церкви Англии.

²⁵ O'zbekiston Respublikasining “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi (1998) qonun, № 3–7 moddalari.

-
- ²⁶ Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН 72/176 от 19 декабря 2017 года - <https://undocs.org/ru/A/RES/72/176>
- ²⁷ Резолюция 72/136 Генеральной Ассамблеи ООН от 11 декабря 2017 года - <https://undocs.org/ru/A/RES/72/136>
- ²⁸ Abdulaziz Mansur. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2016. 624-b.
- ²⁹ Коровиков А.В. Исламский экстремизм в арабских странах. – М.: Наука, 1990. – 77 с.
- ³⁰ Tulepov A. ISHID fitnasi. T.: “Movarounnahr”, 2015. 16-b.
- ³¹ Islom. Entsiklopediya: A–H. – T.: «O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. 170-b.
- ³² Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati.– T.: Akademiya, 2007, 93-b.
- ³³ Яблоков И.Н. Религиоведение: Учебное пособие и учебный словарь-минимум по религиоведению. – М.: Гардарики, 2000. – С.215
- ³⁴ Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati.– T.: «Akademiya», 2007. 137-b.
- ³⁵ O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni. 2018-yil 30-iyul (№ O‘RQ-489). - // Xalq so‘zi. - № 156 (7114). - Toshkent. 2018 y.
- ³⁶ Караяни А. Г. Анализ концептуальных моделей терроризма // Материалы 4-й межд. научн. конф. – М.: МЦНМО, 2009. – С.165.
- ³⁷ Добаев И.П. Современный терроризм: региональное измерение. – Ростов-на-Дону: СКНЦ ВШЮФУ, 2009. – С. 31.
- ³⁸ Коровиков А.В. Исламский экстремизм в арабских странах. – М.: Наука, 1990. – 77 с
- ³⁹ Панкова Л.Н., Таранухи Ю.В. Профилактика (предупреждение) экстремизма и терроризма. Методическое пособие для пропагандистов. - М.: Университетская книга, 2010. – С. 141-143, 243

-
- ⁴⁰ Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih: (Ishonarli to'plam): 1-kitob. 11-hadis. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008 – 12-b.
- ⁴¹ Там же, 1742-hadis. 286-b. Коран. Перевод смыслов. Сура 8 «Аль-Анфаль» - («Добыча»), аят 25.
- ⁴² Коран. Перевод смыслов. Сура 8 «Аль-Анфаль» - («Добыча»), аят 25.
- ⁴³ Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 2-kitob. 7081-7082-hadislar. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.– 543-b.
- ⁴⁴ Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 1-kitob. 2957-hadis. – T. : “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.– 513 b.
- ⁴⁵ Imom Tahoviy. Al-Aqidatut-tahoviya // Aqoid matnlari. A.Mansurov tarjiması. – T.: Toshkent islom universiteti, 2011. – 37 b.
- ⁴⁶ Imom A'zam. Fiqhi akbar // Aqoid matnlari. A.Mansurov tarjiması.– T.: Toshkent islom universiteti, 2011. – 26–27 b.
- ⁴⁷ Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 1-kitob. 3078-3079-hadislar. – T. : “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 537-b
- ⁴⁸. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 1-kitob. 10-hadis. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 12-b.
- ⁴⁹ Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. 2-juz.–T.: Hilol-nashr, 2013.– 648-b.
- ⁵⁰ Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 2-kitob. 3004-hadis. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.– 520-b.
- ⁵¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 15-iyunda Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning Bishkekda

nutqi. - <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-osiyo-15-06-2019>.

⁵² O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 57 modda. – T.: O‘zbekiston, 2017.

⁵³ Панкова Л.Н., Таранухи Ю.В. Профилактика (предупреждение) экстремизма и терроризма. Методическое пособие для пропагандистов. – М., Университетская книга, 2010. – 259 с.

⁵⁴ Ташкентская международная конференция по Афганистану «Мирный процесс, сотрудничество в сфере безопасности и региональное взаимодействие». -27.03.2018 <http://uza.uz/ru/politics/prinyata-tashkentskaya-deklaratsiya-po-afganistanu-27-03-2018>

⁵⁵ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi PF-5542-sonli “Terroristik, ekstremistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilot va guruhlar tarkibiga adashib kirib qolgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini jinoiy javobgarlikdan ozod etish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni. “Xalq so‘zi”, 2018-yil 20-sentabr.

⁵⁶ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmoni. “Xalq so‘zi”, 2018-yil 17-aprel; Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - T.: O‘zbekiston, 2018; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-iyundagi 466-sonli “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi faoliyatini tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori. www.lex.uz/docs/3791929

ADABIYOTLAR VA ELEKTRON-TA'LIMRESURLARI

O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Rahbarining farmon, qaror va nutqlari.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2017.- 40-b.
2. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. - PF-4947-son 07.02.2017.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qadimiy qo'lyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2995-sonli qarori 24.05.2017. www.lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. PQ-3160-sonli qarori 28.07.2017. www.lex.uz
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Bishkekda o'tgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti sammiti hamda Tojikiston poytaxti Dushanbe shahrida bo'lib o'tgan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo'yicha kengashning beshinchi sammitidagi nutqlari. 14-15 iyun, 2019y. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-osiye-15-06-2019>
6. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. - T.: O'zbekiston, 2018.
7. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. – T.: O'zbekiston, 2017. – 48-b.
8. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish

tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutq.- Toshkent : O‘zbekiston, 2017. – 56-b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Mazkur kitobdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 1-noyabrdan 24-noyabrga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri saylovchilari vakillari bilan o‘tkazilgan saylovoldi uchrashuvlarida so‘zlagan nutqlari o‘rin olgan /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488-b.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. Nyu-York shahri, 2017-yil 19-sentabr. O‘zbekiston ovozi, 2017-yil, 21-sentabrdagi №117 (32.332)
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 22-dekabr 2017-yil. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, – 2018. – 72-b.
12. Mirziyoyev Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. –T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 31-b.
13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23 noyabrdagi 946-son O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasining “Ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuni. 2018-yil 30-iyul (№O‘RQ-489). - // Xalq so‘zi. - № 156 (7114). - Toshkent. 2018 y.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5416-sonli “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.– 2018-y.,16-aprel.
16. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida” qonuni. T., 2013.

Asosiy adabiyotlar

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi.- T.: O‘zMU, 2004.-208-b.

2. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi: Mutaxassislik fanidan o'quv-uslubiy qo'llanma. - Toshkent: TIU, 2007. –48-b.
3. Muhamedov N., Alimova M. Dinshunoslik fanini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – T.: 2017, – 360-b.
4. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi. Darslik.-T.: TIU, 2008.
5. Hasanboyev O' O'zbekistonda davlat va din munosabatlari: diniy tashkilotlar, oqimlar, mafkuraviy kurashning dolzarb yunalishlari. – T.: TIU, 2014. – 552-b.
6. Introduction to the study of religion. Hillary Rodriguez, Jon S. Harding.- Routledge&Francis Group, London and New York, 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-sahih (Ishonarli to'plam). 2-kitob. 3004-hadis.–T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.– 520-b.
2. Ishoqov M.M. Sug'diyona tarix chorrahasida. – T.: Fan, 1990.
3. Ishoqov M.M. Unutilgan podsholikdan xatlar. – T.: Fan, 1992.
4. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: Yozuvchi, 1996.
5. Ma'naviy tahdidlar: missionerlik va prozelitizm/Mas'ul muharrirlar: B.To'raev, O.Yusupov. – T.: Movarounnahr, 2011.
6. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati.– T.: Akademiya, 2007. – 93-b.
7. Oltin silsila. Sahihul Buxoriy. -T.: Hilol-nashr, 2013.- 648-b.
8. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga - yuz javob). – T.,2008.
9. Rudolf U. Al-Moturidiy va Samarqand sunniylik ilohiyot maktabi. Mas'ul muharrir –Z.Munavvarov. Rus va nemis tillarida. R.Qobulova va G'.Mahmudov tarj. Imom al-Buxoriy xalqaro jamg'armasi. T. 2001.

10. Tulepov A. Islom va aqidaparast oqimlar. O'quv qo'llanma. T.: Movarounahr, 2014. –93-b.
11. Tulepov A. IShID fitnasi. T.: Movarounahr, 2015. – 16-b.
12. O'zbekiston ulamolari. Yo'ldoshhojaev H., Qayumova I.; mas'ul muh. U.Alimov, B.Bobojonov; O'zbekiston musulmonlari idorasi.-T.: Movarounahr, 2015. – 496-b.

Chet tillardagi adabiyotlar

Дополнительная литература:

1. Авеста. Закон против дэвов (Видевдат)/Адаптированный перевод, исследование и комментарии. - Э.Ртвеладзе, А.Х.Саидова, А.К.Абдуллаева СПб. Изд-во Политехнического ун-та, 2008.- 300 с. ISBN 978-57422-17-93-0
1. Азимова Н.Х. Жизненная истории (life history) как одна из разновидностей биографического метода. Т., 2010
2. Андросов В.П. Индо-тибетский буддизм. Энциклопедический словарь: монография. М.: Российская академия наук. Ин-т востоковедения. 2011.-488с
3. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика. Религия.- Токио-Ташкент 2010.-Yangi nashr, 2010. - 2010. -744с.
5. Бабаджанов Б., Муминов А., Гуламов С., Зиядов Ш., Камилов М., Каримов Г., Тошев Н., Тошева Ш. Каталог суфийских произведений XVIII - XX вв. из собрания Института Востоковедения им. Абу Райхана ал - Бируни АН РУз. Германия: 2002. -358 с.
6. Бабаджанов Б. К вопросу о восприятии статуса суфийского шайха (на примере Хаджа Ахрара).// Arabia Vitalis. Арабский восток, ислам, древняя Аравия / Сб. статей, посвященный 60-летию В.В. Наумкина. - М.: Восточная литература, 2005.
7. Бабаджанов Б. Возрождение деятельности суфийских групп в Узбекистане.//Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования): Сб. ст. памяти Фритца Майера (1912-1998). /Сост. и отв.редактор А.А. Хисматулин.- СПб. Филологический факультет СПбГУ, 2001 г. - (Азиатика). С. 331-360

8. Бабаджанов Б. Андижанское восстание 1898 года и "мусульманский вопрос" в Туркестане (взгляды "колонизаторов" и "колонизированных").- "Islamic Area Studies" Tokyo University.-Ab Imperio, 2/2009.- 200 с.
9. Бабаджанов Б.М., Муминов А.К., А. фон Кюгельген. Диспуты мусульманских религиозных авторитетов в Центральной Азии XX века.
10. Бабаханов Ш. Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами (из шести общепризнанных сборников хадисов). Т.1998
11. Бернард Дж.Вайсс. Дух мусульманского права. (усул ал-фикх)/ Пер. с англ. СПб.: "Издательство "ДИЛЯ", 2008. -320 с.
12. Бёртон Дж. Мусульманское предание: Введение в хадисоведение /Пер.с англ. СПб. "Издательство "ДИЛЯ", 2006. -304 с.
13. Бидерман Г. Энциклопедия символов. М., 1996.
14. Бреская О. Религиоведение в Беларуси XXI века: контекст социолога религии. // Межд. научно-практич. конференция "Религиоведение на постсоветском пространстве", Брест 21 - 22 февраля 2009
15. Гафуров У. Исламское религиозное образование в Узбекистане: вчера и сегодня. \Светскость и религия в мусульманских странах: поиск рационального соотношения. РНПЦ им. Имама Бухари. Фонд им. Ф. Эберта Под ред. З.И.Мунавварова и Р.Й. Крумм. -Т.2005. -С.155-122
16. Гирц К. Интерпретация культур. - М.: РОССПЭН, 2004
17. Данильян О.Г., Тараненко В.М. Религиоведение. Учебник. Серия: Образовательный стандарт XXI. Издательство Эксмо. 2005. - 480 с Дервиш Р.А. Памятники истории, религии и культуры в Узбекистане. Т.- 1994
18. Дюркгейм Э. Элементарные формы религиозной жизни. Тотемистическая система в Австралии. В кн.: Религиоведение. Хрестоматия / Перевод с англ., нем., франц.- М., кн. дом "Университет" 2000
19. Ибрагимов Э. Некоторые аспекты подхода к предмету религиоведения западноевропейских и североамериканских ученых.//Меж. конф. ТИУ: "Межконфессиональный диалог и религиозная толерантность - гарантия социальной стабильности", 12.1114. - С.21-24

20. Исокжонов Р. Философия ислама. Уч. пос. "ТИУ" - 2013
21. Исламизация и сакральные родословные в Центральной Азии. Наследие Исхак Баба в нарративной и генеалогической традициях. Отв редакторы Девин Ди Уис, А.К.Муминов.-Том I, 2013 г. Том II, 2008г.
22. Исокжонов Р. Философия ислама. Уч. пос. "ТИУ" - 2013.
23. Кушаев У. Светскость и религиозность: трактовки понятий и условия гармоничности // "Paradigmata poznani". - Praha, 2014. - № 1. - С. 27-32.
24. Кушаев У. Особенности религиозной культуры в правовом государстве // Религия наука общество: проблемы и перспективы взаимодействия: III Междунар. науч.-практ. конф., ноябрь 2013 г. "Sociosfera-CZ".-С. 109-111
25. Лобазова О. Религиоведение. Учебник/ Общ.ред.проф. В.И.Жукова.-3-е изд.,испр. и доп.-Ростов н/Д: "Феникс", 2004-416с
26. Матецкая А.В., Самыгин С.И. Религиоведение. Краткий курс. Издательство Феникс. 2008. - 224 стр.
27. Психология религий: учебное пособие / И.Б. Ардашкин; Томский политехнический университет. -Томск: Изд-во ТПУ, 2011.-277 с.
28. Радугин А.А. Введение в религиоведение: теория, история и современность. М., 1999.
29. Муминов А.К. Задачи подготовки специалистов-религиоведов// VI Респ. науч.-практ. конф.- Актуальные проблемы методологии религиоведения, совершенствование методик и подходов к его изучению. Сб. науч. труд ТИУ.- 2014.- С.44-48
30. Мюллер М. Введение в науку о религии: Четыре лекции, прочитанные в Лондонском Королевском институте в феврале - марте 1870 года. / Пер. с англ., предисловие и комментарии Е. С. Элбакян. Под общ. Ред.А. Н. Красникова. - М.:Книжный дом "Университет": Высшая школа, 2002. - 260 с.
31. Кремер Г. Государство и религия в современном исламском мире: вступительные замечания. Светскость и религия в мусульманских странах: поиск рационального соотношения. Под ред. З.И.Мунавварова и Р.Й. Крумм.- С. 16 -22.- Т.2005

32. Малиновский Б. Магия, наука и религи.-Из-во «Рефл-бук», 1998.г.
33. Матибаева Р.Б. Исламское вероучение (Калам). Уч.пос.Т.:ТИУ, 2013
34. Мистика. Религия. Наука. Классики мирового религиоведения. Антология. /Сост. и общ. ред. А.Н. Красникова. - М.: Канон+, 1998
35. Основы религиоведения: Учеб./Ю.Ф. Борунков, И.Н.Яблоков, К.И.Николаев и др.; Под ред. И.Н. Яблокова. 2-е изд. перераб. и доп.- М.: Высш.шк., 1998.- 480 с.
36. Прозоров С. Многообразие форм бытования ислама как историческая основа веротерпимости в современном многоконфессиональном обществе. // Междунар. конф. ТИУ "Межконфессиональный диалог и религиозная толерантность - гарантия социальной стабильности", 12 нояб2014. - С.33-35
37. Рахимджанов Д., Муратов Д.-Хадисоведение: учебное пособие //Т.: "Тошкент ислом университети", 2012.
38. Религиоведение: Учебное пособие/ Под ред. М.М. Шахнович. - СПб.: Питер, 2008. - 432с.
39. Религия и молодежь в современных мусульманских обществах. Республик. научно-просветительский центр Имама Бухари. Фонд им. Ф. Эберта.- Под ред. З.И.Мунавварова и Р.Й. Крумм. -Т.2007
40. Ртвеладзе Э.В. Великий шелковый путь. Энциклопедический справочник.- Т.1999
41. Ртвеладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории цивилизации древнего Узбекистана: государственность и право.- Т.2000
42. Тайлор Э. Первобытная культура. М., "Изд. Полит. литературы", 1989.
43. Тримингэм Дж. С. Суфийские ордена в исламе./Пер. с англ. А.А.Ставинской под ред. и предисл. О. Ф. Акимушкина. М.: «София», ИД «Гелиос».-2002.-480 с.
44. Тулеметова Г. Актуальные вопросы толерантности научной дискуссии (на примере религиоведческих дискуссий в вузах Узбекистана)/ The culture of tolerance in the context of globalization: methodology of research, reality and prospect. - Mat. of inter. scientific confer. on May 13-14, Prague 2014. - Pp. 34-37

45. Тулеметова Г. Влияние религиозного фактора на характер межэтнических отношений. // Ўзбекистон-баърикенг диёр.-Т.: "Ўзбекистон", 2007.-С.107-112
46. Тулепов А. Смута ИГИЛ. Т.: Мавераннахр, 2015.-107 с.
47. Узбеки /Отв.ред. З.Х.Арифханова, С.Н.Абашин, Д.А.Алимова; Ин-т этнологии и антропологии им. Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Республики Узбекистана. - М.: Наука, 2011. - 688 с. (Народы и культуры).
48. Фромм Э. Психоанализ и религия// Иметь или быть?- М., 1990.
49. Фрезер Д.Д. Золотая ветвь. М. 1983
51. Фрезер Д.Д. Фольклор в Ветхом Завете. М.: "Полит. лит.", 1990.
55. Фрейд З. Будущее одной иллюзии / Психоанализ. Религия. Культура. М.1991.
56. Чаттеренжи С., Датти Д. Индийская философия.- М.: «Букинист», 1994.-416 с.
57. Элбакян Е. Религиоведение. Словарь.-М.: Академический проект, 2007. - 640 с.
1. Azimova Nodira and Saurjan Yakupov. Traditional Uzbek Family: Selection of a Marriage Partner. Paper to Eighth Annual Central Eurasian Studies Conference. Indiana University. Bloomington. Indiana, March 30, 2001. International Conference.
 2. Babadzanov B. "On the History of the Naqsbandiya mugaddidiya in central Mawara'annahr in the late 18th and early 19th centuries" // Muslim Culture in Russia and Central Asia from the 18th to the Early 20th Centuries/ Ed. by Anke von Kuegelgen, Michael Kemper, D. Yermakov. Berlin: Klaus Schwarz Verlag, 1996. T. 1. S. 385-413
 3. Babadzanov B. Islamowov Sh. Sharīa for the Bolsheviks? Fatwās on Land Reform in Early Soviet Central Asia // Islam, Society and States across the Qazaq Steppe (18th- early 20th centuries). - Vienna, 2013. p. 52-78
 4. Bachofen I. Ya. Der Mythos vom Orient und Okzident. Eine Methaphysik der alten Welt, Fufll. Muench., 1956.

5. Bowker John (Hrsg.) Das Oxford -Lexikon der Weltreligionen. Frankfurt am Main. -2003. -S.1154
6. Conermann S. Das Mittelmeer zur Zeit der Mamlukenherrschaft in Aegypten und Syrien (1250-1517) - Vorbemerkungen zu einer globalgeschichtlichen Perspektive, in: Michael Stolz(Hg.), Bd. 3, Bern 2013, S. 21-60.
7. Conermann S. Geschichtsdenken der Kulturen. Eine kommentierte Dokumentation. Suedasien - von den Anfängen bis zur Gegenwart. Band 2: Die muslimische Sicht (13.-18. Jahrhundert). Frankfurt a.Main 2002.
8. Conermann S., Rheingans Jim (Eds).-Narrative Pattern and Genre in Hagiographic Life Writing: Comparative Perspectives from Asia to Europa. Berlin 2014.-Studien des Bonner Zentrumf fuer transkulturelle Narratologie. - Bd.7
9. Franzmann M, Gaertner C., Koeck N.-.Religiositaet in der saekularisierten Welt.-Theoretische und empirische Beitrage zur Saekularisierungsdebatte in der Religionssoziologie.-Veroeffentlichungen der Sektion Religionssoziologie der Deutschen.- 2006. -433 S.- SBN 978-3-531-90213-5
- 10.Frazer J.G. Psyche's Task: a Discourse Concerning the Influence of Superstition on the Growth of Institutions.- Macmillan Publishers Ltd and Co., London, 1909
- 11.Gafurov U. T. The role of religious education and religious studies education in the ideological struggle against manifestations of religious fanaticism and extremism among young people.-Vienna, 2013
- 12.Frick H. Vergleichende Religionswissenschaft. Berlin und Leipzig, 1928.
- 13.James William. The Varieties of Religious Experience. -1902
- 14.Husserl E. Allgemeine Einfuehrung in die Reine Phaenomenologie/-Halle (Saale) 113.
- 15.Khaliyarov A. Cash Waqf in the Khnate of Khiva during the 19th Century. Bonn, IOA. -2014

16. Hock Klaus. Einführung in die Religionswissenschaft. ISBN 978-3-534-24664-94. Auflage, Darmstadt, 2011. 205 S.
17. Kramer G. (2004) State and Religion in the Modern Islamic. Secularity and Religion in Muslim countries: searching for a rational balance: Introductory Remarks (based on materials from the International Scientific-Practical Conference "Secularity and religion in Muslim countries: searching for a rational balance" (pp.150-155). Scientific and Educational Center of al-Imam al-Bukhari, Tashkent Islamic University, National Human Rights Center of the Republic of Uzbekistan & Fridrich Ebert Foundation, Samarkand.
18. Frazer J.G. Totemism and Exogamy. Edinburg 1887. - 96 p.
19. Frick H. Vergleichende Religionswissenschaft. Berlin und Leipzig, 1928.
20. Lieth H. Deutsch-Usbekischer Christlich-Islamischer Dialog: Religion und Zivile Gesellschaft. Informationstheor. Betrachtung. USF, Uni Osnabrueck-2004
21. Mueller Max. Antropological Religion.-1892.
22. Mueller Max. Psychological Religion.-1893.
23. Nizomididinov N., Qodirov A. Lectures in English on Religious and Philosophic Teachings of Southeast Asian Countries.-Т.: „Тошкентисломуниверситети“ нашриёт-матбаабирлашмаси.2016.144 p.
24. Pikkat K. Promoting peace through inter-cultural and -religious dialogue.// Intern. scient.-pract.conf. of Tashkent Islamic University jointly with the UNESCO Representative in Uzbekistan and Committee of the Religion affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: "Interconfessional dialogue and religious tolerance-guarantee of stability in society."-P.16-19
25. Schleimacher F.D.E. Ueber den Unterschied zwischen Naturgesetz und Sittengesetz.-1825
26. Schrode P., Simon U.: Die Sunna leben. Zur Dynamik islamischer Religionspraxis in Deutschland, Wuerzburg: Ergon. (Muslimische Welten 5)

- 27.Schrode P., Die Totengeister der Uiguren. Beobachtungen zu Islam und Gesellschaft in Ostturkestan, Berlin: Klaus Schwarz Verlag. (ANOR 19) 2007
- 28.Stegmann Ricarda, Einfuehrung in die Religionswissenschaft. Philosophische Fakultaet, Universites Friburgersis, 2012
- 29.Tiele, Cornelis Petrus. Grundzüge der religionswissenschaft.-Tübingen und Leipzig, Mohr, 1904.- 70 S.
- 30.Tulemetova G., Karabaeva D. Social principle of islamic banking and financial system. // International scientific-practical conference of Tashkent Financial Institute, on the theme: “The role of the banking and financial institutions in accelerating the modernization, technical and technological renovation of the economy” – Tashkent, 2014. - P.39-42
- 31.Wegmarshaus G.-R. The idea of tolerance.// Intern. scient.-pract.conf. of Tashkent Islamic University jointly with the UNESCO Representative in Uzbekistan and Committee of the Religion affairs under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan: “Interconfessional dialogue and religious tolerance-guarantee of stability in society.”-P.146-149
- 32.Wilson B.: The Social Dimension of Sectarianism. Oxford/UK 1990: Oxford University Press

Elektron ta’lim resurslari

1. www.religions.uz
2. www.lex.uz
3. www.muslim.uz
4. www.buxoriy.uz
5. www.bukhari.uz
6. www.pravoslavie.uz
7. www.catholic.uz
8. www.bibles.uz
9. www.ziyonet.uz
10. www.edu.uz

11. www.uchportal.ru
12. www.methodika.uz
13. www.pluralism.org – www.pluralism.org— Pluralism Project at Harvard
Approaches to the Study and Teaching of Religion
14. Dinshunoslik tadqiqotlar markazi - www.religiopolis.org
15. Electronic library. Download books free
16. www.sastor.com – Scholarly
17. www.as.ua.edu/rel/studyingreligion.html— Studying Religion
18. www.as.ua.edu/rel/studyingreligion.html— Studying Religion
19. www.as.ua.edu/rel/studyingreligion.html— Studying Religion
20. www.as.ua.edu/rel/studyingreligion.html— Studying Religion

GLOSSARIY

1. **Abbos ibn Abdulmuttalib** (Abbas b. Abd al-Muttalib; taxminan 565-652/53) Muhammad payg‘ambar (s.a.v.)ning amakisi.
2. **Abbosiyalar** (the Abbassides;) – 749/750-1258-yillardagi Abul-Abbos as-Saffoh asos solgan arab xalifalari sulolasi.
3. **Abdulmuttalib ibn Hoshim** (Abd al-Muttalib inh Hashim), – qurayshiyalar avlodidan Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) ning bobosi. Madinada tug‘ilgan.
4. **Abdulqodir al-Jilaniy, Abdulqodir Gilaniy** (Abd al-Qadir al-Jilani, Abdulqadir Gilani) (taxminan 1077-1166) – Qodiriya tariqatining asoschisi.
5. **Abd** (arab. - qul, banda) aksariyat musulmonlar ismining tarkibiy qismi (mas., Abduazim, Abdulaziz).
6. **Obdasta** (fors. – suv va dasta), oftoba, tahorat uchun ishlatiladigan idish.
7. **Abib** (Abib) yahudiy taqvimining birinchi oyi, mart-aprel, boshloqlar oyi. Babil qamalidan so‘ng “Nisan” deb atala boshlagan.
8. **Ablegat** (ablegate) Rim Papasining elchisi. Hozir Rim Papasining xorijdagi diplomatik vakili nuntsiy, deb yuritiladi.
9. **Aboda** (abodah) yahudiycha atama bo‘lib, xudoga zamon va makonda mistik xizmat qilishni bildiradi; murakkab diniy marosimlarda mistik tajribaning amaliy ifodasi.
10. **Abramiylar** (the Abrahamites) – XVIII asrda Bogemiyada (Chexiya) vujudga kelgan protestantlik harakati.
11. **Absistensiya** (absistention) – katolitsizmda go‘shqli taomdan tiyilish. Keng ma’noda spirtli ichimlik, tamaki va boshqa mast qiluvchi moddalardan voz kechish.
12. **Absolyut** (the Absolute, the one; lot. Absolutus) shak-shubhasiz, cheklanmagan, mutlaq. Din falsafasida taqdirni belgilashda xudoning to‘liq oliy hokimiyati to‘g‘risidagi ta’limot; barcha mavjudotning abadiy, o‘zgarmas dastlabki asosi bo‘lib, yaxlit, umumiy, boshi ham oxiri ham yo‘q, deb tasavvur etiladi va har qanday nisbiy va shartli borliqqa qarshi qo‘yiladi.

13. **Abu** (arab. - ota soʻzining izofa holatidagi shakli) - arablar va b. musulmon xalqlarda koʻpchilik kunyalarning tarkibiy qismi. Mas., Abu Rayhon Beruniy va b.
14. **Abu Bakr** (Abu-Bekr; tax. 572-634). Muhammad paygʻambar (s.a.v.) ning safdoshi, qaynotasi, birinchi xalifa.
15. **Acharya** (sanskrit. Acharya. char ildiz. \neg izdosh.). Hinduizm, buddizm, jaynizm dinlarda ustoz nomii, u oʻzi taʼlimotlarga amal qiladi va izdoshlariga taʼlim beradi.
16. **Av** (Ab) – yahudiy taqvimining iyul-avgust oylari. Quddusdagi birinchi va ikkinchi ibodatxonalarning vayron etilishi (mil.av.586 va 70 mil.yil) va yahudiy xalqi tarixidagi boshqa koʻplab qaygʻuli voqealarga atab tutiladigan Tisha beav (poklanish) marosimi.
17. **Avatar** (avatar. sanskr. \neg (gavdalanish) hinduiylikda Vishnu xudosining yerda jasorat koʻrsatuvchi Krishna, Rama, boshqa qahramonlar va jonivor qiyofasida mujassamlanishi.
18. **Ave Mariya** (Ave Maria) – xristian katoliklarining Bibi Maryamga murojaatlarini oʻz ichiga oluvchi diniy yoki erkin matnga yozilgan musiqiy asar. F.Shubert, L.Kerubini, Sh.Guno kabi atoqli kompozitorlar “Ave Mariya” ariyalari mualliflaridir.
19. **Averroizm** (Averroism) – XIII-XVI asrlarda Gʻarbiy yevropadagi falsafiy yoʻnalish boʻlib, Ibn Rushd (Averroes)ning dunyoni abadiy, yaratilmagan va yagonaligi, barcha uchun umumiy boʻlmish “Dunyoviy aql” toʻgʻrisidagi gʻoyalarini rivojlantirgan. Averroizm katoliklar tomonidan qoralangan.
20. **Avesto, Ovasto** (parf. apastak \neg matn) – zardushtiylik dinining muqaddas kitobi. Uning qisqacha matni – Zand (Zend-Avesto, Xorda Avesto, Kichik Avesto), deb nomlangan.
21. **Avidya** (avidya) 1) buddizm, tamoman oʻzgarish va unga munosib ravishda azoblanishning asosiy oʻn ikki sabablaridan biri; 2) hinduiylikda – metafizik bexabarlik boʻlib, barcha yoʻnalishlarda anʼanaviy fikrni sansarada

individumning o'zgaruvchan va qiyinligining dastlabki sababi, deb hisoblanadi.

22. **Avtokefaliya** (autocephalia – o'z-o'zini boshqaruvchi) – cherkovlarning ma'muriy mustaqilligi.
23. **Agiografiya** (hagiography, hagiology, saints' lives) – 1) anbiyolar hayoti haqidagi adabiyot; 2) avliyolar, ruhoniylar hayoti va tabarruklikning tarixiy-diniy jihatlarini o'rganuvchi fan sohasi.
24. **Agiokratiya** (hagiocracy, hagiarchy) – kohinlar yoki avliyo, deb hisoblanadigan shaxslarning hukmronligi.
25. **Agni** (Agni(s)) – Veda va hinduiylik mifologiyalarida asosiy xudolardan biri; olov xudosi, oila himoyachisi, jonlantiruvchi kuch, nasllarga sog'liq beruvchi, zulmat va iblislarni ta'qib etuvchi.
26. **Advent** (the Advent season) – 30 noyabrdan boshlab, Rojdestvodan avvalgi to'rt yakshanbani o'ziga mujassamlagan vaqt. Xristianlar advent paytida post (fast) tutadilar.
27. **Adept** (adherent, disciple) – 1) qaysidir ta'limot, g'oyaning tarafdori, izdoshi; 2) qandaydir ezoterik ta'limot, sekta va h.k.ning sirlarini bilgan kishi.
28. **Adona, Adonay** (Adonai) – yahudiylik ibodatida "Yahve" ismining o'rniga tavsifli ishlatiladigan xudoning ismlaridan biri. Yahvega chuqur hurmat yuzasidan uning ismini aytish taqiqlangan.
29. **Adxarma** (adharma) – hinduiylikda nohaqlik, yolg'on, noqonuniylik.
30. **Azon** (azan, adan) – muazzin yoki imom (kichik masjidlarda) tomonidan namozga chaqiruv.
31. **Azroil** (Azrael, death angel) – yahudiylar, xristianlar va musulmonlarda – o'lim farishtasi.
32. **Alvasti, yalmog'iz** (witch, hag), afsonaviy sehrgar ayol, sehr-jodu qobiliyati evaziga shaytonga jonini sotgan jodugar xotin.
33. **Ali avlodlari** (Alids) – xalifa Ali va uning xotini, Muhammad payg'ambar (as)ning qizi Fotimaning zurriyotlari. O'rta asr musulmon davlatlaridagi

ba'zi sulolalar (Idrisiylar, Fotimiylar, Zaydiylar) Ali avlodigi borib taqaladi. Marokashdagi alaviylar o'zlarini Ali avlodlaridan, deb biladilar.

34. **Ali ibn Abu Tolib** (Ali b. Abi Talib) – islom tarixida to'rtinchi xalifa, Muhammad payg'ambar (as)ning amakivachchasi, kuyovi, safdoshi.
 35. **Aliya** (aliyah) yahudiylarni boshqa yurtidan ona vataniga qaytishining umumiy nomi; Aliya le-Tora (ivritcha –“Toraga ko'tarilish” – shanba kunlari va bayramlarda sinagogada ibodat marosimida Toradan boblar o'qish uchun analoy (ya'ni, tepasi qiya baland, to'rtburchak stol)ga chiqishi.
 36. **Alliluyya** (hallelujah, (h)alleluia, alleluia, alleluja) ivritcha –“Xudoni alqanglar”. Bibliya va Toraning yunoncha matnida ushbu alqov tarjima qilinmagan.
 37. **Alloh** (Allah) – islomda barcha mavjudot, ya'ni osmon, er va insonni yaratgan; olamning mutlaq hukmdori, Qiyomat kunining egasi, yakka va yagona Xudo.
 38. **Amaterasu** (Amaterasu) – sinto xudolari panteoni boshlig'i, quyosh xudosi va yapon imperatorlarining ona ajdodi.
 39. **Amerika mahalliy cherkovi** (Native American Church, Peyotism, the Peyote Church) ⇢ Amerika mahalliy xalqlarning umummilliy qabilalararo tashkiloti. 1944-yildan beri amal qilib kelayotgan cherkov bo'lib, peyotistlar va xristianlarning diniy ibodatlarini birga qo'shib olib boradi.
 40. **Amerika pravoslav cherkovi** (the Orthodox Church in America) – 1970-yilda Rus pravoslav cherkovi tomonidan mustaqillik (avtokefaliya) berilgan.
 41. **Amida** – Budda - Amitabxining yaponcha ismi.
 42. **Amin** (amen) – ibodat va xutba oxirida ularning rost ekanligini tasdiqlash maqsadida yahudiylik, xristianlik va islom dinlarda aytiladigan so'z.
 43. **Amon** (Amon) – Qadimgi Misr dinida oliy xudo.
- Аналой** (lectern, desk) (yunon. analoeon lavh). Xristian cherkovda diniy kitoblar, xochlar va b. qo'yiladigan baland qiya usti stol.
44. **Anafema** (anathema, curse, ban, anathematisma) – Cherkovdan chetlatish, lana'tlash, dindan chiqarish, murtad, deb e'lon qilish.

45. **Anaxita** (Anahita) – zardo‘shiylik mifologiyasida daryo ma‘budasi, hosildorlik xudosi.
46. **Andxaka** (andkhaka; sansk. so‘qir). Hinduiylikda ko‘r demon, Shivaning 1000 boshli so‘qir o‘g‘li.
47. **Anitya, anichcha** (anitya) – beqarorlik (impermanence); buddizmdagi markaziy tushuncha bo‘lib, unga ko‘ra, ong oqimining barcha tashqi va ichki unsurlari beqarordir.
48. **Antropogenez** (anthropogenesis) – insonning kelib chiqishi va rivojlanishi jarayoni to‘g‘risidagi fan.
49. **Anubis** – qadimgi misrliklar e‘tiqodida dastlab o‘lim xudosi, so‘ng o‘liklarni, shuningdek, qabriston (nekropol), ko‘mish va mo‘miyolash marosimlari homiysi.
50. **Apokalipsis** (apocalypse) 1) xristian. Oxir zamon ta‘limoti; 2) "**Apokalipsis**" (the Apocalypse, qisq. Apoc) – havoriy Ioan Bogoslov tomonidan yozilgan Yangi Ahdning oxirgi kitobi.
51. **Apokriflar** (the Apocrypha) xristianlikda – inkor etilgan kitoblar; kitob muallifining mavhumligi, kech paydo bo‘lganligi yoki boshqa sabablarga ko‘ra cherkov tomonidan qonunga kiritilmagan kitoblar.
52. **Apologetika** (apologetic writings, (the study of) apologetics) 1) xristian ilohiyoti yo‘nalishi bo‘lib, aqlga tayangan dalillar yordamida o‘z ta‘limotini himoyalash va oqlash bilan shug‘ullanadi; 2) keng ma‘noda diniy ilohiyot yo‘nalishi.
53. **Apsaralar** (Apsarases, Apsarasas) – vedizm va hinduiylik mifologiyasida yosh, yarim ilohiy, samoviy mavjudot; yarim xudolar-gandxarvalarning xotinlari yoki mahbubalari, ma‘shuqalar va raqqosalar.
54. **Aranyaki** (the Aranyakas) - diniy-falsafiy mulohazalarga ega so‘ngi Veda matnlari.
55. **Aretologiya** (aretology) axloqiy ilohiyotning yaxshi fazilatga o‘rgatuvchi bo‘limi.

56. **Aron kodesh** (the holy ark, aron (ha)kodesh) – Tora o‘ram qog‘ozi joylanadigan javon, muqaddas sandiq, u odatda sinagoga ning sharqiy devoriga zinapoya bilan barobarlikda o‘rnatiladi.
57. **Arxat** (arhat) - buddizm da muqaddaslikka erishgan inson, har qanday nafs, nafrat va jaholat bilan kurashgan taqvodor; arxatlar tarkibiga Buddha Shakyamunining yaqinlari va keyingi avlodlarning ko‘pgina izdoshlari kiradi.
58. **Arxiepiskop** (archbishop, arch-flamen, Abp., abp., Arch., Archbp) – xristian cherkovi ierarxiyasida bosh ruhoniy.
59. **Asava** (asava) – buddizm da razil istak, gunohga sabab bo‘luvchi qiziqish.
60. **Askeza** (astsisizm, askesizm, (buyuk) asketizm) – zohidlikni targ‘ib qiluvchi diniy tajriba, o‘zini tuta bilish, ochlikni bostirish, nafslarni tiyish va hokazolarga asoslangan diniy hayot amaliyoti; asosan insonni (odatda rohibni) kamolotga etkazish uchun.
61. **Asuralar** – (sanskrit. asu "hayot kuchi". 1) Vedizm da oliy toifali xudolar (suralaridan) farqli o‘laroq, quyi darajadagi xudolar nomi. Vedalardagi Indra, Mitra, Surya ko‘pincha asuralar deb ataladi. 2) Asuralar buddizm da a) demonlarga aylantirilgan xudolar; b) jonzot o‘limdan keyin tushadigan 6 olamdan birining nomi; v) ongi yovuzlik girdobida b o‘lgan mavjudot.
62. **Ateizm** (atheism, antitheism) – xudoni va ilohiy kuchlarni inkor etishning tarixiy xilma xil shakli; diniy tasavvurlar, ibodatlar yolg‘onligini ta’kidlash bilan xarakterlanadi.
63. **Atxarvaveda** (the Atharva-Veda) – Vedada zikr etilgan teosofik va kosmogonik madhiyalar, afsunlar, qaytariqlar to‘plami
64. **Augsburg diniy bitimi** (the Peace of Augsburg, the Augsburg Peace) – 1555 yil 25 sentyabrida Augsбург reyxstagida protestantlik knyazlari va imperator Ferdinand I o‘rtasida imzolangan kelishuv bo‘lib, nemis katoliklari va protestantlari o‘rtasidagi urushga chek qo‘ygan; Augsburg diniy dunyosi – hukmdorga dinni tanlash va o‘zga dindagilarga ko‘chib o‘tish huquqini tanlash imkoniyatini berib, “hukumat kimniki bo‘lsa, e’tiqod

- uniki” (subjects should follow the religion of their ruler) prinsipini (cuius regio, eius religio) joriy etdi.
65. **Autodafe** (auto-da-fy, auto de fy) – O’rta asrda xristianlik sudi inkvizitsiya hukmini ijro etish yuzasidan gunohkorning omma oldida o’tega tashlash marosimi.
 66. **Axriman** (Ahriman) – zardushtiylikda yovuzlikning bosh xudosi, Axuramazdaning dushmani.
 67. **Axura Mazda, Axuramazda** (Ahura-Mazda, Ormazd, Ormuzd) – zardushtiylikda oliy iloh, dunyoning yaratuvchisi, insoniyat himoyachisi.
 68. **Aqidaparastlik** – dindagi aqida va qoidalarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ko‘r-ko‘rona qo‘llash va mutlaqlashtirishga qaratilgan harakatlar.
 69. **Ahd** - qasam bilan berilgan va‘da, topshiriq. 1) Qur’onda ahd – Allohning o‘z bandalariga bergan va‘dasi va bandalarining Alloh oldidagi iltijo va ahdu paymonlarini bildiruvchi barqaror tushuncha. 2) Yahudiylikva xristianlikda muqaddas kitoblar nomlari.
 70. **Baptistlar** (the Baptists) - (yunoncha “suvga cho‘ktirish”). XVII asrda Angliyada paydo bo‘lgan protestantlik yo‘nalishi tarafdorlari. “Kishi dinni ongli ravishda o‘zi ixtiyor qilmog‘i zarur”, degan qoidasiga binoan baptistlar faqat voyaga yetganlarnigina cho‘qintirishga olib boradilar.
 71. **Baraka** (baraka) – islomda Alloh payg‘ambarlar, avliyolar, imomlarga, sufiy shayxlarga ulashgan rohat, farog‘at.
 72. **Bahoizm** (the Bahais(ts) – Eronda shakllangan bahoiylik ta’limoti. Xudo va barcha dinlarning birligini ta’kidlaydi. Bahoizm asoschisi Mirzo Xusayn Ali (Mirza Husayn Ali, Bahoulloh) 1863-yilda o‘z yuksak vazifasini e’lon qilgan. Bahoiylar uni Krishna, Budda, Muso va h.k. payg‘ambarlarning davomchisi hisoblaydilar. Hozirgi kunda Butunjahon Bahoiylik e’tiqodi markazi Hayfada (Isroil) joylashgan. O‘zbekiston Respublikasida 6 tasi bahoiy jamoalari ro‘yxatdan o‘tib o‘z faoliyatini olib bormoqda.
 73. **BBB** (the World Fellowship of Buddhists, WFB) – 1950-yilda tuzilgan uyushma – Buddistlarning Butunjahon Birodarligi.

74. **Benediktinlar** – taxminan 530 yillarda Italiyada Benedikt Nursiyskiy asos solgan qadimiy va yirik katolik rahbari ordeni a’zolari.
75. **Benu** (Benu) – 1) Qadimgi Misr mifologiyasida laylak shaklidagi xudo; 2) Quyosh xudosi Ra jonlarining biri (uning joglaridan birining nomi “ba”). 3) Qadimgi yunon dinlarida qaqnusning nomi.
76. **Beruniy, Abu Rayhon** (Abu-al-Rayhan Muhammad ibn-Ahmad-al- Biruni) – (973 y.da Xorazmda tug’ilgan); O’rta Osiyolik buyuk olim. XI asr Hindiston dinlari va fanlari bo’yicha tadqiqot olib borgan. “Hindlarning aqlga sig’adigan va sig’maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi” (“Hindiston”) muallifi.
77. **Bia, Biya** (Biya) – Qadimgi Yunon mifologiyada go’zallik va qudrat ma’budasi.
78. **Bibi Maryam** – islom dinida Iso payg’ambarning onasi.
79. **Bibliya** (the Bible, Bib., the Holy Scripture, the Scriptures, the Book of God, the Sacred Book, the Book of Books, the Book) – xristianlikda muqaddas kitoblar va risolalar majmuasi. Yunoncha “biblia” so’zidan olingan bo’lib, “kitoblar” ma’nosini bildiradi.
80. **Bid’at** (bid'ah) islom aqidalariga xilof ish, harakat yoki g’oya, ta’limot.
81. **Bismilloh** (bismallah, bismillah, basmalah) –“Bismillohi-r-rahmani-r-rahiym”; “In the name of Allah, the Merciful, the Beneficient”; “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan”, degan iborasi.
82. **BMI** (MWL the Muslim World League) - Butunjahon Musulmonlar Ittifoqi (ligasi).
83. **Bobil minorasi** (the (Tower of) Babel) diniy manbalarda – inson kibrini bosish uchun Xudo vayron qilgan “Osmon balandiligidagi minora”. U insonlar bir-birlarini tushunmasliklari uchun tillarni qorishtirib tashlagan.
84. **Bobil Talmudi** (the Babylonian Talmud, the Talmud Babli) - V (VI) asrda tuzilgan bo’lib, yahudiylikda eng to’liq va nufuzli, deb topilgan.
85. **Braxmavarta** (Brahma-varta) ⊃ vedizm va braxmanizmda xudolar yaratgan muqaddas mamlakat, oriylarning eng qadimgi yurti.

86. **Braxma-loka** (brahma-loka) – hinduiylik va buddizmda samoviy ruhlar amal qiluvchi koinotning qismi.
87. **Braxman** (Brahma(n)) – 1) hinduiylikda keng qamrovli irratsional ma'naviy substantsiya, eng oliy borliq. 2) kohinlarning qadimiy (oliy) tabaqasi (varna) vakili.
88. **Brit-mila** ((brit) milah, bris, b'rith, berith) - yahudiylikda yangi tug'ilgan o'g'il bolani xatna qilish marosimi.
89. **Budda** (Buddha (Sakyamuni) - mil.avv. 623-544-yillarda buddizmga asos solgan Sidxartxa Gautamaning ismi bo'lib, "nurlangan"dan so'ng Budda Shakyamuni, deb atalgan.
90. **Bxava** (bhava) buddizmda, hinduiylikda \neg abadiy mavjudlik ishtiyoqi.
91. **Bxaga** (Bhaga) – Veda mifologiyasida boylik va muhabbat xudosi.
92. **Bxuta** (bhut, bhuta) - 1) hinduiylikda afsun bilan boshqa tusga kira oladigan yovuz ruhlar, Shivaning yo'ldoshlari; 2) buddizmda yer va havoni egallab, har bir daraxt, imorat va boshqalarda yashovchi ko'rinmas ruhlar.
93. **Vaal** (Baal) – Finikiya, Falastin va Suriyadagi hosildorlik va urush xudolari. Ularga xizmat qilish qurbonlik qilish bilan bog'liq, shu jumladan insonlar bilan ham. Kohinlar Vaalning e'tiborini tortish uchun o'zlariga nayza yoki xanjarlar sanchishgan, qichqiriq bilan uni chaqirishgan.
94. **Vajra** 1). Vedizm va hinduizm mifologiyasida, tishli disk, Idrning momaqaldiroq chaqiruvchi gurzi; 2) Buddizmda - qudrat va barqaror ramzi, ko'plab Budda va Bodxisatva rasmlarida uchraydi; chaqmoq chaqishi kabi bir lahzali yo'rishish ramzi.
95. **Vayshya** (Vais(h)ya) – savdogarlar, dehqonlar, hunarmandlar toifasi.
96. **Vaqf** (waqf) - islom tarqalgan hududlarda davlat tomonidan, shuningdek, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan mol-mulk.
97. **Valiy** (arab. avliyo so'zining birligi) – 1) tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, gunoh ishlardan o'zini saqlovchi, dunyo

- lazzatlaridan yuz o'giruvchi kishi; 2) Xudoga yaqin odam, uning amrlarini bajaradigan.
98. **Valpurgiya kechasi** (the Walpurgis Night; katolik avliyosi Valpurg nomidan kelib chiqqan.) 1) may oyining 1-kechasi; qadimgi germanlarda bahorning boshlanish bayrami 2) german xalq rivoyatlariga ko'ra yalmog'izlar bayrami, "jinlar bazmi" (a witches' Sabbath).
99. **Varna** (varna) – Qadimiy Hindiston jamiyati ierarxiyasidagi to'rt asosiy tabaqalar umumiy nomi.
100. **Varfolomey kechasi** (the Massacre of St. Bartholomew('s Day), St. Bartholomew('s Day) Massacre) – 1572-yilning 23-dan 24-avgustiga o'tar kechasi va undan keyingi ikki kun Parijda katoliklarning protestant-gugenotlar ustidan o'tkazgan qonli jazosi; Varfolomey kechasi vaqtida Parijda va boshqa qator shaharlarda 3 mingga yaqin gugenotlar yo'q qilingan.
101. **Varshava bitimi** (the Compact of Warsaw) – Polshadagi katolik bo'lmagan aholining diniy erkinligi to'g'risida 1573-yilda qabul qilingan bitim.
102. **Vatikan** (the Vatican) – katolik cherkovining markazi va Rim Papasining qarorgohi.
103. **Veda** (the Veda(s) sanskr. "bilim" - 1) hindularning muqaddas kitobi, eng qadimgi braxmanizm matnlar to'plami va ta'limoti. 2) tor ma'noda – hinduiylik an'anasidagi to'rt qadimgi matn, muqaddas madhiyalar majmui: Rigveda, Samaveda, Yajurveda, Atxarvaveda.
104. **Vedana** (vedana) – buddizmda – his-tuyg'u, sezgi.
105. **Vedanga** (Vedanga) - diniy marosimlar, tilshunoslik, she'r o'lchovi va nazariyasi (metrika), astronomiyaga bag'ishlangan Veda matnlari.
106. **Vedanta** (Uttara) Vedanta) (sanskrit. aynan Vedalarning oxiri) - Vedlar davrining oxirida rivojlangan va hozirgi paytda rivojlanayotgan keng tarqalgan diniy va falsafiy ta'limot.

107. **Vijdon erkinligi** (freedom [liberty] of conscience, personal [individual] liberty, libertinism) – har bir insonning fikrlash, dinga e'tiqod qilish yoki ishonish erkinligi.
108. **Vizantiya** (Byzantium, the Byzantine [Eastern, lower] Empire) – Rim imperiyasi (IV–XV) qulagandan so'ng uning sharqiy poytaxti qismida (Konstantinopol) tashkil etilgan mamlakat.
109. **Vikariy** (vicar, curate, altarist, vicaire) – 1) ruhoniyl o'rinbosari; G'arbiy xristianlikda qavm rohibining yordamchisi – qavm vikariysi (kyure); katoliklarda ruhoniyl, bosh ruhoniyl yordamchisi; anglikan cherkovida qavm ruhoniysi. Rim Papasi katolik cherkovining boshlig'i sifatida Iso vikariyasi (the vicar of Jesus) unvoniga ega.
110. **Vinaya** (Vinaya) – buddizmda axloqiy-etik ta'limotlar, qoidalar, amrlar, ahdlar va h.k.ning. umumiy nomi.
111. **Vinaya-Pitaka** (the Vinaya-Pitaka, the Vinayapitaka) – buddizm qonunlari Tripitakaning "Monax intizomining savati" nomli birinchi ko'p jildli kitobi, ya'ni axloqiy tarbiya bo'yicha yo'riqnoma.
112. **Vifleem** (Bethlehem, the City of David) – Falastindagi Quddusdan janubdagi shahar. Payg'ambar va podshoh Dovud vatani, Isoning tug'ilgan joyi.
113. **Vishnu** (Vis(h)nu) – braxmanizm va hinduiylikda oliyl saqllovchi, najotkor xudo. O'rta asrlarda Vishnuning avatarlari, ya'ni uning mujassamlangan qiyofalari e'zozlanardi: podshoh-askar bo'lmish Krishna va afsonaviyl maxluqlar dushmani – Rama.
114. **Voxu Mana** (Vohu Manah) – zardushtiylikdagi "Ezgu o'y".
115. **Galaxa** (halacha, halakah) – Toraning har bir alohida qonuni, shuningdek, yahudiy jamiyatining hayotini tartibga soluvchi Talmuddagi qonunlar majmuyi.
116. **Ganesha** (Ganes(h)a) – hinduiylikda donishmandlikning filboshli xudosi.
117. **Gemara** (Gemara) – Talmudning qismi, Mishna sharhi.

118. **Genoteizm** (henotheism) – boshqa xudolarga ishonchni saqlagan holda bitta bosh xudoga ishonish.
119. **Germenevtika** (hermeneutics) – qadimiyliги yoki ko‘pma‘noligi bo‘is dastlabki ma‘nosi aniq bo‘lmagan diniy matnlar sharhi, usullari to‘g‘risidagi ta‘limot.
120. **Gnom** (gnome) ⇐ G‘arbiy Yevropa mifologiyasida er tagida yashovchi soqolli mitti odam bo‘lib, tog‘larda va o‘rmonlarda er tagidagi boyliklarni himoyachi.
121. **Gunoh** (sin, trespass, wrongdoing, the wrongs, evil, guiltiness) diniy tushuncha bo‘lib, har qanday, ixtiyoriy va ixtiyoriy bo‘lmagan, anglamay, ishda, so‘zda, hattoki, fikrda diniy amrlardan chekinish.
122. **Gurdvara** (gurdwara) - sikxiylikdagi ibodatxona.
123. **Guru** (guru, goora, gooroo) – hinduiylik dinidagi ma‘naviy ustoz; Panjobdagi sikxiylar diniy jamoasining boshlig‘i (the Guru).
124. **Deizm** (deism) – falsafiy-diniy ta‘limot bo‘lib, unda xudo dunyo yaralishining dastlabki sababi sifatidagina tan oladi; deizmga ko‘ra xudo Koinotni yaratdi, biroq unda sodir bo‘luvchi ishlarga aralashmaydi.
125. **Dekan** (dean) - katoliklarda va anglikanlarda – kafedral soborning yoki kapitulyar cherkovning katta ruhoniysi; rohiblikning dastlabki vaqtlarida u o‘nlikka bo‘lingan va 10 rohibning rahbari dekan, deb nomlangan.
126. **Demon** (daimon, d (a) amon), bir qator dinlarda xudo(lar)ga qarshi chiqqan farishta, jin.
127. **Demonologiya** ko‘plab qadimiy diniy va falsafiy ta‘limotlarning ajralmas qismi, sehr-jodu amaliyotining nazariy asosi; jinlar, ruhlarni o‘rganadigan ilohiyotshunoslik sohasi.
128. **Din** (religion, faith, rel., relig.) ⇐ diniy e‘tiqod, tasavvur, marosimlar, shuningdek, xudo(lar), iloh(lar) va h.k.ga bo‘lgan ishonchga asoslangan ibodatlarni amalga oshirish majmui.
129. **Diniy bag‘rikenlik deklaratsiyasi** (the Declaration of Indulgence) - 1662, 1672, 1687 va 1688 yillarda Angliyada qabul qilingan bag‘rikenlik bitimi.

130. **Diniy dualizm** (theological dualism) – dunyoda ikki qarama-qarshilik ibtidosi, ikki taraflamalik yaxshilik va yomonlik, ruh va tana hukmronligiga ishonch.
131. **Diniy mazmundagi materiallar** - dunyodagi turli dinlarning asoslari, tarixi, mafkurasi, ta'limoti va sharhlari hamda marosimlarini o'tkazish amaliyotini aks ettiruvchi kitoblar, risolalar, jurnallar, gazetalar, varaqalar va boshqa bosma nashrlar, audiovizual asarlar (tele-, kino- va videofilmlar, kliplar, kontsert dasturlarining yozmalari, multfilmlar, anime, xentay va shu kabilar), axborot tashuvchi elektron jismlar (disketlar, CD, DVD diskleri, Internet tarmog'ida joylashtirilgan materiallar va shu kabilar).
132. **Doksografiya** (qad.grek. “dokso” – “fikr, tasavvur” va “grafo” “yozish, bayon etish”) – qadimgi faylasuf va olimlarning fikrlari va tasavvurlarini keyingi mualliflar tomonidan bayon etilishi.
133. **Dukxa** (duhkha) – buddizmda mavjudotning xususiyatlaridan biri – azoblanish, qoniqmaslik, behalovatlik va sarosimalik holati.
134. **Dxyana** (dhyana) - buddizm, hinduiylik, jaynizmda meditatsiya bo'lib, ongni organizmdagi anglangan jarayonlar va sezgi organlaridan chetlatish bilan xarakterlanadi.
135. **Eparxiya** (eparchy, diocese, see, bishopric, episcopate) – cherkov ma'muriy okrugi, episkop tomonidan boshqariladi va kichik xristian jamoalar (prihod)dan tashkil topadi.
136. **Jabroil** (Jabrail) – musulmon ilohiyotida Allohga yaqin to'rt bosh farishtadan biri, vahiy elchisi.
137. **Jaynizm** (Jainism) – Hindistonda Budda zamondoshi Maxavira tomonidan mil.avv. VI asrda asos solingan din; tabaqa tizimining ilohiy oldindan belgilanganini inkor etadi va har bir inson uchun qalbning xalos bo'lish imkoniyati mavjudligini tan oladi; jaynizm bo'yicha, azobni engib o'tish yo'li – zo'ravonlikdan va zohidlikdan tiyilish.
138. **Jahannam** (jahannam) – islomda do'zaxning asosiy nomlaridan biri, gunohkorlar o'limdan so'ng tushadigan joy.

139. **Jinlar** (d)jinns, djins, genies, geniuses, genii) – musulmon ilohiyotida ko‘pincha yovuz, havo yoki tutunsiz olovdan yaratilgan mavjudodlar; ular istalgan shaklni qabul qilishlari va istalgan buyruqni bajarishlari mumkin.
140. **Jodugar, afsungar** (warlock, sorcerer) – diniy mifologiyaga ko‘ra odamlar, hayvonlar, ekinlarga zarar bera oladigan kishi. U afsun yo‘li bilan boshqa tusga kira oladi, misol uchun bo‘riga (werewolf).
141. **Johiliya** (al-Jahiliyyah, jahiliyah, jahilliyah) – islomgacha bo‘lgan davrga ishora; Arabiston aholisining diniy holatini ifodalaydi.
142. **Zaydiylar** (the Zaydi Shia, the Zaydiyyah, "the Fivers") - Zayd ibn Ali izdoshlari. Zayd ibn Alining “al-Majmu” asari va unga sharh sifatida yozilgan “ar-Ravd an-nodir” asarlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi.
143. **Zakot** (zakat, zakah) – islomning asosiy talablaridan biri. Mol-mulk va daromaddan shariat tomonidan belgilangan muayyan boylikka ega bo‘lgan musulmonlar mulkiy majburiyati.
144. **Zamzam** (Zamzam Well) – Makka shahrida Kaaba yaqinidagi muqaddas buloq.
145. **Zardo‘sh** (Zarathustra, Zoroaster) – zardushtiylik asoschisi.
146. **Ziyorat** musulmon taqvodorlar qadamjoylarga qilinadigan safar.
147. **Zikr** (dhikr) – sufiylikda Allohning ismini zikr etish marosimi.
148. **Zu-l-hijja** (Zulhijj) ⇨ musulmon taqvimi bo‘yicha 12-oy bo‘lib, musulmonlar Makkaga haj amalini bajaradilar.
149. **Zuhd** (zuhd) – islomda zohidlik.
150. **Iblis** (Eblis, Iblis) – musulmonlarni to‘g‘ri yo‘ldan adashtiruvchi shayton.
151. **"Iblisning advokati"** (devil's advocate; advocatus diaboli; the promoter of the faith, promoter fidei) Kardinal marosimlar komissiyasining (the Congregation of Rites) a'zolaridan biri, u avliyolikka nomzodni ayblarini topishga harakat qiladi va uni munosib emasligini dalillar orqali isbotlaydi.
152. **Ibn al-Arabiy** (Ibn al-Arabi, Muhyi ad-Din) – Ibn Arabiy Muhammad ibn Ali Muhiddin (1165-1240); arab, diniy faylasuf va shoir, avvalgi sufiylik

an'analarini tizimlashtirgan va "borliqning yagonaligi" (unity of being) diniy-falsafiy ta'limotining asoschisi sifatida mashhur.

153. **Ibodat, kult** (cult, worship, religion, veneration, cultus) - 1) ilohga diniy xizmat va u bilan bog'liq diniy marosimlar; 2) kimgadir sig'inish, kimnidir, nimanidir, masalan, o'tgan ajdodlarni, avliyolarni va b. ulug'lash.
154. **Ibrohim** (Abraham) → Qur'onda va islom tarixida payg'ambar, yakkaxudolikning ilk da'vatchisi, musulmonlar va yahudiylarning umumiy ajdodi.
155. **Ibrohim vasiyati** (The Testament of Abraham) – II asrga xos apokrifik (cherkov tan olmaydigan) asar.
156. **Iezuitlear** (the Jesuits - lat. societas Jesu; Iso jamiyati). 1537 yilda ta'asis etilgan katolik monax ordeni.
157. **"Ilohiy komediya"** (the Divine Comedy) – Dante Aligerining narigi dunyoga sayohatni tasvirlovchi epik dostoni.
158. **Imom** (ima(u)m) – Masjidda ibodat qiluvchi va xutba oluvchi ruhoni.
159. **Injil** – islom diniga ko'ra Alloh taolo Iso (as)ga Jabroil orqali og'zaki tarzda nozil qilgan muqaddas kitob nomi.
160. **Intuitsiya** (intuition) – haqiqatga ichki hissiyot va sezgi orqali erishish; "Oltinchi sezgi".
161. **Iroda erkinligi** (freedom of will) → Xudo tomonidan insonga yaxshilik va yomonlik o'rtasida tanlovni amalga oshirish uchun berilgan erkinlik.
162. **Islomshunoslik** (Islamic studies) – sharqshunoslikning bo'limi bo'lib, islom ilohiyoti va tarixining umumiy va xususiy masalalari va ularning jamiyat taraqqiyoti jarayoniga ta'siri bilan shug'ullanadi.
163. **Ismoil** (Ishmael) – payg'ambarlardan biri. Payg'ambar Ibrohim va Hojarning o'g'li; 7-asr Arabiston yarim orol cho'llarida yashovchi ko'chmanchi ismoiliylar qabilasining ajdodi.
164. **Isna Ashariya** (the Ithna Ashariyah, the Ithna Ashari Shia, the Imamiyya) – 12 imomga e'tiqod asosida shakllangan oqim; hozirgi vaqtda isnaashariylar shialikning eng ko'p sonli tarmog'i hisoblanadi.

165. **Isrofil** (Israfil) – musulmon ilohiyotida 4 farishtadan biri – Oxirat kuni xabarchisi.
166. **Istisloh** (arab. - manfaatlarni hisobga olish) - fiqhning qo‘shimcha manbalaridan biri, uning me‘yorlarini aql-idrok bilan ifodalash usuli.
167. **Yom-kipur, Yom-kippur** ("Gunohni yuvish kuni", Qiyomat kuni; (the Day of Atonement, Yom Kippur) – yahudiylikda bir kunlik poklanish va tavbatazarruni ifodalovchi bayram.
168. **Kardinal** (cardinal, Card) – katolik cherkovida Rim Papasidan keyingi oliy martaba.
169. **Karma** (karma) – braxmanlikda, hinduiylik va buddizmda 1) ko‘ra yangi tug‘ilishlari zanjiri; vujud o‘tgan mavjudligining majmui bo‘lib, uning hozirgi va keyingi taqdiriga ta‘siri; 2) odatiy ma‘noda – taqdir.
170. **Kongregatsiya** (congregation) – 1) bir dindagilar birlashmasi; 2) dindorlarni diniy xizmat yoki marosimga yuborish majlisi; 3) katolik cherkovida bir necha monastirlarni yagona boshqaruv va yagona nizom qoidalariga birlashtirish; 4. Rim-katolik hokimiyatining bosh idorasi.
171. **Konfessiya** - 1) muayyan diniy e‘tiqod (confession of faith) 2) o‘z ta‘limoti, ibodati, tashkilotiga ega muayyan diniy oqim.
172. **Kosmogoniya** (cosmogony) – iloh, dunyoning kelib chiqishi to‘g‘risida diniy ta‘limot.
173. **Kohin** (priest of heathen cult, sacrificer, sacrificing [pagan] priest) – ba‘zi davlatlarda ibodat xodimlarining nomi.
174. **Lamaizm** (Lamaism, Tibetan Buddhism) – buddizmning yo‘nalishlaridan biri.
175. **Madina** (Quddus) (Medina, the City of Refuge, the City of the Prophet, the Holy City) – Muhammad payg‘ambar etakchiligida Makkadan hijrat qilingan G‘arbiy Arabistondagi shahar.
176. **Majuj** (Magog) – yahudiylik, xristianlik va islom ta‘limotiga ko‘ra vahshiy xalq bo‘lib, uning yajuj xalqi bilan bosqini Qiyomat kundan avval bo‘ladi.

177. **Majusiylik** (heathenism, paganism, heathendom, paynim, heathenry) – yakkaxudolik dini islom atamasi, ko'pxudolik (politeistik) dinlarni ifodalash uchun ishlatiladi, ya'ni bir emas, bir necha xudoga yoki alohida maxluqlar, ofatlar, tabiiy hodisalar homiysi bo'lmish sirli kuchlarga e'tiqod qilish.
178. **Mazhab** (mazhab) – islomda diniy huquq tizimlari va yo'nalishlari.
179. **Makka** (Mecca, Makka) – Saudiya Arabistonidagi shahar, Muhammad payg'ambar tug'ilgan shahar, Ka'ba joylashgan joy, haj amalga oshiriladigan dargoh, unga yuzlanib namoz o'qiladi.
180. **Mandala** (mandala) – buddizm, hinduizm, jaynizm, muqaddas ramzlardan biri; diniy marosimlarda borliqni murakkab geometrik shakllardagi tasviri.
181. **Manu** (Manu) – hinduizm mifologiyasida insonlarni yaratuvchisi, Qadimgi Hindiston asoschisi, diniy-huquqiy brahmanlar qonunlarining taxminiy muallifi.
182. **Masjid al-Harom** (the Sacred Mosque (in Mecca), the Mecca Mosque) – Makkadagi bosh masjid.
183. **Mariya** (the Mother of God, the Mother of the Redeemer, the Virgin Mary, the Holy Mother) – xristianlikda mujassamlashgan Xudo-O'g'lining onasi.
184. **Maxatma** (mahatma) – hinduizm dostonlarda oliy ruhoni – Rishiga (rishi) ulug'lash murojaati; hozirgi kunda e'tirof etilgan ruhoniylarga, xalq arboblari nisbatan qo'llaniladi, xossatan Mahatma Gandi.
185. **Mehrob** (arab. - sajdagoh) masjidning Makka (Ka'ba) tomonidagi devori ichiga taxmon shaklida qurilgan joy. Mehrob namoz o'qiladigan tomon (qibla)ni belgilash uchun xizmat qiladi.
186. **Meroj** (miraj) – islomda Muhammad payg'ambarning buroqda Makkadan Quddusga mo'jizali kechki sayohati va uning arshi Alo – Ettiinchi osmonga ko'tarilishi.
187. **Minbar** (mimbar) – masjidida imom va'z aytadigan baland joy, keng zinapoyali supa.

188. **Missioner** (missioner) → maxsus tayyorlangan va muayyan dinni tarqatish uchun yuborilgan shaxs.
189. **Mitra** (Mitra) – Vedizmدا osmon xudolaridan biri. “Avesto”da Mitra ijtimoiy ahillikni ta’minlaydi, bitimlar ijrosini nazorat qiladi.
190. **Mif** (myth) – insonlarning dunyo, tabiat, borliq haqidagi tasavvurlarini aks ettiruvchi xudolar, qahramonlar, ruhlar va b. haqidagi rivoyatlar.
191. **Momo Havvo** (Eve) qad.yahud. hauwa → hayot. - Yahudiylik, xristianlik va islom dinida → Xudo yaratgan birinchi ayol.
192. **Monax, rohib** (monk, monastic) → kundalik hayot lazzatlaridan xudoga xizmat qilish maqsadida voz kechgan xristian kishi.
193. **Muattar** (incense) – suriladigan xushbo‘y modda: miro, eley yoki yoqadigan fimiam, ladan kabi turli xushbo‘y moddalar.
194. **Mujtahid** (mujtahid) – huquq va ilohiyot fanlarida oliy darajani egallagan, islom aqidalari, huquqi, axloqi masalalari bo‘yicha mustaqil hukm chiqarish imtiyoziga ega faqih.
195. **Muso** (Moses) (mil.avv. 1576-1456) – Isroil qavmining rahnamosi; yahudiylar tomonidan yahudiylik asoschisi deb qaraladigan payg‘ambar.
196. **Muftiy** (mufti) – ya’ni fatvo beruvchi; sunniylikdagi diniy-huquqiy masalalarni hal qilishga vakolati bo‘lgan oliy martabali ruhoni; shariat bilimdoni, Qur’onni talqin qiluvchi, munozarali diniy-huquqiy masalalar bo‘yicha fatvo chiqaruvchi.
197. **Mo‘tabar joylar** – Ziyorat qilinadigan, dindorlar uchun muqaddas hisoblanadigan joylar.
198. **Mo‘tazaliylar** (the Mutazalas, the Mutazilites) – VIII-IX asrlarda Arab xalifaligida vujudga kelgan musulmon ilohiyotining ratsionalistik yo‘nalishi tarafdorlari.
199. **Namoz**, (namaz) arabcha – solat, → musulmonlar ibodati; kundalik 5 mahal namoz; juma namoz; ikki hayit namoz va h.k.lar.
200. **Obdast** (abdest) – musulmonlarda qo‘lni yuvish (poklash).

201. **Og'a-xon** (Aga Khan) – musulmon ismoiliylar oqimidagi nizoriylar boshlig'ining nasliy unvoni.
202. **Odam Ato** (Adam) – yahudiylik, xristianlik va islom dinida → Xudo yaratgan birinchi inson.
203. **Odat** (adat) – musulmon xalqlarda shariatdan farqli ravishda odatiy, yozilmagan qoidalar, masalan, qiz olib qochish, qotillik uchun jarima va boshqalar.
204. **Oysha** (Aisha, A'ishah, Ayesha) – Muhammad payg'ambarning xotini, xalifa Abu Bakrning qizi.
205. **Okkultizm** (occultism) – 1) sehr va marosimlar orqali g'ayritabiiy kuchlarni insonga bo'ysundirilishga qaratilgan hatti-harakatlar; 2) narigi dunyo bilan muloqot qilish imkoniyati haqidagi tasavvurlar (psychomancy).
206. **Oriyalar** (Aryans) 1) Vedalar davridagi hindlarning imtiyozli tabaqasi a'zolari; 2) Miloddan avvalgi II ming yillik o'rtalarida Hindistonning shimolida istiqomat qilgan qabilalar.
207. **Oyat** (āyah, āyāt) – Qur'on suralarining tarkibiy qismi.
208. **Oyatulloh** (ayatollah) – shia mujohidlarining oliy unvoni.
209. **Paleografiya** (paleography) – yozuv rivojlanishini o'rganuvchi tarixiy-filologik fan: qadimiy yozuvlarni o'rganish, qisqartish tizimi va sirli xat, qo'lyozmalar va kitoblarni bezash va hujjatlashtirish; mualliflik, yodgorlikning yaratilgan vaqti va joyini aniqlashtirish va h.k.lar bilan shug'ullanuvchi fan.
210. **Psalom** (psalm) → yahudilikdagi diniy janr. Payg'ambar Sulaymonning va'z-nasihatlari. (The Psalms of Solomon) → mil.avv. 70-40 yillarda yozilgan, Qadimgi Ahdga oid to'plam.
211. **Ravvin** (rabbi(n)) – yahudiylikda ibodat xizmatchisi, yahudiy jamoasining diniy va oilaviy hayot masalalar bo'yicha bilimdoni.
212. **Radxa** (Radha) – hinduiylik mifologiyasida cho'pon ayol, Krishnaning mahbusasi.
213. **Rajab** (Rajab) – musulmon hijriy-qamariy taqvimining 7-oyi.

214. **Rakat** (rak'a) – namoz vaqti arab tilida qayta aytiladigan oyatlar, salovatlar va boshqa namozga oid iboralar; namozda gavdaning holati va harakati.
215. **Ramazon hayiti** (eid al-fitr) – ramazon oyi ro'zasini tugaganiga dalolat qiluvchi, musulmonlarning bayramlaridan biri.
216. **Ramazon, Ramadan** (Ramad(h)an, Ramazan) – musulmon qamariy taqvimining 9-oyi; Qur'on va shariatga muvofiq ramazonda musulmonlar ro'za tutishlari shart.
217. **Raxu** (Rahu) – hind mifol. asura, quyosh va oy tutilishining afsonaviy sababchisi.
218. **Reformatsiya** (the Reformation) – XVI asrda G'arbiy yevropadagi ko'pgina mamlakatlarni qamrab olgan va eng avvalo, Rim-katolik cherkoviga qarshi qaratilgan diniy harakat – protestantlikning paydo bo'lishiga olib kelgan.
219. **Robia al-Adaviya** (Rabiah) (714-801) – sufiylik vakilasi.
220. **Ro'za** (sawm, siyam) – arabcha as-Saum, islomning besh shartlaridan biri.
221. **Rukn** (the Pillars of Islam, the Five Pillars, arkan al-Islam) (arab. - asos, ustun), arkon ad-din (din asoslari) - islomda eng muhim sanalgan beshta vazifa. Unga "kalimai shahodat", namoz, zakot, ro'za va haj ibodatlarini kiradi.
222. **Sabr** (Sabr, Sabur) – 1) Musulmon kishining yaxshi fazilatlaridan biri, qiyinchiliklarda sabr-bardosh. 2) As-Sabur, Allohning 99 go'zal ismlaridan biri, o'ta sabrli ma'nosini anglatadi.
223. **Sadaqa** (sadaqat) – islomda xayr-ehson; musulmon kishining ixtiyoriy moddiy yordami. **Sadxu** (sadhu) – hinduiylikda zohid yoki avliyo, shuningdek, ba'zan e'tiqodli dunyoviy kishi.
224. **Sakkiz o'lmaslar** (the Eight Immortals (of Taoism)) – xitoy daosizm mifologiyasida boqiylikka erishgan sakkiz avliyolar; Sun dinastiyasi (960-1279) hukmronligidagi avliyolar.
225. **Sakkizlik Yo'li** (the Eightfold Path) – buddizmda hayot azobidan ozod qiluvchi 8 bosqichdan iborat amaliy yo'li. 2) ma'naviy intizom va

- meditatsiya yordamida buddistni ma'rifatga, so'ng nirvanaga olib boruvchi yo'l.
226. **Samadxi** (samadhi) – 1. Psixik e'tiborni to'plash, yoga yo'nalishining asosiy atamasi; 2. Buddizmda meditatsiya, nirvanaga olib boruvchi oliy nurlanish holati.
227. **Sangxa** (sangha) – buddizm monaxlar jamoasi.
228. **Sekulyarizatsiya** (secularization, laicization, deconsecration) – 1. Jamoaviy va shaxsiy hayotning barcha jabhalarini din ta'siridan xalos etish jarayoni; 2. Diniy tashkilotlar mulkidan davlat foydasiga voz kechish; 3. G'arbiy Yevropada diniy holatdan dunyoviylikka o'tishi.
229. **Serafim** (seraph) – yahudiylik va xristianlikda osmonning eng yuqori pog'onasida turuvchi farishta. Olti qanotli Serafim six-winged seraph.
230. **Silflar** (sylph) – kelt va nemis afsonalarida, ko'pgina Yevropa xalqlar folklorlarida havo unsurini ifodalovchi engil va harakatchan ruhlr.
231. **Soqchi minorasi, Bibliya va traktaklar jamiyati** ("Yahova shohidlari" rasmiy tashkiloti) the Watch Tower, Bible and Tract Society. 1884 y. Pensilvaniyada (SShA) tashkil etilgan.
232. **Sulaymon** (Solomon) payg'ambar, yahudiylar podshohi (965-928).
233. **Tabiat kuchlarini namoyon qiluvchi xudolar** (nature-gods) – Turli dinlarda shamol, momaqoldiroq va hokazo xudolari.
234. **Tabu** (tabu, taboo) – qandaydir narsa, harakat, so'z va boshqalarga diniy taqiq. Tabuni buzish oliy kuchlar tomonidan jazolanadi. Masalan, totem hayvonning go'shtini eyish tabudir.
235. **Tavakkul** – tasavvuf ta'limotiga ko'ra, o'z irodasini Allohga ishonib topshirish.
236. **Tantra** (Tantra) - 1) Buddizmdagi muqaddas kitobning nomi; 2) Buddizm amaliyoti shakli.
237. **Tafsir** (arab. "bayon qilish")– Qur'on oyatlarini sharhlash.
238. **Taqiqlangan adabiyotlar indeksi** (the Index (of Forbidden Books), the Prohibitory Index) – 1559-1966-yillarda Vatikan tomonidan chop etilgan

adabiyotlar ro'yxati bo'lib, ularni o'qish dindorlarni cherkovdan chetlashtiradi, degan xavf ostida ta'qiqlangan.

239. **Teologiya** (theology, theologies, divinity, sokr. theol) – xudo(lar) haqidagi, u(lar)ning sifatlari, xususiyatlari, amallari va mohiyati haqidagi diniy ta'limot. Ushbu ta'limotning aqidalari, diniy axloqi, ruhoniylar diniy g'oyalari, atamalar jamlanmasi.
240. **Terrorizm** – siyosiy, diniy, mafkuraviy va boshqa maqsadlarga erishish uchun shaxsning hayoti, sog'lig'iga xavf tug'diruvchi, mol-mulk va boshqa moddiy obyektlarning yo'q qilinishi (shikastlantirilishi) xavfini keltirib chiqaruvchi hamda davlatni, xalqaro tashkilotni, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir harakatlar sodir etishga yoki sodir etishdan tiyilishga majbur qilishga, xalqaro munosabatlarni murakkablashtirishga, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzishga, xavfsizligiga putur etkazishga, qurolli mojarolar chiqarishni ko'zlab ig'vogarliklar qilishga, aholini qo'rqitishga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga qaratilgan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan zo'rlik, zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish yoki boshqa jinoiy qilmishlar.
241. **Terrorchi** – terrorchilik faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan shaxs.
242. **Terrorchilik guruhi** – oldindan til biriktirib terrorchilik harakatini sodir etgan, bunday harakatga tayyorgarlik ko'rgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilgan shaxslar guruhi.
243. **Terrorchilik tashkiloti** – ikki yoki undan ortiq shaxsning yoki terrorchilik guruhlarining terrorchilik faoliyatini amalga oshirish uchun barqaror birlashuvi.
244. **Tumor** (tumor, amulet, charm) – ba'zi tasavvurlarga ko'ra, egasini “yovuz kuchlar”, “balo”, “yomon ko'zlar”, ta'siridan himoya qilishga qodir bo'lgan narsa, ashyo.

245. **Ulamolar** (ulema, ulama) – "bilimlilar, olimlar"; islom diniga mos ilohiy nazariya va amaliy jihatlarning tan olingan va nufuzli bilimdonlar: mushtaxid, muhaddis, mufassir, faqihlarning umumiy nomi.
246. **Umma** (umma(h)) – musulmon jamoasi.
247. **Umra** (umrah) – musulmonlar uchun muqaddas joylarni ziyorat qilish.
248. **Faqih** – fiqh ilmi nazariya va amaliyotining bilimdoni.
249. **Fatvo** (fatwa) – faqihning chiqargan hukmi.
250. **Fiqh** (fiqh), (arab. "tushunish") – Shariat qonun-qoidalarini o'rganuvchi fan.
251. **Fundamentalizm** (fundamentalism) turli dinlarda muqaddas kitoblarni so'zma-so'z talqin qiluvchi, qadimiy tushunchalar tanqidiy talqin qilinishiga keskin qarshi chiquvchi, shuningdek, yangiliklar kiritilishiga va dinni modernizatsiyalashga qarshi konservativ yo'nalishdir.
252. **Xalqaro Krishnani Anglash jamiyati** (the International Society for Krishna Consciousness, ISKCON. Norasmiy tarqalgan nomi – the Hare Krishna) – 1966 yilda AQShda asos solingan eng faol va barqaror zamonaviy hinduiylik harakatlaridan biri.
253. **Xatna** (circumcision; the foreskin) – musulmonlarda (sunnat), yahudiylarda (brit-mila), Avstraliya aborigenlari va Yangi Gvineyadagi ba'zi Papua orollarida qo'llaniladigan diniy marosim .
254. **Xristian Adventik cherkovi** (the Advent Christian Church) – 1854-yilda AQShda asos solingan adventistlar konfessiyasi.
255. **Xristogramma** – Iso nomini ifodalovchi yunon harflaridan iborat so'z.
256. **Xudo-O'g'il (So'z)** (God the Son, the Logos, the Second Person of the Trinity) xristianlikda muqaddas Uchlikning ikkinchi shaxsidir, ya'ni So'z.
257. **"Xudoning advokati"** (God's advocate) - Kardinal marosimlar komissiyasining (the Congregation of Rites) a'zolaridan biri, u avliyolikka nomzodni tanlaydi va uni munosibligini dalillar orqali isbotlaydi.
258. **Shabat** (Sabbath (day), Shabbath, S, Sab) – yahudiylik dinida buyurilgan haftalik shanba kuni bo'lib, u kunda ishlash ta'qiqlanadi, qalb haqida g'amxo'rlik qilish uchun taqvodorlik kuni o'tkaziladi.

259. Shaytonlamoq (madness) go'yoki shayton vasvasasi tufayli odamni telbalanishi, jinnilik qilishi, quturishi, g'azabga kelishi. Musulmonlik amaliyotida bunday ruhiy kasallikka chalingan insonlar uchun, duolar bilan birga "kuf!" aytiladi. Xristianlikda shayton exorcism marosimi orqali "haydab chiqariladi".
260. **Shayx** (arab. - kekxa, oqsaqol; diniy rahnamo; Saih) – 1) islom dini bilimdon kishilar; 2) islom dini ruhoniylar, ulamolar, faqihlar; 3) so'fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar ham shayx, deb nomlangan.
261. **Shahvat** (immorality, lechery; whoredom, fornication; lust) – xristianlikda etti kechirilmas gunohlardan biri, zino, axloqsizlik; nikohsiz ikki kishining o'zaro jinsiy aloqasi.
262. **Ekstaz, diniy jazava** (religious possession, religious rapture, religious mania, religious ecstasy; furor(e), religious frenzy) – diniy taajjub oliy darajasi, zavq-shavq, ba'zan o'zini yo'qotish chegarasidagi ilhom, jazava.
263. **Ekstremizm** – ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirishga, O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini zo'rlik bilan o'zgartirishga, hokimiyatni zo'rlik ishlatib egallashga va uning vakolatlarini o'zlashtirib olishga, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atishga qaratilgan harakatlarning ashaddiy shakllari ifodaci.
264. **Ekstremistik guruh** – oldindan til biriktirib ekstremistik faoliyatni amalga oshirayotgan yoki uni sodir etishga suiqasd qilayotgan ikki yoki undan ortiq shaxs.
265. **Ekstremistik material** – ekstremistik faoliyatni amalga oshirishga oshkora da'vat qiladigan yoxud shunday faoliyatni amalga oshirish zarurligini asoslab beradigan yoki oshkora oqlaydigan, tarqatish uchun mo'ljallangan hujjat yoki har qanday vositadagi boshqa axborot.
266. **Ekstremistik tashkilot** – ekstremistik faoliyatni amalga oshirganligi tufayli o'ziga nisbatan faoliyatini tugatish yoki taqiqlash to'g'risida sudning qonunda nazarda tutilgan asoslar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan qarori qabul qilingan tashkilot.


267. **Epigrafika** (epigraphy, epigraphics) – qadimgi yozuvlar to‘g‘risidagi fan.
268. **Yajuj** (Gog) – yahudiylik, xristianlik va islom ta‘limotida vahshiy xalq bo‘lib, uning ma‘juz xalqi bilan bosqini Qiyomat kunidan avval bo‘ladi.
269. **Yahova** (the ineffable name of Jehovah) – Qadimgi Ahdda uchrovchi - Xudoning tilga olinmaydigan ismi; yahudiylik uning o‘rniga “Adonay” (“Xudoyim”), deb o‘qiydilar va aytadilar.
270. **O‘n ikki havoriylar** (the Twelve) – Yangi Ahdda Isoning eng yaqin o‘n ikki o‘quvchisi, izdoshi.
271. **G‘azzoliy, Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad** (1059-1111); (Ghazali, Abu Hamid Muhammad ibn Muhammad al-Tusi) – musulmon ilohiyotchisi va faqih.
272. **G‘usl** (arab. - cho‘milish) – poklanish, maxsus tartibda obdon yuvinish.
273. **Qiyos** (kiyas, giyas, analogy-based rules) – solishtirish; islom huquqshunosligi manbalaridan biri; o‘xshashlikka asoslanib hukm qilish.
274. **Qiroat** – (arab. “o‘qish”) Qur’onni o‘ziga xos qoidalarga muvofiq tilovat qilish.
275. **Qozi** (qadi, cadi) – musulmon jamoasidagi hakam.
276. **Qurbon hayiti** (eid al-adha) – qurbonlik keltirish bayrami, musulmonlikning asosiy bayramlaridan biri.
277. **Qur’on** (the Qur'an, the Coran) – musulmonlarning muqaddas kitobi, Muhammad payg‘ambarga Alloh tomonidan insonlarga qo‘llanma sifatida nozil qilingan ilohiy vahiy.
278. **Qutqaruv Armiyasi** (Salvation Army) – xristianlik nasihatlari va amaliy xizmatni o‘z faoliyatida uyg‘unlashtiruvchi xalqaro diniy-xayriya tashkilot.
279. **Hadis** – (Hadith), arab. “yangi”; “so‘z”. Muhammad payg‘ambar aytgan so‘zlari, qilgan ishlari haqidagi rivoyatlar.
280. **Havoriylar** (apostle) 1) – Yangi Ahdda Isoning eng yaqin o‘quvchilari, izdoshlari. 2) “Havoriylar faoliyati”, (qisq. “Havoriylar”) (the Book of Epistles, the Apostolos, the Book of the Apostles, Biblion Apostolikon, Praxapostolos) Yangi Ahd tarkibiga kiritilgan asar nomi.

281. **Haj** (hadj, hajj) – Makkadagi Ka’baga ziyorat, musulmonlarning asosiy besh majburiyatlaridan biri.
282. **Halol** (“erkin”, “bog‘lanmagan”; al-Halal) shariatda ruhsat etilgan narsa, xatti-harakatlar.
283. **Haram** (arab. - sa’n, chegara; Haram) - 1) islomda muqaddas, deb hisoblangan, qon to‘kish, qurol olib yurish taqiqlangan hudud; 2) ayrim musulmon davlatlarida xonadonning xotin-qizlar yashaydigan ichki qismi.
284. **Harom** (arab. – man qilingan, taqiqlangan; al-Haram) – shariatda shubhasiz man qilingan narsa, xatti-harakatlar.
285. **Hijriy yil** (the year of Hegira, anno Hegirae, A.H.) 622-yildan boshlanuvchi qamariy taqvim.
286. **Horun** (Aaron) – Muso payg‘ambarning ukasi, ruhoniy. Yahudiylik ta’limotiga ko‘ra Horun xalq talabiga muvofiq “Oltin buzoq”ni tayyorladi. Islom dini ta’limotiga ko‘ra, Horun Muso payg‘ambarning qondosh birodari bo‘lib, kishilarni to‘g‘ri aqidaga da’vat qilgan payg‘ambar hisoblanadi.
287. **Hofiz** (Hafiz; arab. xotirasida saqlovchi). 1) Qur’on matnini yoki hadis isnodi va matnini yodlagan olim. Aburaxmon b. Mahdiy, Abu Hotim Roziylar hofiz, deb tanilganlar; 2) Islomiy manbalariga oid she’r va hikmatlarni yodlab ammoviy tarzda ijro etadigan xushovozli ijrochi. Qalandariya tariqatida Boborahim Mashrab hofiz, deb tanilganlar.
288. **Hijriy** (musulmonlar) yil hisobi Muhammad payg‘ambar va sahobalarining Makkadan Madinaga hijrat bilan bog‘liq. Hijriy yil qamariy va shamsiy yillarga bo‘linadi. Qamariy bo‘yicha u 622 yilning 16 iyulidan boshlanadi. Shamsiy bo‘yicha 622-yilning bahordagi tengkunlik kuni, ya’ni 21-martdan boshlanadi. Keyingi yil boshlari esa 1-2 kunga suriladi – 20, 21yoki 22 martga to‘g‘ri keladi.
289. **Hurlar** (arab. pok; Huri, Hur, ko‘pl. Haura) – Qur’onga ko‘ra [2,25; 3,15; 4,57; 55,56 va b.] jannatdagi yashovchi chiroyli pokiza qizlar.

290. **Hujja** (arab.ko‘pligi hujaj – isbot, dalil keltirish. Witness) – kalom, falsafa, mantiqda “dalil”, “burhon”, deb va fiqhda “shahoda”, “iqror”, deb keng ishlatiladigan istiloh.

Ilovalar

1- Ilova. O‘zbekistonda dinshunoslik va islomshunoslik tadqiqotlari dinamikasi (1992-y.–2018-y.) va rivojlanishining asosiy bosqichlari¹.



2-IIova. Dinlarni o'rganuvchi fanlar

Dinshunoslik va uning sohalari:
din sotsiologiyasi,
din psixologiyasi,
din tarixi, din falsafasi,
din antropologiyasi, din
fenomenologiyasi

Dinlarni boshqa fanlar bilan bog'liq holda
o'rganuvchi:
sotsiologiya, psixologiya, tarix,
falsafa, filologiya, antropologiya,
madaniyatshunoslik, lingvistika,
narratologiya, kabi ijtimoiy-gumanitar
fanlar

**Dinlarni
o'rganuvchi fanlar
Tadqiqot
obyektiga nisbatan
izlanuvchining
munosabati**


Xolislik

Tadqiqodchi dinlarni o'rganishda faktlarga baho bermasdan ularni qayd qiladi, xolis metodologik yondashuv tamoyiliga amal qiladi. Dinshunoslik fani metodologik xolislik prinsipi.

Subyektivlik

1) Tadqiqodchi dinni tajovuzkorona tanqid qiladi, yoki, aksincha, yoqlaydi. Ateizm va teologiyada uchraydi.
2) Izlanuvchining tadqiqot obyektiga nisbatan simpatiya yoki antipatiyasi uyg'onadi va tadqiqot natijalariga salbiy (subyektiv) ta'sir ko'rsatadi.

DINLAR TASNIFI



III-Ilova. Dinlarni tasniflash muammosi²

Dinlarni mukammal tasniflash bo'yicha amalga oshirilgan urinishlardan biri. Ko'p sonli diniy materiallarni tasniflashga yordam beradigan va ayni vaqtda yanglishishga yo'l qo'ymaydigan tamoyillarni topishga qaratilgan murakkab vazifa dinshunoslar tomonidan hali to'liq hal etilmagan.

IV - Ilova. Metodologik xolislik printsiplari³




Insonning individual diniy tajribasi yoki diniy guruh emotsional hayotining muhim tomonlarini aniqlash uchun ularning juz'iy tomonlarini fikran bir chekkaga qo'yib turib qaramoq (abstraktlanmoq) kerak. Diniy matnlarni o'rganish jarayonida ularni yaratgan muallif tafakkuri va axis-tuyg'ularidan abstraktlanmoq kerak


Diniy amaliyotning ichki jihatlari, mazmun mohiyatini tushunish uchun uni tadqiqotchi tashqi tarafdan emas, balki etiqod qiluvchi dindor shahs nuqtayi nazaidan, yani qaysidir ma'noda subyektiv holatdan kelib chiqib o'rganish lozim.

Dinning psixologik, psixolingvistik va sh.k. jihatlar tadqiqi izlanuvchidan muayyan darajali empatiyani, yani hamdardlikni talab qiladi.

Diniy matnlarni o'rganish jarayonida ularni yaratgan muallif tafakkuri va axis-tuyg'ularini inobatga olish kerak.



V-Пова. Ханafiлик an“analarining tarqalish zanjiri⁴



По'алар манбаларига ҳавола

1. Э.Ибрагимов, Г.Тулеметова, Р.Исоқжонов. – Динамика развития религиоведения в Узбекистане (на материале анализа диссертационных исследований по религиоведению с 1992 по 2017 гг. и правительственных решений). // ТИУ IX Республика илмий- амалий конференцияси. – “Тошкент ислом университети” нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2017 г. - Б. 10-14. Яна: Динамика роста исследований ислама в Узбекистане (на материале анализа диссертационных исследований религии с 1992 по 2017). // “Ислам в современном светском государстве” мавзудаги Халқаро конференция материаллари тўплами. - Бишкек, 27-29 сентябрь, 2017 й. – Б. 90-98
2. Самыгин С.И., Нечипуренко В.И., Полонская И.Н. Религиоведение: социология и психология религии. Ростов н/Д: "Феникс", 1996. – Б. 649.
3. Dinshunoslar tomonidan dinlarni tasniflash bo'yicha amalga oshirilgan urinishlardan biri. Ushbu tasnifda dualistik zardushtiylik dini yakka-xudolik dinlari qatoriga kiritilgan; buddizm dini esa – “ateistik dinlar” qatorida. Falsafiy ta'limot bo'lmish moniylik esa e'tiqod obyektiga ega bo'lgan dinlardan o'rin olgan. Timoshchuk A.S., Fedotova I.N., Shavkunov I.V. Vvedenie v religiovedenie: Uch. pos. - Vladimir, 2011. – B.131.
4. Муминов А.К. Ханафитский мазхаб в истории Центральной Азии / Под ред. С.М.Прозорова. – Алматы: “Қазақ энциклопедиясы”, 2015. С. 395

Shartli qisqartmalar

BBB (the World Fellowship of Buddhists, WFB) – Buddistlarning Butunjahon Birodarligi.

BMI (MWL the Muslim World League) - Butunjahon Musulmonlar Ittifoqi (ligasi).

BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti

BMT KTQ– Birlashgan Millatlar Tashkilotining kontrterroristik qo‘mitasi

BMT XK – Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi

DEO – diniy-ekstremistik oqimlar

DIQ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita

ISESCO (ЮНЕСКО)– Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha islom tashkiloti

JK – Jinoyat Kodeksi

YeXHT – Yevropa xavfsizlik va hamko‘rlik tashkiloti

YeAHK – Yevropa-Atlantika hamko'rligi kengashi

FTA – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Fan va texnologiyalar agentligi

OAV – Ommaviy axborot vositalari

ShHT (ШОС) – Shanxay hamko‘rlik tashkiloti

UNESCO (АЙСЕСКО) – Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti

O‘zbekiston FA – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi